

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“ TASDIQLAYMAN”

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

  
«31 » 08 2022 yil



JADID PEDAGOGIKASI

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Shahrisabz - 2022

O'quv uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2017 yil 1-martdagi №107 buyrug'i asosida tayyorlangan.

**Tuzuvchi:**

**Z. Raximov**  Maktabgacha va boshlang'ch ta'lim metodikasi kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori

**Taqrizchilar:**

**Sh. Hamrayev**



Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti  
“Maktabgacha va boshlang'ch ta'lim metodikasi” kafedrasi  
mudiri, dotsent

**Sh.U.Nurillayeva**

Qarshi davlat universiteti professori, pedagogika fanlari  
doktori

O'quv-uslubiy majmua “Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi” kafedrasi yig'ilishida (bayon № 2, «26 » 08 2022 y.) va institut Uslubiy Kengashida (bayon № 1, «30 » 08- 2022 y.) muhokama etilgan va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan.

O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i:



G'aniyev M.

Kafedra mudiri:



SH.Hamroyev

## MUNDARIJA

O‘quv materiallari.....	4
a) Ma’ruza matnlari.....	4
b) Amaliy mashg‘ulotlari.....	144
2. Mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari.....	156
3. Glossariy.....	157
4. Ilovalar.....	164
a) Fan dasturi.....	164
b) Ishchi fan dasturi.....	171
c) Baholash mezonlari.....	180
d) Qo‘srimcha materiallar.....	182

# O‘QUV MATERIALLARI

## MA’RUZALAR MATNI

### **1-Mavzu: Turkistonda ma’rifatparvarlik harakati tarixi**

#### **Reja:**

1. Jadid ma’rifatparvarlarining pedagogik merosini o‘rganish-dolzARB ijtimoiy muammo sifatida
2. Turkistonda jadid ma’rifatparvarligini vujudga kelishi tarixi
3. Jadidlarning ma’rifatparvarlik sohasida amalga oshirgan ishlari

**Tayanch tushunchalar:** jadid, ma’rifatparvarlar, ma’rifatparvarlik faoliyati, pedagogik meros, yangi usul maktabi, darslik, kutubxonalar.

#### **1. Jadid ma’rifatparvarining pedagogik merosini o‘rganish-dolzARB ijtimoiy muammo sifatida**

O’zbekiston Respublikasining mustaqilligi, uning ravnaqi ko’p jihatdan yoshlarni qanday o’qitish va tarbiyalashga bog’liq. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach barcha sohalarda bo’lgani kabi xalq ta’limi tizimida ham tub o’zgarishlar qilinmoqda.

O’zbekiston Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev 2017 yil “Zamon bilan hamnafas” ma’ruzasida “...yana bir buyuk yurtdoshimiz Abdulhamid Cho‘lponni olaylik. XX asr boshlaridagi millatimiz tadqirini, uning boshiga tushgan fojialarni, ozodlik va erkinlik qadrini hech kim bu mumtoz shoirimiz kabi yuksak pardalarda kuylagan emas.”-deb ta’kidlagan edi. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev “Go‘zal va betakror o‘lka” ma’ruzasida “...milliy uyg‘onish davrining yetuk namoyandalaridan biri, Vatan va xalq istiqlol uchun jonini fido qilgan ulug‘ bobomiz Ibrat domla haqida to‘xtalishni o‘rinli”- deb topganlar. Shuningdek, “Ilmu ma’rifat, dinu diyonat, bunyodkorlik bilan nom qozongan xalq” nomli ma’ruzasida: ”Bu ko‘hna yurtda tug‘ulib ijod qilgan Ahmad Donish, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev, Sadriddin Ayniy, singari ko‘plab ma’rifat fidoyilarining ibratli hayoti bugungi kunda ham yurtimizda yangi jamiyat barpo etish, barkamol avlodni tarbiyalash, ma’naviyatimizni yuksaltirishda bizga beqiyos kuch bag‘ishlab kelmoqda” –deb ta’kidlab o‘tganlar.

O‘zbekiston Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev “Samarqand-yer yuzining sayqali” mavusidagi ma’ruzasida samarqandlik jadid ma’rifatparvarlarining pedagogik merosiga to‘xtalib “Samarqand tuprog‘ida voyaga yetgan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Hoji Muin, Saidahmad Siddiqiy, biz yig‘ilib turgan manashu Kattaqo‘g‘on zaminidan yetishib chiqqan Abdulhamid Majidiy singari o‘nlab ma’rifat fidoyilarining qoldirgan o‘lmas merosi bugungi kunda ham ma’naviyatimizni yuksaltirish yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda”, deb yozganlar.

Demak, jadidlarning hayoti, faoliyati, boy pedagogik merosidan hozirgi kunda ta’lim –tarbiya jarayonida foydalanish dolzarb vazifadir. Shu sababli, mazkur monografiyada Turkistonda ma’rifatparvarlik harakati va ularning boshlang‘ich sinflar uchun yozgan darsliklari, Turkiston jadidlarining hayoti va pedagogik faoliyati, Maxmudxo‘ja Behbudiy, Saidrasul Aziziy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Qori Nizomiddin bin Mullo Husayn, Akbarzoda G‘ulomiddinlarning pedagogik merosidan boshlang‘ich sinflarda foydalanish imkoniyatlari, boshlang‘ich sinf darslari va sinfdan tashqari ishlar jarayonida jadidlar merosidan foydalanish usul va shakllari, darslardan, tadbilardan namunalar berilgan. Monografiya o‘qituvchilar, talabalar va malaka oshirish tinglovchilari uchun mo’ljallangan.

## **2.Turkistonda jadid ma’rifatparvarligini vujudga kelishi**

Turkistonda jadid ma’rifatparvarlari harakatining vujudga kelishi, rivojlanishida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Fayzulla Xo‘jayev, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Sadriddin Ayniy, Abdulla Avloniylarning asarlari, shuningdek, o‘scha davrdagi gazeta va jurnallardan “Sadoyi Turkiston”, “Turkiston viloyatining gazetasi”, “Oyna”, “Turon”, “Sho‘ro”, “Samarqand” kabilar muhim manba hisoblanadi. Jadidchilik harakatining yuzaga kelish va rivojlanish tarixini, ularning ijtimoiy-siyosiy faoliyati va boy adabiy merosini tarixchi va adabiyotshunos olimlardan M.Vahobov, X.Vohidov, I.Mo‘minov, A.Qayumov, Qori Niyoziy, B.Qosimov, N.Karimov, U.Dolimov va boshqalar ma’lum darajada o‘rganganlar.

Jadid ma’rifatparvarlarining faoliyati va ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlarini E.A.Ablayev, A.Boboxonov, M.Maxsumov, Z.Mirtursunov, A.Muhammadjonov, S.Rajabov kabi pedagog-olimlar o‘rganganlar. Bu ilmiytadqiqot ishlari asosida doktorlik, nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilingan, risola va ilmiy maqolalar chop etilgan.

Turkistonda maktablar, jadidlarning ma'rifatparvarlik faoliyati, pedagogik g'oyalari bo'yicha A.Abdurazzoqov, M.Tenyaksheva, K.Xudoybergenov, T.T.Chedjemova, I.A.Shirmatovlar ham ilmiy-tadqiqotlar o'tkazganlar.

Yangi usul maktabi tarafdarlarining faoliyati va pedagogik qarashlarini o'rganish asosida bir qator asarlar yuzaga keldi. Y.Abdullayev, M.Usmonov, M.Fattayev, A.G'aniyev va boshqalarning ishlari shular jumlasidandir. Bu asarlarda yangi usul maktabi tarafdarlari boy pedagogik merosga ega ekanligini isbotlashga urinish bilan birga, sho'ro mafkurasi ta'siri ostida biryoqlama tasvirlaganlar ham uchraydi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, jadidlarning ma'rifatparvarlik faoliyati va ta'lim-tarbiya to'g'risidagi qarashlari haqida N.Avazov, D.Ahatova, Z.Ahrorova, R.Barakayev, M.Xudoyqulov, N.Irgasheva, M.Inoyatova, Sh.Hamroyev, Sh.Negmatovlar dissertatsiyalarini himoya qildilar.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, yangi usul maktablari, uning tarafdarlari to'g'risida kengroq ma'lumotlar berila boshlandi. Bir qator o'quv qo'llanmalariga, darsliklarga kiritila boshlandi. Shunga qaramasdan jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik, ayniqsa, axloqiy tarbiyaga doir asarlaridan umumta'lim maktablarida, chunonchi, boshlang'ich sinflarda foydalanish muammosi hali-hanuz yetarlicha yechilganicha yo'q.

Professor H.Boltaboyev «Fitrat - Bedilshunos» maqolasida ma'rifatparvarlar faoliyatini chet el olimlari, xususan, g'arbda, Ellen Karrere d'Enkous, A.Bennigson, Xisoa Ko'matsu kabi olimlar o'rganganliklari haqida ma'lumot beradi.

Ma'rifatparvar M.Behbudiyning pedagoglik faoliyatini O'zbekistonda bir qator olimlar, jumladan, H.Saidov, N.Saidov, Z.Ahrorova, shuningdek, Tojikistonda R.Hodizoda, Germaniyada I.Boldauf, AQShda E.Olvord kabi olimlar o'rganganlar.

XIX asr oxiri-XX asr bosqlarida dastlab Qrimning jahonga mashhur bo'lган Boqchasarov shahrida keyinroq, esa Qozon, Kavkaz va Turkistonda vujudga kelgan va rivojlanib, takomillashib borgan yangi usul maktablari o'zidan avvalgi o'quv-o'qituv ishlaridan ancha farqli, ancha ijobiy bo'lib, Markaziy Osiyo, chunonchi o'zbek, Kavkaz, Qrim, shuningdek, Rossiyaning janubi-sharqiy o'lkalaridagi chechen va ingush, tatar, boshqird, qalmiq, chuvash, yoqud kabi musulmon xalqlari pedagogikasi tarixida o'ziga xos o'ringa ega. Bu xalqlar pedagogika tarixini o'rganishda yangi usul maktabi tarafdarlarining ma'rifatparvarlik faoliyati va ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlarini chetlab o'tish mumkin emas. Bu harakatning tarafdarlari Turkistonda ham anchagina bor

bo'lib, uning yirik namoyandalari: Mahmudxo'ja Behbudiy (1878-1919), Fayzulla Xo'jaev (1896-1937), Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931), Abdurauf Fitrat (1884-1939), Ishoqxon Ibrat (1862-1937), Saidrasul Aziziy (1866-1933), Abdulla Avloniy (1878-1934), Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929), Saidahmad Siddiqiy (1864-1927), Sadriddin Ayniy (1878-1954), Abduqodir Shakuriy (1875-1943), Ismatulla Rahmatullaev (1883-1962) kabi ma'rifatparvarlar edi.

### **3. Jadidlarning ma'rifatparvarlik sohasida amalga oshirgan ishlari**

Jadid ma'rifatparvarlari faqat yangi usuldagagi maktablar ochganlar deyish noo'rin bo'lur edi. Ze'ro, ular o'lka ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida faol ishtirok qilib, ma'rifatparvarlik sohasida asosan quyidagi ishlarni amalga oshirganlar:

- Turkistonda yangi usul maktabalarini ochilishi bevosita ularning faoliyati bilan bog'liq;
- yangi usul maktabi tarafdorlari o'sha davr talabiga javob bera oladigan darslik kitoblarini yozganlar, nashr qildirganlar;
- bir qator ma'rifatparvarlar o'z hisoblaridan bosmaxonalar tashkil qildilar;
- Turkiston xalqlarining siyosiy ongini oshirishga, o'lka ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishga undash uchun bir qator gazeta va jurnallar tashkil qilganlar;
- yangi usul maktabi tarafdorlari Turkistondagi matab-maorif ishlarni takomillashtirish va rivojlantirish uchun ko'plab "xayriya jamiyat"larini tashkil qilganlar. Bu jamiyatlar orqali beva-bechoralarga, kambag'al oilalarga va ularning bolalariga moddiy hamda ma'naviy yordam berib turganlar;
- Turkistondagi bir qator shaharlardan o'quvchilarni tanlab olib o'sha davrda dunyoning rivojlangan Germaniya va Turkiya davlatlariga ta'lim olishga yuborganlar. Bu davlatlarga o'qishga borgan toliblarni moddiy ta'minlash uchun jamg'armalar tashkil qilinib bir qator qulayliklar yaratib bergenlar;
- jadidlar o'lkada keng ko'lamda madaniy-oqartuv ishlarni olib borganlar;
- kutubxonalar, kitob magazinlarini ochganlar;
- Markaziy Osiyo davlatlari tarixida teatr truppalarini tashkil qilish, bu truppalar uchun sahna asarlarini yozish va aktyorlar, rejessyorlarni tayyorlash bevosita yangi usul maktabi tarafdorlarining nomi bilan bog'liq.

Markaziy Osiyo pedagogikasi tarixida yangi usul maktabi tarafdorlarining ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, ma'rifat darg'alari o'z qarashlarining badiiy-adabiy, tarixiy va pedagogik asarlarida aks

ettirganlar. Ma'rifatparvarlarning pedagogik, ayniqsa, axloqiy tarbiyaga doir merosini o'rganishda ularning boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallab yozilgan axloqiy-ta'limiy darsliklari muhim o'rinni egallaydi. Asrimiz boshlarida yaratilgan darsliklardan Maxmudxo'ja Behbudiyning "Kitobat-ul atfol" ("Bolalar maktubi"), Munavvarqori Abdurashidxonovning "Adibi avval", "Adibi soniy", Sadreddin Ayniyining "Taxisib us-sibiyon", Hamza Hakimzoda Niyoziyining "Qiroat", "Engil adabiyot", "O'qish kitobi", Muhammadjon ibn Rahimjonning "Odobli bola", Abdulla Avloniyning "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Turkiy guliston yoxud axloq", "Maktab gulistoni", "Adabiyot yoxud milliy she'rlar", Ishoqxon Ibratning "Jome'ul hutut", Saidrasul Aziziyning "Ustodi avval", Saidahmad Siddiqiyning "Aynul adab" ("Odob ko'zi"), "Ganjinomai hikmat" ("Hikmat xazinasi"), Abduqodir Shakuriyning "Rahnomai savod" ("Savod chiqarish rahbari"), "Jome'ul hikoyat" ("Hikoyatlar to'plami"), Ismatulla Rahmatullaevning "Alifbe ta'limi", Nizomiddin bin Mullo Husaynning "Ilmi axloq" kabi darsliklari Turkistondagi yangi usul maktablarida keng ko'lamda foydalanilgan. Bu darsliklarni nafaqat kichik yoshdag'i o'quvchilar balki ularning opa-akalari va hattoki, ota-onalari ham sevib mutolaa qilganlar. Bu darsliklardan ma'naviy-ruhiy ozuqa olganlar. Bizningcha, yangi usul maktabi tarafdoqlarining pedagogik asarlarini bunchalik shuhrat topishi va mashhur bo'lishiga quyidagilar asosiy sabab bo'lgan:

- jadid ma'rifatparvarlari tomonidan yozilgan darsliklarda islom dini, islom falsafasining asosini tashkil qiluvchi Qur'oni Karim va Muhammad payg'ambarning hayot faoliyati hamda diniy, ahloqiy ko'rsatmalarini o'z ichiga oluvchi hadisu shariflardan mohirona foydalanib va ularga asoslanib yozilganligi, darsliklarda Qur'oni Karim sur'alaridan, Hadisi Sharifdan namunalar olinganligi uchun bu darsliklar keng xalq ommasiga ma'lum va mashhur bo'lgan;

Bu davrda butun Turkistondagi kabi qoraqalpoq o'lkasida ham maktab va maorif sohasida yangicha qarashlar davri boshlandi. Jamiyatda milliy uyg'onish, mustaqillik uchun kurashga intilish kabi g'oyalarni ilgari surgan ma'rifatparvarlar yetishib chiqdilar. XX asrning boshlarida Qoraqalpog'iston maktablarida darslik va o'quv qo'llanmalar yetishmagani sababli qozoq maktablari uchun yaratilgan A.Baytursinovning "Alifbo", "O'qish kitobi" (1914) darsliklari ba'zi o'zgarishlar bilan qoraqalpoq tiliga o'girilib o'rganilar edi, S.Majidov esa turkiy xalqlarda keng tarqalgan arab alfavitni namunasini ijodiy o'rganib, arab harfi asosida Ahmed Baytursinovning 1912 yilda qozoq alfavitni, Yeshanali Arabayev 1924 yilda qirg'iz alfavitini (alifbosini) qanday

ishlab chiqqan bo‘lsa, **S.Majidov** ham qoraqalpoq tili fonetikasiga moslashtirib qoraqalpoq alfaviti va “Alifbe” darsligini yaratdi.

S.Majidov yaratgan darsliklar qoraqalpoq xalqi uchun olamshumul voqeа bo‘lib, ular qoraqalpoq milliy yozuvida chop etilgan edi. Uning qoraqalpoq xalqini savodli qilish maqsadida “Alifbo”, “O‘quv kitobi”, “Yegdalar (“Kattalar savodi”) (1925) kabi maktab darsliklari va dasturlari amaliyotda foydalanildi.

- Sharq, chunonchi, turkiy xalqlarning boy pedagogik merosi: ertak, maqol, topishmoq va didaktik hikoyalardan unumli foydalanilganligi va darsliklarda namunalar berilganligi xalqqa manzur bo’lgan. Bu darsliklar qimmatini oshirgan;

- turkiy, xususan, o’zbek xalqining bir necha asrlarga borib taqaluvchi urfodatlari, qadriyatları va an’analari, o’ziga xos xususiyatlarga asoslanib yozilganligi, bu darsliklarning o’qimishliliginı oshirgan, keng kitobxonlar ommasining ma’naviy-ruhiy holatiga mos kelgan;

- jahon xalqlari pedagogikasining o’lmas asarlaridan qilingan tarjimalarni darsliklarda foydalanishi muhim ahamiyatga egadir.

## **2-Mavzu: Turkistonlik jadidlarning boshlang‘ich sinflar uchun yozgan darsliklari**

### **Reja:**

- 1.I.Gasprinskiy jadid darsliklarining asoschisi.
  - 2.Turkiston jadidlarining o’zbek tilida tuzgan darsliklarini mazmun-mohiyati.
  - 3.Jadidlarning tojik va qoraqalpoqlar uchun tuzgan darsliklari.
- Tayanch tushunchalar:** I.Gasprinskiy, darslik, jadid, darsliklarini mazmun- mohiyati.

### **1.Ismoil Gasprinskiy jadid darsliklarining asoschisi**

Qirim tatar xalqining buyuk farzandi, mashhur pedagog **I.Gasprinskiy** darsliklar yozishda turkistonlik ma’rifatparvar- pedagoglarga namuna bo‘ldi.

Uning «Xo‘jai sibyon» («Bolalar muallimi») mashhur. Bu darslik 1889 yilda yozilgan bo‘lib, 4 ming nusxada chop etilib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun o‘qish kitobi hisoblangan. I. Gaspirinskiyning 1898 yilda yaratgan «Rahbari muallimun yoki muallimlarga yo‘ldosh» risolasi jadid maktablari uchun tuzilgan ilk o‘quv-uslubiy qo‘llanmadir. U qo‘llanmada yangi ta’lim usuli-“usuli jadid”ning nazariy-metodik jihatlarini asoslab berdi hamda o‘quvchilarga savod o‘rgatishning ayrim qoidalarini ishlab chiqdi. Bu qo‘llanmada quyidagi qoidalarni ishlab chiqqan:

- butun alifboni birdan o‘rgatib, bildirmoq og‘irdur. Ibtido (boshda) uch, besh harf tushuntirib, zabit etmoq, ancha yengildir;
- birinchi darsdan shogirdlarni yozishga o‘rgatish yaramaydi;
- darslar muayyan soatlarga, qismlarga ajratib, («hissa-hissa») o‘rgatilishi lozim;
- o‘quvchi bir darsni o‘zlashtirmagunicha ikkinchisiga o‘tmaslik kerak;
- harflar bilan tanishtirganda, ular haqida kengroq ma’lumot berilgani yaxshi. Har bir harfning ohangi, talaffuzini anglatish lozim;
- islomiy harflarning har biri so‘zdagi o‘rinlariga qarab muayyan shaklga ega bo‘lgani uchun o‘qituvchi buni butun o‘qish davomida diqqatidan qochirmasligi kerak.

I.Gasprinskiy mакtabxona va madrasalarni isloh qilish, ularda dunyoviy fanlarni o‘qitish masalasini ko‘tarib chiqdi. U diniy fanlar arab, fors, rus tili, tibbiyat, hikmat, kimyo, nabolat, nujum, handasa kabilarni o‘rgatish lozimligini ta’kidlaydi.

Ma’lumki, Ismoil Gasprinskiy 1884 yil Boqchasaroyda birinchi jadid maktabini ochdi. U jadid maktablari uchun tuzgan darsliklarida yangi usul maktablarining qurilish reja loyihasidan boshlab sinf ichki jihoz uskunalari, o‘qituvchining sinfda turadigan joyi, o‘rindiqlarning joylashish tartibi, bo‘r, doska va shu kabilar haqida batafsил to‘xtaladi.

Ismoil Gasprinskiy «Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo‘ldosh» qo‘llanmasida usuli jadid maktablarining muhimligi, mohiyati, qoida va tartiblari, o‘tiladigan darslar, ularning mazmun yo‘nalishi, kunlik, haftalik darslar, soatlar, tanaffuslar, ta’tillar, imtihonlar, shuningdek, moliyaviy ta’milot, muallim va uning sifatlari haqidagi zarur ma’lumotlar ustida to‘xtalgan. U yuqoridagi ma’lumotlarni bir tizimga soldi.

O‘zbek ma’rifatparvari Mahmudxo‘ja Behbudiy I.Gasprinskiyning maorif sohasidagi ishlarini Turkistonda davom ettirdi.

Ma'rifatparvar I.Gasprinskiyning pedagogik faoliyatidan Turkistonda ham keng foydalana boshlandi. U maorif tizimi oldida bir qator muammolar mavjudligi, ularni qay tariqa yechish lozimligini tushuntirdi, ya'ni mакtabning madrasadan ajralib chiqishi, boshlang'ich sinflar uchun alohida o'qituvchilar tayyorlanishi, o'qituvchining oylik maosh bilan ta'minlanishi, o'qish va yozishni eski «hijjalama» yo'li bilan emas, balki yangi «Alifbo» kitoblari vositasida o'rgatishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Bundan tashqari, u maktablarda faqatgina o'qish emas, yozuvga ham ahamiyat berish zarurligi, qizlar uchun alohida maktablar ochib, ularda o'qish va yozishga e'tibor qaratilishi, o'qitish ma'lum bir dastur asosida va darsliklar vositasida olib borilishi lozimligini ta'kidlagan edi.

1893 yil Ismoil Gasprinskiy amir Abdullaxonning roziligi bilan Buxoroda birinchi jadid maktabini ochadi. 1903 yilga kelib esa Buxoroda jadid maktablarining soni 6 taga yetgan.

## **2.Turkiston jadidlarining o'zbek tilida tuzgan darsliklarini mazmun-mohiyati**

Ma'lumotlarga ko'ra, 1908 yilda Farg'onada 30 dan ortiq jadid maktablari bo'lib, ularda 3 mingta bola tahsil olgan. 1911 yilda 11 ta, 1913 yilda esa 9 ta jadid mакtabi faoliyat ko'rsatgan. Jadid maktablarida savod o'rgatish tovush metodi bo'yicha amalga oshirilgani, shuningdek, o'qitishning o'zi eski usul maktabidan farqli ravishda ongllilikka asoslanganligini ta'kidlaydi.

XX asrda ko'pchilik xalq ommasini savodxon qilish va ayni vaqtida yangilanayotgan zamonning munosib farzandlarini tarbiyalash masalasi kun tartibiga qo'yilgan edi. Rossiya va uning tobelligida yashovchi o'nlab millatlarning tutqin, turg'un hayotida ham qo'zg'alish boshlandi. Turkistonda ham qisqa muddatda o'zbek ma'rifatchilarining butun bir avlodni yetishib chiqdi.

Jadid maorifchilari mamlakat rivoji, millatning taraqqiyoti, o'zlikni anglashda tarix va geografiya fanlarining ahamiyatiga alohida e'tibor qaratdilar. Ular dinga emas, balki diniy aqidaparastlikka qarshi bo'ldilar. **M.Behbudiy** «Tarix va jo'g'rofiya», «Turkiston tarixi», «Sart so'zi majhuldir» kabi asarlariда faqatgina Vatan tarixini emas, Yevropa va jahon mamlakatlari tarixini bilish zarurligi haqida fikr yuritgan.

**Munavvarqori Abdurashidxonov** (1878-1931)- 1904-1905 yillarda Toshkentning eski shahar qismida (Shayxontohur) ilk yangi usul maktabini tashkil qildi va boshlang'ich ta'lim metodikasini ishlab chiqdi.

Munavvarqori maktabida o'zining «Adibi soniy», «Xavoyiji diniya» (1-2-qism), «Tajvid», «Adabiyoti daxrun najat» o'qish kitobi, Hanofiyuning «Tarixi anbiyo», «Muxtasar jug'rofiya», Shaposhnikov va Valsovlarning «Hisob

masalalari» to‘plamining tarjimasi, A.Maqsudovning «Dunyo ma’lumoti» (tibbiyot bo‘yicha), Faxruddinovning axloqdan «Nasihat» darsligi, Mahmudovning «Durus shifaxiya» (arab tilida), A.Abdushukurovning «Jamaul hikoyat» (fors tilida) darsliklaridan foydalanilgan.

Toshkent jadidlariga ma’naviy rahbarlik qilgan taniqli ma’rifatparvar o‘z amaliy faoliyati, darslik va maqolalarida, ta’limning tarbiyaga yo‘naltirilishiga alohida e’tibor berdi, ko‘rgazmalilikdan unumli foydalanishni tavsiya etdi. Darsliklarida o‘quvchilar bilimini mustahkamlash maqsadida, takrorlash mashqlari berishni taklif qildi va bu tamoyildan o‘zi unumli foydalandi.

M.Abdurashidxonovning «Adibi avval» (1907), «Adib us-soniy» (1907), «Usuli hisob», «Tarixi qavm turk», «Tajvid» (1911), «Havoyiji diniya», «Tarixi anbiyo», «Tarixi islomiya» (1912), «Yer yuzi» (1916-17), 4 qismidan iborat «O‘zbekcha til saboqligi» (Shorasul Zunnun va Qayum Ramazon bilan birga, 1925-26 yillarda yozilgan, 4-qismi o‘sha vaqtgagi mahalliy hukumat tomonidan musodara qilingan) kabi bir qator darsliklari mavjud.

M.Abdurashidxonovning bizga ma’lum bo‘lgan va hozirgi geografiya ta’limiga asos bo‘la oladigan darsliklari «Adib us-soniy» va «Yer yuzi» bo‘lib, «Adib us-soniy» jadid maktablarining birinchi sinf o‘quvchilari uchun alifboden keyingi o‘qish (qiroat) kitobidir. Shuningdek, «Adib us-soniy» muallif tomonidan yozilgan ilk geografik darslik hisoblanadi, unda tabiiy geografiyaga oid ko‘pgina ma’lumotlar keltirilgan. Geografiya fanining o‘sha davrdagi ta’rifi, obyekti, predmeti, yer sharining shakli, yer yuzasining tuzilishi va uni tashkil etuvchi materiklar, orollar, okean va dengizlar haqida batafsil ma’lumotlar beririlgan. Munavvarqori darslikning «Jo‘g‘rofiya» qismida shunday yozadi: «Yer bizning ko‘zimizga tekisga o‘xshab ko‘rinsa ham aslida tekis emas. Balki, po‘rtaholga o‘xhash yumaloqdir. Avvallarida «Yer ho‘kizning shoxida turadur», degan so‘zlarga har kim ishong‘on bo‘lsa ham, hozirgi zamonda andog‘ so‘zlarning aslsizligi har kimg‘a ma’lumdir. Yer hech narsaning ustida turmas. Balki, havoning o‘rtasida muallaq turadur» deb yozadi.

Darslik («Qiroat» kitobi) da yuqoridagilardan tashqari, taqvim (kalendor), fasllar, hayvonlar, o‘simpliklar hamda atmosfera va undagi jarayonlar (bulutlar)ga oid daliliy ma’lumotlar keltirilgan. Darslikdan inson va tabiatning o‘zaro munosabatlari, odam ona zamin farzandi ekanligi, atrof borliqni asrabavaylash uning burchi ekanligi haqida qisqacha odobnoma shaklidagi hikoyalar ham o‘rin olgan.

Doimo jadidchilik harakati haqida fikr yuritganda, uning milliy ozodlik harakatida tutgan o‘rni, madaniyat va san‘at sohasidagi ishlari, teatrler tashkil qilgani, gazetalar nashr etganiga e’tibor qaratiladi. Ammo bu harakat vakillari faoliyatining asosiy qirralaridan biri mакtablar uchun darslik va o‘quv qo‘llanmalari yaratganliklari, yosh avlodning savodli, ilmli bo‘lishiga katta hissa qo‘shganliklarida ekanligini ham ta’kidlash joizdir. Ta’lim-tarbiya ilmida ulkan mакtab yaratgan ma’rifatparvar pedagoglardan biri Abdulla Avloniydir.

Ma'rifatparvarlar o'z davrida butunlay yangicha pedagogik g'oyalarni ilgari surdilar. Bu jarayonda Abdulla Avloniy o'zining shaxsiy o'qituvchilik tajribasi, dolzarb ilmiy pedagogik risolalari, darslik hamda o'quv qo'llanmalari bilan ishtirok etdi.

U o'zbek ta'lim-tarbiya tizimiga birinchilardan bo'lib «pedagogiya», ya'ni pedagogika atamasini olib kirib, jadid tarbiyashunosligini tizimlashtirishga intildi.

Taniqli o'zbek adibi Oybek Munavvarqorining Toshkentdag'i maktabida o'qigan. U o'quvchilik davrlarini eslab, o'quv dasturidan diniy ta'limot; muqaddas an'analar; islom ta'limoti tarixi; arab grammatikasi; meros huquqi; arifmetika; butunjahon jug'rofiyasi; islom tarixi; muqaddas tarix; arabiyl va turkiy imlo kabi fanlar o'rin olganligini ta'kidlaydi.

O'zbekistonda o'quv-metodik talablarga javob beradigan darslik yaratish sohasida ilk qadamni ilg'or pedagog Saidrasul Aziziy qo'ydi. U 1902 yilda o'zbek tilida yangi «savtiya» usulida «Ustodi avval» alifbesini yaratdi. Albatta, birinchi darslik bo'lganligi uchun unda bir qator kamchiliklar bo'lishi tabiiydir. Shundan so'ng Munavvarqori Abdurashidxonov 1907 yilda «Adibi avval» alifbe darsligini yaratdi. 1917 yilgacha Sayidrizo Alizodaning «Birinchi yil», Abdulvahob Ibodiyning «Tahsili alifbo», Rustambek Yusufbek o'g'lining «Ta'limi avval», Abdulla Avloniyning «Birinchi muallim» kabi bir qator alifbe darsliklari nashr qilindi va maktablarda o'qitildi.

O'zbek ma'rifatparvari **Muhammadrasul Rasuliy** (1884-1935) 1907 yil 1 oktabrdan boshlab Beshyog'och dahasidagi Arpapoya mahallasida 4-rus-tuzem maktabining o'zbekcha sinfida muallimlik faoliyati bilan shug'ullangan bo'lib, 1917 yilgacha rus-tuzem maktablari, 1917 yildan keyin esa sovet maktablarida ishlagan. Uning bir qator darsliklari singari «Rahbari forsyi» darsligi ham Toshkentda bir necha marta (1911, 1914, 1917-yillarda) chop etilgan.

Darslikning birinchi nashrida ushbu kitob «Makotibi ibtidoiyaning 3-4-sinf shogirdlarina» mo'ljallanganligi ko'rsatilgan. Darslik o'quvchilarga fors tilini o'rgatishga mo'ljallangan bo'lib, fors tili grammatikasiga oid bir qancha masalalar bayonida o'zbek tili grammatikasiga doir masalalar ham yo'l-yo'lakay eslatib o'tilgan. Muallif ushbu darslikni tuzishda qiyosiy metoddan foydalangan.

Muhammadrasul Rasuliyning «Bolalar bog'chasi» darsligi ham mavjud bo'lib, u eski o'zbek yozuvida nashr etilgan. Darslik 1917 yil Toshkentda «Osiyo» nashriyotida chop qilingan bo'lib, 48 betdan iborat. Darslikning birinchi betida dastlab muallifning ism-sharifi, kitobning nomi rus va eski o'zbek yozuvida berilgan. Uning dastlabki sahifasida quyidagi gaplar mavjud: «Ibtidoiy maktablarning birinchi sinf shogirdlari uchun turli kitoblardin olinub,

ochuq til va yengil tartiblar ila yozilmish musavvar (rasmli) qiroat kitobidir. Noshiri Turkiston kutubxonasi. Takror tabaa noshirlar shirkatila murattabiga (tartibga keltirilgan) maxsus, ikkinchi ta’bi (nashri), 1336-hijriy-qamariy, 1917 melodiy-shamsiy».

Darslik boshlang‘ich sinflar uchun o‘qish kitobi hisoblangan. Ushbu rasmli darslikdagi hikoyalar bir-birini mazmunan to‘ldirib, boyitib boradi. Darslikda Sharq an'anaviy uslubi qo‘llanilib, hikoyalar nihoyasida baytlar berilgan. Har bir hikoya tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, bolalar yoshi va dunyoqarashiga mos sodda bayon uslubida yozilgan. Darslikda integratsiya tamoyillaridan unumli foydalanilgan bo‘lib, unda bolalarni axloq-odobga o‘rgatish, turli fan sohalaridan boshlang‘ich ma’lumotlar berishga harakat qilingan. Ushbu darslik o‘quvchilarning dunyoqarashi va fikrlash doirasini rivojlantirishga qaratilganligi bilan diqqatga molikdir.

Mashhur yozuvchi va pedagog **Sadriddin Ayniy** «Buxoroi sharif birodarligi» jamiyatining taklifi bilan yangi milliy maktablari uchun «Tahzib us-sibyon» («Pok bola») o‘qish darsligini tuzgan bo‘lib, u ikki marta (1909; 1917 yillarda nashr etilgan. «Tahzib us-sibyon» kitobi adabiy-didaktik xarakterda ega bo‘lib, o‘quv materiallari bolalarga qiziqarli sodda tilda bayon etilgan, ular mazmuni o‘quvchilar yoshiga mos. O‘scha zamon sharoiti va talablariga ko‘ra, kitobda diniy ma’lumotlar ham berilgan. «Tahzib us-sibyon» darsligida muallif, bolalarni rostgo‘y va vijdonli bo‘lishga targ‘ib qiladi.

Bolaning shakllanishida oila tarbiyasi muhim o‘rin tutadi. Muallif bir hikoyada namuna usulidan foydalanib, o‘quvchilar hayotida ro‘y bergen voqeа misolida o‘quvchilarni halol bo‘lishga undash bilan birga, bunda oila tarbiyasi, onaning namunasi katta o‘rin tutishini ko‘rsatib beradi. Quyida ushbu hikoyadan parcha keltiramiz: «Bir kuni Tosh ismli bola maktabdan qaytayotganida o‘tkinchi kishi qopchig‘ini tushirganini ko‘rdi, uni olib uyiga keldi va onasiga ko‘rsatdi. Onasi achchiqlanib aytdi: «Buning egasini tezroq top va unga qopchiqni qaytar, aks holda o‘rtoqlaring orasida seni o‘g‘ri deb e’lon qilaman». Tosh qopchiq egasini topib, uni puli bilan qaytarib berdi».

XX asr boshida darslik yaratgan pedagoglar, ziyorolar darsliklardagi matnlarni o‘z hayotiy tajribalaridan olganlar. Hikoya, rivoyat singari she’r va to‘rtliklar ham bitib, darsliklarga kiritganlar. Jumladan, Sadriddin Ayniy ham «Tahzib us-sibyon» darsligining «Aqli bola» bobida bolalarni sahiylik ruhida tarbiyalovchi she’r yozadi.

Muallif «Tarbiya ko‘rgan bola», «Yaxshi, odobli bola» boblarida yoshlikdan o‘quvchilarda madaniy xulqni qaror toptirish, har bir o‘quvchining tozalikka rioya qilishi lozimligi haqida fikr yuritadi.

Bundan tashqari, darslikda axloqiy tarbiya, ota-onani hurmatlash to‘g‘risida fikr yuritilib, ushbu yo‘nalishda yuksak badiiy saviyaga ega bo‘lgan savol-javob shaklidagi she‘r taqdim etilgan. S.Ayniy oilada mehr-oqibat yuqori darajada bo‘lishini xohlaydi. Darslikda insonparvarlik ruhidagi hikoyalar bilan bir qatorda, estetik tarbiya va o‘yin faoliyati bilan bog‘liq qisqa-qisqa matnlar ham berilgan.

«Tahzib us-sibyon» keng qamrovli darslik hisoblanib, unda barcha fanlar, ularning inson hayotidagi o‘rni beqiyosligi haqida fikr bayon qilinadi. Muallif har bir bola o‘zi o‘qish va yozishni bilishi shart deb hisoblaydi. Darslikda bolalar hayoti, tabiat, maktab, uy hayvonlari va parrandalarga oid bolalarning yoshiga mos qiziqarli hikoyalar mavjud.

Sadriddin Ayniy kitobda o‘qituvchilar uchun metodik yo‘l-yo‘riqlar ham taqdim etgan bo‘lib, darslikning ayrim boblari o‘qituvchi va uning vazifalariga bag‘ishlangan.

S.Ayniyning «Tahzib us-sibyon» darsligidan tashqari, «Yoshlar tarbiyasi» darsligini 1909 yilda chop etganligi ma’lum.

Turkistonda jadidchilik harakatining otasi **M.Behbudi** o‘zbek va tojik tillarida «Muntaxabi jug‘rofiyai umumiyy», «Kitobat ul-atfol», «Muxtasari tarixi islom», «Madxali jug‘rofiyai umroniy», «Muxtasar jug‘rofiyai Rusiy» shuningdek, «Hisob» nomli darsliklar yaratgan. U o‘zi yaratgan darsliklarda didaktikaning eng muhim tamoyili bo‘lgan onglilikka alohida e’tibor qaratgan. M.Behbudi «Kitobatul-atfol» (1908 y.) darsligida o‘quv matnlari bayonida fors, arab va turk tilidagi so‘zlarning aralashtirib berilishi «bola zehnini ochmay, balki fikrining yo‘q bo‘lishiga sabab» bo‘lishini aytib, matn tuzdirishning grammatik, stilistik, tarbiyaviy jihatlarini yoritgan, xatlardan namunalar keltirgan .

**Abdulla Avloniy** (1878-1934) Toshkentdaggi Mirobod, so‘ngra Degrez mahallasida ochgan mакtabida tovush usulida bolalarni o‘qitdi hamda ularning yoshiga mos darsliklar yozdi. Uning «Birinchi muallim» darsligi boshlang‘ich ta’limga qo‘shilgan qimmatli hissa bo‘ldi.

Buyuk ma’rifatparvar 1908-1909 yillardan o‘sha davrlarda darslik va o‘quv qo‘llanmalarga ehtiyoj kattaligini hisobga olib, darslik yaratishga kirishdi. Uning bir qator darslik va o‘quv qo‘llanmalarini, jumladan 1911 yilda «Birinchi muallim», 1912 yilda «Ikkinchi muallim», 1913 yilda «Turkiy Guliston yoxud

axloq», 1909-1915 yillarda 4 jildli «Adabiyot yohud milliy she’rlar», 1915 yilda «Maktab guliston», 1917 yilda «Mardikorlar ashulasi» va 1933 yilda 7-sinf o‘quvchilari uchun «Adabiyot xrestomatiyasi» kabi kitoblari shular jumlasidandir. Pedagogning darsliklarida milliy iftixor, milliy tuyg‘u, milliy g‘urur yaqqol ko‘rinadi. Abdulla Avloniy darsliklarida milliylikka tayanib, ijodiy izlanish, o‘qish va o‘qitishning yangi shakl, uslub va vositalarini qidirib topish o‘qituvchining eng muhim sifatlaridan biri deb hisoblaydi. Uning darsliklari o‘zbek milliy didaktikasi tarixida muhim o‘rin egallaydi. U o‘z darsliklarida oddiydan murakkabga borish usuliga amal qiladi, o‘quv materiallarini oddiy tilda, yengil, qiziqarli bo‘lishiga e’tibor beradi, matn tanlashda bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga oladi.

Ustoz yaratgan darsliklarning ijobiy xususiyatlaridan yana biri shundaki, ularning aksariyatida xalq og‘zaki ijodi namunalari, maqol va topishmoqlar keltirilgan. Darsliklaridagi matnlar yoshlarni odob- axloqli, do‘st-birodar, to‘g‘ri so‘zli qilib tarbiyalashga qaratilgan.

Jadid ma’rifatparvari **Mirzo Ho‘qandiy** (taxallusi; asl ism-sharifi Xayrullaxon Said Nosir o‘g‘li Mirzo) (1880 -1943) 1910 yilda usuli jadid maktabini ochgan. 1912 yil mazkur maktab qoshida «Ma’rifat» nomli kutubxona va nashriyot tashkil qilgan. U «Tuhfat ul-atfol» (“Bolalar sovg‘asi”), «Turki avvali ilm» (“Dars rahbari”), «Rahbari alifbo» kabi darsliklarni tarjima qilib, nashr ettirgan. Shu bilan bir qatorda, «Gulshani Mirzo», «Gulshani xayol» nomli darsliklar tuzgan.

**A.Shakuriy** 1907 yil «Jameul-hikoyat» (“Hikoyalar to‘plami”) darsligini (Toshkent va Samarqandda nashr qilingan) yozdi. Darslik qayta tuzatib va to‘ldirilib 1911 yil ikkinchi marta nashr qilindi. U boshlang‘ich maktabning 2-sinfi uchun o‘qish kitobidir. Darslikning birinchi betida shunday deyiladi: «Bu risola boshlang‘ich maktablarning 2-sinfi shogirdlarini o‘qitish uchun tuzildi. Kitobni tuzishda o‘zbek va tojik tilidagi kitoblardan foydalandim». U 72 betdan iborat bo‘lib, chiroyli xat bilan yozilgan.

A.Shakuriyning «Zubdatul ash’or» nomli darsligi 36 betdan iborat bo‘lib, to‘plam tarzida tuzilgan. To‘plam mayda-mayda nasta’liq xatida, sahifa cheti (hoshiyalari) ga she’rlar shikasta xati bilan yozilgan. Har bir sahifada 40-46 misra she’r bor.. U darsliklarida dastlab бўгин методи, кейинчалик товуш-харф методларидан фойдаланди.

Qo‘qonlik ma’rifatparvar pedagog **A.Zohiriyy** (1885-1937-42) ona shahrida bir qator maktablar tashkil qilgan. U ona tili grammatik qurilishi haqida qator darsliklar yaratdi. A.Zohiriyy S.Oqayev bilan hammualliflikda «Turkiy

xrestomatiya yoxud terma kitob» darsligini 1912 yilda chop etirdi. 1916 yilda esa u boshlang‘ich sinflar uchun o‘zbek tilida «Imlo» darsligini tuzib, Qozonda nashr qildirdi.

Ma’rifatparvar **Shokirjon Rahimi** (1898, Toshkent-1938) 1912 yildan boshlab, yangi usul maktablari va turli o‘quv yurtlari uchun darslik hamda o‘quv qo‘llanmalar nashr etish ishiga boshchilik qildi. U 1918 yilda A.Fitrat va Q.Ramazonlar bilan hammualliflikda «Ona tili» darsligini tuzdi. Ushbu darslik o‘quvchilarga ona tilining grammatic tuzilishi, tinish belgilari haqida batafsil tushunchalar bergen.

Ma’rifat darg‘asi **Aliasqar ibn Bayramali Kalinin** 1903 yilda ikkinchi sinflar uchun «Muallimi soniy» darslik-majmuasini yozgan. U majmuani tuzishda S.M.Gramenitskiyning «Книга для чтения» (1889) darsligiga tayandi. Muallif rus tilini yaxshi bilgani uchun A.S.Pushkin, S.Krilov, L.Tolstoylar ijodiga mansub bolalarning yosh xususiyatlariga mos asarlarni tarjima qildi va darslikka kiritdi.

XXasr boshlarida rus-tuzem maktablarining 1-2-sinflarida S.Aziziyning «Ustozi avval» alifbe darsligi o‘qitilgan. 3-4-sinflar uchun ham shunday darslik zarur edi. Ali Asqar Kalinin ushbu zaruratni his qilib, 1902 yil «Muallimi soniy» majmuasini tuzadi va Gramenitskiyga topshiradi. Uning darslik majmuasini 8 kishidan iborat komissiya ko‘rib chiqib, 1902 yil 20 mayda uni qayta ishlash uchun muallifga beradi. Darslikdagi 75 ta matn 112 taga yetkaziladi. 1902 yil 24 sentabrda Gramenitskiy darslikni bosishga tavsiya qildi. 1902 yil 16 oktabrda Bosh inspektor «Muallimi soniy»ni 3000 dona bosishga ruxsat berdi va 1903 yil 14 avgustda u tarqatildi. 1907 yil ushbu darslik majmua tuzatilib va to‘ldirilib, Toshkentda ikkinchi marta nashr qilindi. «Muallimi soniy» darsligi «Ustodi avval»dan keyin o‘qitiladigan darslik majmua bo‘lib, unda avval bolalarga tanish uy, maktab, ko‘cha, uy hayvonlari haqida kichik-kichik matnlar berilgan, ularning hajmi asta-sekin kattalashib, mazmuni murakkablashib borgan. «Muallimi soniy» majmuasi 12 bobdan iborat bo‘lib, boblar: 1) Uy, 2) Maktabda, 3) Ko‘chada, 4) Uy hayvonlari, 5) Dalada, 6) Bog‘ va o‘rmonda, 7) Qushlar va yovvoyi hayvonlar, 8) Yil fasllari, 9) Turli hikoyalar, 10) Turli ma’lumotlar (tabiiyotdan), 11) Geografiya, 12) Tarix deb nomlanadi.

Ali Asqar darslik majmuani boblarga bo‘lishda Gramenitskiyning «Вторая книга для чтения» darsligidagi 8 bo‘lim va «Третя книга для чтения» darsligidagi 4 bo‘limdan foydalangan. «Muallimi soniy»dagi aksariyat matnlar rus tilidagi darsliklaridan olingan, ular Krilov, L.Tolstoy, A.S.Pushkinning asarlaridan olingan parchalardir. «Muallimi soniy»

majmuasining 10-bobida foydali va zararli hasharotlar, ipak qurti, neft, temir yo‘l, elektr, «shu’lai rentgin», metall va qimmatbaho toshlar, «kompas, ya’ni qiblanoma», termometr, barometr, rus-tuzem maktablari haqida ma’lumotlar berilgan. 11-bobida geografiyadan boshlang‘ich ma’lumotlar keltirilgan. Yerning shakli, uning o‘z o‘qi va quyosh atrofidagi harakati, kurrai zamin (globus), quyosh va oyning harakati, havo, qit’alar, dengiz va daryolar, insonlar, Rossiya davlati, undagi xalqlar, Peterburg va Moskva shaharlari, Nijegorod yarmarkasi, Volga daryosi haqidagi ma’lumotlar bilan bir qatorda Turkiston viloyati, Sirdaryoga qurilgan ko‘prik haqida matnlar mavjud. Ushbu darslik-majmua Turkiston maktablari uchun yaratilgan bo‘lsada, unda Turkistonning tabiiy sharoiti, o‘lka xalqining urf-odati, Sharq mutafakkirlari asarlaridan olingan ma’lumotlar juda kam.

«Muallimi soniy» majmuasining oxirigi bobida Rossiya davlati tarixiga oid ma’lumotlar, «Rusiya va musulmoniya maqollari» berilgan. 29 ta ruscha va o‘zbekcha maqollar keltirilgan. Masalan: «Hovli olma, qo‘sni ol», «So‘z chumchuq emas, og‘izdan chiqsa, tutib bo‘lmaydur» va h.k. Tabiiyot, geografiya, tarixdan boshlang‘ich ma’lumotlar berish o‘sha davr uchun yangilik edi. Darslikda paroxod, poyezd, globus rasmlari bilan berilgan.

Ma’rifatparvar shoir **H.H.Niyoziy** darslik yozish, dars jarayoni, o‘quv ishlarini tashkil qilishda buyuk chek pedagogi Y.A.Komenskiyning pedagogik qarashlariga asoslangan. Masalan, sinf-dars tizimi, har bir darsning o‘z mavzusi va vazifasi bo‘lishi, dars jarayonida faollik va intizom bo‘lishi zarurligini uqtiradi. U K.Ushinskiy, Komenskiy, Pestalotssi, F.Disterveglarning ko‘rsatmali ta’lim metodikasini yangi usullar bilan boyitdi.

H.H.Niyoziyning bir qator darsliklari singari, «Yengil adabiyot» kitobi 1-sinf bolalari uchun qo‘llanma bo‘lib, u 1914 yilda she’riy yo‘lda yozilgan. Darslikning bosh qismida ilm o‘rganishning ahamiyati haqida qisqacha muqaddima berilgandan keyin axloqiy xarakterdagi hikoyalar taqdim etilgan.

Uning «O‘qish kitobi» ham 1914 yil she’riy yo‘lda yozilgan bo‘lib, axloqiy mavzudagi hikoyalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu to‘plamda 6ta hikoya berilgan. Bu hikoyalar Sharq hamda rus klassik adabiyoti manbalaridan olingan bo‘lib, Hamza ularni ijodiy qayta ishlab, she’riy shaklga solgan. Chunonchi, «Hiyonatdan hijolat» sarlavhali birinchi hikoya L.Tolstoydan, «Toshbaqa bilan Chayon hikoyasi» nomli uchinchi hikoya Gulxaniyning «Zarbulmasal» asaridan olingan.

H.H.Niyoziyning «Qiroat kitobi» 2-sinflar uchun qo‘llanma bo‘lib, u 1915 yilda nasriy usulda yozilgan. Unda berilgan hikoyalarning hammasi

axloqiy-didaktik xarakterdagi asarlardir. Darslik 9 bobdan iborat bo‘lib, ularda turli axloqiy masalalar: adab, jahl, kibr, ilm va boshqa shu kabilar to‘g‘risida fikr yuritiladi. Muallif bayon qilingan har bir fikrning isboti uchun bittadan hikoya keltiradi.

Hamza 1915-1917 yillarda mashhur she’riy to‘plami «Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar» to‘plamini yozdi, ushbu to‘plam Qo‘qonda toshbosma yo‘li bilan bosildi. Bu turkumga kiruvchi asarlarning har biri yana alohida nom bilan ataladi: «Oq gul» - 1916 yil Qo‘qonda nashr qilinib, unda 4 ta she’r berilgan, ularda xalqni ilm o‘rganish va ma’rifatli bo‘lishga chaqiriladi; «Qizil gul» - 1916 yil Qo‘qonda nashr qilingan, 12 betdan iborat, lirik she’rlardan iborat; «Yashil gul» - 1916 yil Qo‘qonda nashr qilingan bo‘lib, undan o‘rin olgan she’rlarning aksariyati ma’rifatparvarlik ruhida yozilgan, shuningdek, o‘tkir satira ruhida yozilgan she’rlar ham mavjud; «Sariq gul» - 1916 yil Qo‘qonda nashr qilingan, 12 betdan iborat, 4 ta she’rni o‘z ichiga oladi, ular orasida satirik she’rlar ham mavjud; «Pushti gul» - 1916 yil Qo‘qonda nashr qilingan bo‘lib, 5 ta ma’rifat ruhida yozilgan lirik va satirik she’rlardan iborat; «Safsar gul» - 1917 yil Qo‘qonda nashr qilingan, u 12 betdan iborat bo‘lib, 4 ta she’rni o‘z ichiga oladi.

Hamzaning «Usuli savtiya» muallimlik kursida o‘qitgan shogirdlari uning o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishda “Havoyiji diniya”, “Adibi avval”, “Adibi soniy”, “Mu’omalot”, “Badrul hisob”, “Shifoziya”, “Istiftoh”, “Istikmol”, “Tarixi muqaddas”, “Namunai axloq”, “Tajvid”, “Munshaot”, “Adabiyot” kabilar mazmuni bilan o‘z o‘quvchilarini tanishtirishga e’tibor bergenligini yozadilar.

Manbalarda Hamzaning fizika fanini o‘qitish, xususan fizikadan laborotoriya ishlari o‘tkazishga oid tajribalarni o‘zlashtirishga intilgani haqida ma’lumotlar mavjud.

Pedagogik tafakkurining serqirraligi va jo‘shqinligini anglashda Hamzaning Xo‘jayli internatidagi faoliyati diqqatga sazovordir. Unda o‘qish muddati 4 yilni tashkil etib, 1- 2-sinflarda ona tili, arifmetika, tabiatshunoslikka kirish fanlaridan saboq berilgan. 3-sinfdan boshlab esa fizik geografiya, umumiylar tarix, Xorazm tarixi, 4-sinfdan Xorazm geografiyasini o‘qitilgan.

Toshkentlik ma’rifat darg‘alaridan biri **Muhammadamin ibn Muhammadkarim** (1894-1941) «Turkcha qoida», «Jo‘g‘rofiyai riyoziy», «Rahbari avval» nomli darsliklari mavjud. Uning «Turkcha qoida» darsligi 1913 yili Toshkentda G‘ulom Hasan Orifjonov litografiyasida chop etilgan. Unda ibtidoiy maktablarning 2-4-sinflarida o‘zbek tilini o‘qitish qonun-qoidalari

haqida boshlang‘ich ma’lumot berilgan. “Shu paytgacha xat yozishda qoida yo‘q edi”, - deydi muallif, - “o‘zbek tilida 5 xil so‘z turkumi bor, ular: ism, sifat, zamir, adot, fe’l”. U so‘z turkumlari tasnifi bilan birga, ularning tavsif va qoidalarini ham taqdim etadi. «Turkcha qoida», «Rahbari forsiy» asaridan ijodiy o‘rganib yozilgan bo‘lib, «Turkcha qoida»da fe’llar uch zamonga bo‘lib beriladi. Shuningdek, darslikda tinish belgilari bayoniga ham o‘rin ajratilgan.

«Turkcha qoida»da imloni o‘rgatishga alohida e’tibor berilgan. Darslikda har bir qoidadan keyin, mashqlar keltirilgan. Muallif rus, fors, arab tilidagi grammatika kitoblaridan foydalangan. Shuning uchun ham darslikda o‘zbek o‘quvchilar tushunmaydigan so‘z va atamalar uchraydi. Ushbu darslik o‘zbek tili grammatikasini yaratish sohasidagi dastlabki urinishlardan biri bo‘lganligi uchun ham muhim ahamiyatga egadir .

Toshkentlik ma’rifatparvar **Abdullaxo‘ja Saidahmadxo‘jayevning** ham darslik yaratish sohasidagi samarali mehnat qilgan. U 1916 yil «Rahbari soniy» rasmi (21ta rasm bor) darsligini yaratdi. Darslikda maktab hovlisi, sinf xonasi, o‘quvchilar bilan bir qatorda, uy hayvonlarining ham rasmlari mavjud. Muallif mavzu tanlashda rus va tatar pedagoglarining darsliklariga tayanadi. Darslikdagi hikoyalar oddiydan murakkabga tomon borib, o‘quvchilarni ilm olishga bo‘lgan qiziqishini orttiradi, undagi rasmlar esa o‘quvchilarni yanada zukko bo‘lishiga ko‘maklashadi.

XX asr Milliy uyg‘onish davrining yetuk namoyandalaridan biri, noyob iste’dod egasi, ko‘plab Sharq va G‘arb tillarining bilimdoni, o‘lkamizdag‘i ilk matbaachilardan biri sifatida Vatan taraqqiyoti yo‘lida fidokorona xizmat qilgan **Ishoqxon Ibrat** nomini abadiylashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 13 aprelda 208-sonli “Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanida atoqli ma’rifatparvar Ishoqxon Ibrat nomidagi yodgorlik majmuasini tashkil etish to‘g‘risida” qarori qabul qilindi. Qarorda Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanida Ishoqxon Ibrat nomidagi bog‘, atoqli ma’rifatparvarning haykali va muzeyi hamda xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan maktabdan iborat «Ishoqxon Ibrat majmuasi»ni tashkil etish haqidagi takliflar ma’qullanib, Ishoqxon Ibrat muzeyi To‘raqo‘rg‘on tumanidagi madaniy meros obyekti bo‘lgan G‘oyibnazar Qozi madrasasi negizida tashkil etilishi va Namangan viloyat o‘lkashunoslik muzeyining filiali sifatida faoliyat yuritishi ko‘rsatib o‘tildi. Shuningdek, Ishoqxon Ibrat majmuasini tashkil etish bo‘yicha respublika ishchi guruhi tarkibi tasdiqlandi.

Shuningdek, qarorda O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligiga, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga:

- xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan maktab faoliyatini yo‘lga qo‘yish va uni malakali kadrlar bilan ta’minlash;
- umumta’lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari hamda oliy ta’lim muassasalarining o‘quvchi va talabalarini ushbu maktabga keng jalb etgan holda targ‘ibot tadbirlarini tashkil etish vazifalari yuklatildi.

O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Ishoqxon Ibrat xotirasini abadiylashtirish ishlarini keng yoritish tavsiya etildi.

Jadidchilik harakatining yirik nomoyandalaridan biri Ishoqxon Ibratning asarlari ichida “Lug‘oti sittati alsina” (“Olti tilli lug‘at”) muhim o‘rin tutadi. “Lug‘ati sittati alsina” asari arabcha, forscha, hindcha, turkcha, o‘zbekcha va ruscha so‘zlarni o‘z ichiga olgan lug‘at bo‘lib, 1901 yil Toshkentda V.I.II’in litografiyasida bosmadan chiqqan. Lug‘at 1898 yilda yozib tugallangan, uzoq qarshiliklardan keyin, chor hukumatining tazyiqi ostida qiyinchilik bilan chop etilgan. Lug‘at mingdan ortiq so‘zni o‘z ichiga olib, ikki qism, 53 betdan iborat. Lug‘atning birinchi qismida alifbe tartibida tuzilib, har qaysi harfga alohida kichik-kichik boblar ajratilgan. Shuningdek, bu qismda fe’llarning noaniq va kelasi zamon shakllari avval forscha, keyin arabcha, turkcha, o‘zbekcha, hindcha va ruscha tarjimalari berilgan.

Ishoqxon Ibrat o‘zbek ma’rifatparvarlari orasida birinchi bo‘lib olti tildan iborat lug‘at yaratdi. Yozuvlar tarixini o‘rganish murakkab soha hisoblanadi. Shu jihatdan olganda Ibratning “Jome’ ul-xutut” (“Yozuvlar majmuasi”) asari muhim ahamiyatga ega. “Jome’ ul-xutut” 1912 yil “Matbaai Ishoqiya” (o‘zini nashriyoti)da chop etilgan. Asar 132 betdan iborat. “Jome’ ul-xutut”da yozuvlarning eng ibtidoysi-piktografik yozuvlardan boshlab, finikiya, yahudiy, suriya, arab, yunon, fors, slavyan, sanskrit, hind, lotin, arman, gruzin, uyg‘ur va boshqa qirqdan ortiq yozuvlar, ularning tarixi va taraqqiyotini ilmiy asosda ochib berdi. Ibrat asarida Kipr g‘orlaridan topilgan yozuv qoldiqlarini ham keltirib o‘tgan. U tovush-harf yozuv tizimi birinchi marta finikiya xalqlarida yaratilgan degan g‘oyani ilgari surgan. Qo‘shti xalqlar arab, yahudiy, suriyaliklar finikiya yozuvi asosida vujudga kelgan.

Chet tillarni o‘rganish lozimligi haqida Ishoqxon Ibrat “Jome’ ul-xuttut” asarida yozadi: “Dorixonoga borganda lotincha zarur. Hindistonga xat qilinsa, inglizcha bo‘lmasa olmaydur, Eronistonga fransaviy. Biz turkistonliklarga birinchi zarurimiz rusiya xatidurki, muni qozi va mudarrislar inkor qilmaslar.

Axborotnoma, rapurt yozsalar, mudarrislar bo‘lsa, o‘ruscha biladurgan kishiga oqcha berib, rapurt yozduradurlar, olarga juda zarur. Savdogarlarga Maskovdan mol yozmoqqa zarur hukumat xati bo‘lub, binobarin, ehtiyoji xalqullohhama jihatdin buni bilmak zarurligi badehiy”.

Ibratning “Lug‘ati sittati alsina”, “Jome’ ul-xutut” asarlaridan tashqari “Devoni Ibrat”, “Tarixi Farg‘ona”, “Tarixi madaniyat”, “Lison uz-zamon” kabi asarlari mashhurdir.

Ishoqxon Ibratning ma’rifatparvarlik faoliyatida mактабдорлик qilish muhim ahamiyatga ega. U “Matbai Ishoqiya” nashriyotida “San’ati Ibrat, qalami Mirrajab”, “Ilmi Ibrat” kabi darslik va qo‘llanmalarini nashr ettirdi. Birinchi marta 1866 yilda, keyin esa, 1907 yilda yana “usuli jadid” maktabini ochib, 25 nafar qishloq bolalarini o‘qitdi. Darslik sifatida Saidrasul Aziziyning “Ustodi avval”, Munavvarqori Abdurashidxonovning “Adibi avval”, Ali Asqar Kalininning “Muallim us-soniy” va o‘zining “Lug‘ati sittati alsina”, “San’ati Ibrat, qalami Mirrajab” asarlarini manba qilib oldi.

Ishoqxon Ibrat o‘sha davr vaqtli matbuotida faol ishtirok qilgan. Mashhur “Kutubxonai Ishoqiya”ni tashkil qilgan. Kutubxonada o‘zbek, tojik, fors, turk, tatar, rus tillaridagi o‘n mingga yaqin kitob, gazeta va boshqa vaqtli matbuot nashrlari, qo‘lyozmalar joy olgan. “Ishoqiya bog‘ini” tashkil qilgan.

Ko‘plab jadid ma’rifatlari kabi Ishoqxon Ibrat ham 1937 yil 75 yoshida qatag‘on qurboni bo‘ldi. Uning asarlari mustaqillik sharofati bilan bir necha marta nashr qilindi. Ishoqxon Ibrat shoir va olim, ma’rifatparvar va matbachи, din arbobi va fidoiy inson, vatanparvar sifatida xalqimiz shuurida, ongida abadul abad yashaydi.

Ma’rifatparvarlardan biri **Akbarzoda G‘ulomiddindir**. Uning «Ta’limi soniy» deb nomlangan darsligi bo‘lib, u 1913 yil Toshkentda, G‘ulom Hasan Orifjonov matbaasida nashr qilingan.

Boshqa ma’rifatparvarlar singari Bobooxun Salimov (1874-1929) va Bekchan Raxmonov (1887-1929)lar hammualliflikda «Alifbe», «O‘qitish kitobi» darsliklarini yaratib, bu sohada faollik ko‘rsatganlar.

Toshkentda esa **Abduvahob Ibodihev** (1877-1943)ning «Tahsil-ul alifbo» (Alifbo o‘qishi) darsligi tahsinga sazovordir. Ushbu darslik 1912 yilda Toshkentda nashr qilingan. Darslik o‘quvchilar uchun harflarni o‘rganish, savod chiqarishda katta ahamiyatga ega. A.Ibodihevning yuqoridagi darsligidan tashqari o‘qituvchilar foydalanishlari uchun yozilgan «E’tiqodi islomiya» (“Islom e’tiqodi”) risolasi ham mavjud bo‘lib, u 1914 yilda Toshkentda chop etilgan.

Mirzo Hayrullo va Abdullaxon Ibodiylarning «Miftoxul alifbo» (1912), «Taksiliy avval» (1914), Muxtor Bakirning «Savod» (1913), A.Zohiriyning «Imlo» (1916) singari darslik va o‘quv qo‘llanmalari 1917 yil to‘ntarishigacha yaratilgan.

Jadid ma’rifatparvari **Saidrizo Alizoda** (1887-1945) ilk tahsilni Samarqandning Chorraha dahasida Abulqosim Alganjiyning jadid mакtabida olgan. Jadid maktablari uchun «Ilmi hisob» (Samarqand, 1906) darsligini tuzgan.

O‘zbek shoiri, tarjimon va hattot sifatida tanilgan Almai (Fazlulloh Mirjalol o‘g‘li (1851-1894) ning «Azvon ul-jumu’» (“Vaznlar jam’i”) nomli she’riy asari ba’zi arab mamlakatlarida darslik vazifasini o‘tagan.

Darslik yaratish sohasida ma’rifatparvar **M.So‘fizoda** o‘z o‘rniga ega. M.So‘fizoda 1913 yil Chustda yangi maktab ochdi, lekin o‘sha davrdagi mutaassiblar So‘fizodani kofir deya ayblab, uning mакtabini yoptirdilar. Uni xalqqa ma’rifat tarqatishdek savob ishdan qaytara olishmagach, sazoyi qilib yurtdan badarg‘a qildilar. Manbalarda So‘fizodaning «Eski o‘zbek adabiyoti namunalari», «Aruz haqida» kabi ilmiy tadqiqotlari mavjudligi, «O‘zbek tili», «O‘zbek tili sarfi» (grammatikasi) darsliklari 1925-1930 yillar oralig‘ida 5 marta qayta chop etilganligi ko‘satilgan.

O‘tgan asrning 30- yillarda darslik yaratgan pedagoglardan A.Zohiriyning pedagogik faoliyati, darslik va lug‘at tuzish sohasidagi amaliy ishlari faollashgani yaqqol seziladi. U 1925 yilda «Ruscha - o‘zbekcha lug‘at» tuzib, o‘quvchilarga rus tilini o‘rganishlariga yordam berdi. Ushbu lug‘atdan ko‘pgina maktablarda til o‘rganishda foydalanildi. Shuningdek, A.Zohiriyy Cho‘lpon bilan hammualliflikda 1926 yil «Adabiyot parchalari» to‘plamini tuzgan.

Ma’rifatparvar **Shokirjon Rahimi** 1922 yilda «Kattalarga o‘qish», «Alifbe darsligi», 1924 yilda «Kattalar yo‘ldoshi», 1927 yilda «Kattalar alifbesi», 1930 yilda «Savod», 1932 yilda esa «O‘zbek tili. Ish kitobi», «Kattalarga o‘qish» singari darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yaratdi. Ushbu darsliklar o‘quvchilarga bilim berishda katta pedagogik ahamiyatga ega. Shuningdek, Sh.Rahimi «Batraklar alifbesi» (1930), boshlang‘ich mакtab o‘qituvchilari uchun dars o‘tish uslubiyatiga doir «Batraklar alifbesiga metodik qo‘llanma»(1930), «O‘zbek tili. Tuzuk yozuv, imlo, insho, til qoidalari o‘rgatuv va tilni ochuv yo‘lida» (1930), 3-4-sinflar uchun «O‘zbek tili, ona tili ish kitobi»(1931), «Kolxozi bolalari alifbesi» (1931) kabi darsliklar yozgan.

Sh.Rahimiyning «Til va imlo» (1920), «O‘zbek alifbosi» (1924) kabi ilmiy risolalari ham mavjud.

XX asrning 20-30 yillarda jadid-ma’rifatparvarlari o‘ziga xos pedagogik ta’limotni yaratdilar. Ushbu ta’limotning mohiyati esa, bolalarni milliy ruhda ma’rifatli qilib tarbiyalash, ularni xalq orzu-umidlarini oqlay oladigan shaxs bo‘lib voyaga yetishishlarida ko‘maklashish, shular asosida yurtni mustaqillikka olib chiqish g‘oyasidan iborat bo‘lgan. Bunga erishishda ta’lim jarayonining asosiy vositasi bo‘lgan darslik va o‘quv qo‘llanmalarining o‘rni kattadir. Shu nuqtai nazardan ma’rifatparvar Abdurauf Fitrat o‘z pedagogik faoliyati davomida bir qator darslik hamda o‘quv qo‘llanmalari yaratdi.

Uning «Adabiyot qoidalari» o‘quv qo‘llanmasi san’atga berilgan ta’rif bilan boshlanadi. Mazkur ta’rif san’atga ijtimoiy ong shakllaridan biri deb qaragan ma’lum nazariyani takrorlamaydi. Chunki Fitrat san’atni bir yoqlama mafkuraviy nigoh bilan tahlil etish, uning boy imkoniyatlarini cheklab qo‘yishini yaxshi tushunadi. U darslikda san’atning ijtimoiy roliga ko‘p to‘xtalmagan bo‘lsa-da, «Maorif va o‘qituvchi» jurnalining 1927 yil 5-sonida bunga «San’atning manshai (kelib chiqishi)» maqolasida batafsil so‘z yuritadi.

A.Fitratning bulardan tashqari «Rahbati najot» pedagogik asari mavjud. U shu asarida fanlar tasnifini bergen.

Mazkur asar, yozuvchi Oybekning aytishicha, «maktab o‘quvchilari uchun go‘zal qo‘llanma bo‘lgan». Fitrat «Adabiyot qoidalari»gacha bir qator tadqiqotlarni amalga oshirgan, adabiyotshunoslikda voqeа bo‘lib qolgan maqolalar yozgan. U 1917 yil «O‘quv. Ibtidoiy maktablarning so‘ng sinf o‘quvchilari uchun» (Boku) darsligini yozdi, unda adabiyotning eng umumiyligi va asosiy jihatlarini bayon etdi.

Serqirra ilmlar sohibi **A.Fitrat** 1925 yilda «Sarf» («Morfologiya») va «Nahv» («Sintaksis») nomli darsliklar yaratdi. Yuqorida ikkala darslik ham o‘quvchilarga o‘zbek tili qoidalari haqida batafsil ma’lumot berish uchun tuzilgan. Ushbu darsliklar 1929 yil qayta nashr qilangan.

Jadid ma’rifatparvarlaridan yana biri Mashriq Yunusov - Elbekdir, u pedagogik merosining salmoqli qismini o‘quvchilarga bag‘ishladi.

Elbek 1917 yildan darsliklar yoza boshlagan, til-imlo masalalari va pedagogika ishlariga qiziqqanligi uchun bu to‘g‘rida maqola va asarlar yozgan.

Manbalardan aniqlanishicha, **Elbek** «Sovg‘a» alifbe darsligi (1921 yil, Toshkent), adabiyot fanidan «Armug‘on» nomli o‘quv kitobi, boshlang‘ich sinflar o‘quvchilari uchun «O‘zbekcha o‘qish kitobi» (1922 yil, Toshkent), «Boshlang‘ich mакtabda ona tili» nomli o‘qituvchilar uchun maxsus o‘quv

qo‘llanmasi (1924 yil, Toshkent) darsliklarini yozgan. Shuningdek, uning **F.Sayfiy** bilan hammualliflikda yozilgan birinchi kitob, birinchi o‘qish yili uchun (60 bet), ikkinchi kitob, ikkinchi o‘qish yili uchun (100 bet), uchinchi kitob, uchinchi o‘qish yili uchun (56 bet), «Go‘zal yozg‘ichlar. Xrestomatiya. Boshlang‘ich maktablarning to‘rtinch bo‘limlari uchun o‘qish kitobi» (Toshkent, Turkdavnashr, 1924 yil, 86 bet), ikkinchi nashri 3-bosilishi (1925 yil, 108 bet), «O‘rnak» boshlang‘ich maktablarning uchinchi bo‘limlari uchun o‘qish kitobi (Toshkent, 1925 yil), “Xrestomatiya” birinchi yil uchun 2-nashri (92 bet); ikkinchi yil uchun (98 bet); uchinchi yil uchun, 2-nashri (91 bet), to‘rt bo‘limdan iborat «Bilim» boshlang‘ich maktablar uchun o‘qish kitobi (Toshkent, 1930 yil) kabi darsliklari mavjud. “Bilim” darsligi «Libknext» tajriba maktabining o‘qituvchilari bilan hamkorlikda tuzilgan bo‘lib, u to‘rt bo‘limdan iborat, uning birinchi bo‘limi birinchi yil uchun (48 bet), ikkinchi bo‘limi ikkinchi yil uchun (64 bet), uchinchi bo‘limi uchinchi yil uchun (248 bet), to‘rtinch bo‘limi to‘rtinch yil uchun (368 bet) mo‘ljallangan.

Uning «Kuchsizlar dunyosi», «Qaysi biri bo‘ri?», «Itlarning o‘rtoqligi», «Quyon bilan Toshbaqa», «Ikki tulki», «Ot bilan odam», «Chumoli va chivin», «Sholi bilan kurmak», «Qora qushlar va Toshbaqalar», «Jinning olov yoqishi», «Kampirning tovuqlari», «Ola qarg‘a va Qurbaqa», «Yer bilan tog‘ o‘rtasida» kabi bir qator masallari bo‘lib, ulardan o‘z o‘rnida ham foydalangan. U 1924 yilda «Go‘zal yozg‘ichlar» darsligini yozib, Toshkentda chop ettirdi. Ushbu darslik til va adabiyot masalalariga bag‘ishlangan. 1924 yil nash etilgan «Go‘zal yozg‘ichlar» darsligining hajmi 86 sahifa bo‘lsa, 1925 yildagi nashri esa 108 sahifadir. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, pedagoglik va darsliklar yozish Elbek faoliyatining asosini tashkil qilgan. Uning «Yozuv yo‘llari» (1924 y., 10 ming nusxa, Toshkent), «O‘rnak», «Boshlang‘ich maktabda ona tili», «O‘qish kitobi», «Adabiyot xrestomatiyasi» singari darsliklari o‘z davrida maktablarda asosiy qo‘llanma bo‘lib, ularning har biri bir necha martadan nashr etilgan.

Elbek yaratgan har bir darslik va qo‘llanmada eng avvalo davr ruhi aks etgan. Ularda sinflar bo‘limlarga bo‘linib, oddiyidan murakkabga qarab boradi. Bunga misol qilib, 1925 yil Toshkentda «O‘zdavnashr» tomonidan bosib chiqarilgan boshlang‘ich maktablarning 1, 2 va 3-sinflari uchun tuzilgan «O‘rnak» deb nomlangan o‘qish kitobini olish mumkin. Uning birinchi yil uchun (1-sinflar uchun) tuzilgan «O‘rnak» o‘qish kitobi 87 sahifadan iborat bo‘lib, 12 qismdan tashkil topgan. Birinchi bo‘lim 9, ikkinchi bo‘lim 6, uchinchi bo‘lim 5, to‘rtinch bo‘lim 20, beshinchi bo‘lim 9, oltinchi bo‘lim 12, yettinchi bo‘lim 5, sakkizinchi bo‘lim 4, to‘qqizinchi bo‘lim 5, o‘ninchi bo‘lim 3, o‘n

birinchi bo‘lim 2, o‘n ikkinchi bo‘lim 5 bo‘limni o‘z ichiga oladi. Bularga birinchi sinf o‘quvchilarining ruhiyatiga mos holda matnlar tanlangan: ular mакtab, uy, oila, jonivorlar, qo‘ylar, sog‘likni saqlash yo‘llari, fasllar, o‘simliklar, ma’danlar va kashshoflar bo‘limlariga ajratilib, bular tarkibida o‘quvchilarga maktab va unda ishlatiladigan asboblar bilan tanishtirish uchun matnlar berilgan.

Elbek 1921 yil 30 sahifa hajmida 2-4 sinflar o‘qituvchi va o‘quvchilari uchun «Yozuv yo‘llari» nomli qo‘llanma chop ettirdi. «Kirish» va «So‘ng so‘z»dan tashqari 11 saboqni o‘z ichiga olgan bu qo‘llanma maktab o‘quvchilari va ona tili o‘qituvchilari uchun to‘g‘ri yozuv, imlo bo‘yicha ancha puxta va ilmiy-uslubiy jihatdan muhim asar edi.

Elbekning o‘qituvchilar uchun yozgan «Boshlang‘ich maktabda ona tili» (1923 yil) nomli qo‘llanmasi o‘qituvchilar uchun ilmiy-uslubiy dastur vazifasini o‘tadi.

### **3.Jadidlarning tojik va qoraqalpoqlar uchun tuzgan darsliklari.**

Ma’rifat darg‘alaridan biri - **Sadriddin Ayniy** Samarqandga kelib, Abduqodir Shakuriy yangi milliy maktabining ta’lim-tarbiya ishlari bilan tanishdi. Ana shu ma’lumotlar va tajribalar asosida S.Ayniy do‘sti Mirzo Abdulvohid Munzim bilan uning hovlisida yangi tipdagi tojik maktabi ochdi. Birinchi tojik alifbesi «Soli naxustin» («Birinchi yil», Baroyi maktabxoyi tojik, Samarqand, 1924y.)da adibning «Maktab nima» she’ri bor. Ushbu darslikdan A.Shakuriyning maktabida birinchi bosqich o‘quvchilariga saboq berilgan. Pedagogning 1930 yilda chop etilgan «Chalasavodlar maktabi uchun o‘qish kitobi» darsligi ham mavjud.

S.Ayniy hamkorligida mualliflar 1931 yilda birinchi bosqich maktablari va texnikumlar uchun «5 dar 4» nomli o‘qish kitobi tuzdilar. Kitob 10 qismga bo‘linib, unda o‘sha davr ruhi aks etgan, kommunistik partiya, Lenin, pionerlar harakati haqida hikoyalar bor.

1922 yil S.Ayniy qizlar maktabi uchun «Qiz bola yoki Xolida» darsligini tuzdi. Uni 1924 yil Munzim yordami bilan Berlinda «Komviyoniy» shirkatining bosmaxonasida nashr qildirdi.

Muallif ma’rifatparvarlardan M.Behbudiyning «Yangi hisob» (1918), Ahmad Zakiy Validiyuning «Tilimiz» (1921) kabi darsliklari ham 1917 yil to‘ntarishidan keyin yaratilgan muhim darsliklar hisoblanib, ularda ham izchillik, tadrijiylik tamoyillariga tayanish ustuvor o‘rin tutgan.

M.Qodirov va boshqalarning 1920 yilda kattalar uchun «Kattalarga o‘qish» alifbesi, I.Husanxo‘jayev va F.Erg‘oziyevlarning maktab yoshidan o‘tgan o‘smirlar uchun chiqarilgan «O‘smir» alifbesi, ozarbayjon tilidan o‘zbekchaga tarjima qilingan «Handasa», «Fizika» darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari bo‘lgan.

Usuli jadid maktablari uchun darslik yozgan ma’rifat darg‘alaridan biri **A.Shakuriy** (1875-1943) bo‘lib, 1901 yil Rajabaminda (Samarqand) yangi usul mактаби ochib, unda tatar pedagogi Abdulhodiy Maqsudiyning ham «Muallimi avval», «Muallimi soniy» darsliklaridan foydalangan. A.Shakuriy 1907 yil «Jameul-hikoyat» (“Hikoyalar to‘plami”) darsligini (Toshkent va Samarqandda nashr qilingan) yozdi. Darslik qayta tuzatib va to‘ldirilib 1911 yil ikkinchi marta nashr qilindi.

A.Shakuriyning «Zubdatul ash’or» nomli darsligi 36 betdan iborat bo‘lib, to‘plam tarzida tuzilgan. «Zubdatul ash’or» o‘qish kitobi boshlang‘ich maktabning 2-3-sinf o‘quvchilari uchun yozilgan bo‘lib, u bilimlarni mustahkamlash, she’riyatni o‘rganishga havas uyg‘otish, o‘zbek, tojik, ozarbayjon klassik adabiyot namunalari bilan tanishtirishga mo‘ljallangan.

A.Shakuriy o‘z maktabiga birinchi bo‘lib mehnat va musiqa darslarini kiritdi, bolalarga dehqonchilik, duradgorchilik, muqovasozlik sirlarini o‘rgatish uchun alohida soatlar ajratdi. U darsliklarida dastlab bo‘g‘in metodi, keyinchalik tovush-harf metodlaridan foydalandi.

A.Shakuriyning Rajabamindagi maktabida arifmetika, tabiatshunoslik kabi fanlar ham o‘qitilgan. U o‘zining «Rahnamoi savod», shogirdining (I.Rahmatullayev) «Alifbe ta’limi» darsliklaridan o‘quvchilarga savod o‘rgatish, bilim berishda foydalangan.

A.Shakuriy tomonidan ta’lim tizimiga kiritilgan yangiliklar quyidagilardan iborat:

- mavjud eski o‘qitish usullari va o‘qish kitoblarining hammasini rad qilib, savod chiqarishni yengillatish maqsadida, dastlab bo‘g‘in usuli, keyinchalik tovush-harf usulini qo‘llagan. Bunday o‘qitish usuliorqali o‘quvchilarni olti oy ichida savodini chiqargan;
- maktablarda qiz va o‘g‘il bolalarni birga o‘qitish uslubini joriy qilgan;
- bolalarni ona tilida o‘qitishga qat’iy rioya qilgan, shu bilan bir qatorda ularni tojik, arab, rus tilini mukammal o‘rganishga da’vat etgan;
- jadid maktablari uchun juda sodda, tushunarli tilda darsliklar tuzib, ularni nashr ettirgan;

- Samarqand maktablari o‘quv rejasiga mehnat va musiqa darsliklaridan foydalanishni joriy qildi.

Bu davrda butun Turkistondagi kabi qoraqalpoq o‘lkasida ham mакtab va maorif sohasida yangicha qarashlar davri boshlandi. Jamiyatda milliy uyg‘onish, mustaqillik uchun kurashga intilish kabi g‘oyalarni ilgari surgan ma’rifatparvarlar yetishib chiqdilar. XX asrning boshlarida Qoraqalpog‘iston maktablarida darslik va o‘quv qo‘llanmalar yetishmagani sababli qozoq maktablari uchun yaratilgan A.Baytursinovning “Alifbo”, “O‘qish kitobi” (1914) darsliklari ba’zi o‘zgarishlar bilan qoraqalpoq tiliga o‘girilib o‘rganilar edi, S.Majidov esa turkiy xalqlarda keng tarqalgan arab alfaviti namunasini ijodiy o‘rganib, arab harfi asosida Ahmed Baytursinovning 1912 yilda qozoq alfaviti, Yeshanali Arabayev 1924 yilda qirg‘iz alfavitini (alifbosini) qanday ishlab chiqqan bo‘lsa, **S.Majidov** ham qoraqalpoq tili fonetikasiga moslashtirib qoraqalpoq alfaviti va “Alifbe” darsligini yaratdi.

S.Majidov yaratgan darsliklar qoraqalpoq xalqi uchun olamshumul voqeа bo‘lib, ular qoraqalpoq milliy yozuvida chop etilgan edi. Uning qoraqalpoq xalqini savodli qilish maqsadida “Alifbo”, “O‘quv kitobi”, “Yegdalar (“Kattalar savodi”) (1925) kabi mакtab darsliklari va dasturlari amaliyotda foydalanildi.

M.Rasuliyning «Qiroati forsiy yoxud muntaxabi guliston», «Bolalar bog‘chasi» nomli darsliklari ham mavjud. «Qiroati forsiy yoxud muntaxabi guliston» darsligi 1916 yil Toshkentda nashr qilingan. Darslikdan forschcha qisqa hikoya va she’rlar o‘rin olgan. Undagi mavzular 54 darsga taqsimlangan, ba’zi forschcha so‘zlarga o‘zbekcha izoh berilgan. Darslikda ko‘rgazmalilik tamoyiliga amal qilinib, o‘quv materiali mazmuniga ko‘ra turli rasmlardan foydalanilgan. Undagi ba’zi hikoyalar ruschadan tarjima qilingan. Masalan: «Bobo ila nabira», «Qo‘rqoq», «Aqli qishloq» va h.

### **3-Mavzu: Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti va pedagogik faoliyati Reja:**

1. Xo‘ja Behbudiyning hayoti va pedagogik faoliyati
2. Maxmudxo‘ja Behbudiyning pedagogik merosidan bashlang‘ich sinflarda Mahmudxo‘ja Behbudiyyidan foydalanish imkoniyatlari

**Tayanch tushunchalar:** Mahmudxo‘ja Behbudiyy, pedagogik faoliyat, pedagogik meros, bashlang‘ich sinflar, foydalanish, imkoniyatlar.

## **1. Mahmudxo`ja Behbudiyning hayoti va pedagogik faoliyati**

Mahmudxo`ja 1875 yil 19 yanvar kuni Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog`idaa tug`ilgan. Mahmudxo`janing otasi Behbudxo`ja imom-xatiblik bilan shug`ullangan. Behbudxo`ja Solihxo`ja o`g`li Ahmad Yassaviy avlodlaridan bo`lgan. Mahmudxo`ja 9 yoshga to`lgach otasi Behbudxo`ja Solihxo`ja o`g`li vafot etadi. Maxmudxo`ja tog`asi Muhammad Siddiq qo`lida qoladi. Kichik tog`asi Odil unga arab sarfunahvini o`rgatadi 18 yoshga to`lgach qozixonada mirzolik qiladi. Mahmudxo`ja dastlab Samarqand keyin esa Buxoro madrasalarida ta`lim olgan. Yaxshi ta`lim va o`z ustida muttasil ishlash orqali Behbudiy shariatning yuksak maqomlari-qozi, mufti darajalarigacha ko`tarilgan.

Behbudiy 1899-1900 yillarda buxorolik do`sti Hoji Baqo bilan haj safarida bo`lgan. Safar chog`ida Kafkaz, Turkiya, Arabiston, Misrni kezib chiqqan. Xaqlarning yashash sharoitlari, urf-odat, an`nalari, ta`lim sohasidagi farqlarni ko`rib, yangi mакtab (usuli jadid) ochish fikri mustahkamlanib bordi. Behbudiy 1903 yilda Samarqand yakinidagi Halvoyi qishlog`ida S. Sidiqqiy, Ajziy, Rajabaminda Abdulqodir Shakuriylar bilan hamkorlikda yangi mакtab ochadi. U 1903-1904 yillarda Moskva, Peterburg, 1906 yilda esa Qozon va Ufa, Nijniy Novgorodga boradi. Rossiyada yashovchi musulmonlarning turmush va madaniyatiga bag`ishlangan qurultoyda Turkustoliklar guruhini boshqaradi. Qozon va Ufadagi yangi usul maktablari bilan tanishadi, tatar ziyolilari bilan aloqani yo`lga qo`yadi. Yangi maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. «Risolai asbobi savod» («Savod chiqarish kitobi», 1904), «Risolai jug`rofiyai umroniy» («Aholi geografiyasiga kirish», 1905), «Muntaxabi jug`rofiyai umumiy» («Qisqacha umumiy geografiya», 1906), «Kitobat- ul atfol» («Bolalar xati», 1908), «Amaliyoti islom» (1908), «Tarixi islom» (1909) kabi kitoblar chop ettiradi. 1908 yilda Shakuriyning Rajabamindagi mакtabini Samarqanddagi o`z hovlisiga qo`chirib keltiradi. Behbudiy 1911 yilda «Padarkush» dramasini yozdi. Bu birinchi o`zbek dramasi edi. 3 parda 4 manzarali bu asar mazmunan sodda bo`lib, o`qimagan, johil va nodon bolaning o`z otasini o`ldirgani haqida edi. Behbudiy bu asar janrini «milliy fojia» deb atagan. Nashr qilishga chor senzurasi yo`l qo`ymaydi. «Borodino jangi va Rusyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo`lishining 100 yillik yubileyi sanasiga bag`ishlanadi» degan vaj bilan Tiflis (Tbilisi) senzurasidan o`tkazadi. Drama 1913 yil bosilib chiqqan, ammo sahnaga qo`yish uchun yana bir yilcha vaqt ketadi. Asar Samarqandda 1914yil 25 yanvarda sahnaga qo`yildi. Drama xalqqa kuchli ta`sir ko`rsatadi. Abdulla Qodiriy «Baxtsiz kuyov» dramasini shuning ta`sirida yozgani ma'lum. «Padarkush» ham janr, ham mazmuniga ko`ra yangi uzbek adabiyotini boshlab bergen asar bo`ldi. Drama Toshkentda 1914 yil 27 fevralda Avloniyning “Turon” teatr truppasi tomonidan qayta sahnalashtiriladi. 1914-1916 yillarda truppa bu spektaklni Farg`ona vodisining barcha shahar va qishloqlarida qo`ygan va mashhurlikka erishgan.

Behbudiy 1917 yil aprelda «Samarqand» gazetasini chiqaradi. Gazeta o‘zbek va tojik tillarida, haftada ikki marta chop etildi. 45-soni chiqqach, moddiy tanqislik tufayli nashr to‘xtadi. Shu yil 20 avgustdan u «Oyna» jurnalini chiqara boshladi. Haftalik, suratli bu jurnal asosan o‘zbekcha bo‘lib, she’r, maqola (forscha), e’lonlar (ruscha) ham berib borildi. Jurnal Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg‘oniston, Hindiston, Turkiyagacha tarqaldi.

Behbudiy kitob nashrini ham yo‘lga qo‘yadi. 1913 yilda Fitratning «Bayonoti sayyohi hindisini ruschaga tarjima kildirib bostirdi.

Behbudiy 1914 yil 29 mayda ikkinchi marta Arab mamlakatlariga sayohatga chiqadi. Sayohati davomida “Kitobxonai Behbudiya” uchun Istanbul, Misr, Qrim, Kafkaz, Rossiyadan kitoblar, rasm, turli qoliplar (klishe) va boshqa ko‘plab manbalar olib kelishni rejalashtirdi. Bayramali, Ashxobod, Krasnovodsk, Kislovodsk, Pyatigorsk, Jeleznovodsk, Rostov, Odessa shaharlarida bo‘ladi, 8 iyunda Istanbulga keladi. Undan Adrnaga o‘tib, yana Istanbulga qaytadi va 20 iyunda Ismoilbek Gasprinskiy bilan uchrashadi. So‘ng Quddus, Bayrut, Yofa, Xalil ar-Rahmon, Port Said, Shom shaharlarida bo‘ladi. Sayohat xotiralari «Oyna» jurnalida bosilib turadi. Bu «xotiralar» har jihatdan muhim bo‘lib, an’anaviy tarix memuar janrining XX asr boshidagi o‘ziga xos namunasi edi. Muallif unda yo‘l taassurotlariga, kishilar bilan uchrashuvlarining ibratli tomonlariga keng o‘rin beradi. Qaysi shaharga bormasin, uning tarixi, obidalari, u yerdan chiqqan buyuk zotlar haqida ma’lumotlar to‘playdi. Turlituman millatlar, ularning urf-udumlari, turmush madaniyati bilan qiziqadi. Ayniqsa, din, e’tiqod asalalariga katta ahamiyat beradi. «Oyna» jurnalida millat va uning haq-huquqiga, tarixiga, til va adabiyot masalalariga, dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan. Behbudiy millatning taraqqiyisi uchun bir necha til bilishni shart hisobladi. Jurnalning birinchi sonidayoq «Ikki emas, to‘rt til lozim», degan maqola bilan chiqib, o‘zbek, tojik, arab, rus va hatto biror uzoq xorij (mas, fransuz) tilini bilish shart deb hisobladi. Ayni paytda tilning muhofazasi («Har millat o‘z tili ila faxr etar» —1914, № 35), o‘zaro munosabatlari («Til masalasi» — 1915, № 11,12) haqida muhim va zarur maqolalar chop etdi. Behbudiy matbuotimiz tarixida maqolanavis sifatida alohida mavqega ega. Uning hozircha aniqlangan maqolalarining soni 300 ga yetadi. Ular xilma-xil mavzuda. Behbudiy o‘zlikni anglashga katta e’tibor bergen. «Qabilasini(ng) ismini va yetti otasining otini bilmaydurgonlarni «qulq «marquq» derlar», deb yozadi («Sart so‘zi majhuldur», «Oyna» jur., 1914, № 23). Keyinchali buyuk adib Chingiz Aytmatov manqurt atamasini jahon adabiyotiga olib kirdi.

U 1917 yilning oxiri - 1918 yilning boshlarida jadidlar qurgan ilk demokratik davlatchilik namunasi Turkiston muxtoriyatining taqdiri hal bo‘layotgan bir paytda o‘lka xalqlarini birlikka chaqiradi. Behbudiy ijtimoiy-siyosiy ishlarga qizg‘in qo‘shildi. Aslida bu faoliyat 1906 yildan boshlangan. Shu yili «Rusiya musulmonlari ittifoqi»ning Nijniy Novgorodda o‘tkazilgan qurultoyida qatnashgan edi. 1917 Toshkentda bo‘lib o‘tgan Turkiston

musulmonlarining qurultoyida ishtirok etib, nutq so‘zladi. U musulmonlar orasidagi har qanday ixtilofga qarshi chiqdi. Behbudiy shu qurultoyda o‘lka musulmonlar sho‘rosining raisi etib saylandi. 1917 yil 26 noyabr kuni Qo‘qonda o‘lka musulmonlarining IV favqulodda qurultoyi ish boshladi. 27 noyabrga o‘tar kechasi «Turkiston muxtoriyati» e’lon qilindi. Uning g‘oyaviy asoschilaridan biri Behbudiy edi. Muxtoriyat sho‘rolar tomonidan vahshiyona bostirildi. Behbudiy may oyining boshlarida Samarqandga qaytadi. U yerda ko‘p tura olmay Toshkentga keladi. Turkiston sho‘rolar hukumati rahbarlari bilan muzokara olib borishga urinadi, ammo natija chiqmaydi. 1919 yilning erta bahorida mamlakatdan chiqib ketayotganida Shahrisabzda Inqilobiy favqulodda komissiya ayg‘oqchilari ko‘magida Buxoro amirligi odamlari tomonidan qo‘lga olinadi, hamrohlarituk muallim Naim afandi, Muhammadqul O‘roqboyev va Mardonqul Shohmuhammadzoda bilan birgalikda Qarshida zindonga tashlanadi va qatl qilinadi. Bu voqeа Samarqandda bir yildan keyin ma’lum bo‘ladi. Fitrat, Cho‘lpon, Ayniy va boshqa shoirlar Behbudiyga atab marsiyalar yozganlar. Fitrat “**Behbudiy ruhiga ithof**” she’rida shunday yozgan edi:

*Sani mundin buyon Turon ko ‘rolurmu, ko ‘rolmasmu?  
 Sanining mislingni Turkiston topolurmu, topolmasmu?  
 San, ey ustodi oliyshon, eding ajuban davron,  
 Otingni tilga har inson buyuk hurmat-laolmasmu?  
 Saning tarixiy davroning, saning osoru urfoning,  
 Saning noming, saning shoning jahon qoldiqcha  
 qolmasmu?  
 Saning ko ‘ksung cho ‘kulganmu, saning beling bukulganmu?  
 Saning qoning to ‘kulganmu? Muni(ng) hech kim  
 so ‘rolmasmu?  
 Boshingni kesduran qotil, badtiynat, u sangin dil,  
 Xudodan gar esa g ‘ofil,xaloyiqdan uyolmasmu?  
 Vatan avlodи yod etdi, sanihurmat-la shod etdi,  
 Jahonda zulmdur zohir, jahon xunxo ‘r,jahon jobir,  
 Jahondan bir zamoni oxir stamgarlik yo ‘qolmasmu?  
 Behishtu hurin g ‘ilmon sanga haq aylasun ehson,  
 Sanga rahmat, sanga g ‘ifron xudoyim yetkazolmasmu?*

Qarshi shahri 1926-1937 yillarda Behbudiy shahri deb yuritilgan. Toshkent shahridda ko‘cha va maktabga Behbudiy nomi qo‘yilgan. Professor Begali Qosimovning Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Tanlangan asarlar”iga yozgan “Karvonboshi” maqolasida Behbudiyning uch o‘g‘il va bir qizi bo‘lganligi 1897-1898 yillarda tug‘ilgan Mas’udxo‘ja gimnaziyada o‘qiganligi, rus tili mutaxassisligiga ega bo‘lib, tarjimonlik bilan shug‘ullanganligi 1953 yilda vafot etgan-deb yozadi. Mas’udxo‘janing farzandlari Shavkat (1919-1990), Midhat (1922 yilda tug‘ilgan Dushanbeda yashagan), Nadimxon (1929-1995),

SamDU professori bo‘lgan. Nazirxon (tijoratchi) va ularning avlodlari turli sohalarida xizmat qilyotganliklar ma’lum. Midyat Behbudiyning Toshkentda 1945 yilda tug‘ilgan o‘g‘li Sarvat Behbudi –mashhur sirk artisti bo‘lgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning Maqsudxon (1910-1931) ismli ikkinchi o‘g‘li geografiya ilmiga qiziqanligi va iqtidorli bo‘lganligi, yigirma bir yoshida vafot qilganligi ma’lum.

Behbudiyning 1914-1916 yillar oralig‘ida tug‘ilganligi taxmin qilingan uchinchi o‘g‘li Matlubxon ikkinchi jahon urushida bedarak ketgan.

Qizi Parvin (Surayyo) 1984 yilda 82 yoshida vafot etgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti va pedagogik faoliyati haqida o‘tgan asrning yigirmanchi yillarda vaqtli matbuotda S. Ayniy, Hoji Muin, Laziz Azizzoda kabi ma’rifat darg‘alari tomonidan maqola va xotiralar e’lon qilingan. O‘tgan asrning ikkinchi yarimidan hozirgi kunga qadar O‘zbekistonda B. Qosimov, N. Karimov, S. Ahmedov, Sh. Turdiyev, A. Aliyev, S. Qosimov, H. Sayd, N. Avazov, 3.Axrorova, Tojikistonda (R. Xodizoda), Germaniyada (I. Baldauf; B. Qosimov bilan hamkorlikda), AQShda (E. Olvort) va boshqa mamlakatlarda ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

## **2.Maxmudxo‘ja Behbudiyning pedagogik merosidan bashlang‘ich sinflarda foydalanish imkoniyatlari**

Mahmujxo‘ja Behbudiyning «Kitobi muntaxabi jo‘g‘rofiyai umumiylar», to‘liq nomi «Kitobi muntahabi jug‘rofiyai umumiylar namunai jug‘rofiya» («Umumiy jo‘g‘rofiyadan saylanma kitob, 1906») darsligida, «yangi ilmdan bexabar ulamolar»ni dunyoviy va diniy bilimlar o‘rtasiga sun‘iy to‘siq qo‘yish, nodonliklari tufayli islom dinini obro‘sizlantirishda aybladi. Muallif ushbu darsligida: «Agarda jo‘g‘rofiya o‘qumasak, dunyog‘a taraqqiy qilolmaymiz», - deb ta’kidlaydi.

Muallif ushbu darsligini nashr ettirish uchun 1905 yil 24 avgustda Sankt-Peterburg senzurasidan ruxsat olinib, 1906 yil Samarqandda G.I.Demurov matbaasida chop ettirgan. Darslik 106 sahifadan iborat. Uning dastlabki sahifalarida geografiyaning fan sifatida maydonga kelish tarixi, qadim Turkiston olimlarining bu sohadagi xizmatlari yoritiladi, ularning asarlaridan namunalar keltirilgan. Muallif Shamsiddinbek Somiyning (1850-1904) 6 jildlik mashhur «Qomus ul-a’lom» va I.Gasprinskiiyning «Turkiston ulamosi» kitoblaridagi hujjat va dalillarga suyanib fikr yuritgan. Muallif juda sodda qilib osmon jismlarining joylashishi va harakatini tushuntiradi. «Hukamo qavlicha, Yerni(ng) yumaloqligi alomatlari» deb nomlangan matnda muallifning o‘z kuzatishlari ko‘proq seziladi. Unda Peterburg, Toshkent vaqtin dunyoning boshqa shaharlariga qiyosan berilgan va ikkita jadval ilova qilingan.

Mahmudxo‘ja Behbudi zamonasidagi mavjud idora usullarini uchga bo‘ladi:

-idorai mustaqalla (monarxiya);

-idorai mashruta (konstitutsiyali parlamentli hokimiyat);

-idorai jumhuriyat (Respublika). Shuningdek u odamlarni oq, qora, qizil va sariq tanlilar deb irqlarga ajratilishini qayd etadi.

Yerning harakati, dunyoning qurilishi haqidagi gelotsentrik tuzilma va uning Yevropa ilmidagi vakillari N.Kopernik, Kepler, G.Galileylar faoliyati haqida to‘xtalib o‘tadi.

Ushbu darslikda muallif: «...Asri hozirgi tashviqoti ila iste’dodi ojizonamizcha, bataqdiri hay, qadim fan jug‘rofiyaga taalluq ushbu kitobni tahrir va jam’ aylab, «Muntaxabi jug‘rofiyai umumiyy» yod qilib ba’zi mahalig‘a ta’rix, riyoziy, muhokamoti diniy, umroniy, siyosiy va andagi kutubi diniyadan bayon va iqtibos girma qildik. Fan to‘g‘risindagi ijmol xulosa va tafsilot turkiy, arabiyy, forsiy, rus lug‘atlarig‘a tasnif bo‘lgan o‘ttuz qadar qadim va jadid mo‘tabar nusxa va har guna mazkur lug‘atlardagi» gazit-jarida, atlas, xarita, kurrai mumuttaha, istaticheski majmuallardan jam’ va tartib qilingandur» deya ma’lumot bergen.

Darslikda bir sahifa atrofida kirish so‘zi berilgan. Undagi ilk mavzu «Jo‘g‘rofiya» deb deb nomlanadi.

Bu o‘rinda muallif geografiya so‘ziga ta’rif berib, uni bir necha bo‘limlarga ajratadi. YA’ni «jo‘g‘rofiyai riyoziy», «jug‘rofiyai tabiiy» «jug‘rofiyai tarixiy», «jo‘g‘rofiyai siyosiy», «jo‘g‘rofiyai umroniy» va boshqalar. U geografiyaning ahamiyati to‘g‘risida, darslikning xulosa qismida bat afsil to‘xtaladi. «Jo‘g‘rofiya qachon poydo bo‘lgan?» degan sarlavha ostida, mazkur fanning qachon vujudga kelganligi hamda taraqqiyoti haqida ayrim fikrlar bayon etiladi. Ushbu bo‘limda geograf olimlar, ular yaratgan asarlar haqida ma’lumotlar berilgan.

M.Behbudiy osmon jismlari, yerning aylanishi haqidagi ma’lumotlarni bolalar yoshiga mos tilda bayon etishga harakat qilgan. Shuningdek, darslikda geografiyaga oid ko‘plab kitoblar yozilganligi, Abulqosim Ubaydullohning «Kitob al-masolik va-l-mamolik» va «Kitob as-samo» risolalari mavjudligi, ularning fransuz va nemis tillariga tarjima qilingani, geografiyaning rivojiga hissa qo‘shtigan olimlar, ularning asarlari, amerika qit’asining kashf etilishi, dengizlar, bo‘g‘ozlar, Rusiya va Yevropa mamlakatlari, geografiya fanining hamon rivojlanishda ekanligi haqida bat afsil ma’lumotlar keltirilgan.

Darslikdagi navbatdagi bo‘limi «Turkiston donishmandlari» deb nomlangan bo‘lib, unda musulmon ulamolaridan Ibn Sinoning lug‘at, mantiq, geografiya, musiqa, axloq, kimyo, abtoli ahkomi nujum, tabiat, hikmat, tib ilmlariga oid yuzlab asarlari borligi, ularning yevropa tillariga tarjima qilinganligi, Badriddin Samarqandiy, Abdurahmon Xorazmiy, Abu Yazid Balxiy, Abduraxmon Marvoziy, Abdurazzoq Hirotiy, Abu Ibrohim Gurgoniy, Sharif Xorazmiy, Ahmad bin Tabib Saraxsiy, Abu Mash’ar Balxiy, Abu Ja’far Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy kabi donishmandlar, ularning qaysi yo‘nalishda ijod qilganliklari haqida ma’lumotlar berilib, ular yashab ijod qilgan sanalar keltirilgan.

Muallif «Jo‘g‘rofiya o‘qumoqni naf‘i» sarlavhasi ostida, geografiya ta’limining ahamiyati va uning shaxs taraqqiyotidagi o‘rni haqida fikr yuritadi. U, jumladan, shunday deydi: «... Dunyo odamlarini din va mazhabi, tiriklik va raftori, taraqqiy va tanazzul sababi, yaxshi va yamonliklari, mamlakatlarni tinch va osoyish yo zulm va javrg‘a turgoni, xulosa, butun ahvoli dunyonи, podsholarni quvvati, davlati, odamlarini odati, yer yuzini ahvolini bildiradurgon ushbu ilmdur».

Darslikning diqqatga sazovor va o‘sha davr uchun zarur bo‘lgan bo‘limlaridan biri «Jo‘g‘rofiya o‘qumoq musulmonlarga lozimdir» deb nomlangan. Muallif ushbu bo‘limda yerni ho‘kiz shoxi bilan ko‘tarib turganligi haqidagi qarashning noto‘g‘riliqi, geografiyanı yaxshi o‘rgangan odam uning dumaloq ekanligini bilishi haqida babs yuritadi. Mazkur bo‘limda muallif Istanbul, Misr, Arabiston, Hindiston, Rossiya kabi mamlakatlarda geografiya fani chuqr o‘rganilishini ta’kidlaydi.

Ma’rifatparvar pedagog ushbu darslikda «Eski va yangi donishmandlar» haqida ham to‘xtalib, “eski donishmandlar” deb qadimgi yunon ulamolari va “yangi” deb yevropa olimlarini aytish lozimligini ta’kidlaydi. O‘zaro qiyoslash asosida ularning yer haqidagi qarashlarini o‘quvchilarga tushuntirib, yevropaliklarning fikrlariga qo‘shilishini qayd etadi. «Yangi hukamolarni so‘zidan namuna» sarlavhasi ostida, yerning quyosh atrofida aylanishi, yulduzlar yorug‘likni quyoshdan olishi, Mirrix (Mars) planetasi, unda ham tuproq, tosh, o‘t, suv, bulut, yomg‘ir va qor borligi haqida to‘xtaladi. Mazkur o‘rinda muallifning noto‘g‘ri fikr yuritganligini ta’kidlash joizdir. Chunonchi muallif: Marsda odam yashaydi va ularning bilimi bizdan zo‘r, durbin bilan qaralsa, daryolarning suvlari ko‘rinadi,. Mars yerdan olti marta kichik bo‘lib, kecha-kunduz, qish va yozlari bor. 1346 yil Neptun topilgan, uning quyoshdan uzoqligi 4175 mln. chaqirim, deb yozadi. Shuningdek, u darslikda yerning yoshi haqida ham to‘xtaladi.

Darslikdagi «Yer aylanganda ustidagilarini yiqilmasligi» nomli mavzu o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lib, unda yerning tortishish kuchi haqida fikr yuritiladi.

Navbatdagi mavzu «Atrof 1. Jihoti 2 asliya. Xarita. Plan» deb nomlanib, unda muallif shimol, janub, g‘arb, sharq tomonlari va kompas haqida fikr yuritadi. Xarita bilan ishlash, xaritani yaratish uchun minglab ustodlar, muhandislar, sayyohlar 500 yildan beri o‘lchab, yozib yurganliklari, «miqyos» (masshtab), xarita turlari: xaritai xususiya, xaritai umumiya, xaritai to‘po‘grofiya, xaritai zao‘lo‘jiya, xaritai tabiiyya, xaritai bahriya, xaritai ziroya, xaritai etno‘grafiya kabilar haqida to‘xtalib o‘tadi, shunday bir necha xaritalar to‘planib kitob shakliga keltirilsa, atlas hosil bo‘lishi uqtiriladi.

Darslikdagi «Hukumat va hukmronlar» nomlangan bo‘limda muallif shunday yozadi: «Yer yuzidagi badaviy va madaniy xalqlarni hukmdor va sardorlari bo‘ladurki, bek, amir, shoh va boshqa ism va lug‘atlar ila ataydurlar...

Ovrupo xalqi imperato'r, qirol, do'qa, prins, prezident, kenaz va boshqa lug'atlar ila ataydurlar».

Ushbu bo'limda muallif Yevropa mamlakatlari qonunlari, turli xalqlar turmush tarzi, podsho va vazirlar, boshqaruv tashkilotlari haqida ham fikr yuritadi.

Darslikda yoritilgan navbatdagi mavzu «Din va odat» deb nomlanadi. Bunda muallif barcha millatlar e'tiqod qiladigan dinlari, dinlarning bir necha mazhablari, butparastlik, xrestianlik, islom dini haqida fikr yuritadi.

Darslikda «O'lchak - miqyos, mablag' - pul» mavzusi ham yoritilgan bo'lib, unda fransuz olimlarining ixtirolari, xaritalardagi vertikal va meridian chiziqlar, masshtabni aniqlash yo'llari haqida fikr yuritilgan.

Muallif Rossiya, Samarqand, Farg'ona, Toshkent shaharlarining maydoni, ularning qaysi km.meridianda va qaysi km.vertikalda yotishini misollar bilan bayon qiladi.

Darslikda bir qator ilovalar ham mavjud. Masalan: hijratdan 4500 yil oldingi Misr voqealaridan 1906 yildagi Rusiya Davlat Dumasi ochilishigacha bo'lgan jahon tarixidagi hodisalar sanasi «Ahvoli tarixiyadan namuna» sarlavhasi bilan berilgan. Shuningdek, «Yevropa», «Osiyo», «Afriqo», «Amriqoyi shimoliya», «Amriqoyi janubiy», «Avstraliya», «Mamlakati Rusiya»ning alohida-alohida xaritalari, yer kurrasining yarim sharlari maxsus sahifalarda keltirilgan. Shuningdek, darslikda ko'rfaz, bo'g'oz, daryo va ko'llarning jug'rofiy shakllari, tabiat hodisalari, osmon yoritkichlari harakatini tushuntiruvchi turli suratlar, irqlarni farqlab ko'rsatuvchi rasmlar ham berilgan[42].

1906 yilda «Turkiston viloyatining gazeti» sahifalarida darslikka taqrizlar beriladi, ayrim taqrizchilar darslikka ijobjiy xulosa bersalar, ayrimlari uni qoralaydilar. Jumladan, ushbu gazeta xodimi Mulla Olim, Mahmudxo'ja Behbudiy kitoblarining tili og'irligidan shikoyat qiladi.

Bizningcha, "Turkiston jadidlari otasi" deb nom olgan Mahmudxo'ja Behbudiyning maorif sohadagi xizmatlari g'oyat katta. U yangi maktablar ochish, bolalar yoshi va psixologik xususiyatlarini hisobga olib, darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish ishiga rahbarlik qilgan, bu sohada boshqa ziyolilarga ibrat bo'lgan. U hatto «Behbudiy nashriyoti» nomida nashriyot ochib, unda maktablar uchun darslik hamda o'quv qo'llanmalar nashr qildirgan.

M.Behbudiy millatning barkamolligi uchun ilm fan yutuqlarini o'rgatish zarurligi, ilm-fandan bexabar bo'lgan xalqning boshqa millatlar tomonidan ezilishini to'g'ri ta'kidlagan edi.

Bizga ma'lumki, jadidlar ma'rifatparvarlik, vatanparvarlik, millat kamoli yo'lida jonbozlik ko'rsatganlar. Biroq, ularning harakati mazmuni va mohiyati, maqsad va vazifasi o'sha davrda ham, sovet davrida ham g'arazli maqsadda talqin qilindi. O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davri IX-XII asrlarda vujudga kelib, bu asr oralig'idagi ilmiy-madaniy yuksalish Ma'mun Akademiyasi misolida namoyon bo'lgan edi. Ikkinchi uyg'onish davri Temur va temuriylar hukmronlik

qilgan yillarga to‘g‘ri keladi, ushbu davrda buyuk davlat qurilishi (Amur Temur sultanati) amalga oshirildi, Mirzo Ulug‘bek tomonidan bunyod etilgan XV asrning buyuk mo‘jizasi rasadxona yorqin yulduz bu davrning ilmiy tafakkurining yorqin namunasidir. Oradan IV asr o‘tgach, jadid ziyolilar uchinchi Milliy uyg‘onish jarayonini vujudga keltirdilar. Ular boshqa ijtimoiy-siyosiy fanlar qatori hozirgi geografiya o‘quv fani zarurligini asoslab, bu sohada dastlabki darsliklarni yaratdilar.

M.Behbudiy milliy geografiya ta’limining shakllanishiga munosib hissa qo‘shti. Uning «Turkiston xaritasi» darsligi va o‘quvchilarga geografiya sohasiga oid bilimlarni o‘qitish zarurligi haqidagi maqolalari muhimdir. M.Behbudiy yaratgan darsliklarning saviyasi o‘sha davr nuqtai nazaridan yuqori, bugungi kunimiz uchun ham muhim didaktik ahamiyatga ega. Zamonaviy darslik yaratish uchun intilayotgan asrimiz metodist olimlari va o‘qituvchilar o‘z amaliy faoliyatlarida mazkur darsliklarda ilgari surilgan ilmiy-metodik yondashuvlardan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir. Biroq darsliklarning tili bir qadar murakkab, ularda arabcha, forscha so‘zlarning miqdori nihoyatda ko‘pligi, ayrim so‘zlarni tushunib bo‘lmasligini ham etiborga olish kerak.

Ajdodlarimizning madaniy - ma’naviy va ilmiy-pedagogik merosi qadimiy va boydir. Milliy qadriyatlarimizni anglash, milliy g‘oya va mafkurani xalq ongida shakllantirish hozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

#### **4-Mavzu: Munavvarqori Abdurashidxonovning ijtimoiy – pedagogik faoliyati**

##### **Reja:**

- 1.Munavvarqori Abdurashidxonovning hayoti va ijtimoiy – pedagogik faoliyati
- 2.Munavvarqori Abdurashidxonov pedagogik merosining tarbiyaviy imkoniyatlari
- 3.Munavvarqori Abdurashidxonovning “Yer yuzi” darsligning pedagogik ahamiyati
- 4.Sinfdan tashqari o‘qish darslarida Munavvarqori Abdurashidxonovning asarlaridan foydalanish shartlari

**Tayanch tushunchalar:** Munavvarqori Abdurashidxonov, “Yer yuzi”, ijtimoiy – pedagogik faoliyat.

#### **1.Munavvarqori Abdurashidxonovning hayoti va ijtimoiy – pedagogik faoliyati**

XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida jadidchilik harakatining shakllanishida, yangi usul mакtablarining rivojlanishida buyuk o‘zbek ma’rifatparvari Munavvarqori Abdurashidxonovning munosib hissasi

bor. Turkiston o‘lkasi ijtimoiy-siyosiy hayotida M. Abdurashidxonovning faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

U 1878 yilda Turkistonning ijtimoiy-siyosiy va madaniy markazlaridan biri – Toshkent shahrida dunyoga keldi. Munavvarning otasi – Abdurashidxon shahardagi Shayx Xovandi Tahir daxasi Darxon mahallasida istiqomat qilib, mahalladagi Eshonquli dodxoh madrassasida va o‘z uyidagi eski maktabda dars berar edi. Abdurashidxon Sotiboldixon Olimxon o‘g‘lining uch nafar farzandi bo‘lib, to`ng`ichi - A`zamxon (1872-1919), keyingisi Muslimxon (1875-1954)lar ham bir umr ma’rifatparvarlik bilan shug‘ullanganlar. Muslimxon sho‘ro davrida ko‘p qiyinchiliklarni boshidan kechirgan. Munavvar uchinchi o‘g‘il bo‘lib, otasi 1885 yil vafot etgan. Shu sababli yetti yoshli Munavvar xatsavodni o‘z uyida onasi Xosiyatxon otinoyidan o‘rgangan. Xat-savodi chiqqach daxadagi mashhur mudarrislardan biri Usmon qori qo‘lida Qur’onni xatm qilib “qori” bo‘ldi. Keyin esa o‘sha davrdagi mashhur madrasalardan biri Yunusxon madrasasida ta’lim-tarbiya oldi. Keyinroq esa o‘qishni Buxoroi sharifda davom ettirib fiqx, tafsir va hadis ilmlarini o‘rgangan. Toshkentga qaytib kelib, Darxon mahalla masjidida imomlik qilgan.

Munavvarning bolaligi, yoshligi murakkab davrga to‘g‘ri kelgan. Chor hukumatiga qarshi 1892 yil 24 iyunda boshlangan “Vabo qo‘zg‘oloni”, “Musulmonchilik g‘arib bo‘ldi, hurriyatimiz g‘ayb bo‘ldi, istiqlolimiz maxv, o‘zimiz o‘tmas, so‘zimiz kechmas bo‘lduk”, -degan xitob bilan 1898 yil may oyida qo‘zg‘olon boshlangan. Muhammad xalfa Sobir o‘g‘li – Dukchi eshon qo‘zg‘olnlari va bu qo‘zg‘olnlarni ayovsiz bostirilishiga guvoh bo‘ldi. Bu davrda turk dunyosida milliy uyg‘onish, “usuli jadid” g‘oyalari Munavvarga ham kuchli ta’sir qilgan. Munavvarqori istiqlolga ma’rifat orqali erishish mumkinligiga ishongan. Shu sababli 23 yoshida -1901 yilda qrimlik do‘sti Rasuli Kishod yordamida avval o‘z uyida, keyinroq esa shaharning boshqa joylarida yangi usuldagи mакtablar ochgan. Ko‘plab ma’rifatparvarlar kabi Munavvarqorining bu mакtabi ham Chor Rossiyasi hamda Turkiston o‘lkasida mакtab-maorif tizimini, ta’lim-tarbiya jarayonini eskicha qolishini xohlovchi-qadimistlar tomonidan qattiq tanqid ostiga olinadi va 1904 yilga kelib yopib qo‘yiladi. Shu uch yil davomida Munavvarqori besh yillik bilimni berishga muvaffaq bo‘lgan. Bu mакtabda Turkiston jadidchiligining yirik vakillari – Eshonxo‘ja va Xusanxo‘ja Xoniylar, Shokirjon va Sobirjon Rahimiylar, Abdusami’ qorilar dars o‘tganlar, Salimxon Tillaxonov, Fuzayl Jonboyev va Qayum Amazonovlar o‘qiganlar.

Munavvarqori 1904 yildan boshlab ijtimoiy-siyosiy ishlarga aralasha boshladi. Ma’lumki, 1905 yil Chor Rossiyasining Uzoq Sharqdagi mag‘lubiyatlari, Finlandiya va Polshadagi olib borayotgan siyosatining tanazullga uchrashi natijasida xalqqa ayrim konstitutsion erkinliklar berishga, Manifest e‘lon qilishga majbur bo‘ldi. Bu konstitutsion erkinliklar Turkistondagi milliy uyg‘onish jarayoniga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Mакtab-maorif, matbuotchilik rivojlandi. Erk va ozodlik uchun kurash uchqunlari ko‘rina

boshladi. Nijniy Novgorodda 1905 yil 15 avgustda Rusiya musulmonlari I – syezdi o‘tkazilib, unda 300 vakil Qrim, Kavkaz, Qozon, Yoyiq, Sibir va Turkistondan ishtirok qilganlar. Turkistonlik vakillarga Mahmudxo‘ja Behbudiy boshchilik qilgan. Syezdga raislik Ismoilbek Gaspirinskiyga yuklatiladi. Dunyoga tanilgan kishilardan Alimardonbek To‘pchiboshev, Abdurashid Ibrohimov (o‘zbek, Buxoroda tug‘ilgan), Yusuf Oqchura syezdda ma’ruza qiladilar. Syezdning asosiy masalasi Russiya musulmonlarining haq - huquqlari va ijtimoiy hayotini himoya qilish bo‘lib, asosiy maqsad esa “Ittifoqi muslimin” jamiyatini tuzish edi. Chunonchi, Turkistonda ham “Ittifoqi muslimin” ning sho‘balari va uni raislari tayinlanadi. Keyinchalik II syezd 1906 yil 19-23 yanvarda Sankt-Peterburgda 108 vakil ishtirokida, III syezd 1906 yil 16 avgustda Nijniy Novgorodda 5 kun davom etib “Ittifoqi muslimin”ni musulmon partiyasi deb e’lon qilindi. Syezdda 23 moddalik g‘oyat zarur bo‘lgan dastur tasdiqlanib, unda maktablarda 8-15 yoshli bolalar o‘qishlari majburiy va ona tilida bo‘lishi ta’kidlangan. 1907 yilning mayida Qozon, Petropavlovsk, Toshkent, Tiflis va Boqchasaroy kabi shaharlarda mualliflar yig‘ilishini o‘tkazish, dorul mualliminlar , darsliklarga e’tibor berish, ilg‘orlarni mukofotlash, o‘qituvchilarga imtiyozlar berish, xayriya jamg‘armalari va vasiylik kengashlarini tuzishgacha bo‘lgan masalalar belgilab olingan. To‘rtta Davlat Dumasida ham musulmon fraksiyasi ish olib borgan va katta kuchga aylangan. Sadri Maqsudiy, Qutlug‘ Muhammad Tevkilov, Ismoilbek Gasprinskiy, Alimardonbek To‘pchiboshev, Abdurashid Ibrohimov, Saidgaroy Sulton Jonturin, Ahmad Zaki Validiy, turkistonliklardan ayniqsa, Davlat Dumasida Abdujalil o‘g‘li Toshpo‘lat, Mahmudjon o‘g‘li Solihjon, Abduvohidqori Abduraufqoriyevlar faoliyat ko‘rsatganlar. Yuqoridagilardan ham ko‘rinib turibdiki, 1905 yildagi milliy uyg‘onish Munavvarqori Abdurashidxonova ham kuchli ta’sir ko‘rsatib “O‘rta Aziyaning umrguzoronligi”, “Taraqqiy” gazetalarida xodim bo‘lib muntazam chiqishlar kilgan. A. Avloniy “Bugungi o‘zbek vaqtli matbuotining tarixi” maqolasida 1905-1917 yillar oralig‘ida Turkistonda o‘zbek tilida 22 gazeta, 8 jurnal chop etilganligi, Ziyo Saidning 1927 yil chop ettirilgan “O‘zbek vaqtli matbuoti tarixi materiallar” (1870-1927) asarida 45 gazeta, 36 jurnal nashr qilinganligi ta’kidlangan. 1906 yil 27 iyunda Ismoil Obidiy tomonida 1-o‘zbek gazetası “Taraqqiy” gazetasını chiqargan bo‘lsa, 6 sentabrdan esa Munavvarqori “Xurshid” gazetasını chiqardi. 10-sonidan keyin yopib qo‘yilgan bu gazetani chiqarishda Fansurullobek Xudoyorxonov, Abdulla Avloniy, Komilbek va Karimbek Norbekovlar, Muhammadxon Podshoxo‘jayevlar muhim rol o‘ynadi.

Munavvarqorining faol ishtiroki va tashabbusi bilan A. Avloniying Sapyornaya 26 uyida 1907 yil 1 dekabrdan “Shuhrat” gazetasi chop qilina boshlandi. “Shuhrat” gazetasi ham 10-soni 1908 yil 19 fevraldan keyin yopib qo‘yilgan.

1908 yilda Munavvarqori, A. Avloniy kabi ma’rifatparvar jadidlar Ahmadjon Bektemirov nomidan “Osiyo” nomli gazeta chiqara boshlaydilar. Bu

gazeta A. Avloniyning uyida chop etiladi va 6-sonidan keyin chor hukumatining o‘lkadagi vakillari tomonidan yopib qo‘yilgan.

Bu davrda Munavvarqori “Usuli jadid” maktabini yana ochadi. Bu maktab uchun “Adibi avval” (1907), “Adibi soniy”(1907) kabi darsliklarni yozadi. “Adibi avval” o‘zbek tilidagi dastlabki alifbe kitoblaridan bo‘lib rus-tuzem maktablarida ham S.Aziziyning “Ustodi avval”i bilan birgalikda foydalanilgan. Munavvarqori ochgan maktablar va chop ettirgan “Usuli hisob”, “Havoyiji diniya”, “Tajvid”, “Tarixi qavmi turk”, “Tarixi anbiyo”, “Tarixi islomiya”, “Sabzovor” (to‘plam), “Yer yuzi”, “O‘zbekcha til saboqligi” kabi asarlari, darsliklari Turkiston maktablarida qo‘llanilgan, keng ko‘lamda amaliyotda foydalanilgan. Ayniqsa, 1910-1911 yillardan Munavvarqorining akalari A’zamxon, Muslimxon, yaqin qarindoshlari Hasan va Eshonxo‘ja Xoniylar va hamfikrlari Nizomiddin qori bin mullo Husayn, Rustambek Yusufbek o‘g‘li. Sa’dulla qori Abdullayev, shuningdek, Toshkent, Farg‘ona, Namangan, Qo‘qondagi askariyat jadid maktablarida uning 1-4 sinflar uchun tuzgan dasturidan foydalanilgan. Dasturga ko‘ra 2-sinfda “Adibi soniy”, “Havoyiji diniya”, “Hisob”, 3-sinfda So‘fi Olloyor kitobi (o‘qish va yozish uchun), Qur’on (Tajvid bilan tanishish), Havoyji diniya (2-qism), “Tarixi anbiyo”, Shopachnikov va Volsovning “Arifmetika”, “Nasihatni atfol”, “Tajvid” (Munavvarqori asari), 4-sinfda “Dahr-un-najot” (Munavvarqori asari), “Nasihat” (R. Faxriddinov asari), “Hisob masalasi”, arab tili, “Dur-ul-shifohiya”(Abdushukurov asari), “Fors tili” kitoblari o‘qitilgan. 1912 yilga kelib husnixat, jo‘g‘rofiya, islom tarixi, turk qavmlari tarixi darslarini o‘qita boshlaydi. Birinchilardan bo‘lib “Namuna” maktabini tashkil qilib rus tilini ham o‘qita boshlaydi.

Jadid maktablarida dunyoviy fanlarni o‘qitishga katta o‘rin ajratilgan. To‘rt yillik yangi usul maktablarida arifmetika, geografiya, tarix, tabiatshunoslik, adabiyot, odobnama, arab va fors tillari o‘qitilgan. Arxiv hujjatlari orasida Munavvarqori Abdurashidxonovning yangi usul maktabi uchun 1910 yilda tuzgan o‘quv dasturi saqlanib qolgan. Bu hujjat ixcham va namunaviy bo‘lganligi sababli uni to’laligicha keltiramiz:

1 – yil haftasiga 30 soat.

O‘qish va yozuv M.Abdurashidxonovning «Adibi avval» kitobi bo‘yicha.  
Namoz.

Hisob 10 gacha va 4 amal

2 - yil haftasiga 30 soat.

O‘qish M. Abdurashidxonovning (Adibi soniy) kitobi bo‘yicha.

Qur’on

Nomoz

O‘qish M.Abdurashidxonovning savol-javob asosida tuzilgan kitobi. «Havoyiji diniya» birinchi qism.

Qur’on

Nomoz

Hisob 100 gacha va 4 amal

3- yil haftasiga 30 soat

O'qish va yozuv «So'fi Olloyor» kitobi bo'yicha

Qur'on

O'qish M. Abdurashidxonovning kitobi. «Havoyiji diniya». 2-qism.  
«Tarixi anbiyo». Hanafiy kitobi.

«Muxtasar jug'rofiyo». Hanafiy kitobi.

«Hisob masalasi». Shaposhnikov va Valstov masalalar to'plamining tarjimasi.  
«Dunyo ma'lumoti». (Tibbiyat). A.Maqsdov kitobi.

«Tajvid» (Qur'oni to'g'ri o'qish qoidasi). M.Abdurashidxonov kitobi

4- yil haftasiga 30 soat

Qur'on

«Tarixiy anbiyo». Hanafiy kitobi.

O'qish. «Adabiyoti daxrun najat» M. Abdurashidxonov kitobi.

Axloq darsi. «Nasihat» Faxruddinov kitobi

«Hisob masalasi»

Arab tili. «Durus shifaxiya» Mahmudov kitobi

Fors tili. «Jamaul hikoyat» A. Abdushukurov kitobi

Munavvarqorining o'quv dasturidan ko'rinish turibdiki, barcha darslarning uchdan bir qismi diniy va uchdan ikki qismi dunyoviy fanlardir. Dasturdan jadid maktabining yana bir afzalligi, maktabda o'qitish, fanlarni o'zlashtirish tezlashganligi ko'zga yaqqol tashlanadi. 4 yillik boshlang'ich jadid maktablaridan 5-6 yil eski maktabda o'qitilgan asosiy diniy fanlar o'rganilgan va qo'shimcha ikki baravar ko'p miqdordagi dunyoviy darslar o'tilgan.

Munavvarqori jadid maktablari o'quvchilari uchun diniy va dunyoviy fanlar bo'yicha ko'plab darsliklar yozgan. Dasturda ko'rsatigan darsliklardan tashqari «Sabzazor» (She'riy to'plam), «Er yuzi» ("Jo'g'rofiya") va «Tarixiy islomiya» nomli darsliklarni ham tayyorlagan va ular maktablarda o'qitilgan.

Munavvarqori ochgan mактаб Markaziy Osiyoda mashhur bo'lib, Mahmudxo'ja Behbudiyning 1914 yil "Oyna" jurnalining 41-sonida "Muhtaram yoshlarga murojaat" maqolasida: ...Turkistonda muallim chiqormak uchun dorilmuallimin bo'lmasa ham, har shaharda usuli ta'limdan xabardor bir-ikki nafar muallim, albatta, bordur. Ana muallimlikka tolib kishilarni olarning huzurig'a yuborub, 3-4 oy zafarida usuli ta'limdan xabardor qilmoq mumkindur. Agar boyaga farz, ushbu xizmatni muallimlarimiz iltizom qilmasalar, ul holda muallimlikka havaskor yoshlarni biroz zahmatlik bo'lsa ham, to'g'ridan-to'g'ri Toshkentda Munavvarqori janoblarining maktabig'a yubormoq kerakdurki, mushorun olay uning (mazkur) shunday toliblarni mammuniyat qabul etmoqlarig'a amindurmiz"-deb ko'rsatib o'tgan.

A. Avloniy Munavvarqori, Toshhoji Tuyoqboyev, Qori Nizomiddin bin mullo Husayn, Boshirulla Asatillaxo'jayev kabi ma'rifatparvarlar bilan hamkorlikda 1909 yil 12 mayda "Jamiyatxiayriya" ochadi. Jamiyatning 41 moddadan iborat Nizomida maqsad- Turkiston viloyati nochor, muhtoj

musulmonlarning moddiy-ma’naviy ahvolini yaxshilash, yetimlar, keksalar, nogironlar uchun kasalxona, ambulatoriya, choyxona, oshxona, yotoqjoylar ochishdan boshlab yoshlarni maktabda o‘qitish, oliy ma’lumot olish uchun chet ellarga yuborish kabi masalalargacha ko‘rsatib berilgan. Bu jamiyat faoliyati haqida “Toshkentda musulmon jamiyati” maqolasida yozadi: “Bir necha maktab va madrasalarga yuz so‘m va ikki yuz so‘mlab ionalar berdi. Bir necha bechoralarga oylik ionalar bermakda va oltmis qadar faqir va qashshoq bolalarni turli maktablarda o‘qitib tarbiya qilib turmakdadur”.

1909 yil bahorida Buxoroda “Shirkati Buxoroyi sharif” tuzilib, maktab-madrasalarda o‘quv-o‘qituv ishlarini o‘rganish maqsadida Istanbul va Boqchasaroyga vakillar borib keldilar. 18 iyulda esa “Tarbiyai atfol” jamiyati tuzildi va asosiy maqsad to‘plangan mablag‘ hisobidan Turkiyaga o‘qishga yuborish edi.

Toshkentda tuzilgan “Jamiyati xayriya” hisobidan Ufadagi “Oliya” (1906 yilda Ziyo Kamoliy tashkil qilgan. Ibrohimov O, Qozonli F.S.kabi adiblar dars bergan) va 1890 yilda Orenburgda ochilgan “Husayniya”da bir guruh turkistonlik yoshlar o‘qigan. Chunonchi, “Oliya”da Mo‘minjon Muhammadjonov, Mirmuhsin Shermuhammedov, Abdulla Olimiy, Abdulhay Tojiyev, Tohir Shokir (Chig‘atoy)lar bunga misol bo‘la oladi.

Buxorodagi “Tarbiya atfol” jamiyati tomonidan 1909-1913 yillarda Abdurauf Fitrat, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘ja o‘g‘li, Ato Xo‘jalar Turkiyada o‘qiganlar. 1911 yilda 15 talaba keyingi yili esa 30 nafar buxorolik talabalar Turkiyada oliy ta’lim olganlar. Buxoroliklardan tashqari Turkistondan H.H.Niyoziy Istanbuldag“Dorulvoizinda”, G‘ozi Yunus esa dorulmualliminda o‘qiganliklari ma’lum.

Munavvarqori “Jamiyati xayriya”da rais muovini bo‘lib ishlagan va yoshlarni xorijda o‘qishlariga katta hissa qo‘shgan.

XX asr boshlarida Chor Rossiyasining mustamlakalari ichida Finlandiya, Polsha kabilar ham bo‘lib “Yosh finlar” jamiyati tashkil qilingan edi. U Finlandiyada muxtoriyat hattoki mustaqillik uchun kurash jarayonini yaqindan o‘rganish va bu tajribalarni Turkistondagi holat bilan taqqoslash maqsadida tajriba oshirish uchun Munavvarqori 1911 yilda do‘stlari Abdusamig‘qori Hidoyatboyev va Hakim Sarimsoqovlar bilan birga Finlandiyaga boradi. U yerdan qaytishda Petirburgda islomshunos olim Muso Jarulloh Begiyev bilan suhbatlashadi.

1913 yilda U. Xo‘jayev, Munavvarqori, T. Norbo‘tabekov, A. Avloniy, K. Norbekov, M. Podshoxo‘jayev, B. Asadullaxo‘jayev, K. Boboxo‘jayev, N. Asamiddinxo‘jayev kabilar tomonidan “Turon” jamiyati tuziladi. Jamiyat qoshida 25 kishidan iborat teatr truppassi tuzilgan. “Bu vaqtida bizning maqsadimiz zohirda teatru bo‘lsa ham, botinda Turkiston yoshlarini siyosiy jihatdan birlashtiruv va inqilobga hozirlov edi”, -deb ta’kidlagan edi A. Avloniy o‘zining “Tarjimai holim”ida, “Padarkush”-o‘zbek tilidagi birinchi dramma hisoblanib M. Behbudiy drammani 1911yilda yozib tugatgan va uzoq davom

etgan harakat natijasida 1913 yilda chop ettirgan. 1914 yil 15 yanvarda Samarqandda sahnaga qo'yilgan. "Turon" truppasi esa "Padarkush"ni 1914 yil 27 fevralda Toshkentning Kolizeyida qo'yilgan. Munavvarqori spektakl oldidan qizg'in nutq so'zlaydi: "Teatr sahnasi har tarafi oynaband qilingan bir uyg'a o'xshaydirki, unga har kim kirsa o'zining husn va qabihini, ayb va nuqsonini ko'rub ibrat olur. Va bu sahnada ko'ziga yomon ko'rungan past odatlardin va buzuq ahloqlardin uzr qilmoqg'a harakat qilur"-degan edi.

Munavvar qorining nutqidan ta'sirlangan Tavallo she'r yozadi:

Cho'q munavvar etti olamni Munavvarqorimiz,  
Ko'rdimiz ravshanlig'idan fe'limiz, atvorimiz.  
Ibrat oling, yoshlari, deb to'kdi ko'zdin yoshlari,  
Nutqida tahrir edub, bizlarni yo'qu borimiz.  
Shuncha bid'atlarni bilduk, voy, biz iqrormiz.

Munavvarqori va uning hammaslaklari 1914 yil 30 avgustda "Nashriyot" shirkatini tuzdilar. "Nashriyot"dan maqsad- o'lkadagi musulmon aholisi o'rtasida umumevropa madaniyati va ma'rifatini gazetalar, jurnallar, kitoblar va ularning savdosi orqali yoyish bo'lган. Munavvarqori bilan birga A.Avloniy, Tojixo'ja Azizzxo'ja o'g'li, Xusanxo'ja Dadaxo'ja, Abdulhakim Sarimsoqov, K. Norbekov, Muhammadjon Podshoxo'jayev, Ubaydullaxo'ja Umarxo'ja o'g'li olib borganlar. Munavvarqori keyin esa "Maktab" shirkatini ochilishiga katta hissa qo'shgan.

"Turon" jamiyati qoshida "Nashriyot", "Maktab" shirkatlaridan tashqari "Turon" kutubxonasi, "Turon" teatr truppasini, 1917 yilga kelib madaniyoqartuv ishlarining eng faoli shubhasiz Munavvarqori va A. Avloniy bo'lган.

1914 yilning 4 apreldidan Ubaydullaxo'ja Asatillo Xo'jayevning "Sadoyi Turkiston" gazetasi chiqqa boshlagan. Ubaydullaxo'ja Asatullo Xo'jayevga Munavvarqori yaqindan yordam bergen, ba'zan esa muharrirlik ham qilgan. "Sadoyi Turkiston"da A. Avloniy, Tavallo, Cho'lpon, Hamza, Abdurauf Muzaffarzoda, Mirmuhsin Normuhammedov, Shokirjon Rahimi kabi o'nlab jadidlar faoliyat ko'rsatdilar, chiqishlar qildilar.

Munavvarqori gazetachilik bilan cheklanmay Abdurahmon Sayyoh Sodiqov nomiga rasmiylashtirib 'Al-isloh' nomli jurnalni 1915 yil martidan boshlab chop ettirdi.

Munavvarqori 1916 yilda Turkiston mardikorlikka olish qo'mitasi raisining o'rinnbosari bo'lib ishlagan bo'lsa, 1917 yil fevral voqealaridan keyin "Sho'royi islomiya" jamiyatini tuzgan edi. "Sho'royi islomiya"ni tashkil topishida Munavvarqori, Mustafo Cho'qayev, Abdulvohidqori, Ahmadjon Temirbekov, Mirkomil Mo'minovlar muhim rol o'ynadilar. Ma'lumki, 1917 yil Chor Rossiyasi poytaxti Peterburgda qo'sh hokimiyatchilik yuzaga kelgan bo'lsa Turkistonda: a) Muvaqqat Hukumatning Turkiston qo'mitasi; b) O'lka ishchi va askarlar sho'rosi; v) o'lka milliy sho'rosi; ("Sho'royi islomiya" asosida) vujudga kelgan.

Mart oyidayoq Turkistonning ko‘plab shaharlarida “Sho‘royi islomiya”ning shtablari tuzildi. Zaki Validiy, Munavvarqori, M. Behbudiy, O. Mahmudov, A. Zohiriy kabi jadidlarning sa’y-harakatlari bilan 16-23 aprelda Toshkentda “Sho‘royi islomiya”ning qurultoyi bo‘lib o‘tdi. Qurultoy a’zolari oldiga 3 ta asosiy maqsad qo‘yildi: a) Turkiston musulmonlari orasida siyosiy, ilmiy va ijtimoiy jihatdan zamonga muvofiq islohot fikrini tarqatish; b) butun Turkiston musulmonlari bir fikr va maslakga keltirmaqga tadbir va harakatlar qilmoq; v) xalqni yangi hukumatning maqsad va maslahatini yordamga da’vat etmak. (B. Qosimov. “Milliy uyg‘onish”. T.: Ma’naviyat. 2002, 108-bet.)

“Sho‘royi islomiya”ning asosiy g‘oyasi – milliy-diniy zaminga suyangan, shariatga asoslangan mustaqil Turkiston hukumatini tuzish edi. Yozga borib “Sho‘royi islomiya”dan “Sho‘royi ulamo” ajralib chiqdi va mutassiblik yo‘lidan bordib, jadidlarga birinchi navbatda Munavvarqorining g‘oyalari qarshi chiqdilar. “Bir vaqtarda ostroumovchilar, ikkinchi vaqtarda ulamolar hujum etdilar. Man onlarning hujumlarig‘a qaramasdan, hamon o‘z maslagida ravom etdim. Bu kun “Birov”lar hujum etar ekan, ul ham mani ishdan va maslagimdan to‘xtata olmaydilar”-degan edi. “Qizil bayroq” gazetasidagi “Hujummi? Munozarami?” maqolasida mustaqillik uchun kurashni davom ettirgan jadidlar M. Cho‘qoyev raisligida “Turkiston O‘lka Markaziy musulmon sho‘rosi”ni tuzdilar. Zaki Validiy sarkotib va tashqi ishlar bo‘limi boshlig‘i “Kengash” gazetasi muharriri ham edi. Bu sho‘roda M. Behbudiy, Munavvarqori, Obidjon Mahmudov, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev va sho‘ba boshliqlari kengash a’zosi qilib saylangan bo‘lib, Munavvarqori bevosita Toshkent qo‘mitasi rahbari ham edi. Oradan biroz vaqt o‘tgach Munavvarqori “Turkiston O‘lka Markaziy musulmon sho‘rosi” organi “Kengash” gazetasi muharriri ham bo‘ldi.

Turkistonda chor hukumatining asosiy targ‘ibot vositasi bo‘lgan, o‘ta shovinist missioner N.P. Ostroumov muharrirlik qilgan “Turkiston viloyatining gazeti” (1870-1917 y.y.). 1917 yil fevral voqealaridan keyin Munavvarqorini qo‘liga o‘tadi. Bu haqda N.P. Ostroumov shunday yozadi: “34 yil mobaynida sartlarning ruslarga yaqinlashtirish va milliy o‘ziga xosligini saqlash, ayniqsa, tatarlar ta’siridan saqlash umidasiga amal qilib kelgan “Viloyat gazetasi” inqilobiy rejim e’lon qilingach, tilga olingan Munavvarqori qo‘liga o‘tib ketdi”. Munavvarqori bu gazetaning nafaqat mazmunini balki nomini ham “Najot” deb o‘zgartirdi. Gazetada bu bilan cheklanmay yoshlarni- talabalarni moddiyima’naviy qo‘llab-quvvatlash, chet elga o‘qishga yuborish ishlarini ham muntazam amalga oshirib bordi. Chunonchi, 1917 yil 24 sentabr kuni uyida Toshkent boylari va ziyolilaridan 50-60 kishini to‘plab iona yig‘adi, mablag‘ni Germaniyada o‘qiyotgan talabalarga yuboradi. “Nashri maorif: “Ko‘mak” uyushmalari orqali buishni davom ettiradi. Shuni, ta’kidlash lozimki, Munavvarqori Toshkent ziyoli va boylarini boshini biriktira olgan. Unga qadimistlar, ulomochilar, chor Rossiysi keyinroq sho‘ro hukumati qanchalik qarshilik qilganlari, tazyiq va ta’sir o‘tkazishga harakat qilganlari sir emas.

1917 yilda Munavvarqori Toshkent shahar Dumasiga a'zo qilib saylanadi. Dumaga saylangan 112 deputatdan 76 nafari xalq vakili edi. Bu yerda ham missioner N.P.Ostromov ta'kidlaganidek: "... o'lkada mavjud bo'lgan rus-tuzem maktablarini "Milliy maktab" nomi ostida milliy musulmon maktabiga aylantirishni taklif etdi. Munavvarqori bu maktablarda olti yillik o'quv dasturlarini joriy etish loyihasini taqdim qildi". Ammo, Munavvarqorining milliy maktablarni tashkil etish g'oyasi hukumatdagi missionerlar, shovinistlar tomonidan "e'tiroz uyg'otgan". Shunga qaramay Munavvar qori o'z fikrini qat'iy turib himoya qiladi va 1917-1918 o'quv yilida ochilayotgan milliy maktablar uchun Toshkent shahar Davlat Dumasi 37 ming so'm mablag' ajratdi. (1 qo'y-2 so'm bo'lgan). Bu mahalliy ziyyoliliarning katta yutug'i bo'lib, voqeaga atab madhiya yoziilgan.

1917 yil may oyida ozarbayjonlik Muhammadamin Afandizoda quyi Andijon, Toshkent, Samarcand, Xiva, Buxoroda bo'ladi. Milliy ozodlik, mustaqillik uchun kurash olib boruvchi "Ittihodi taraqqiy" (1917-1920), "Milliy ittihod" (1921-1925), "Milliy istiqlol" (1926-1929) kabi ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy milliy tashkilotlarni tashkilotchisi, yo'boshchisi, albatta, Munavvarqori edi. Bu tashkilotlarni ilmiy tarzda chuqur o'rganish va keng xalq ommasiga yetkazish tadqiqotchilar oldidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Kavkazlik jadidlarning bevosita ta'siri ostida "Turk odam markaziyat" nomli partiya tashkil qilinib Munavvarqori, Eshonxo'ja Xoni, Muhammadxon Poshshoxo'jayev, Bashirulla Xo'jayev, Xusan Dadaxo'jayev, Nazar Saidiy kabi jadidlar faoliy ko'rsatdilar.

A. Fitrat "Milliy laylatul qadrimiz", M. Behbudiy esa "Yashasun Turkiston muxtoriyati" deb atagan tarixda "Qo'qon muxtoriyati" deb nomlangan o'inka musulmonlarining IV syezdini tashkil qilish va o'tkazishda Munavvarqori ham faol ishtirok qildi, prezidum a'zosi bo'ldi. U "Hurriyat berilmas, olinur. Hech narsa ila olub bo'lmas, faqat qon va qurban ilagina olib bo'lur" deb xitob qildi. Toshkentda Qo'qon muxtoriyatini qo'llab-quvvatlab miting tashkil qildi. Ma'lumki, Qo'qon muxtoriyati ayovsiz bostirilib' 180 qishloqqa o't qo'yilib 10 ming turkistonlik o'ldirildi. Nima qilsa yurtni ozod qilish mumkin? Mustaqillikka qanday erishish mumkin? "Sho'royi islomiya", "Milliy ittihod", "Turkiston Markaziy sho'rosi" tashkilotlari tugatildi. 1918 yil 9 aprelda Munavvarqorining uyida Turkiston musulmon xalq dorilfununi ochish uchun "Turon", "Muallimlar jamiyat", "Guliston" kabi jamiyat a'zolari to'planib yig'ilish o'tkazdilar. Dorilfunun ochishga kelishilib 9 kishilk hay'at tuziladi: Rais – Munavvarqori, Iso To'xtaboyev, Burhon Habib, Abdusalimqori Ziyaboyev, Sodiq Abdusattorov, Muxtor Bakir, Murodxo'ja Solihov, G'ani Abdurashidov a'zo bo'ladilar. Shu kun 2 vakil Turkiston o'inka maorif sho'rosi ijroiya qo'mitasiga yuborilib oldin ibridoiy (1-4 sinflar boshlang'ich maktablar, o'rta hunar maktablari keyin oliy ta'lim dorilmuallimin) bosqichlarini ochish haqidagi taklif berildi.

Keyingi kuni bo‘lgan yig‘ilishda xalq dorilfununining ibtidoiy darajasini ochish muhokama qilinib 6 kishilik sho‘ba tuziladi. Sho‘baga Burxon Habib Salimxon Tillaxonov, Abdusalimqori Ziyaboyev, Shokirjon Rahimi, Rustambek Yusufbek o‘g‘li, Abdulvahob Murodiylar saylangan. Musulmon Xalq dorilfununining dasturini tayyorlash Munavvarqori, Burhon Habib va Murodxo‘ja Solihovlar zimmasiga yuklatilgan.

Navbatdagi yig‘ilishlardan biri 3 may kuni bo‘lib, asosan rahbariyat saylovi o‘tadi. Unga ko‘ra Munavvarqori 20 ovoz bilan rektor Iso To‘xtaboyev 21 ovoz bilan 1-prorektor, Amerikada o‘qib kelgan 1-tatar maktabining direktori Burhon Habib 2-prorektor, Abdusalimqori Ziyaboyev xazinador, Muxtor Bakir sarkotib qilib saylanadi. Dorilfunun maktablariga muallimlarni tayyorlash uchun 8 oylik kurs 31 mayda ochiladi. Dorilmuallimninga o‘qituvchilarni imtihon qilish Munavvarqori va Burxon Habibga yuklatildi.

1918 yil 12 may kuni hozirgi O‘zbek yosh tomoshabinlar teatri (sobiq V. Morozov magazini) binosida musulmon xalq dorilfununining ochilishi bo‘ladi. 15 may kuni Nizom qabul qilinadi. Tez kunda 23 mакtab tashkil qilingan. Ularga 299 o‘qituvchi dars bergen. Ulardan 2 kishi Rossiya universitetini, 22 kishi oliy diniy madrasalarni tugatgan. Abdusalimqori Ziyaboyev, G‘ulom Zafariy, Mo‘minjon Muhammadjonov, Xaydar Shafqiy, Shokirjon Rahimi, Sobirjon Rahimi, Maryam Sultonova, Zaynab Shamsutdinova, Xurshid Eshonxo‘ja Xoni, Ahmad Shukuriy, Sa‘dulla Sharofiddinov, Qayum Amazon, Majit Qodiriy, Abdulvahob Murodiy kabi 20 ga yaqin darslik mualliflari, shoirlar bo‘lgan.

1918 yil 2 iyunda ishga tushgan o‘qituvchilar tayyorlashga mo‘ljallangan dorilmualliminda Munavvarqori axloqdan, Abdurauf Fitrat ona tili va adabiyotdan Burxon Habib siyosiy tarix, Ismoil Haqqi madaniyat tarixi, Kamol Shamsi matematikaga Abubakir Divayev etnografiya, Rahimboyev nemis tilidan, arifmetikadan, Abdurahmon Ismoilov san’atdan, Rizayev madaniyat tarixi va siyosiy iqtisoddan dars bergenlar.

Samarqandda ham dorilfunun sho‘basi ochilib Mahmudxo‘ja Behbudiy, Hoji Mu’in, Saidahmad Siddiqiy-Ajziy, A. Qurbiy, Sh. Muxtoriy a’zo bo‘lganlar.

Ammo sho‘rolar jadidlarning oliy ta’lim haqidagi sa’y-harakatlariga xayrihohlik qilmadilar. Dorilmuallimni 4 oylik kursga aylantirib 1918 yilning sentabr o‘rtasiga borib tugatdilar. Shunga qaramasdan Munavvarqori boshchiligidagi jadidlar hozirgi O‘zbekiston Milliy universitetining, M. Behbudiy boshchiligidagi samarqandlik ma’rifatparvarlar Samarqand davlat universitetining tamal toshini qo‘ydilar.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, Musulmon Xalq dorilfununidan tashqari A. V. Popov boshchiligidida rus tilida so‘zlashuvlar uchun 1918 yil 21 aprelida universitet ochilgan edi. Universitetda 1923 yil 5 ta fakultet bo‘lib, milliy tarkibi quyidagicha edi: 2453 talabaning bor-yo‘g‘i 50 nafari o‘zbek, 57 nafari qozoq

va qirg'iz, 9 nafari turkman, 11 nafari tojik, 8 nafari esa uyg'urlardan iborat bo'lган. Ruslar 1575 nafar, yahudiylar esa 421 nafarni tashkil qilgan.

Munnavarqori 1918 yilda Toshkent eski shahar maorif inspektori, keyinroq esa Turkiston muxtor sho'rolar jumhuriyatining musulmon maorifi bo'limi komissari lavozimlarida ishlagan. "Turkkomissiya" tuzilib o'lkaga yuborilgach Munavvarqori ishdan bo'shatildi.

1921 yil 1 sentabr kuni Bokuda Sharq xalqlari qurultoyi bo'lган. Qurultoyda Turkistonning deyarli barcha shaharlaridan vakillar ishtirok etdi.

Munavvarqori "Xotiralarimdan" asarida yozadi: "Qurultoy rayosatiga Risqulov va men kirdim". 4-sentabrda turkistonliklar nomidan Toshpo'latbek Norbo'tabekov 15 daqqa davomida otashin nutq so'zlaydi: "Turkistonning haqiqiy ahvolini o'rtoq Zinovyev ham, o'rtoq Lenin ham, o'rtoq Trotskiy ham bilmaydilar. Turkiston o'lkasida so'nggi uch yil mobaynida nima bo'layotganidan mutlaqo xabarlari yo'q. O'zlaringizning kelgindi unsurlaringizni yo'qoting, endilikda kommunizm niqobida ishlayotgan o'zlaringizning mustamlakachilaringizni yo'qoting!"

Qurultoy paytida "Sharqda hamkorlik va targ'ibot kengashi" tuzilib, kengashga Munavvarqori, T. Nobo'tabekov, O. Mahmudov, T. Risqulov, S. Jo'raboyev, T. Jonuzoqov saylandilar.

Boku quriltoyidan so'ng Munavvarqori F. Xo'jayevning taklifi va Maorif xalq komissarligi yo'llanmasi bilan Buxoroga borib vaqf bo'limining mudiri vazifasida ishlaydi. Ma'rifatparvar "Xotiralarimdan" asarida yozadi: "Toshkentga" 1921 yil martining 6 kunida qaytib keldim. Keyingi kuniyoq, Turkiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasi rayosatiga bordim. U yerda meni Xalq Maorifi Komissiyariyati huzuridagi Ilmiy kengashga ishga tayinlashdi.

Munavvarqori 1921 yil mart-dekabr oylarida Sadriddinxon ishi yuzasidan gumondorlikda hibsda saqlanadi. Aybsizligi isbotlangach "qamoqdan chiqqanimdan keyin Xalq maorifining Eski shahar bo'limida kollegiya a'zosi va Ijtimoiy tarbiya bo'limi mudiri bo'lib ishladim", -deb yozadi. "Xotiralarimdan" asarida. U 1922 yil hamfikr do'stlari bilan "Ko'mak" uyushmasini tuzadi. Xorijda o'qiyotgan talabalarga moddiy ko'maklashish uyushmaning asosiy maqsadi edi. 1922 yil Turkiston va Buxoro respublikalari tomonidan 60dan ortiq talaba xorijda o'qish uchun yuborilgan bo'lsa, 1923 yil Germaniyada buxoroliklar 51 nafar talaba bo'lsa turkistonliklar 11 nafarni tashkil qilgan. Buncha talabani xorijda o'qishi, yashashi uchun Munavvarqori rais muovini bo'lган "Ko'mak" uyushmasining ham o'z o'rni bor. Matbuotda jadidlar til masalasiga katta e'tibor berganlar. Til masalasiga doir qurultoy o'tkaziladi. Unda Munavvarqori ham ishtirok etadi. Munavvarqori 1923 yili Maorif komissarligida kollegiya a'zosi bo'lган.

Munavvarqori boshchiligidagi bir qator ma'rifatparvarlar 1927 yil mart oyida "Nashri maorif" uyushmasini tuzdi. Bu uyushmaning maqsad- vazifalari haqida "Turkiston" gazetasining 4-mart sonida "Nashri maorif" uyushmasining ahamiyati" nomli maqola e'lon qildi. Turkistonning hayoti, najodi yolg'iz

maorifga va madaniyat taraqqiyoti esa xalqning “Nashri maorif” uyushmasi atrofida to‘planishiga bog‘liq bo‘lib, shundagina madaniy millatlar qatoriga kirish, madaniyat dunyosida o‘z huquqimizga, o‘rnimizga ega bo‘lishimiz mumkinligini ta’kidlab o‘tgan edi.

Munavvarqori 1924 yilda biroz vaqt ayollar maorif institutida muallimlik qilganligi ba’zi manbalarda keltirib o‘tiladi. “Xotiralarimdan” asarida yozadi: “Mening yozgan kitoblarim va mafkuramga nisbatan 1925 yildan boshlab matbuotda juda kuchli hujum boshlandi-deb yozadi. U bu hujumlarga ba’zida toqat qila olmaydi. Sh. Zunun va Q. Ramazon bilan hamkorlikda “O‘zbekcha til saboqlig‘i” nomli 3 tomdan iborat kitob yozadi. 1926 yil oxirida oilasi bilan ajrashib, ilmiy ish bilan shug‘ullanish maqsadida Moskvaga “Sharq xalqlarining o‘rganish qo‘mitasi”da ishlash uchun boradi. Akmal Ikromov Toshkentga qaytaradi. Lekin bu yerda hech kim Munnavvarqoriga yordam qo‘lini cho‘zmaydi. 1927 yilda yana muallimlik ishiga qaytadi. Ammo millatchilik ruhida yoshlarni tarbiyalashda ayblanib o‘qituvchilikdan ham haydaladi.

1927 yil Toshkent okrugi madaniyatçilari qurultoyi bo‘ladi. Unda jadidchilik, jadid maktablari muhokama qilinib biryoqlama baho berilayotgan bir vaqtda Munavvarqori bu harakatni oqlab dadil ma’ruza qildi.

1927-1928 yillarda O‘zkomstarsis tashkilotining Samarqand muzeyi xodimi, shu qo‘mitasining Toshkent-Farg‘ona bo‘limida mas’ul kotib bo‘lib ishladi.

Munavvarqoriga qarshi hujum 1927-1928 yillarda nihoyatda kuchaydi. Hattoki, 1928-1929 yillarda unga hech qayerda ish bermadilar. 9-10 soatlab uyda paypoq, qo‘lqop kabi narsalar to‘qib tirikchilik qilishga majbur bo‘ladi. 1929 yil 6- noyabr kuni 26 nafar ziyoli qatorida Munavvarqori ham qamoqqa olinadi. Qatag‘on kuchayib noyabr-dekabr oylarida 38 kishi qamoqqa olinadi. Qamoqdaligida “Xotiralarimdan” nomli asarining bizga yetib kelgan III qismini yozgan.

OGPU tomonidan 1928 yilda “Munavvarqori to‘dasi” degan ish ochilib 87 kishi tergov qilinadi. Moskvada 1931 yil 23 may kuni Munavvarqori, Said Ahroriy, Najmiddin Shermuhammedov, Salimxon Tillaxonov, Tangriqul Maqsudov kabi 15 kishi otiladi. 31 kishi 10 yilga, 19 kishi 5 yilga, qolganlar ham turli muddatga lagerlarga surgun qilinadi. Butun hayotini xalq maorifiga, uning baxt-saodatiga, yurt ozodligi, mustaqilligiga bag‘ishlagan o‘ng minglab jadidlar kabi Munavvarqori ham qotag‘on qurbaniga aylandi. 1933 yilda butun dunyo Munavvarqorining fojeali o‘limidan xabar topdi. Mustafo Cho‘qayev 1934 yil “Yosh Turkiston” jurnalida xotiralarini chop ettirdi. Munavvarqorini xotira kechasini o‘tkazdi. Afsuski, o‘zbek xalqi uning o‘limi haqida mustaqillikdan keyin xabar topdi. Xaliquimiz mustaqillik uchun kurashgan Munavvarqori kabi o‘ng minglab jadid farzandlarini aslo unutmeydi. Jadidlar haqida hali ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib boriladi degan umiddaman.

## **2.Munavvarqori Abdurashidxonov pedagogik merosining tarbiyaviy imkoniyatlari**

XX asr boshlaridagi ma'rifatparvarlar kabi Munavvarqori ham kichik maktab yoshidagilarni axloqiy tarbiyalashga juda katta e'tibor bergan. Bunga uning 1907 yilda nashr qilingan "Adibi soniy" darsligi yaqqol misol bo'la oladi.

Munavvarqorining "Adibi soniy" darsligi dastlab 1907 yilda keyinroq esa yana bir necha bor nashr qilingan. Darslikning 1912 yilgi uchinchi nashridan bir nusxasi hozir O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayxon Beruniy nomidagi sharqshunoslik institutining 6032-tartib raqamida saqlanmoqda. Afsuski, "Adibi soniy" bu nusxasida xalq dushmanining ijodiy mahsuli sifatida 46-betidan keyingi sahifalar yo'q bo'lib ketgan. Mana shu 46-betning o'zida ham "Adibi soniy" muhim axloqiy darslik ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. Darslik ikkinchi va uchinchi sinf o'quvchilari uchun mo'ljallab tuzilgan. Bu haqida kitobning birinchi betida shunday yozilgan: "Maktabi ibtidoia shogirdlarina alifboden so'ng (iikinchi-uchunchi sinfda) o'qitmoq va o'qigan saboqlarining ma'nolarini ham mashaqqatsiz tushuntirib bermoq uchun mumkin darajada ochiq til va oson tarkiblar ila yozilmish va bir necha adabiy, faniy va axloqiy maqolalarni haviy qiroat kitobidir". Darhaqiqat, darslik ikkinchi va uchinchi sinflar uchun yozilgan qiroat kitobi hisoblanib, adabiy, faniy va axloqiy hikoyalardan tashkil topgan.

Darslikni mavzu va mazmun jihatdan:

- adabiy faniy maqolalar;
- axloqiy hikoyalarga bo'lish mumkin.

Adabiy faniy maqolalar "faniy darslar" deb nomlangan mavzularda, axloqiy hikoyalarda esa "axloqiy darslar" mavzularida ketma-ket tarzda bir necha marotaba berilgan.

Adabiy faniy hikoyalarni mavzu va ma'no jihatdan quyidagicha turkumlash mumkin:

- tabiat va hayvonot olami haqidagi hikoyalar: "Hayvonlar", "Qushlar", "Zavoxif va baliq", "Qurbaqa", "Suyaksiz hayvonlar";
- asr, oy, yil, kunlar haqidagi hikoyalar: «Yil (sana)», "Sanai qamariya oylari", "Sanai shamsiya oylari", "Asrlar", "Kunlar", "Fasllar";
- geografiyaga doir hikoyalar: "Jo'g'rofiya", "Mamlakat va hukumat".

"Axloqiy darslar" mavzusida berilgan hikoyalarni mavzu, mazmun jihatdan quyidagicha klassifikastiya qilish mumkin:

- ilmu-ma'rifatga da'vat qiluvchi hikoyalar;
- ota-onas, ustoz va qavmu-qarindoshlarni ulug'lashga undovchi hikoyalar;
- rostgo'ylik va yolg'onchilik haqidagi hikoyalar;
- isrof, baxil va sahovat haqidagi hikoyalar;
- shafqat va marhamat haqidagi hikoyalar.

**Ilmu-ma'rifatga da'vat qiluvchi hikoyalar.** XX asr boshlaridagi Turkiston o'lkasining ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok qilgan Munavvarqori Abdurashidxonov Turkiston kelajagi ilmli, bilimli yoshlar qo'lida bo'lishi lozim deydi. «Adibi soniy»da ilm-ma'rifatga doir: «Maktab», «Ilm», «O'qimak, yozmak», «Ahmad ila onasi» kabi hikoyalar shular jumlasidan bo'lib Munavvarqori ilm haqida shunday yozadi: Ilm bilmagan narsalarni bilganlardan o'r ganmakdir. Odam bolasi tug'ilgan zamonda hech narsani bilmas. Hattoki so'zlamoq, yozmoq, yaxshini-yomondan, ojni-qoradan ayirmoq kabi eng kerakli narsalardan ham mahrumlik holda dunyoga kelur. So'ngra oz-oz o'r ganmoq ila har narsani bilur.

Otalarimiz, onalarimiz, urug'larimiz, ham muallim afandilarimiz ushbu bilgan narsalarimizni o'r gatmagan bo'lsa edi, hozirda biz hech narsani bilmas edik. Shuning uchun odam bolalariga eng ziyoda lozim bo'lgan narsa bilmaklarini so'rab va o'qib o'r ganmak, ya'ni ilm degan aziz va foydalik narsani yo'lga olmoq uchun harakat qilmakdur. Ilm: odamlarning zehnini ochar, aqlini orttirur. Bilmagan narsalarini bildirur. Dunyoda baxtli va izzatli qilur. Oxiratda saodatlik va sharofatlik qilur.

*Ilm duniyoda eng yaxshi hunar,  
Ilmsizdin yaxshi gung ila kar.  
Har kishi ilm ila bo'lsa oshna,  
Izzatu davlatda bo'lgay doimo.  
Ilmsiz zolimu xor bo'lur,  
Ilmsizlardin hamma bezor ulur.*

Ko'plab yangi usul maktabi tarafdorlari kabi Munavvarqori ham ilmu-ma'rifatga juda katta e'tibor berib o'z fikrlarini asarlarida, xususan, maktab darsliklarida ifodalagan. Uning "Maktab" hikoyasida yoshlarni tarbiyalashda ota-onalik ko'krak sutlari ila, muallimlar esa kuchlari-yuraklari ila tarbiya qilurlar deydi. Avvalgi beshiklarida bolalarga ota-onalari ko'krak sutlari bilan tanalarini o'stirsalar, keyingi beshiklarida muallimlar va xalifalar ilm va odob o'r gatib fikrlarini o'stirurlar. Bolalar uchun tan salomatligi ham kerak, lekin aql va fikr salomatligi ortiq darajada lozim ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Munavvarqori bolalarni oila tarbiyasidan ko'ra, maktab tarbiyasini ko'proq berish o'zining ijobjiy natijalarini berishi, bu erda ilm va odob o'r ganishi lozim deydi. Shu sababli o'quvchilar ota-onalaridan ham ko'ra muallim va halifalar ortiq darajada aziz va do'st deb ta'kidlaydi.

Munavvarqori "O'qimak, yozmak" hikoyasida o'qish, yozishni bilmagan kishi bilan uni bilgan kishi orasidagi farqni tilsiz, qulqosiz bir odam sog' odam orasidagi farq bilan tenglashtiradi. O'qish, yozishni bilmagan sog' odamdan tilsiz, qulqosiz kishi yaxshi deb ta'kidlaydi.

"Ahmad ila onasi" hikoyasi ilmu-ma'rifatga targ'ib qiluvchi va bir-birini ma'no va mazmun jihatdan to'ldirib boruvchi "Ilm", "Maktab", "O'qimak, yozmak" kabi hikoyalarning uzviy davomi bo'lib unda quyidagi voqeal aks ettirilgan.

### **«Ahmad ila onasi»**

Ahmad olti yoshlik bir bola edi. Bir vaqt onasining oldida o'tirsa, onasi eski hikoyalardan so'ylab Ahmadni ovutib o'tirar edi. Bir kun Ahmadga onasi aytdi: «O'g'lim Olloh taolo eng avval otamiz Odam alayhi vaassalomni tufrog'dan yaratdi. So'ngra onamiz Momo havoni yaratdi. Ikkalalarini jannatga qo'ydi. Bir emishni ko'rsatib: «Buni emangiz»-dedi. Bir kun shayton bularni aldab ul emishdan edirdi. Shuning uchun Ollohi taolo bulardan koyinib jannatdan chiqardi. Ikkalalari er yuziga tushib eru-xotun bo'ldilar, biz barchamiz shularning bolalarimiz». Ahmad bu so'zni eshitgach: «Onajon! Siz hazrati Odam bilan Momo havoni ko'rganmisiz?-dedi. Onasi «Kitoblarni o'qub bildim»-dedi. Ahmad o'g'liga bir kitob olib qancha varaqlab ko'rsa ham, ko'ziga qora chiziqlardan boshqa hech narsa ko'rinnadi. Onasi Ahmadning bu holini ko'rib «O'g'lim sen mакtabda o'qimaguncha bu kitobdagи narsalarni ko'rolmaysan»-deb Ahmadni maktabga berdi. Ahmad birov maktabda o'qigandan so'ngra, onasidan eshitgan hikoyalarni kitoblardan o'qib o'zi biladigan bo'ldi».

Yuqoridagilardan shu narsa ko'rini turibdiki, Munavvarqorining «Adibi soniy» darsligida ilmu-ma'rifatga da'vat qiluvchi hikoyalar anchagina bo'lib ulardan boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy tarbiyalashda kattagina imkoniyatlar mavjud.

**Ustoz, ota-onasi va qavmu-qarindoshlarni ulug'lashga da'vat qiluvchi hikoyalar:** Darslikda ustoz va ota-onani, qarindoshlarni ulug'lovchi kichik maktab o'quvchilarini ota-onani hurmat qilishlari kerakligiga undovchi: «Ota-onasi», «Bola qurboni», «Birodarlarga muhabbat», «Iskandar ila Arastu» kabi hikoyalar berilgan. Sharq, chunonchi, Markaziy Osiyo xalqlari ustozni ota-onasi va qarindoshdan ustun qo'yishgan. Bunga hadisi sharif, xalq og'zaki ijodida ko'plab misollar uchraydi. Mana shunday hikoyalardan biri «Iskandar ila Arastu» deb nomlangan bo'lib, bu hikoya «Adibi soniy» darsligiga kiritilgan va boshlang'ich sinf o'quvchilarini ustozlarga muhabbat ruhida tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan. Oradan yuz yil o'tishiga qaramasdan bu hikoya hozir ham o'z ahamiyatini zarracha yo'qotmagan:

### **«Iskandar ila Arastu»**

O'tgan zamonda Iskandar Rumiy degan bir podshoh bo'lган edi. Uning Arastu otliq olim va dono ustozi bor edi. Iskandar Arastuni o'z yoniga bosh vazir qilib barcha mamlakat ishlarini shunga topshirgan edi. Bir ish qilsa shuning maslahati ila qilur edi. Eshikdan kelsa o'rnidan turib joy berur edi. O'zining otasidan ortiq izzat-hurmat qilurdi. Bir kun vazirlaridan biri Iskandardan so'rabdiki: «Ne uchun Arastuni otangizdan ham ortiq izzat-hurmat qilursiz». Iskandar aytibdi: «Otam go'yo meni osmondan erga tushirdi. Ammo ustozim Arastu meni erdan osmonga ko'tardi, ya'ni otam meni dunyoga kelishimga sabab bo'ldi. Ustozim ilm va odob o'rgatib martaba va izzatimni ortmog'iga sabab bo'ldi. Shuning uchun ustozimni otamdan ortiq izzat qilurman. Bu hikoyadan hissa nadur? Bolalarning o'zlarini topsinlar».

Ota-onal bolalarga eng yaqin do'st va mehribon kishilardir. Bolalarni tug'ilgandan boshlab sog'-salomat va xursand, dunyoga eng baxtli inson bo'lib etishishi uchun hattoki, o'z umrlarini ayamaydigan kishilar-ota-onadir. Munavvar Qori «Adibi soniy» darsligidagi «Ota-Ona» hikoyasida shu voqealarni tasvirlagan. Hikoya oxirida quyidagi baytni keltirib o'tganki, bu baytdan hozirgi kunda ham boshlang'ich sinflarda foydalanish imkoniyatlari mavjud:

*Kishining bor ersa ota va onasi,  
G'animatdur anga alarning rizosi.  
Xudoning qoshida kabula yaqindur,  
Ota va onaning bolaga duosi.  
Alarning kim og'rutsa ko'gullarini,  
Qiyomatda bo'lgay jahannam jazosi.*

Bu bayt Sharq xalqlarining qissadan-hissa usulida yozilgan bo'lib, hikoyaning tarbiyaviy ta'sirini kuchaytirishga xizmat qiladi. «Adibi soniy» darsligida ko'plab yangi usul maktabi tarafdarlarining darsliklaridagi kabi qissadan-hissa chiqarish usulidan keng foydalanilgan. 1917 yilgi Oktabr to'ntarishidan avvalgi deyarli barcha darsliklarda, pedagogik asarlarda qissadan-hissa chiqarish o'ziga xos bo'lgan va hikoya xarakteridan kelib chiqib to'rtlik she'rlar, ruboilyar, xalq maqollari, hadisi sharif namunalari asos qilib olingan. «Ota-onal» hikoyasining uzviy davomi va to'ldiruvchisi «Bola qurban» hikoyasi hisoblanadi. Bu hikoyada quyidagi voqealarni tasvirlab berilgan: «Bir xotin o'zining to'rt yoshlik qizini etaklab bog'chaga chiqdi. O'sha vaqt bahor fasli edi. Bog'cha yangi ko'kargan yashil o'lanlar va novda uchida ochilishiga yaqinlashgan gul g'unchalari ila ziynatlanish ediladi. Maysalar orasida har tarafga cho'zilib ketgan uzun yo'llar bog'chaning husnini orttirmish va o'rtadan o'tadurg'on quduq suv bog'chani ikkiga ayirmish edi. Bu bog'chaga kirganda yosh qizning ko'ngli ochilib, har tarafga yurmoqqa boshladi. Goho maysalar ustiga yotib yumalanur edi. Goho ko'ziga yaxshi ko'ringan gullarni uzib, ko'ksiga taqib onasiga ko'rsatur edi. Onasi suv bo'yida o'lturib qizining yoqimli harakatlarini tamosha qilar edi. Lekin bu xursandlik uzoqqa bormadi. Suv bo'yida yangigina ochilgan bir gulni ko'rib uzaman deganda, qizning oyog'i toyib suvgaga yiqildi. Onasi bu holni ko'rib: «Dod bolam! Sen o'lguncha men o'lay»-deb qizining orqasidan o'zini suvgaga otdi. Bu tovushni bog'bon eshitib yugurib keldi. Bularni bu holda ko'rib kiyimlarini echib o'zini suvgaga tashladi. Borib avval onasini ko'tarmoqchi bo'lganda, Onasi: «Meni qo'y! Avval bolamni qutqar! Men o'lsam mayli bolam o'lmasin!»-deb bog'bonga yalindi. Bog'bon ham qabul qilib avval bolani qutqarib suv chetiga chiqardi. Bog'bon qaytib borguncha bechora hiyla erga oqib bormush va o'z jonini bolasiga qurban qilmish edi».

Kishilarning bir-biriga mehr-oqibatli bo'lishiga da'vat etuvchi, boshlang'ich sinf o'quvchilarini qavmu-qarindoshlariga hurmat qilish ruhida tarbiyalash imkoniyatlari mavjud bo'lган hikoya va she'rlar sobiq tuzum

davridagi va afsuski, undan keyingi darsliklarda ham pedagogik olimlarimiz, shoiru-fozillarimiz, fuzalolarimiz yozib qoldirgan boy pedagog merosidan-hikoya hamda she'rlardan namunalar kam berilganligi afsuslanarli holdir. Holbuki, bunday she'r va hikoyalar o'zbek xalq pedagogikasi tarixida ko'plab uchraydi. Shulardan biri Munavvarqorining «Adibi soniy» darsligidagi «Birodarlarga muhabbat» hikoyasidir: «Ibrohim o'z qarindosh va birodarlariga muhabbatlik bir bola edi. Bir kun qo'shnisining uyiga chiqqanida qo'shnisi bir xizmat buyurdi. Ibrohim avval xizmatini qilganligi uchun qo'shnisi bir olma berdi. Olmaga qiziqib, emoqchi bo'lganida, uyda kasal bo'lib yotgan singlisi esiga tushdi. Olma yolg'iz o'zidan o'tmadni. Singlisining oldiga kirib: «Ukam qo'shnimiz bergen bir olmani senga keltirdim. Ol, e!»-dedi.

Singlisi suyunib olmani oldi, yarmini o'zi, yarmisini akasiga berdi. Bu yo'l ila olmani ikkovlari eb xursand bo'lishdilar. Birodarlar bir-birlariga shunday muhabbatlik bo'lmas lozimdir».

Munavvarqori «Adibi soniy» darsligidagi hikoyalar orqali o'quvchilarni ustozga, ota-onaga hamda qavmu-qarindoshlarga mehr-oqibatli, muhabbatli qilib tarbiyalashga muhim vazifa deb qaragan. Yuqorida ta'kidlab o'qilgan hikoyalar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bunda xalq pedagogikasidan unumli, ijodiy ravishda foydalilanilgan. Bu hikoyalar boshlang'ich sinflar uchun zarur bo'lib bunda, milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning o'ziga xos xususiyatlari alohida inobatga olinganligini ta'kidlab o'tish joizdir.

**Rostgo'ylik va yolg'onchilik haqidagi hikoyalar**. O'zbek xalqi boshqa Sharq, chunonchi, turkiy xalqlar kabi kichik yoshdagagi o'quvchilarni rostgo'ylik ruhida tarbiyalashga katta e'tibor bilan qaragan. Dastlabki yozma yodgorliklardan tortib, to hozirgi kungacha yozilgan ta'lim-tarbiyaga doir deyarli barcha pedagogik asarlarda bu hol o'z aksini topgan. Chunonchi, Munavvarqori Abdurashidxonovning «Adibi soniy» darsligida ham boshlang'ich sinf o'quvchilarini rostgo'ylik ruhida tarbiyalash imkoniyatlari mavjud bo'lgan «To'g'rilik», «Orif ila Sodiq», «Yolg'onchilik», «Yolg'onchi bola», «Yolg'onchilik zarari», «Hajjoj ila darvesh» kabi hikoyalar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Munavvarqorining fikricha, to'g'ri so'zli bolalarni hamma yaxshi ko'radi, ularga ulug'-ulug' xizmatlar topshiriladi. Yolg'onchilar esa bu ne'matlardan quruq qoladilar. To'g'ri so'zlik, rostgo'y bolalardan haq-taolo ham rozi bo'ladi. Shu sababli har bir so'zda, ishda to'g'rilik bilan, rostgo'ylik bilan harakat qilmog'lik kerak. So'zda to'g'rilik yolg'on so'zlamaslikdir. Ishda to'g'rilik esa qo'liga topshirilgan ish va xizmatlarni xiyonatsiz, sadoqat bilan o'rniga keltirmoqlikdir. Munavvarqori darslikda «Orif ila Sodiq» hikoyasini keltirib o'tgan: «Bir kun Orif ila Sodiq ikkisi o'ynashib maktabning devoriga osilgan soatni sindirdilar, muallim afandi Orifni chaqurub: «Soatni kim sindurdi?»-deb so'radi. Orif to'g'ri so'zlik bir bola edi: «Sodiq ila ikkimiz o'ynashub sindurdik. Gunohimizni kechirsangiz edi afandim»-deb to'g'ri javob berdi. Muallim afandi Sodiqni chaqirib: «Soatni nima uchun sindurdingiz»-deb

so'raganda Sodiq: «Taqsir men yo'q edim. Orifingiz sindurgandir»-deb tondi. So'ngra boshqa bolalar guvohliklari ila ma'lum bo'ldiki, Orifning so'zi chin ekan. Muallim afandi Orifga qarab: «O'g'lim Orif! To'g'ri so'zlaganing uchun sening gunohingni kechirdim. Bundan keyin ehtiyyot bo'l»-dedi. So'ngra Sodiqga qarab: «Yolg'onchi Sodiq! Sen ham to'g'ri javob bersang edi gunohingni kechirar edim. Endi yolg'on gapirganing uchun bir kecha matabda taomsiz qolursan, ham soatning bahosini to'laysan»-dedi. Orif to'g'ri so'zladi, qutuldi. Sodiq yolg'on so'zladi, tutildi».

Darslikda, to'g'ri so'zlash, har qanday holatda ham to'g'ri so'z bo'lmoqlik haqidagi hikoyalardan yana biri «Hajjoj ila darvesh» deb nomlangan. Bu hikoya Sharq xalqlari folkloridan olingan bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilarini to'g'ri so'zlik, rostgo'ylik ruhida tarbiyalashda, shubhasiz, muhim ahamiyatga egadir.

### **Hajjoj ila darvesh**

O'tgan zamonda Hajjoj ismli bir zolim podsho bor edi. Ko'p ulamo va sayidlarni boshlarini kesmish, qonlarini to'kmish edi. Oning jabr va zulmi shul darajaga etmishturki, tarix kitoblarini har birida oning ismini «Hajjoj zolim» deb yod qilmishlar. Mana! Ushbu Hajjoj bir kun yo'lda bir darveshga yo'liqdi. Oldiga chaqirib: «Ey darvesh! Mening haqqimga duo qil!»-dedi. Darvesh qo'lini duoga ko'tarib: «Yorab, bu zolimning jonini tezroq olgaysan»-deb duo qildi. Hajjoj achchiqlanib: «Nauchun bunday yomon duo qilursan»-dedi. Darvesh: «Agar sen tezroq o'lsang gunohing ko'paymas va bir fuqaro sening zulmingdan qutulur. Shuning uchun, mening bu duoim ham senga va barcha odamlarga foydalidur»-dedi. Darveshning ushbu to'g'ri javobi Hajjojga xush kelib, ko'p in'omlar berdi. Ham ul kundan boshlab, tavba qilib, zulmdin qo'l yig'di».

Munavvarqorining fikricha, yolg'onchilik gunohlarning eng yomoni, xulqlarning buzug'idir. Har kim bo'limgan ishni bo'ldi desa, ul kishini yolg'onchi deyilur. Yolg'onchilikdan paydo bo'ladigan ziyonlar juda ko'p. Yolg'onchini haq taolo do'st tutmaydi. Hech kim uning so'ziga ishonmaydi. Yolg'onchi hammaning ko'ziga yomon ko'rindi. Chunki, yolg'on so'zning albatta asli chiqmay qolmaydi. Bugun yoxud ertaga yolg'onligi bilinib, yolg'onchining sharmanda bo'lmosg'iga, uyalmosg'iga sabab bo'ladi. Oxirida ul so'zlovchining nomini odamlar yolg'onchi deydilar, rost so'zlasa ham uning so'ziga hech kim ishonmay qo'yadi. Munavvarqori bu fikrini o'quvchilarga tushuntirishda bir qator hikoyalardan foydalanadi. Shunday hikoyalardan biri «Yolg'onchi bola» deb nomlangan:

### **Yolg'onchi bola**

Bir matabda Joyib ismlik bir yolg'onchi bola bor edi. Joyib doimo yolg'on so'zlar va har kimni aldar edi. Muallim afandi Joyibga: «Yolg'on so'zlama»-deb, ko'p nasihatlar qildi, jazolar berdi, oxiri bo'lindi. Chunki, Joyib yoshlikdan yolg'onga odat qilgan edi. Yoshlikdan odat bo'lgan ishni tashlamak qiyin bo'lur. Bir vaqt Joyib necha kungacha matabga kelmadidi. Har kun ertalab: «Matabga borurman»-deb uyidan chiqar edi. U erda, bu erda o'ynab yana

uyiga «maktabdan keldim»-deb borur edi. Ota-onasini: «Bugun buni o'qidik, buni yozdik»-deb yolg'on so'zlar ila aldar edi. Bir kun Joyib maktabga keldi, muallim afandi taftish qilganda Joyibning bir hafta butun uzsiz maktabdan qolganligi ma'lum bo'ldi. Shu sababli Joyib maktabdan quvlandi. Bu xabarni ota-onasi eshitib, alar ham bu yolg'onchi Joyibni uydan quvladilar. Joyib bechora yolg'onchilik sababidin ham maktabdan va ham uyidan quvlandi».

Shuningdek, «Adibi soniy»da «Yolg'onchilik zarari» hikoyasi berilgan bo'lib, bu hikoya ko'plab boshqa darsliklarda ham uchraydi. Chunonchi, Alisher Navoiy hamda Abdulla Avloniyalar she'riyatida ham bu holni ko'rish mumkin. «Adibi soniy» darsligida nasriy holda berilgan. Yuqoridagi misollardan ham ko'rinish turibdiki, Munavvarqori Abdurashidxonovning «Adibi soniy» darsligida rostgo'ylik haqidagi hikoyalar hamda uning qarama-qarshisi bo'lgan yolg'onchilik, uning yomon oqibatlari, zararlari haqidagi hikoyalar anchagina bo'lib bu hikoyalardan boshlang'ich sinf o'quvchilarini rostgo'ylik ruhida tarbiyalashda keng imkoniyatlar mavjud.

**Isrof, baxil va sahovat haqidagi hikoyalar**. Munavvarqorining fikricha, isrof-o'rinsiz va zaruratsiz erlarga molni sarf etmoq. Baxil eng zarur erlardan ham qizg'anmoq va ayamoqdir. Sahovat esa ikkalasini o'rtasida bo'lib, molni zarur va foydali erlarga sarf qilib, zaruratsiz va foydasiz o'rnlardan saqlanishga aytildi. Isrof bilan baxil din yuzasidan harom, aql yuzasidan eng yomon va martud sanalgan ishlardan bo'lib, sahovat esa xulqlarning eng yaxshisidir. Sahovat qiluvchini sahiy va jumard deyilur. Musrif kishi har qancha davlatlik bo'lsa ham, oxiri bir kun faqirlilik va xorlik balosiga yo'liqadi. Sahiy kishining kun sayin moli ko'payib, izzat va obro'si ortadi. O'z tengdoshlari o'rtasida so'zi o'tkir va e'tiborlik bo'ladi. Munavvarqori bu fikrlarni isbotlashda «Baxilning bog'i ko'karmas», «Molning qadrin sahiy bilur», «O'rinli sahovat» kabi hikoyalarni keltirib o'tgan. Bu hikoyalar bir-birining uzviy davomi va to'ldiruvchisi hisoblanadi.

Munavvarqori Abdurashidxonovning «Adibi soniy» darsligidagi baxil, isrof va sahovat haqidagi hikoyalarini ikkinchi va uchinchi sinflarda o'rganish ayniqsa diqqatga sazovor bo'lib, bunda:

- ikkinchi sinfda: «Isrof», «Baxil va saxovat», «Molning qadrini sahiy bilur»;
- uchinchi sinfda: «O'rinli sahovat» va «Baxilning bog'i ko'karmas» hikoyalaridan foydalanish imkoniyatlari mavjud.

Munavvarqori «Adibi soniy» darsligidagi «Molning qadrini sahiy bilur» hikoyasida quyidagi imkoniyatlar mavjud.

Bir vaqt Andijon shahrida qattiq zilzila bo'lib, hamma imoratlar yiqildi. Ko'p kishilar tom va devorlarning ostida qolib, halok va majruh bo'ldilar. Ko'p fuqaro va bechoralar uysiz, joysiz, och va yalang'och qoldilar. Bularning foydasiga har tarafdan ionlar yig'ildi. Har shahardan ul bechoralarga aqcha, taom va kiyimlar yuborildi. Har erda necha-necha kishilar iona yig'ib yubormakka mutassaddi bo'l mish edilar. Shul

mutasaddilar ba'zilari (Toshkentda) iona so'ramak uchun bir boyning uyiga bordilar. Boyning jahl va g'azabnok holda ko'rdilar. So'ngra, g'azabning sababini bildilarki, xizmatkori uchi yoqilmagan bir gugurtni erga tashlagani uchun ondan nolib turgan ekan. Mutasaddilar bu holni ko'rub bir-birlariga boqub: «Bir gugurt uchun bunga g'azablangan kishilardan iona so'rab nima qilurmiz»-dedilar. Lekin yana shuncha erga kelub hech narsa demasdan ketmoqni munosib ko'rmay nima uchun kelganlarini boyga bildurdilar. Boy esa tezlik ila ichkari kirib besh yuz so'm aqcha chiqarib mutasaddilarni qo'llariga berdi. Mutasaddilar hayron bo'lishdilar. Boy janoblari boqub: «Nimaga hayron bo'lursiz? Agar men bir gugurtning bekor ketmog'iga rozi bo'ladurgon darajada muorif bo'lsa edim, hozirda bunday xayr ishlarga beriladurg'on aqchalarni qanday jam qilurdim». Saxiy bo'lurman degan kishi molning qadrini bilur. Yeriga qarab bir pulga savdogarlik qilur, biriga qarab minglarcha so'mni yuziga boqmas», -dedi. Zero isrofgarchilikka yo'l qo'ygan musrif kishi hech qachon boy bo'la olmas.

Bu hikoyadan boshlang'ich sinf o'quvchilaridan saxiylik fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirish uchun imkoniyatlari mavjud bo'lgan uchta omil muhim ahamiyatga ega:

- birinchidan, bu hikoyada muallifning o'zi ishtirok qilgan va voqeani boshidan kechirganligi katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir;
- ikkinchidan, bu hikoya orqali o'quvchilarni isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik va hattoki, bir gugurt cho'pini ham isrof qilmasdan iqtisod qilishga undovchi muhim vosita bu shubhasiz, Munavvar Qorining «Molning qadrini sahiy bilur» hikoyasidir.

Baxil kishi har qancha boy bo'lsa ham rohat va farog'atda yashay olmas, bu boyligidan o'ziga va o'zgalarga foydasi kam tegar. Bu haqida Munavvar Qori «Adibi soniy» darsligida shunday hikoyani keltiradi:

### **«Baxilning bog'i ko'karmas»**

O'tmish zamonda bir baxil bor edi. Aning boyligi shul darajaga etishgan ediki, molning hisobini o'zi ham bila olmas edi. Lekin bu boylikdan na o'ziga va na ahli ayoliga va yana boshqalarga hech bir foyda yo'q edi. Ammo mol yig'moqdan asl maqsad nima? Molni qanday erlarga sarf qilmoq kerak? Yemak, ichmak, madrasa va maktabga, faqir va muxtojlarga yordam bermoq kerakmi yoki yo'qmi? Bu xususlarda hech bir o'ylamas edi. Hattoki, o'zining va ahli avlodining taom va kiyimlarga o'xshash eng yaxshi o'rinnarga ham ming mashaqqatlar ila aqcha chiqarurdi. Bozordan non olsa, chirigan va sasiganlarini olurdi. Kiyimlari esa har vaqt eski, yirtiq va kirlik bo'lur edi. Bisotida Ahmad ismlik bittagina o'g'li bor edi. Ba'zi oshnolarining dalolatlari ila bir kun o'g'lini maktabga olib bordi. Muallim afandi mакtab nizomlarini bayon etgandi, mualliflar vazifasi uchun har oyda bir so'm to'lab turmak lozim ekanligini ham so'zlab o'tdi. Bir so'mni eshitgach boy janoblarining ko'zi o'ynadi. Muallimning yuziga boqib: «Oyda bir so'm? Yo'q afandi, o'g'il o'qitmak mening ishim emas ekan. Avvalgi domlalar haftada bir nonga qanoat qilur

edilar. Oyida bir so'm qaydan chiqdi? Yur o'g'lim o'qimasang ham bir rizqing o'tar. Men buncha dunyoni o'qib topmadim», -deb o'g'lini qaytib olib ketdi. Ahmad bechora otasining baxil va xasisligi soyasida dunyoda yashamak va inson qatoriga kirmak uchun eng ziyoda lozim bo'lgan mehr va ma'rifatdan mahrum bo'lib, johil va nodonlik ila o'ldi. Ko'p o'tmadi ajal kelib, «boy»ning yoqasidan tutdi. Avvalda aning ruhini tarbiya qilmasligi, o'qitmoq uchun oyida bir so'mni ko'zi qiymagan baxil endi hamma dunyosini shul Ahmadga tashlab, o'zi bir oz doka ila bo'zga o'ralib, oxiratga safra qildi. Ahmad esa, yoshlikda ilm va ma'rifat ko'rmagan, kasb va hunar o'rganmagan edi. Shuning uchun yaxshi va yomonni ayrimaydirgon va molning qadrini bilmaydurgon (musrif) bir kishi bo'lib chiqdi. To'rt-besh yomon kishilarga qo'shilib har xil qabohat yo'llariga yurmakka va bir tiyinlik o'runga o'n-yigirma tiyinlab sarf qilmakka boshladi. Otasining shuncha xasislik ila jam qilgan molini oz vaqt ichida tamom qilib, o'zi faqir va muhtoj bir holga tushdi. Baxilning moli, musrifning holi shunday bo'lur».

Yuqoridagilardan ham ko'rinish turibdiki, Munavvarqori Abdurashidxonovning «Adibi soniy» darsligidagi hikoyalar boshlang'ich sinf o'quvchilarini saxiylik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Shafqat va marhamat haqidagi hikoyalar:** Munavvarqori shafqat va marhamat fazilatlarini odam bolalariga lozim bo'lgan yaxshi ishlarning biri deb qaraydi va shafqat hamda marhamatga quyidagicha ta'rif beradi: «Shafqat va marhamat, birov bir narsa so'ragan vaqtida bor bo'lsa, ayamasdan bermak, agar yo'q bo'lsa, shirin so'z ila uzr aytmaq va qo'lidan kelgancha boshqalarga yordamda bo'lmakdur». Bu dunyoda podsho gadoga, gado podshoga, boy faqirga, faqir boyga, kofir musulmonga, musulmon kofirga alhosil hamma bir-biriga muhtojdir. Munavvar Qorining fikricha, bu muhtojlik yolg'iz insonlar orasida bo'lmay, insonlar bilan dunyodagi jonlik va jonsiz narsalarning barchasida hamma vaqt ko'rindi.

Chunonchi, insonlar minmoq, yuklarni ortmoq, erlarga ekin sochmoq, sut va go'shtlarni emoq va ichmoq uchun ot, tuya, eshak, qo'y, sigir, ho'kiz, baliq, tovuq kabi har xil xayvonlarga muhtoj bo'ladilar. Hayvonlar ham kunlarini o'tkarmoq va bolalarini katta qilmoq uchun insonlar tomonidan ekilgan o't-o'lanlarga muhtojdirlar. Shu sababli shafqat va marhamat tarbiyasida inson-hayvon, kofir-mo'min, yaqin-uzoq, boy-faqir kabi fikrlarga e'tibor qilmay barchani barobar ko'rish lozim. Darhaqiqat, boshlang'ich sinf o'quvchilariga shafqat va marhamat haqida tushuncha berayotgan vaqtida ularni barcha jonli va jonsiz narsalarga, inson va hayvonot dunyosiga alohida mehr va muruvvat bilan yondoshishi lozimligini alohida uqtirib o'tish kerak. Munavvarqori fikrlarini isbotlash uchun «Ali ila Vali» hikoyasini keltirib o'tadi:

### **Ali ila Vali**

Ali ismlik faqir bir bola bor edi. Non izlab ko'chaga chiqdi. Qo'shnilaridan birini Vali ismlik bir o'g'li bor edi. Vali qo'liga bir parcha non ushlab eshik oldida eb turgan edi. Ali esa, ochlikdan o'lish darajasiga etgan edi. Valining

qo’lidagi nonni ko’rgan zamon oldiga borub, bosh egub: «O’rtoqjon, qani ozgina noningdan bersangchi?»-dedi. Vali esa toshko’ngillik, shafqatsiz bir bola edi. Shul sababli Alining holiga hech bir rahm qilmay: «Bor ket, senga beradurgan nonim yo’q»-dedi. Oradan ko’p vaqt o’tmay bir kun Valining bir echkisi yo’qoldi. Vali echkini axtarmoq uchun dalaga chiqdi. Ko’p yurub oxirida tashna bo’ldi. Har tarafdan suv izladi. Hech bir erdan bir qatra suv topa olmadi. Suvsizlikdan yiqilmak darajasiga etgan holda, uzoqdan ko’zi Aliga tushdi. Ali daraxtning soyasida qo’ylarni o’tlatib oldiga bir ko’zada suv qo’yib o’tirgan edi. Vali shodlik ila Alining oldiga borib: «Birodar bir yutum suv bermasang tashnalikdan o’lurman», -dedi. Ali faqir bo’lsa ham oljanob bir bola edi. Valining holiga shafqat va marhamat qilib ko’zani uzatdi. To’yguncha suv ichib, tashnalik balosidan qutuldi va o’zining avvaldan qilgan marhamatsizligiga Alidan avf so’rab, minnatdorchilik izhor etdi.

Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkinki, Munavvarqorining «Adibi soniy» darsligi vositasida boshlang’ich sinf o’quvchilarini ahloqiy tarbiyalash imkoniyatlari keng.

### **3.Munavvarqori Abdurashidxonovning “Yer yuzi” darsligining tarbiyaviy ahamiyati**

Jadidlar tomonidan o’ndan ortiq geografiyaga doir darsliklar yozilgan bo’lib, eng mashhurlari Mahmudxo’ja Behbudiyning “Muntaxabi jo‘g’rofiyai umumi” (“Aholi geografiyasiga kirish”), “Muxtasar jo‘g’rofiyai Rusiy” (“Rusianing qisqacha geografiyasi”), Abdulla Avloniyning “Maktab jo‘g’rofiyasi” kabi darsliklardir. Bu darsliklar ichida Munavvar qorining “Yer yuzi” asari muhim o’ringa ega. “Yer yuzi” darsligi 1917 yilda nashr qilingan. “Makotibi ibtidoianing 3-4 sinf shogirdlari uchun mo’tabar kitoblardan intixob etilib, Turkiston shevali turkiyasinda tartib va jo‘g’rofiya risolasi” bo’lgan “Yer yuzi” darsligi 88 banddan iborat.

Munavvar qori asarining kirish qismida maktablarda geografiya darslarini o’qitish, globus, xarita, rasmlardan foydalanish masalasini kun tartibiga qo’yib yozadi: “ibtidoiydan boshlab o’rtta va oliy maktablarga dars jadvaliga jo‘g’rofiya kiritmak, butun dunyodag’i madaniy millatlar tarafidan qabul qilinmishdir”. Keyin esa “Yerning suvratlari va harakati” mavzusi berilgan bo’lib, “Yer tarbuz yoki apelsing’a o’xhash yumaloqdir. Yer hech narsaning ustida turmas”, deb ta’kidlagan va “qadimistlar”ning xo’kiz, baliq dunyonи qutqarib turadi degan g’oyalarini inkor qiladi. U o’z atrofida va quyosh atrofidan aylanib o’tishini ta’kidlaydi: “Yerning ikki xil harakati bor: biri-yumalanish, ikkinchisi aylanish. Yumalag’onda aravaning g’ildiragiga o’xhab o’z o’qining atrofida yumalanur. Va bu harakatni har bir 24 soatda bir marotoba qilur. Bundan bir kecha-kunduz hosil bo’lur. Shul sababli bu harakatni harakati yumiya (kunlik harakat) va harakati mahvariya (o’q atrofida harakati) derlar”. Quyosh atrofida 365 kun va olti soatda aylanishi, bu aylanishni harakati sanaviya (yillik harakat) va harakati davriya (aylanma harakat) deb ataydi.

Shuningdek, kurrai muasanna' (globus), kurrai mastaha (xarita), yerni ikki pallaga bo'lib tasvirlangan qog'ozlarni nisfi kurra (polushariya) ya'ni yarim shar haqida ma'lumot berib, yerni shimol, sharqi shimoliy, sharq, sharqi janubiy, janub, g'arbi janubiy, g'arb, g'arbi shimoliy qismlarga bo'linadi.

"Yer yuzi" bobida 5 qit'ani – Ovrupa, Osiyo, Afriqoni (eski dunyo), Amerika va Avstroliyon (yangi dunyo) deb nomlagan. Keyin esa orol (jazira), yarim orol (shabo jazira), burun, vulqon, tepa, qir, dara, sohil atamalariga ta'rif bergan. "Suvar" bobida esa, yer yuzini to'rtdan uch qismini qoplagan suvar: dengiz, ko'l, nahr (daryo), uqyonus (okean)larga bo'lib ularga tavsif bergan.

Dunyo okeanlarini 5 ga bo'lgan. Ular: 1. Bahri muhiti kabir (Tinch okeani). 2. Bahri muhiti atlas ( Atlantika okeani) 3. Bahri muhiti Hind (Hind okeani). 4. Bahri muhiti shimoliy (Shimoliy muz okeani). 5. Bahri muhiti janubiy (Antarktida).

Qit'alar orasida birinchi bo'lib Ovro'paga to'xtalib, uning geografik o'rni, 400 million aholisi bo'lib, shundan 25 millioni musulmon va ozroq yahudiylar ham istiqomat qilishini, 21 davlat borligini keltirgan: "Hukumatlarning besi shimoliy Ovrupada, oltisi o'rta Ovrupada va o'ni janubiy Yevropaning yarimidan ko'prog'i, Osiyoning uchdan birini egallab 110 million aholisidan iboratligi bayon qilingan. Keyin Rossiyaning dengiz, ko'rfaz, ko'l va daryolari, idora usuli, shaharlari haqida ma'lumotlar berilgan. Finlandiya, Isvech-Nurvej (Shvetsiya-Norvegiya), Angltara (Angliya), Donimarqa (Daniya) qirolliklari, Avstriyo va Mojariston (Avstriya-Vengriya) imperatorligi, Isvechra (Shvetsariya), Po'rtigiz (Portugaliya) Respublikalari, Ispaniya, Italiya, Serbiston, Qoratog' qirolliklari, Arnovud (Albaniya) hukumati, Ruminiya qirolligi, Turkiya imperatorligi, Bolgariya, Yunoniston qirolliklari haqida mavzular berilgan bo'lib, bu mamlakatlar haqida ma'lumotlar berishda asosan quyidagi holatlarga e'tibor berilgan:

- davlatlarning geografik joylashuv o'rni;
- poytaxti va mashhur shaharlari;
- aholi soni, dinga mansubligi;
- tili;
- davlat tuzilishi.

Yevropa bo'limi "Kichkina hukumatlar" mavzusi bilan tugaydi. Bu mavzuda Lixtenshteyn, Monoko, Andup, San-Marino, Lyuksunburg davlatlari haqida ma'lumotlar berilgan.

"Osiyo qit'asi" mavzusida, qit'aning geografik joylashuv o'rni, dengiz, ko'rfaz bo'g'ozlari, havo va tabiat, aholisi haqida ma'lumotlar berilgan bo'lib, 100 yil avvalgi ma'lumotlar bu tarix, geografiya fani o'qituvchilari uchun qo'shimcha materiallar bo'la oladi.

"Mamlakatlar va hukumatlar" mavzusida Osiyo qit'asi katta-kichik 9 mamlakat – Osiyo Rusiy, Afg'oniston, Eron, Hindiston, Hindi Chiniy, Bolujiston, Osiyo Usmoniy, Xitoy, Yaponiyani o'z ichiga oladi. Osiyo Rusiy 5 qismga bo'lingan-Qafqoz, Sibiryo, Turkiston mamlakatlari, Buxoro va Xiva xonliklaridir.

Keyingi mavzular Kavkaz, Sibir, Turkiston, Turkiston idorasi, Temir yo‘llar, Buxoro va Xeva xonliklari haqida ma’lumotlar berilgan.

“Turkiston (O‘rta Osiyo)” mavzusida: “kenglig‘i bir yarim milyon murabba’ chaqirimdur. Aholisi 7 milyoncha bo‘lub, aksari turk-o‘zbek, taka turkman, qozoq, qirg‘iz, toroncha va pirsiyon nomindag‘i musulmonlardur. Bir ozi rus, yahudiy va armani kabi boshqa millatlardur”. Shuningdek, bu xalqlarning kasbhunarlari haqida to‘xtalib o‘tilgan.

“Turkiston idorasi” mavzusida o‘lka besh viloyat – Sirdaryo, Samarqand, Zakaspiy, Farg‘ona va Yettisuvlarga bo‘linishi, oblastlarning markazlari, yirik shaharlari haqida ma’lumotlar berilgan.

“Buxoro va Xeva xonliklari” mavzusida bo‘lib, bu ikki yarim mustaqil davlat haqida to‘xtalib, Buxoro xonligining aholisi 2,3 million bo‘lib hammasi musulmon. Markazi Buxoroyi sharif, katta shaharlari Karmana, G‘ijduvon, Qorako‘l, Chorjko‘y, Kitob, Shahrisabz aholisini tili tojikcha bo‘lsa ham sahroda yashovchi va hukumat tillari turk (o‘zbek)cha ekanligi bayon qilingan. Xeva xonligida 650 ming aholi bo‘lib, ikkala xonlik ham “Taraqqiyoti zamonadan butun muhrumdurlar” ekanligi ta’kidlangan.

Turkistonning yer osti va usti boyliklarini tashib ketish maqsadida qurilgan temir yo‘llar haqida “Turkistonda temir yo‘llar” mavzusi berilgan. Bu ma’lumotlar temir yo‘llar tarixi bilan shug‘ullanuvchilarga manbai bo‘lib xizmat qiladi.

“Afg‘oniston”, “Eroniston”, “Bolujiston”, “Hindiston” mavzularida ham davlatlarning geografik o‘rni, aholi soni, dinga mansubligi, idora usuli, poytaxti va katta shaharlari haqida ma’lumotlar berilgan. Bu ma’lumotlar davlatlar tarixini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

“Hindiston” mavzusida dastlab davlatning geografik o‘rni “Hindistonning shimoli Chin (Xitoy) mamlakati, sharqi Hindi chiniy va Bangola ko‘rfazi, janubi Bahri muhiti Hindiy (Hind okeani) va g‘arbi Omon dengizi, Bolujiston va Afg‘oniston mamlakatlaridur” ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, Seylon va Lakida orollari ham Hindistonga taalluqli bo‘lib 55 milliyon musulmon, 5 milliyon xristian, qolganlari budda va brahma mazhabiga mansubligi ta’kidlangan.

Hindistonni Angliya idora qiladigan, Angliya himoyasidagi va mustaqil hukumatlardan iborat. Angliya idora qiladigan yerlar markazi Dehli bo‘lib mashhur shaharlari Bombay, Kal’kutta, Madras, Banoras, Allohobod shaharlari hisoblanadi.

Angliya himoyasida bo‘lgan hukumatlarning mashhurlaridan Kashmir, Sindiya, Nizom, Maypur, Rajput, Lokida ularning poytaxtlari haqida ma’lumotlar berilgan.

Uchta mustaqil davlatlar-Nepal, Butan, Maldiv hukumatlaridir.

“Hindi chiniy” mavzusida Rossiya, Angliya va Fransiya mustamlakalari bo‘lgan “Shimoli Chin mamlakati, Sharqi Chin dengizi, Janubi Siyom ko‘rfazi ila Moloqo bo‘g‘ozni va g‘arb yog‘i Bangol ko‘rfazi ila Hindiston mamlakatidur”.

Aholisi 30 million kishilik asosan majusiyilar, ozroq musulmonlardan iborat shimoli-sharqiy Osiyo mamlakatlari haqida ma'lumotlar berilgan.

“Osiyo Usmoniy (Turkiya)” mavzusida Turkiya imperiyasining Osiyoga qarashli qismi “shimol yog‘i Qora dengiz, Istanbul bo‘g‘ozi, Marmar dengizi va Chanoqqala bo‘g‘ozlaridir. Sharq yog‘i Qofqaz va Eron mamlakatlari, Basra va Omon ko‘rfazlaridur. Janub yog‘i Omon dengizi ila Azov ko‘rfazlaridur. G‘arb yog‘i Bobi al-mandub bo‘g‘ozi, Shob dengizi, Suvaysh kanali, Oq dengiz va Atolar dengizi bo‘lub bir, katta yarim atadur” deb ko‘rsatilgan. Demak, o‘sha paytda Turkiyaning Osiyodagi hududidagi arab davlatlari, falastin hududlari ham kirib haqiqatdan “katta yarim ata” ekanligi ma’lum bo‘ladi. Shuningdek, bu mavzuda Angliya mustamlakasi – Sakat imomligi, Adan mamlakati va bir necha mustaqil shayxliklar borligi haqidagi ma'lumotlar berilgan.

“Chin (Xitoy) jumhuriyati” mavzusida davlatning geografik chegarasi, 400 millionning 70 millioni musulmon bo‘lib, katta shaharlari Pekin, Shanxay, Tyonchin, Suchuan, Qantun, Xongchou, Muhdin, Qashg‘ar, Gulanga shaharlari (o‘sha paytda Yorkent) Turkistonning Yettisuv oblastiga qaragan. 1911-1912 yillarga kelib Chinning Mongoliya qismini Rossiya, Tibetni Angliya bosib olgan edi.

“Yaponiya imperatorlig‘i” mavzusida Koreya yarim oroli va Tinch okeanidagi orollarni ham bosib olib 60 million aholisi borligi ma’lum qilingan.

Keyingi mavzularda Osiyoning Hind va Shimoliy muz okeanidagi orol va yarim orollari, tog‘lari, mashhur ko‘llari, daryolari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

“Afriqo qit’asi” bobida, eski dunyoning uchinchisi-Afrika qit’asining geografik o‘rni, 150 millionga yaqin aholisi, ularning dinga mansubligi, turmush tarzi haqida to‘xtalib o‘tilgan. 16 mamlakatga bo‘linishi “Birinchisi Misr va Nuba mamlakatlaridur” Angliya hukumati mustamlakasi ekanligi, geografik o‘rni va mashhur shaharlari haqida ma’lumotlar berilgan. Keyin esa, Troblis va Beng‘ozi, Tunis, Jazoir, Fos davlatlari haqida ma’lumot berilib, avval Turkiyaga keyin esa Fransiyaga mustamlaka bo‘lgani, aholi soni, dinga mansubligi, geografik o‘rni, mashhur shaharlarini keltirib o‘tgan.

Sahroi Kabir, Sanag‘ombiya davlatlari nisbatan (qirg‘oqdan boshqa joylari) mustaqil hisoblanadi. Keniya “Bu mamlakat Sanog‘ombiyadan boshlab, Keniya ko‘rfazining shimol va sharq sohillaridan iboratdur”. “Keniya” mavzusida Angliya, Fransiya, Germaniya va Portugaliyaga mustamlaka hisoblangan 9 davlat haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Keyin esa Sudan, Konga (Belgiya mustamlakasi), Dsmara (Germaniya mustamlakasi), Umud burni (Qopland) mamlakati (Angliya mustamlakalari), Mozambek (Portugaliya mustamlakasi), Zang‘iber bu haqida Munavvar qori yozadi: “Bu mamlakatning shimol tarafindan biroz yerini Germaniya va bir ozini Angltra (Angliya) hukumatlari zabit etmishlar. Demak, buni ham talay boshlamishlar. Habashiston haqida ham mavzular berilgan. Bu mamlakatlar Angliya va Fransiya, Italiya mustamlakasi ekanligi ma’lum qilingan. Bob oxirida Hind va Atlantika okeanlaridagi 13 ta orol (asosan Angliya, Ispaniya, Portugaliya, Fransiyaga

tobe’), mashhur Chad, Viktoriya, Tongo va Niyoso ko‘llari, hamda 7 ta daryolar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

“Amerika qit’asi” mavzusida, dastlab qit’aning geografik o‘rni, tabiiy boyliklari, aholisi haqida tushuncha berilgan. “Aholisi yuz elliq (150) milyoncha bo‘lub, aksari Ovrupadan ko‘chib borg‘on: ingliz, ispaniol, ko‘rtig‘iz (portugal), fransuz kabi xristianlardur. Yerli xalqni ovrupalilar “Hindiy” derlar”. Munavvar qori Amerika qit’asini 3 ga – shimoliy, o‘rta va janubiy Amerika qismlariga bo‘ladi. “Shimoliy Amriqo” 4 mamlakatga Gruland otasi (Grelandiya oroli), Yangi Britaniya (Kanada), AQSH va Meksika respublikalariga bo‘lingan.

Ilgari Meksikadan Kolumbiyagacha cho‘zilgan yerkarni o‘rta Amerika deydi va 7 mamlakatga bo‘ladi. Bular:

Gvetamala respublikasi, poytaxti Gvetamola shahri aholisi 2 million kishi.

Gonduras respublikasi, poytaxti Qumoyogu shahri, aholisi 550 ming kishi.

Salvador respublikasi, poytaxti San-Salvador shahri aholisi 1 million kishi.

Nikaragua respublikasi, poytaxti Lima shahri, aholisi 450 ming kishi.

Kasta-Rika respublikasi, poytaxti San-Juvazi shahri, aholisi 350 ming kishi.

Panama davlati, poytaxti Panama shahri, aholisi 400 ming kishi.

Angliyaning Gonduras mustamlakasi, poytaxti Boliziy shahri, aholisi 25 ming kishi.

‘Panama barzaxidan boshlab, janubdag‘i Huran burunig‘acha uzayg‘an qit’ani Janubiy Amriqo deydi va 11 mamlakatga bo‘ladi. Bular:

Kolumbiya, Vanazua (Venesuola), Xatti ustuvu , Gviano (Angliya, Gollandiya va Fransiya mustamlakalariga bo‘lingan), Braziliya hukumati. Munavvarqori yozadi: Braziliya hukumati ulug‘ bir imperatorlikdur. Butun Amiriqoda jumhuriyatni qabul etmag‘on yolg‘iz shul hukumat qolmishdur, Peru, Boliviya, Chili, Argentina, Paragvay va Urugvay jumhuriyat (respublika)lari poytaxti va aholi soni haqida ma’lumotlar bergen.

Keyin esa Amerikaning 12 ta mashhur dengiz va ko‘rfazlari; San-Lurak, Missisipi, Missouri, Amazonka, Laplata, Kolarada kabi daryolar (Nazrlar), Buyuk Osora , Michigan, Suparyur, Oriona, Xuran kabi daryo va ko‘llar haqida ma’lumotlar bergen. Amerikaning mashhur tog‘ va orollari haqida to‘xtalib o‘tgan.

“Yangi dunyoning ikkinchisi-O‘qyonosiyo [Avstraliya]” qit’asi haqida ma’lumot berib, 4 qismga – “Moliziyo, Moloniziyo, Puluniziyo, Miqruniziyo ata (orol)laridan iborat bo‘lib 55 million atrofida aholi istiqomat qilishi ma’lum qilingan. Bu bobda ko‘plab orol va yarimorollar haqida materiallar berilgan. Bu ma’lumotlar hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

“Yer yuzi” darsligidagi materiallar tarix, geografiya, biologiya, til-adabiyot o‘qituvchilar uchun muhim manbaa bo‘ladi. Bunda quyidagilarga e’tibor berish mumkin:

A).Geografiya o‘qituvchilari quyidagilardan foydalanishlari mumkin:

- XIX asrning oxiri-XX asr boshlarida qit’a, davlatlarning geografik joylashuv o‘rni, aholisi, katta shaharlari haqida ma’lumotlardan;

- qit'alardagi eng mashhur daryo, dengiz, ko'rfaz, ko'l, orol, yarim orol, tog'larning yuz yil avvalgi nomlaridan va joylashuv o'rirlari haqidagi ma'lumotlardan;
- geografiya fanini o'qitish tarixiga doir materiallardan.

B) tarix fani o'qituvchilarini quyidagilardan foydalanish mumkin:

- davlatlarning idora usullari, aholisining diniy mansubligi, mustamlakalarning holati haqidagi materiallardan;
- XX asr boshlarida dunyo siyosiy xaritasi, davlatlarning hududlari, poytaxtlari va mashhur shaharlari, davlatlarning mustamlaka uchun kurashlari, harbiy holatlari haqidagi ma'lumotlardan.

#### **4.Sinfdan tashqari o'qish darslarida Munavvarqori Abdurashidxonovning asarlaridan foydalanish jarayoni**

*Sinfdan tashqari o'qish darslarining maqsad va vazifalari.* Mutolaaga rahbarlik qilish, kitobga mehr-muhabbat uyg'oitsh, mutolaaga nisbatan qiziqish va ehtiyoj hissi namoyish etish demakdir. O'quvchilar mutolaasiga rahbarlik qilishning pedagogik jarayoni o'qituvchilardan har bir o'quvchi shaxsiyatining o'ziga xosligini, tushunishini, uning nimaga qiziqishini, talablarini, mayl va havaslarini, kitobga munosabatini, kitobxon sifatida nimalarga intilishini, mutolaa madaniyat darajasini, atrof-muhit, oila, mакtab, jamoatchilik bilan munosabatlarini o'rganishni talab etadi. O'quvchilar sinfdan tashqari o'qish ishlari jarayonida o'quvchilar bilan ko'plab mutolaa haqida suhbatlar o'tkazib turishi lozim. Bu suhbatlar orqali o'quvchilarni mutolaasini to'g'ri yo'naltira olmog'i, shakllantirmog'i kerak. Kitobxonni o'rganar ekan o'quvchi bir vaqtning o'zida uning qiziqishlarini o'stiradi va ularni bir maqsadga yo'naltira oladi, bir vaqtning o'zida uning mutolaasiga rahbarlik qila oladi.

Maktablarda 1959-yildan boshlab maxsus STO' darslari tashkil etilgan. STO' darslari 1—2-sinfda haftada 1 marta, 3—4-sinfda 2 haftada 1 marta o'tkaziladi. Savod o'rgatish jarayonida esa haftadagi oxirgi alifbe darsining 17—20 daqiqasi ajratiladi. Sinfdan tashqari o'qish o'quv dasturi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda yaqindan yordam beradi. Bu jarayonda har bir o'quvchiga individual yondashish, motvini hisobga olish kerak bo'ladi. Sinfdan tashqari o'qish tanish bo'lмаган mualliflarning kitoblari muqovasi, titul varag'i, kirish so'zi, mundarijasи va suratlariga qarab asarning taxminiy mazmunini aniqlashga o'rgatish vazifasini amalga oshirishga xizmat qiladi. Sinfdan tashqari o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchida badiiy kitoblarni o'qishga havas uyg'otish, o'qigan kitoblari yuzasidan kundalik yurita olishga o'rgatish, bolalar adabiyotining mashhur adiblari hayoti va ijodi bilan elementar tarzda tanishtirish hisoblanadi.

Bolalarda yaxshi xulqlarga muhabbat, yomon xulqlarga nafrat uyg'otish, ularning bog'lanishli nutqini o'stirish, adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish sinfdan tashqari o'qish darslarining ham tub mohiyatini tashkil etadi. STO' darslarining muhim vazifalaridan biri mustaqil o'qish malakalarini tarbiyalash

uchun mustaqil bajarishga topshiriqlar berish, qiziqarli mashq turlaridan foydalanish, eng yaxshi insholarni, taqrizlarni, yozuvchi haqida to‘plangan ma’lumotlarni o‘qitish, „Tez aytish“, „Topishmoqlar topish“, „Ifodali o‘qish“, „Maqollar aytish musobaqasi“, „Ertak to‘qish“, „Bilitndonlar anjumani“ kabi ko‘rik-tanlovlар tashkil qilish, muayyan mavzular bo‘yicha savol-javoblar uyushtirish, o‘yin tarzidagi ish turlaridan foydalanish mumkin. O‘qilgan asarlar yuzasidan suhbatlar o‘tkazish, „Kitob haftaligi“ tashkil etish, asarlar asosida kichik insholar yozishni mashq qilish yaxshi samara beradi. STO‘ sinfda o‘qish bilan uzviy bog‘liq ravishda uyushtiriladi, lug‘atini boyitadi.

#### Sinfdan tashqari o‘qish bosqichlari

Mustaqil o‘qish malakasini shakllantirish 3-bosqichga bo‘linadi:

1. Tayyorlov bosqichi. Bu 1-sinfning savod o‘rgatish davriga to‘g‘ri keladi. Unga darsning bir qismi — 17-20 daqiqasi ajratilgani uchun „STO‘ mashg‘uloti“ deb yuritiladi. Uning o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, o‘qituvchi asarni o‘zi tanlaydi, asarning kichik hajmda bo‘lishiga va boshqa kitob tanlash tamoyillariga e’tibor beradi. Asarni o‘qituvchining o‘zi o‘qib beradi. O‘quvchilar asarni eshitishga, eshitganlarini idrok etishga, ularga soddagina baho berishga, asar mazmuni bilan sarlavhasining mosligini aniqlashga, asar mazmunini hikoya qilib berishga o‘rgatiladi. Bu bosqichda o‘quvchilar o‘qish gigiyenasi va kitobga qanday munosabatda bo‘lish bilan tanishadilar. STO‘ning bosqichlari, dastur talablari, tarbiyaviy vazifalari o‘quvchilarning motivi bilan belgilanadi. Masalan, tayyorlov bosqichida kichik hajmdagi asarni o‘qituvchi o‘qib bersa, o‘qilganlar yuzasidan suhbat, qayta hikoyalash o‘tkaziladi.

2. Boshlang‘ich bosqich. Bu 1-sinfning 2-yarim yilligiga to‘g‘ri keladi. Bu bosqichda haftada 1 marta 45 daqiqalik dars uyushtiriladi. Asarni o‘qishdan oldin o‘quvchilar asar nomi va uning muallifi bilan tanishadilar, rasmlarini tomosha qiladilar, daftarlariga u haqda soddagina qilib asar muallifini va nomini yozadilar. Asar elementar tarzda tahlil qilinadi. Talangan asar (kitob) yaxshi o‘qiydigan o‘quvchiga maxsus tayyorlarlikdan so‘ng o‘qitiladi. Asarning oson o‘qiladigan o‘rinlarini bo‘sh o‘qiydigan o‘quvchilarga o‘qitish ham mumkin. Bu ularda o‘qishga qiziqish uyg‘otadi. Bu bosqichda o‘quvchilar har xil tezlikda bo‘g‘inlab o‘qiydilar. Shuning uchun o‘qituvchi bu jarayonda har bir o‘quvchiga individual yondashishi, kichik kitobxonni kitobni mustaqil o‘qishga o‘rgata borishi lozim. Boshlang‘ich bosqichda butun sinf o‘quvchilari bir xil kitob bilan ta’milanadi, barcha o‘quvchilar bitta matn ustida ishlaydilar. Bunda bitta yozuvchi yoki bir mavzudagi asariar ko‘rgazmasi tashkil qilinadi. Asar ichda o‘qishga topshirilishi, albomlar tayyorlanishi, kinofilm va diafilmlardan parchalar ko‘rsatilishi, musiqiy daqiqalar o‘tkazilishi hamda asar mazmuni yuzasidan ijodiy rasmlar chizdirilishi ham mumkin. Bu jarayonda kitobni saqlash maqsadida uni yamash, o‘rash o‘rgatiladi, „Ertaklar hayrati“, „Ifodali o‘qish tanlovi“ni o‘tkazish mumkin.

3. Asosiy bosqich. Bu bosqich 2—4-sinflarga to‘g‘ri keladi. Bu davrda o‘quvchilarning o‘qish malakalari mustahkamlanadi. Bunda o‘quvchilarning

sinfdan tashqari o‘qiganlari baholanadi. Baholashda dastur talablariga asoslaniladi: o‘qigan kitoblarining sifat o‘zlashtirishiga, miqdoriga, o‘qigan kitobiga munosabat bildira olishiga e’tibor beriladi. Bunda o‘quvchilar muayyan mavzuga doir bir necha asarlarni o‘qib keladilar, ularning ayrim o‘rinlarini ifodali o‘qib beradilar, o‘qigan asarlarini o‘zaro taqqoslaydilar. Asosiy bosqich yakunida kichik yoshdagi o‘quvchilar faol kitobxon uchun zarur bo‘lgan yaxshi o‘qish ko‘nikma va malakalarini egallashlari, eng muhimi, ularning kitob hamda mustaqil o‘qishni yaxshi ko‘rishlariga erishish juda muhimdir.

Sinfdan tashqari o‘qish uchun kitob tanlash tamoyillari

Metodikaning vazifalaridan biri STO‘ uchun kitoblar tanlash, o‘qiladigan adabiyotlar ro‘yxatini tavsiya qilish, yillik o‘quv rejasi va dars tuzilishi namunalarini ishlab chiqishdir. Sinfdan tashqari o‘qish uchun kitob tanlashda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

- kitob tanlashda tarbiyaviy maqsad ko‘zda tutiladi. Bunda o‘quvchilarga vatanimiz o‘tmishi, mustaqillik uchun kurash, xalq qahramonlari, xalq turmushi haqidagi, oilada, maktabda va jamoat joylarida o‘zaro munosabatlarda yuzaga keladigan axloqiy muammolar haqidagi, tabiat va uni asrab-avaylash haqidagi kitoblar tavsiya etiladi;

- kitob tanlashda asarlar janri va mavzusining xilma-xilligi e’tiborga olinadi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar, asosan, hikoyalar, ertaklar, she’rlar, topishmoqlar, maqollarni o‘qishga qiziqqanlari uchun shu janrdagi asarlar tanlansa, maqsadga muvofiq bo‘ladi;

- kitobning o‘quvchilar yoshi va saviyasiga mosligi hisobga olinadi. 1-sinfda kichik hikoya va ertaklarni o‘qish tavsiya etilsa, 2—4-sinflarda mavzular doirasi kengaytirilib, kundalik turmushda ro‘y berayotgan turli voqealar tasvirlangan asarlar, gazeta va jurnallardagi kichik hajmli xabarlarini o‘qish ham tavsiya etilishi mumkin;

- kitob tanlashda o‘quvchilarning motivi va mustaqil o‘qishi hisobga olinadi. Bunda o‘quvchilar o‘ziga qiziqarli bo‘lgan o‘zbek va xorijiy bolalar adabiyoti yozuvchilarining asarlarini o‘zi tanlashi muhim ahamiyatga ega;

- kitob tanlashda mavsumiy tamoyilga amal qilinadi. Umuman olganda, kitobni to‘g‘ri tanlash sinfdan tashqari o‘qish muvaffaqiyatini ta’minlashning muhim shartidir.

Sinfdan tashqari o‘qish darslarini rejalashtirish

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilar badiiy va ilmiy- ommabop kitoblarni mustaqil o‘qiy va tanlay oladigan, ularning mazmun-mohiyatini tushunadigan bo‘lishlariga erishish lozim. Bu jarayonda o‘quvchilarning faqat kitoblarining emas, balki gazeta va jurnallar mutolaasiga ham qiziquvchan faol kitobxon bo‘lishlariga e’tibor qaratiladi. Mavjud dasturlarda sinfdan tashqari o‘qish davomida o‘quvchilar egallashi zarur bo‘lgan bolalar yozuvchilarining asarlarini tanlay bilish, mustaqil o‘qigan kitoblarini, ulardagi qahramonlarning xatti- harakatlarini baholash, asar sujetidagi muhim o‘rnlarni

ajrata olish, sinfdan tashqari o‘qish kundaligi yuritish kabi ko‘nikmalarni egallash belgilab berilgan.

Sinfdan tashqari o‘qish, o‘z navbatida, qiziqarli va o‘ziga jalb etadigan faoliyat bo‘lib, o‘quvchilarning bilimi va dunyoqarashini kengaytiradi, kundalik hayotga faol munosabat uyg‘otadi. Shuning uchun ham bu xildagi darslarning qurilishi ham xilma-xil bo‘ladi. Sinfdan tashqari o‘qish darslarida o‘quvchilar o‘qigan kitoblari hisobga olinadi, yangi kitoblar tavsiya etiladi. Mustaqil mutolaa qilingan asarlar yuzasidan o‘tkaziladigan suhbatlarda asar mavzusi, janri, kompozitsion tuzilishi, sujet qurilishi, qahramonlar timsoliga oid tahlil elementlari o‘qituvchi savoliari asosida o‘quvchilar ongiga singdirila boriladi. Sinfdan tashqari O‘qish darslarida ham kirish va yakuniy suhbatlar o‘tkaziladi. Darslar rejasи butun o‘quv yili uchun oldindan tuzilishi lozim. Sinfdan tashqari o‘qishning asosiy vazifasi bolalarni mustaqil amaliy faoliyatga o‘rgatish, bilimini boyitish va o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirishdir. O‘quvchilarga sinfdan tashqari o‘qish darslarida o‘qishlari zarur bo‘lgan kitoblar, ular bilan tanishish tartibi yuzasidan ko‘rsatmalar beriladi. Maktab kurtubxonasi bilan birgalikda kitob ko‘rgazmalari tashkil etiladi. Bu jarayonda kitob muqovasi, tituli, betlarini farqlay olish, asar muallifi, nomlarini, rassomlarni tanib-bilib olish, rasm asosida asarlarning nima haqida ekanini, mazmunini aniqlashga erishish muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarda muayyan mavzularda tavsiya etilgan asariar ichidan kitob tanlash va O‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni o‘qigan asari mazmunini qisqacha so‘zlab berishga o‘rgatish lozim. O‘qish mavzusi sinfda o‘qiladigan asariar mavzusi bilan uyg‘unli- giga, ta’limtarbiya biriigiga, mavsumiy, bosqichli va bolalar qiziqishiga rioya qilgan holda belgilanadi hamda asarlar tanlanadi. Sinfdan tashqari o‘qish uchun tanlanadigan mavzular, asosan, quyidagicha rejalshtirilishi mumkin;

1. Gulla-yashna hur O‘zbekiston!
2. Mustaqillik - oliv ne’mat.
3. O‘zbekistonning qahramon o‘g‘lonlari.
4. Tabiat - bizning uyimiz.
5. Odob - oltindan qimmat
6. Ona tilim — jon-u dilim.
7. Bilim ol, hunar tanla! va boshq.

Boshlang‘ich sinflarda STO‘ darsiarini rejalshtirishda quyidagilarga asoslaniladi:

1. Mavsumiy tamoyilga va milliy an‘analarimiz bilan bog‘liq bo‘lishiga.
2. STO‘ darsiarini sinfdan sinfga o‘tgan sari bosqichli izchillik tamoyili asosida kengaytirib borishga.
3. Sinfda o‘qish darslarida o‘rganiladigan mavzular bilan bog‘liq bo‘lishiga.
4. Bolalar yozuvchilarining tavallud kunlari bilan bog‘liq holda ularning ijodini o‘rganishga.
5. Bolalarning qiziqishlarini hisobga olishga.

6. Adabiy jarayon bilan hamnafas bo‘lishiga.
7. STO‘ uchun beriladigan topshiriqlaniing ijodiy xarakterda bo‘lishiga.
8. O‘quvchilarda mustaqil o‘qish ko‘nikmalarining shakllanishiga e’tiborni kuchaytirish va rahbarlik shakllarining xilma-xil bo‘lishiga.

Sinfdan tashqari o‘qishga rahbarlik shakllari

STO‘ga rahbarlikning asosiy shakli maxsus sinfdan tashqari o‘qish darslaridir. Bunday darslar erkin dars hisoblanadi. STO‘ darslarida o‘quvchilarning kitobxonlik qiziqishlari, bilim doirasi, estetik taassuroti, badiiy obrazlarni idrok etishi, ijodiy qobiliyati rivojlanadi; faol kitobxonga xos ko‘nikma va malakalar shakilanadi. Sinfdan tashqari o‘qish darslari o‘quvchilarning faolligini oshirishga qaratiladi, shuning uchun ularning qurilishi juda xilma-xil bo‘ladi Har bir dars o‘qituvchi va o‘quvchining ijodi hisoblanadi; darsda qanchalik xilma-xillikka, hayotiylikka erishilsa, maqsadga erishish oson kechadi. Shularga qaramay, STO‘ darslari o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarni amalga oshirishi uchun ma’lum talablarga bo‘ysunadi. Ular quyidagi lardir:

1. Har bir darsda o‘quvchilar o‘qigan kitoblar (asarlar) hisobga olinadi. Ular o‘qigan va o‘qiyotgan kitoblarini sinfga olib kelib ko‘rsatadilar, ikki-uch o‘quvchi o‘zlari o‘qigan kitob haqida gapirib beradi, darsda o‘zaro fikr almashish holati yaratiladi (bu holat darsdan tashqari vaqtida ham davom etishi mumkin).

2. Har bir darsda o‘qish uchun yangi kitob (asar)lar tavsiya qilinadi. Tavsiya qilish shakllari turlicha bo‘lib, ular fikr almashuv, kitobni ko‘rsatish, sinfda ko‘rgazma tashkil etish, o‘quvchilarni qiziqtirish uchun tavsiya qilinadigan kitobdan biror parchani o‘qib berish, rasmlarni ko‘rsatish yoki film namoyish etishdan iborat bo‘lishi mumkin.

3. Har bir darsda o‘quvchilarga asarni yaxlit holda o‘qitish mumkin. Agar asar hajmi kattaroq bo‘lsa, bu ish ikki-uch dars davomida amalga oshiriladi. Bunda o‘quvchilar o‘zlari o‘qigan kitobdan biror parchani ovoz chiqarib o‘qib berishlari mumkin. Bu jarayonda ichda o‘qishdan ham, she’r yodlashdan ham, rollarga bo‘lib o‘qishdan ham foydalaniladi.

4. Har bir darsda o‘qilgan asar yuzasidan suhbat metodi orqali tahlil ishlari amalga oshiriladi. Bunda erkin hikoya qilish uchun „Senga asardagi nimalar yoqdi?”, „Bu kitob haqida sen nimalar ayta olasan?” kabi savollar beriladi va o‘quvchilarning ijodiy hamda mustaqil qayta hikoyalash malakalari shakllantiriladi.

5. Har bir darsda ma’lum bir yangi kitobxonlik ko‘nikmasi hosil qilinadi: muallif haqida ma’lumotlar to‘plash, kitob nomiga qarab u nima haqida ekanligini aytish, o‘qilgan asarlar yuzasidan ko‘rgaznialar tayyorlash, asarga taqriz yozish, albomlar tayyorlash, kitobxonlik kundaligini yuritish kabi ishlar amalga oshiriladi. 6. Har bir dars kirish suhbati bilan boshlanadi va sinfda o‘qish darslarida qo‘llanadigan barcha usullardan ijodiy foydalaniladi. 7. Har bir darsda tahlil qilingan asarlar yuzasidan umumlashtiruvchi, yakunlovchi suhbat uyushtiriladi. Umumlashtirishga ko‘rgazma ham, albom tuzish ham, rasmlarni

tatbiq etish ham yordam beradi. Sinfdan tashqari o‘qishga rahbarlikning yordamchi shakllari ham mavjud bo‘lib, ular barcha ishlarni izchil uyuşdırıshni ta‘minlaydi, STO‘ darslari uchun sharoit yaratadi. Bunday shakilarga quyidagilar kiradi:

1. Kitobni targ‘ib qilish. STO‘ga tavsiya qilinadigan asarlar ro‘yxati sinfga yoki maktabning maxsus joyiga osib qo‘yiladi, ular vaqtiga- vaqtiga bilan yangilab turiladi, to‘ldiriladi, ko‘rgazmalar tashkil qilinadi. O‘qituvchi maxsus suhabatlar uyuşdıradi.

2. Yakka tartibdagi yordam va kundalik tekshiruv. O‘quvchilarning o‘qigan kitoblari yuzasidan suhabat uyuşdırılladi, O‘qilgan kitoblar hisobga olinadi. Shaxsiy fikrlar aniqlanadi, uy kutubxonalarini bilan tanishiladi, ota-onalar bilan suhabat o‘tkaziladi.

3. STO‘ yuzasidan ommaviy ishlar. Adabiy ertaklar, viktorinalar, yozuvchilar bilan uchrashuvlar, adabiy ekskursiyalar uyuşdırılladi, ular uchun maxsus tayyorgarlik ko‘riladi.

4. Kutubxonaga yozilish. 1-sinf o‘quvchilari o‘qituvchining tavsiyasi bilan kutubxonaga a‘zo bo‘ladi. Bu jarayonda o‘qituvchi va kundalik foydalaniładi. 5. O‘quvchilarning o‘qiganlarini hisobga olish. Bunda ularning kitobxonlik kundaligidan foydalaniładi. 1-sinf o‘quvchilari 2-yarim yillikdan boshlab kitobxonlik kundaligiga yozuvchining ismi, familiyasi va kitob nomini, 2-sinfda esa unga nashr etilgan joyi va yilini qo‘shib yozadilar. 3—4-sinflarda o‘qigan kitobining qisqacha mazmunini yozib, unga taqriz va o‘z mulohazalarini ham qo‘sishlari mumkin. O‘quvchilarning o‘qigan kitoblari og‘zaki tarzda ham hisobga olinadi: ular o‘qiganlarini yuzasidan sinfdan tashqari o‘qish va sinfda o‘qish darslarida, yakka tartibdagi suhabatlarda gapirib beradilar.

#### Sinfdan tashqari o‘qish darslarining turlari

Sinfdan tashqari o‘qish darslarining xususiyatlari, birinchidan, STO‘ tizimining bosqiclari bilan, ikkinchidan, o‘quv vazifalari va dastur bilan, uchinchidan, oldinga qo‘ylgan tarbiyaviy vazifalar bilan, to‘rtinchidan, o‘quvchilarning qiziqishlari bilan belgilanadi. 1-sinfda tayyorlov bosqichida yangi matn o‘qituvchi tomonidan o‘qib beriladi, boshlang‘ich bosqichdagi darslarda yangi kichik hajmli matnni o‘quvchilar o‘qiydilar. Keyingi bosqichlarda asar tahliliga doir ishlar kengaytiriladi, o‘quvchilar o‘qiganlarini taqqoslashga, umumlashtirishga, xulosalashga, qahramonlami elementar tavsiflashga o‘rgatiladi. Bu jarayonda rollarga bo‘lib o‘qishdan foydalaniładi. Asosiy bosqichda STO‘ darslari 2-sinfda haftada 1 marta, 3-4-sinflarda 2 haftada 1 marta o‘tkaziladi. O‘quvchilar mustaqil o‘qishga o‘rgatiladi, ular „G‘uncha“, „Gulxan“, „Bilimdon“ jurnallari, „Tong yulduzi“ gazetasi bilan, ya’ni bolalar matbuoti bilan tanishtiriladi. Bu bosqichda o‘zbek, qardosh va chet el adabiyoti yozuvchilarining turli janrdagi va mavzudagi asarlaridan foydalaniładi. Bir darsga o‘quvchilar bir nechta asarlar o‘qib kelib, ular haqida o‘z fikrlarini aytib beradilar, qahramonlami tasvirlab, rasm chizadilar. Bu

jarayonda yozuvchilar hayoti va ijodiga doir kechalar uyuştırıldı. Shu tarzda adabiyotni sevadigan, mustaqil fikr yurita oladigan kitobxon shaxsi shakllantırıldı. Sinfdan tashqari o'qish darslarida o'qilgan kitobni muhokama qilish, ijodiy qayta hikoyalash, insenirovka qilish, rasmlar chizish, ifodali o'qish, kitoblar tavsiya qilish usullaridan keng foydalaniładi.

Sinfdan tashqari o'qish darsi namunalari (jadidlar merosi misolida).

1-sinfda (tayyorlov bosqichi) STO' darsi.

Mavzu: Orif ila Sodiq (M. Abdurashidxonov).

Darsning maqsadi:

A) Rostgo'ylik va yolg'onchilik haqida ma'lumot berish.

B) O'quvchilarda to'g'riso'zlik fazilatlarini tarbiyalash.

Darsning metodi: suhbat, "Mustahkamlash mashqi".

Darsning jahozi: asar mazmunini yorituvchi rasmlar.

Darsning borishi.

1. Kirish suhbat.

O'quvchilarga hikoya muallifi M. Abdurashidxonovning hayoti, faoliyati haqida qisqacha ma'lumot beriladi. To'g'ri so'zlashning foydasi, yolg'onchilikning yomon sifat ekanligi aytildi. Shunday hikoyalar juda ko'p ekanligi ta'kidlanadi va "Orif ila Sodiq" hikoya shunday hikoyalardan biri ekanligi aytildi.

2. "Orif ila Sodiq" hikoyasi o'qib beriladi.

3. Hikoya yuzasidan dastlabki suhbat o'tkaziladi:

- hikoya sizga yoqdimi?

- Orifning qaysi fazilati sizga ma'qul bo'ldi, nima uchun?

- Sodiqning yolg'onchiligi haqida fikrimizni aytib bering.

- Orif bilan Sodiq birga o'ynab nimani sindirdilar.

- Muallim so'raganda Orif nima deb javob berdi?

- Muallim soatni kim sindirdi?- deb so'raganda, Sodiq nima deb javob berdi?

- Muallim Orif va Sodiqqa qanday chora ko'rdi?

O'quvchilar javobi umumlashtirilib, har doim to'g'ri so'zlash kerakligi ta'kidlanadi.

4. Asarga o'qituvchi tomonidan ishlab kelingan rasmlar ko'rsatiladi. Bu jarayonda asar mazmuni yuzasidan rasmlarga bog'lab qisqacha suhbat uyuştırıldı.

5. Hikoyani partadoshlar bir-birlariga aytib beradilar. "Mustahkamlash mashqi" o'tkaziladi.

6. O'quvchilar rost gapirish lozimligi haqida ota-onalari, aka-opalari, buvi-buvalari bilan suhbat uyuştirishlari uyga vazifa qilib beriladi.

2-sinfda STO' darsi namunasi.

Mavzu: Hijron so'zi. (A. Avloniy).

Darsning maqsadi: A. Avloniyning hayoti, faoliyati, she'r mazmuni bilan tanishtirish. "Hijron" A. Avloniyning taxalluslaridan biri ekanligini tushuntirish. O'quvchilarda Vatan tushunchasini, vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash.

Darsning usuli: suhbat, tushuntirish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

Dars jahozi: Vatanimiz tabiatni manazarasi tasvirlangan plakat rasmlari.

Darsning borishi.

1. Tashkiliy qism.

O'quvchilarning uuda o'qib kelgan asarlari so'raladi. Olib kelgan kitoblari ko'rib chiqiladi.

2. Yangi mavzu: "Hijron so'zi".

1. Bir necha o'quvchiga "Hijron so'zi" she'ri 4 qatordan yod ayttiriladi.

2. She'r yuzasidan suhbat o'tkaziladi:

- she'r nima haqida ekan?

- Vatanimiz tabiatni, boy imkoniyatlari, boyliklari haqida ekan.

- she'r muallifi Abdulla Avloniy haqida nimalarni bilib oldingiz?

Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy 1878 yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. "Birinchi muallim", "Turkiy guliston yoxud axloq", "Hisob" kabi darsliklarni yozgan.

3. A. Avloniyning "Hijron so'zi" she'ri asosida sahna ko'rinishlarini namoyish qilish. Bunda A. Avloniyning "Hijron so'zi" asaridan foydalaniladi.

Uyga vazifa qilib A. Avloniyning she'rlaridan yod olib kelish, hikoyalarini o'qib kelish topshirig'i beriladi. Dars yakunlanadi.

3-sinfda STO' dars namunasi.

Mavzu: Abdulla Avloniy – bolalarning sevimli shoiri va yozuvchisi

Darsning maqsadi: o'quvchilarda badiiy adabiyotga qiziqish uyg'otish, ularning mustaqil o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, A. Avloniy ijodi bilan tanishtirish, ma'rifatparvarning ijodiga qiziqish uyg'otish, o'quvchilarda ijodkorlik xususiyatini paydo qilish.

Darsning shakli: noan'anaviy, sayohat darsi.

Dars metodi: kichik guruhlarda ishlash, mustaqil ish metodi.

Darsning jahozi: A. Avloniy portreti, to'plamlari, sahnani jihozlash uchun kerakli narsalar.

Darsning borishi.

1. A. Avloniy asarlari ko'rgazmasi tashkil etiladi. O'quvchilar kitoblarni qo'llariga olib, varaqlab ko'radilar, tomosha qiladilar.

O'quvchilarga asarlarni ko'rishlaridan oldin quyidagi topshiriqlar beriladi:

- Abdulla Avloniyning qanday asarlari bor?

- A. Avloniy asarlarini nomini bilib oling.

- O'zingizda qiziqish uyg'otgan asarlarni varaqlab o'rganining.

2. A. Avloniy hayoti va ijodi haqida suhbat o'tkaziladi:

- Abdulla Avloniy kim ekan?

- Uning qaysi she'r va asarlarini o'qigansiz?

- ma'rifatparvar bobomiz A. Avloniy 1878 yil Toshkent shahrida tug'ilgan. O'tgan asr boshlarida xalqimizni ilmli bo'lishini xohlab maktablar ochgan, darsliklar yozgan, ko'plab she'r va hikoyalar muallifi, teatr guruhlari tashkil qilib sahna asarlarini yozgan.

- Siz A. Avloniyning qaysi asarlarini nomini bilib oldingiz?

- "Turkiy guliston yoxud axloq", "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Adabiyot" va boshqalar.

- ma'rifatparvarning "Pinak", "Advokatlik osonmi?", "Biz va siz" kabi sahna asarlari sahnalashtirilgan.

- "Uchinchi muallim", "Hisob", "Tarixi anbiyo", "Maktab jug'rofiyasi" kabi asarlari chop etilmasdan qo'lyozma hamda o'sha davr maktablarida foydalanilgan.

3. A. Avloniyning she'r va hikoyalaridan namunalar aytish.

4. O'quvchilar o'zлari qiziqib tanlagan to'plamlari bo'yicha guruhlarga bo'linadi.

1-guruh. "Birinchi muallim".

2-guruh. "Ikkinchi muallim".

3-guruh. "Turkiy guliston yoxud ahloq".

4-guruh. "Adabiyot".

5. Guruhlar taqsimoti. Har bir guruh o'zлari tanlagan asarlardan she'r, hikoyat va hikmatlardan parchalar o'qib beradilar.

6. O'tilgan she'r va hikoyalar yuzasidan suhbat o'tkaziladi. Bunda o'qituvchi savollar aytadi. O'quvchilar javob beradi.

7. O'qituvchi A. Avloniyning "Tog'lardan bir manzara" she'rini ifodali o'qib beradi.

8. Krassvord yechish. Topshiriqlar: bo'yicha. 1. She'r yozadigan odam. Eniga: 2. Shoir yozadigan janr. 3. Shoirning taxallusi. 4. Shoirning ismi.

9. Uyga vazifa. Keyingi darsdag'i sinfdan tashqari o'qish uchun asarlar tavsiya qilinadi. A. Avloniy she'r va hikoyalarini o'qib o'rganib kelish. She'r va hikoya mazmuniga mos rasmlar chizib kelish. O'quvchilarning o'zлari ham she'r va hikoyalar yozib kelishlari mumkinligi aytildi.

10. Darsni yakunlash. O'qituvchi keyingi STO' darsida qaysi bolalar yozuvchilari ijodi bilan tanishishni istashlarini so'raydi. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlaniriladi.

4-sinfda STO' darsi namunasi

Mavzu: Munavvar Qori Abdurashidxonov – bolalarning sevimli shoiri va yozuvchisi

Darsning maqsadi: o'quvchilarda badiiy adabiyotga qiziqish uyg'otish, ularning mustaqil o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, M. Abdurashidxonov hayoti, faoliyati va ijodi bilan tanishtirish, ma'rifatparvarlarning ijodiga qiziqish uyg'otish, o'quvchilarda ijodkorlik xususiyatlarini rivojlantirish.

Dars shakli: noan'anaviy, sayohat darsi.

Dars metodi: kichik guruhlarda ishlash, mustaqil ish metodi.

Darsning jihizi: M. Abdurashidxonov rasmi, asarlari, sahnani jihozlash uchun kerakli jihozlar.

Darsning borishi.

1. O'quvchilar ikki qator qilib mакtab ARMiga olib kelinadi.

2. ARMda Munavvar qori Abdurashidxonov asarlarini ko'rgazmasi tashkil qilinadi. O'quvchilar kitoblarni qo'llariga olib, varaqlab ko'radilar, tomosha qiladilar. O'quvchilarga kitoblarni ko'rsatishdan oldin quyidagi topshiriqlar beriladi.

- Munavvar qori Abdurashidxonov haqida qanday ma'lumotga egasiz;

- ma'rifatparvarning qanday she'r va hikoyalarini bilasiz;

- qiziqqan hikoya va she'rni varaqlab o'rganing.

M. Abdurashidxonov hayoti, faoliyati va ijodi haqida suhbat o'tkaziladi:

- M. Abdurashidxonov kim ekan?

- uning qaysi she'r va hikoyalarini o'qidingiz?

- ma'rifatparvar haqida yana nimalarni bilib oldingiz?

Ma'rifatparvar M. Abdurashidxonov haqida o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olib ma'lumot beriladi?

- ma'rifatparvar bobomiz M. Abdurashidxonov yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. U xalqimizni ozodligi, mustaqilligi uchun kurashgan. Maktablar ochib darsliklar yozgan. Teatr guruhini, bir qator xayriya tashkilotlarini ochib yoshlarni Turkiya va Germaniya kabi mamlakatlarga o'qishga yuborgan.

- M. Abdurashidxonov "Adibi avval", "Adibi soniy", "Yer yuzi" kabi darsliklarini yozgan.

3. Munavvar qori Abdurashidxonovning asarlaridan parchalar namoyish qilish. Bunda M. Abdurashidxonov "Ali ila Vali" asarini rollarga bo'lib sahna ko'rinishi holida namoyish qilinadi.

4. O'quvchilar o'zları qiziqib tanlagan asarlar bo'yicha guruhlarga bo'linadi.

1-guruh. "Adibi soniy".

2-guruh. "Adibi avval".

3-guruh. "Yer yuzi".

5. Guruhlar taqdimoti. Har bir guruh o'zları tanlagan asarlardan she'r, hikoyalardan parchalar o'qib beriladi.

6. O'qilgan she'r va hikoyalar yuzasidan suhbat:

- M. Abdirashidxonovning "Birodarlarga muhabbat", "Bola qurbanı", "Iskandar ila Arastu", "Ahmad ila onasi" hikoyalari yuzasidan suhbat o'tkaziladi.

7. O'qituvchi M. Abdurashidxonovning "Yolg'onchi bola" hikoyasini o'qib beradi.

"Yolg'onchi bola".

Bir maktabda Joyib ismli bir yolg'onchi bola bor edi. Joyib doimo yolg'on so'zlar va har kimni aldar edi. Muallim afandi Joyibga: "Yolg'on

so‘zlama”-deb, ko‘p nasihatlar qildi, jazolar berdi oxiri bo‘lmadi. Chunki, Joyib yoshlikdan yolg‘onga odat qilgan edi. Yoshlikdan odat bo‘lgan ishni tashlamoq qiyin bo‘lur. Bir vaqt Joyib necha kungacha maktabga kelmadı. Har kun ertalab: “Maktabga borurman”-deb uyidan chiqar edi. U yerda, bu yerda o‘ynab yana uygiga: “Maktabdan keldim”-deb borur edi. Ota-onasini: “Bugun buni o‘qidik, buni yedik”-deb yolg‘on so‘zlar ila aldar edi. Bir kun Joyib maktabga keldi, muallim afandi taftish qilganda Joyibning bir hafta butun uzrsiz maktabdan qolganligi ma’lum bo‘ldi. Shu sababli Joyib maktabdan quvlandi. Bu xabarni ota-onasi eshitib, ular ham bu yolg‘onchi Joyibni uydan quvladilar. Joyib bechora yolg‘onchilik sababidan ham maktabdan va ham uyidan quvlandi.

O‘qituvchi o‘qilgan hikoya yuzasidan suhbat uyushtiradi.

8. “Mustahkamlash mashqi”ni o‘tkazish. Bunda partadoshlar hikoyani bir-birlariga aytib beradilar.

9. Uyga vazifa. Keyingi darsdagi sinfdan tashqari o‘qish uchun asarlar tavsiya qilinadi. Munavvar qori Abdurashidxonov hikoyalaridan o‘qib kelish vazifasi topshiriladi. O‘quvchilarning o‘zlari ham hikoya yozib kelishlari vazifasi beriladi.

10. Darsni yakunlash. O‘qituvchi keyingi STO‘ darsida qaysi bolalar shoir va yozuvchilari ijodi bilan tanishni istashlarini so‘raydi. Darsda faol ishtirok etgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Saidrasul Aziziyning “Ustodi avval” darsligidagi “Poklik” hikoyasi asosida sinfdan tashqari o‘qish darsi ishlanmasi

Mavzu: Poklik. Saidrasul Aziziy.

Darsning maqsadi: a) o‘quvchilarga poklik haqida tushuncha berish. b) o‘quvchilarning axloq-odob fazilatlarini rivojlantirish.

Darsning metodi: suhbat, interfaol mashq.

Darsning jahozi: asar mazmunini yorituvchi rasmlar.

Darsning borishi.

Kirish suhbati.

O‘quvchilardan poklik, odoblilik haqidagi fikrlari so‘raladi. S. Aziziyning hayoti, faoliyati va “Ustodi avval” asari haqida gapirib o‘tiladi.

2. S. Aziziyning “Poklik” hikoyasi o‘qib beriladi.

3. Hikoya asosida dastlabki suhbat o‘tkaziladi.

- “Poklik” hikoyasi sizga yoqdimi?

- Komil odam qanday sifatlarga ega bo‘lar ekan?

- Odobli deganda qanday odamni tushunasiz?

- Odobsiz deganda nimani tushunasiz?

4. Asarga bag‘ishlangan rasmlar ko‘rsatiladi. Bu jarayonda odobli va odobsiz, poklik haqidagi rasmlar bo‘yicha suhbat uyushtiriladi.

5. O‘quvchilarga ota-onalari bilan odob, poklik va odobsizlik haqida suhbatlashish vazifasi beriladi.

Mavzu: S. Aziziy – to‘ng‘ich alifbo kitobining muallifi

Darsning maqsadi: o‘quvchilarda badiiy adabiyotga qiziqish uyg‘otish, ularning mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish, S. Aziziy ijodi bilan tanishtirish, ma’rifatparvarning ijodiga qiziqish uyg‘otish, o‘quvchilarda ijodkorlik xususiyatini paydo qilish.

Darsning shakli: noan’anaviy, sayohat darsi.

Dars metodi: kichik guruhlarda ishslash, mustaqil ish metodi.

Darsning jahozi: S. Aziziyning “Ustodi avval” asarining lotin yozuviga o‘girilgan nuxxalari, sahnani jihozlash uchun kerakli narsalar.

Darsning borishi.

1. Saidrasul Aziziy hikoya va she’rlaridan ko‘rgazma tashkil etiladi. O‘quvchilar hikoya va she’rlarni ko‘llariga olib, varaqlab ko‘radilar, tomosha qildilar. O‘quvchilar asarlarni ko‘rishlaridan avval quyidagi topshiriqlar beriladi:

- S. Aziziyning qanday she’r va hikoyalarini bilasiz?
- qaysi she’r va hikoya sizga ma’qul bo‘ldi?
- sizga ma’qul she’r va hikoyalarini o‘rganing.

2. A. Aziziy hayoti va “Ustodi avval” asari haqida suhbat o‘tkaziladi.

- S. Aziziy kim ekan?
- uning qaysi she’r va hikoyalarini o‘qidingiz?
- muallif haqida yana qanday ma’lumotlarni bilib oldingiz?

Ma’rifatparvar haqida o‘quvchilarning qiziqishlarini hisobga olib ma’lumot beriladi:

- S. Aziziy 1866 yilda Toshkent shahrida tug‘ilgan. 1900 yilda “Ustodi avval” asarini yozib tugatgan. 1902-17 yillarda 17 marta qayta-qayta nashr qilingan.

- “Ustodi avval” o‘zbek tilidagi to‘ng‘ich alifbo kitobidir;  
- darslikda “Poklik”, “Onaga hurmat”, “Aqli o‘g‘il”, “Befarosat”, “Hamoqat”, “Zuluk birla ilon” kabi she’r va hikoyalar berilgan.

3. O‘quvchilar o‘zлari qiziqib tanlagan she’r va hikoyalari bo‘yicha guruhlarga bo‘linishadi.

- 1-guruh. Ilm-ma’rifatni targ‘ib qiluvchi hikoyalar;
- 2-guruh. Axloq-odobga doir hikoyalar;
- 3-guruh. Tabiatshunoslikka doir hikoyalar;
- 4-guruh. Turmushga doir hikoyalar.

4. Guruhlar taqdimoti. Har bir guruh o‘zлari tanlagan yo‘nalishlardagi she’r, hikoyalardan parchalar o‘qib beradi.

- 5. O‘qilgan she’r va hikoya yuzasidan suhbat.
  - A) “Ilm” hikoyasini mazmunini so‘zlab bering.
  - B) “Xulq va odob” hikoyasini mazmunini aytib bering.
  - V) “Poklik” hikoyasini mazmunini gapirib bering.
  - G) “Befarosat” hikoyasi mazmunini aytib bering.

6. O‘qituvchi ma’rifatparvar S. Aziziyning “Aqli o‘g‘il” hikoyasi o‘qib beriladi:

Aqli o‘g‘il.

Kechasi yotganda bir bolaning otasi uyg‘onib tashna bo‘lgan ekan. O‘g‘lini uyg‘otib suv so‘raydi. O‘g‘li darhol turub suv olib kelib qarasa otasi uxbab qolibdi. Mabodo yana uyg‘onib suv so‘rar deb piyoladagi suvni ko‘tarib tong otguncha otasining boshida poylab turibdi. Ota-onani shunday hurmat qilmoq kerak.

O‘qituvchi aytgan hikoya yuzasidan suhbat uyushtirildi.

7. Uyga vazifa. Keyingi darsdagi sinfdan tashqari o‘qish uchun asarlar tavsiya qilinadi. S. Aziziy she‘r va hikoyalardan o‘qib kelish, yod olish topshirig‘i beriladi. O‘quvchilarning o‘zлari ham hikoya yozib kelishlari mumkinligi aytildi.

8. Darsni yakunlash. O‘qituvchi keyingi sinfdan tashqari o‘qish darsida qaysi bolalar yozuvchilari ijod bilan tanishishni istashlarini so‘raydi. Darsda faol ishtirok etgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

## 5-Mavzu: Saidrasul Aziziyning hayoti va pedagogik faoliyati

Reja:

1. Saidrasul Aziziyning hayoti va pedagogik faoliyati.
2. Saidrasul Aziziyning “Ustodi avval” darsligidan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini axloqiy tarbiyalashda foydalanish imkoniyatlari.
3. O‘qish darslarida Saidrasul Aziziyning “Ustodi avval” darsligidagi badiiy matnlardan foydalanish.

**Tayanch tushunchalar:** Saidrasul Aziziy, “Ustozi avval”, darslik, badiiy matn, foydalanish.

### 1.Saidrasul Aziziyning hayoti va pedagogik faoliyati.

XX asr boshlarida yangi usul maktablari uchun o‘zbek tilida tuzilgan alifbe darsliklari o‘ndan ortiq bo‘lib, bular ichida ayniqsa Munavvarqori Abdurashidxonovning “Adibi avval” (1907), Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim” (1912), Rustambek Yusufbek o‘g‘lining “Ta’limi avval” (1912), Muxtor Bakirning “Savod” (1913), Saidrizo Alizodaning “Birinchi yil” (1917) kabi darsliklari xalq ommasiga ma’lum va mashhur bo‘lgan. Turkistonligi o‘zbek tilida ochilgan yangi usul maktablarining o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berish jarayonida keng ko‘lamda foydalanilgan bu darsliklar yangi usulda-“usuli savtiya”da yozilgan bo‘lib, bunday usulda yozilgan dastlabki asar “Ustodi avval”ning muallifi toshkentlik Saidrasul Aziziydir. Saidrasul Aziziy o‘zbek pedagogikasi tarixida «islohotchi pedagog» nomi bilan shuhrat qozongan. U 1866 yilda Toshkent shahrida tug‘ilgan. Otasi Saidazizxo’ja ismli odam bo‘lgan va o‘z o‘g‘lini ham savodli, bilimli odam bo‘lishini istab Saidrasulni eski maktabga beradi. Bu erda u boshlang‘ich ma’lumotni olgach, so‘ng

Toshkentdagi “Madrasai Mahmud dasturxonchi”da o’qiydi va shu davrda rus tilini mustaqil o’rgana boshlaydi. Saidrasul madrasa bilan birga birinchi rus va mahalliy millatlar uchun ochilgan maktabni ham bitiradi va o’zi o’qib bitirgan “Madrasai Mahmud dasturxonchi”da ilm toliblariga saboq beradi. 1900 yilda esa o’zi o’qigan rus-mahalliy millat vakillari uchun ochilgan maktabga ishga keladi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, Saidrasul Aziziy o’zbeklar orasida birinchi bo’lib rus-mahalliy millat vakillari uchun ochilgan maktabda “Sharqiya muallim”ligini olib borib, o’quvchilarga dars beradi.

## **2.Saidrasul Aziziyning “Ustodi avval” darsligidan boshlang’ich sinf o’quvchilarini axloqiy tarbiyalashda foydalanish imkoniyatlari**

Saidrasul Aziziyning nomini mashhur qilgan asar-“Ustodi avval”ni 1900 yilda yozgan. 1902 yildan 1917 yilgacha takomillashtirib, to’ldirib 17 marta nashr qilingan. Yangi usul maktabi o’qituvchilariga ham bu darslik manzur bo’lgan. Shu sababli bu maktablarda “Ustodi avval”dan alifbo darsligi sifatida foydalaniłgan. Biz darslikning 1906 yildagi nashrini bir necha yillar davomida Qashqadaryo viloyati pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida mas’ul lavozimlarda ishlab kelgan Turdi Rahmatullaevning shaxsiy arxividan olib foydalandik. Hozirgi o’zbek yozuviga o’girdik. “Ustodi avval”dan boshlang’ich sinf o’quvchilarini axloqiy tarbiyalashda foydalanish imkoniyatlarini o’rgandik.

Darslik pedagogik va badiiy tusda bezatilgan bo’lib birinchi sinf o’quvchilari uchun mo’ljallangan. Darslikning birinchi betida bu haqida shunday yozilgan: “Turkiston viloyatidagi turk mo’minlarining oson tillarida birinchi mubtodilar uchun ta’lif qilingan asari jadida xususida alifbo kitobimizning nomi-“Ustodi avval”.

Darslikning 2-18-betlari xat-savod o’rgatish metodikasi, alifbeni o’rganishga qaratilgan. Arab alifbosiga asoslangan o’zbek yozuvini o’rganish o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’lib, bu avvalo harflarning to’rt xil ko’rinishda ifodalanişlidir. “Ustodi avval”ni yozishda bu hol alohida e’tiborga olingan, harflar, o’rgatilayotganda jumlalar tuzilgan. Bu jumlalar orqali o’quvchilarga tevarak-atrofimizdagi olam, shuningdek, axloqiy fazilatlar haqida dastlabki tushunchalar berilgan. O’quvchilarga xat-savod o’rgatib bo’lingach mavzuga muvofiq dastlab kichik-kichik, sodda, asta-sekin kengroq va murakkabroq hikoyalar berilgan. Bu hikoyalar bir-birini mazmunan boyitib borgan. Darslikda yigirmaga yaqin hikoya va she’rlar kiritilgan bo’lib bu hikoyalarning aksariyati axloqiy xarakterga egadir.

“Ustodi avval”ni shartli ravishda uch guruhgaga bo’lish mumkin:

1. Saidrasul Aziziyning qalamiga mansub bo’lgan hikoya va she’rlar (“Poklik”, “Onaga hurmat”, “Aqli o’g’il”, “Befarosat”, “Hamoqat”, “Zuluk birla ilon”, “Bir necha do’stlik uchun ahd qilgan musofirlar”).

2. Sharq, chunonchi, o'zbek klassik adabiyoti va folkloridan foydalanib yozilgan hikoyalari ("Xat", "Beodob", "Chaqimchi", "Aqlli kishi", "Xulq va odob", "Ilm", "Fatonat").

3. Rus klassik adabiyotidan qilingan tarjimalar darslikda muhim o'rinnegallaydi ("Tulki birla uzum", "Qishloqi birla bolasi", "Yolg'onchi cho'pon", "Vatani rus").

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, Qur'oni karim va hadisi sharifdan namunalar berilgan, xalq maqollaridan ijodiy foydalanilgan "Ustodi avval" ta'limiy-axloqiy asar bo'lib, ko'pchilik tadqiqotchilar uni badiiy-pedagogik asar deb ham baho berganlar.

Saidrasul Aziziyning "Ustodi avval" darsligidagi adabiy materiallarni mavzu va mazmun jihatdan quyidagicha tasnif qilish mumkin:

- axloq-odobga doir hikoyalari: "Poklik", "Ikki oshno", "Bola ila otasi", "Qishloqi birla bolasi", "Zuluk birla ilon", "So'zchi", "Beodob", "Yaxshi sifat", "Xulq va odob", "Fatonat", "Aqlli o'g'il", "Hamoqat", "Befarosat", "Aqlli kishi", "Onaga hurmat", "Chaqimchi", "Tulki birla uzum", "Bir necha do'stlik uchun ahd qilgan musofirlar".

Bu hikoyalarda insonlar uchun g'oyatda zarur bo'lgan fazilatlar: poklik, do'stlik, o'rtoqlik, ota-onaga hurmat va sadoqat, ziyraklik kabilar ulug'lansa, chaqimchilik, so'z yuritish, ikkiyuzlamachilik, yalqovlik, befarosatlik, tovlamachilik, hushomadgo'ylik kabilar qattiq tanqid ostiga olinadi;

- ilm-ma'rifikatni targ'ib qiluvchi hikoyalari: "Xat", "Tolibi ilm", "Ilm" kabilardir.

Bu hikoyalarda ilm olishning afzalliklari, foydalari, ilmsizlikning yomon oqibatlarga olib kelishi bir necha voqealar orqali isbot qilib berishga harakat qilingan;

- yil, oy, kunlar haqidagi hikoyalari: "Sanai shamsiyaga qarab chislolarni nomlari", "Yil", "Oy", Kunlar haqida", "Hisobi qamariya oy va kunlari nomlari" kabi hikoyalarda shamsiya hamda qamariya oylari, ularning nomlari, hafta kunlarining nomlanishi, kunlar haqida ma'lumotlar berilgan;

- turmushga doir hikoyalari: "Libosi odam", "A'zoyi odam", "Uy asboblari" kabilar bo'lib, bu hikoyalarda uy asboblari hamda odam kiyimlari, shuningdek, odam a'zolarining nomlari keltirib o'tilgan;

- tabiatshunoslikka doir hikoyalari: "Hayvonot", "Qush zotlari", "Daraxtlar" kabilar bo'lib, bu hikoyalarda hayvonlar, qush va daraxtlarning bir necha turlari, nomlari keltirib o'tilgan. Bizningcha bundan ko'zda tutilgan asosiy maqsad, qush, hayvon va daraxtlarning bir necha xil bo'lishi, ularning xilma-xilligi va o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatib berishdir. Natijada o'quvchilarning dunyoqarashini, fikrlashini shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat;

- diniy xarakterdagи hikoyalari: "Payg'ambarimiz Muhammad alayhi vassallam..." hamda "Hazrati Iso..." haqidagi bu hikoyalarda payg'ambarimiz Muhammad alayhi vassallamning hayoti, faoliyati, qur'oni karimning nozir bo'lishi, shuningdek, hazrati Iso Payg'ambarining hayoti, faoliyati haqida

hikoyalar berilgan. Chunki, rus bolalari provoslav diniga, mahalliq millat bolalari musulmon diniga rioya qilishar edi. Shu sababli bu ikkala payg'ambar haqidagi hikoyalarning berilishi ikki din vakillari o'rtasida do'stlik, o'rtoqlik hamda o'zaro hurmat hislarini tarbiyalash ko'zda tutilgan.

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, "Ustodi avval"da axloqiy xarakterdagи hikoyalar ko'pchilikni tashkil qiladi. Saidrasul Aziziy "Ustodi avval"da yaxshi va yomon bolalar, yaxshilik va yomonlik haqida shunday yozadi: odobli bola tozalik, shirinso'zlik va hushfe'l bo'lur. O'zidan kattalarni izzat qilib, kichiklarga shafqat qilib, har kimni shirin so'z va yaxshi hurmat ila xursand qilur. Ota va onalarga qarshi turub so'zlamas. Chaqirsalar "labbay" deb hozir bo'lib, buyurgan ishlarni "xo'p" deb, to'xtamasdin qilur. Ota va ona buyurgan ishlarni qilmoqdin erinib, sustlik qilib, alarni ranjitmas.

Yaxshi bola toza va ozoda bo'lur. Chopon va liboslarini, yuz va qo'llarini kir va iflos qilmas. Choy ichgandan so'ng tinchlik va odoblik birla, kitoblarini olib, maktabga jo'nar. Yo'lda hech kim birla urushmasdin va o'ynashmasdin to'g'ri maktabga borur. Yaxshi bola kitob va daftalarini kir qilmas va alarning chetiga har xil xatlarni bitmas va yirtmas, uyda yurgan vaqtida tinchlik va xushfe'llik ila yurar. Oz narsani talashib o'rtoqlari birla urushmas. Har kimni oldida ta'zim va odob birla o'turib, oz narsa uchun birovni so'kub va urushib, arazlab yig'lamas. Har kimni so'ziga qo'shilib so'zlamas. O'zidan so'ralgan so'zga odob birlan qarab turub javob berur.

Saidrasul Aziziy yomon, odobsiz bolalar qanday bo'lishini quyidagicha ko'rsatib bergen: yomon bola beodob va badfe'l bo'lur. Har kimga qattiq so'zlab xafa qilur. Hech kimni yaxshi so'z ila hurmat qilmas. O'zidan katta odamlarni izzat qilmay, o'zidan kichiklarni urub, so'kib, janjal qilur. Ota-onalari ish buyursa qabul qilmas. Katta odamlar orasida shovqinlab, gapirib va kulib o'tirar va ularning oldida yonboshlab, yumalanib yotur. O'zidan so'ralmagan so'zga qo'shilib so'zlar. Ko'p uxlari va yurgan yo'lida taom eb yurar.

Yomon bola iflos bo'lur. Yomon ishlarni qilur. Uxlab qolib maktabga kech qolur. Kelganda ham turmoq va o'turmoq tartibini bilmay va o'ylamay kulib, o'ynab o'tirur. Saboqni tayyor qilmasdin, domla saboq beradirgan vaqtda boshqa tarafga qarab o'ynab o'tirur. Sheriklaridan keyin qolganiga xafa bo'lmas. Har kunlik saboqni bilmakka harakat qilmas. Sheriklari har qancha bilsalar ishi bo'lmay o'zini sabog'ini bilmas. Ham qutulganiga shukur qilur. O'qimagan kishilardek, betartib yurmoqni yaxshi ko'rар.

Yuqoridagilardan ham ko'rinish turibdiki, Saidrasul Aziziy XX asr boshlaridagi ko'plab ma'rifatparvarlar kabi insonga xos bo'lgan xulqni ikki qarama-qarshi-yaxshilik va yomonlikka ajratgan. Bolalar ham ikki xil yaxshi, odobli va yomon, odobsiz bo'lishlarini ko'rsatib bergen.

Sharq, chunonchi, o'zbek xalq pedagogikasida poklik, tozalik, halollik haqida juda ko'p hikoya, she'r, rivoyat va ertaklar bitib qoldirilgan. Bunga zardo'shtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da, musulmonchilik dinining muqaddas kitobi qur'oni karimda, hamda hadisi shariflarda, xalqimizning atoqli

fozilu fuzalolari, lashkarboshiyu donishmandlarining bir necha minglab asarlarida misollar bisyor uchraydi: “Komil odam bo’lmog’ uchun avval ilm, andin so’ng odob va poklik lozimdurki, nopol va beodob odam mullo bo’lmas. Mullo bo’lsa ham aning ilmdin manfaati juda oz bo’lur. Shariatimiz poklikni ko’p lozim tutadur. Bir chopon qirq yamoq bo’lsa ham pok va toza bo’lsa eski kiymoq ayb emas”.

Darslikda boshlang’ich sinf o’quvchilarining do’stlik, o’rtoqlik fazilatlarini tarbiyalashda muhim vosita bo’la oluvchi: “Ikki oshno”, “Fatonat”, “Hamoqat” kabi hikoyalar hamda “Bir necha do’stlik uchun ahd qilgan musofirlar” she’rlari mavjud. Ayniqsa, uning **“Bir necha do’stlik uchun ahd qilgan musofirlar”** she’ri diqqatga sazovor:

*Necha har dam o’rtasida bo’lgan ushbu qorlar,  
Do’stlik ahdida turmas har dam ayyorlar.  
Bir necha kasd safar qilmoq uchun qishloqdin,  
Har qayusi bir-biriga berdilar har xil nishon.  
Yodimizdin chiqmasun deb do’stlik, ey yorlar,  
Yo’l uzra chiqdilar onlar jamoa birdin ittifoq.  
Yo’l bosar erdilar onlar ozlashib axborlar,  
Ittifoqo yo’llari daryo yuzidin yax uzra tushdi.  
Va yurdilar jamla ul daxvolar,  
Nogahon muz sindi, suvgan cho’kdi onlardin biri.  
Qildi faryod: “Ey birodarlar keling”, -deb zorlar,  
Shul zamonda ul muhabbatlik birodarlar ko’ringay.  
Siz boring deb, bir-biriga qildilar izhorlar,  
Do’stilaridin hech biri qayrilmay.  
Bir boqmayin yurdilar o’z yo’llariga ahdlik dildorlar,  
Bir necha bir ko’rmagan, so’zlashmagan.  
Ag’yordin rahm va shafqat qildilar holin ko’rib nochorlar,  
Bu yo’la so’zlar mag’zin faxm qilgan.  
Oqil kishi do’stlikni sevsin,  
Mahkam tuting o’g’lonlar.*

Fatonat-o’tkir zehn, tez zehn, ziyraklik ma’nolarini bildiradi. Fatonat haqida ko’plab hikoyalar axloq ulamolari tomonidan yozib qoldirilgan bo’lsada, sovet davrida bu hikoyalarga etarlicha e’tibor berilmadi. Xolbuki, boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun XX asr boshlarida yozilgan ko’plab darsliklarda o’tkir, tez, zehnlilik, hamda ziyraklik hikoyalar bor. Bularidan biri Saidrasul Aziziyning “Ustodi avval” darsligiga kiritilgan:

### **“Fatonat”**

Bir bola bir kun o’zining bir o’rtog’ining ko’chasidan o’tganida oning darvozasiga ”eshak” degan so’zni yozib ketibdur. Ul xatni ul o’rtog’i ko’rub ul bolaga aytibdur: “O’rtoqjon, siz borganingizda men uyda yo’q ekanman. Darvozagaga nomingizni yozib ketgan ekansiz, ko’rub o’zim siz borganingizda

yo'qligimga xiyla afsus chekdim", -debdur. Ma'lum bo'ladirkum, behuda so'zni yozgan kishi yomon uyalur.

Darslikdagi "Ikki oshno" hikoyasi rus yozuvchisi L.N.Tolstoyning bolalarga atab yozgan hikoyasining tarjimasi bo'lib, XX asr boshlaridagi aksariyat darsliklarga bu hikoya kiritilgan.

Hamoqat so'zi axmoqlik, nodonlik ma'nolarini bildiradi. Bu haqida darslikda quyidagi hikoya berilgan:

### **"Hamoqat"**

Bir odam bir kishiga sherik bo'lib bir hovli sotib olgan. Sherigiga aytibdirki: "Men shul hovlidin o'z tikish haqqimni sotib oning puliga saning tikishingni ham olib, butun hovlili bo'laman", -deganda, bul so'zni eshitgan odamlar aning ahvoliga ko'p kulubdurlar.

Insonga xos bo'lgan yomon hulqlardan biri befarosatlik hisoblanadi. Bu haqida "Ustodi avval"da quyidagi hikoya keltirib o'tilgan:

### **"Befarosat"**

Bir odam kasal kishining oldiga kelib, ko'p uzoq so'zlab o'turub, kasaldin so'rabdurki, "Sizga nima yoqadur va ta'bingiz nimani hoxlamaydur?", -deb. Kasal kishi aytibdurki: "Manga yolg'izlik yoqadur va ta'bim sizdek nodon, ezma kishini hech vaqt ko'rmaslikni hoxlaydур", -deb. Ma'lum bo'ladurki zarurdin ziyoda so'zlamoq kishini xor qiladur.

Darslikda yomon xulqlardan chaqimchilik, so'z yuritish haqidagi "Chaqimchi", "So'zchi" hikoyasida chaqimchilik ko'p yomonligini, uni zinhor qilmaslikni ta'kidlab, xalqimizni "chaqimchi kuymasdan turib jannatga kirmas" degan dono o'gitni misol keltirib o'tadi. Kimki senga yaxshi ko'rinish uchun birovni yomonladimi bilgilki, o'sha odamga yaxshi ko'rinish uchun seni ham yomonlaydi degan fikrni olg'a suradi.

"Aqli kishi" hikoyasida esa, bir aqli kishiga chaqimchi kelib, seni shunday haqarat qildi deganda, aqli kishi jahlga emas boshi aqlga bo'ysunib: "Xayr mani orqamdan har na desalar xafa bo'lmayman. Har kishining tili og'zidadur. Man o'zimni tilimni tiyolmayman, boshqa odamning tiliga hukm etmoq uddasidan chiqolmayman", -deb chaqimchini uyaltiribdi. Chaqimchilikni oxiri voy, chaqimchi kishi oxiri uyalib qolishini darslikda quyidagicha ko'rsatib berilgan.

### **"Chaqimchi"**

Bir ulug' kishiga bir chaqimchi kishi kelib: "Falon odam sani ko'p yomonladi va saning xususingda ko'p yomon haqarat so'zlarni aytdi va sani yo'qligingda juda xorladi", -deganda ul ulug' kishi farosat yuzasidan chaqimchi kishiga qarab: "Ey bechora, shayton sendin boshqa elchi topolmadimu", -deb uyaltiribdi.

"Ustodi avval"da ota-onani hurmat qilish, ularni buyurgan ishlaridan hamda so'zlagan so'zlaridan chiqmaslik haqida, ota va onani ulug'lash haqida

bir necha hikoyalalar berilgan. Bu hikoyalarga: “Onaga hurmat”, “Yaxshi bola”, “Aqli o’g’il” kabilarni misol keltirish mumkin. “Aqli o’g’il” hikoyasi XX asr boshlaridagi juda ko’p darsliklarda uchraydi.

### **“Aqli o’g’il”**

Kechasi yotganda bir bolaning otasi uyg’onib tashna bo’lgan ekan. O’g’lini uyg’otib, suv so’rabdur. O’g’li darhol turib suv olib kelib qarasa otasi uxlab qolibdur. Mabodo yana uyg’onib suv so’rar deb piyoladagi suvni ko’tarib tong otguncha otasining boshida poylab turibdi. Ota-onani shundoq hurmat qilmoq kerak.

Yolg’on gapirish, yolg’onchilik eng yomon fazilatlardan biri bo’lib, kichik mакtab yoshidagi bolalarni ya’ni o’quvchilarni rostgo’y, to’g’riso’z qilib tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Bu haqida “Ustodi avval”da shunday hikoya berilgan:

### **“Qishloqi birla bolasi”**

Bir qishloqi xotin shaharga kelib bozordin bir necha xurmo sotib olib, uyiga olib borib, bir joyga quyub edi. Bir kichik bolasi ul xurmoni iskab qo’yub, nima ekanini bilmay, onasi uzoqroq ketgandin ul xurmodin bir donani olub edi. Taom vaqtiga etganda onasi ul xurmoni sanab hamma bolalariga bittadan beraman desa bitta kam qolibdur. Bolalarining otasiga aytdiki: “Bolalardin biri mendin beiжozat bir xurmoni olibdur”, -deb. Ul vaqtida bolalarning otasi hamma bolalaridan: “Kim oldi?”, -deb so’rasa, hamma “Men olganim yo’q”-deb javob berdi. Ul vaqt otasi aytdiki: “Har kim olgan bo’lsa maloli, zarari yo’q. Lekin yomon va qo’rqamanki, oni olib emoqni bilmay, danagi bilan yutgan bo’lsa, ertaga o’ladur”-deganida, bir kichik bolasi aytibdurki: “Danagini derazani orqasiga tashladim”-deb. Ul vaqtida hammalari kulganlarida, ul bola uyalibdur. Ma’lum bo’lurki, har kim o’ziga tegishli bo’lmagan narsaga beruxsat tegsa, ul boladek uyalur.

Saidrasul Aziziyning “Ustodi avval” darsligida ilm olishga da’vat etuvchi maktabga borishga, bilimli, ilmli bo’lishiga undovchi “Bola va otasi”, “Xat”, “Tolib ilm”, “Ilm”, “Xulq va odob”, “Hikoya” kabi hikoyalalar berilgan. Bu hikoyalarda ilmli, o’qimishli odam ulug’langan. Bilimsiz, yalqovlik qattiq tanqid ostiga olingan. “Bir kishi muallimning oldiga borib aytdiki. Manga bir nima o’rgatingki, aning sababidan ikki dunyoda hurmatlik va obro’ylik va farog’atda bo’lg’ayman. Ul mullo unga maslahat berib: “Bul maqsading o’qimoq va ilm o’rganmoq birla bo’lib, o’qigaysan” –dedi. Ul kishi aytdiki: “Hech bir harf o’qimoq va yozmoqni bilmasman”. Mullo aning holiga rahmi kelib bir necha kun o’qitganda ilmning lazzatidan ozgina bahra olib, aning birla o’zi harakat qilib katta mullo bo’lib, ikki olamning orzusini topdi. Mundin ma’lum bo’lurki, har kim yaxshi harakat qilib ilm o’qisa, ikki dunyo orzusini topar.

Darslikda rus klassigi M.A.Krilovdan tarjima qilingan “Tulki birla uzum” va Saidrasul Aziziy qalamiga mansub deb hisoblanayotgan “Zuluk birla ilon” masallari ham mavjud. Yuqoridagilardan shunday xulosa chiqarish mumkinki,

Saidrasul Aziziyning “Ustodi avval” asari boshlang’ich sinf o’quvchilarini axloqiy tarbiyalashda muhim manba bo’la oladi.

### **3.O’qish darslarida Saidrasul Aziziyning “Ustodi avval” darsligidagi badiiy matnlardan foydalanish.**

O’zbekistonda uzlusiz ta’lim tizimiga asos solinishi hamda boshlang’ich ta’lim umumiy o’rta ta’limning tarkibiy qismi sifatida e’tirof etilishi natijasida boshlang’ich ta’limning amaldagi maqsadi, vazifa, mazmun, prinsip va vositalari hamda usullarini tubdan isloh qilish, o’zgartirish zarurati paydo bo‘ldi. Kichik mакtab yoshidagi bolalarni o’qitish va ularga milliy hamda umuminsoniy tarbiya elementlarini singdirish amaliy jihatdan tadbiq qilinishi lozim. Bu o’rinda, milliy axloq tarbiyasi, ma’naviy-ruhiy hamda milliy nafosat va jismoniy tarbiya boshlang’ich ta’lim bosqichida ustuvor ahamiyat kasb etishi kerak, bunda o’quv materiali shaklida berilgan ta’limiy matnlarda o’quvchilarga turli shaklda ma’naviy-axloqiy tarbiya va milliy nafosat meyorlarini, umuminsoniy qadriyatlarini singdirish nazarda tutiladi.

Bizningcha, boshlang’ich sinf o’quvchilarini axloqiy tarbiyalashda, ma’naviy jihatdan kamol toptirishda, sinfda o’tiladigan o’qish, tarbiya hamda sinf soatlari muhim ahamiyatga ega. Bunda xalqimizning axloqiy tarbiyaga doir boy pedagogik merosidan chunonchi, yangi usul mакtabi tarafdarlarining axloqiy-ta’limiy asarlaridan unumli foydalanish lozim.

Boshlang’ich sinflarda o’tiladigan tarbiya va o’qish darslari, shubhasiz, o’quvchilarga ta’lim-tarbiya berishda yetakchi xususiyatga ega.

Pedagogik texnologiyaning muhim belgisi-maqsad hosil qilish jarayonidir. An’anaviy pedagogikada “pedagogik maqsad” masalasiga nazariyachilar ham, amaliyotchilar ham kam e’tibor berishgan. Pedagogik texnologiyada-pedagogik maqsadni aniqlash asosiy muammo bo‘lib, maqsadni diagnostik ifodalash, bilim o’zlashtirish sifatini obyektiv baholash nazarda tutiladi. Pedagogik texnologiyaning tamal toshi – bu, ta’lim natijalarini diagnostik va amallarda ifodalangan maqsadlar sifatida rejallashtirish (loyihalashtirish)dir. Erishib bo’ladigan aniq, real maqsadlar qo‘yilsa, o’qitishning har bir aniq shart-sharoitida maqsadga erishishning qulay shakl, usullari va vositalarini tanlashga imkon yaratiladi.

Ma’lumki, psixologiyada yo’naltiruvchi maqsad ta’limoti mavjud bo‘lib, unga ko’ra shaxsning biror faoliyati deganda xulqning qanday yo’nalish kasb etishi, hatti-harakati uchun zarur bo’lgan ruhiy holatning ta’siri tushuniladi. Odamning qanday ish qilishi, shubhasiz, uning ruhiy holatiga bog‘liq bo‘lib, biror faoliyat, hatti-harakat, muomala-munosabat tayyorgariksiz, xohish-istaksiz ro‘yobga chiqmaydi. Pedagoglar o’z oldilariga hamisha yo’naltiruvchi diagnostik maqsadlar qo‘yib ishlasalargina yaxshi natijalarga erishadilar. Shuningdek, pedagogikada “ustun maqsad” degan tushuncha mavjud. Biz bu g‘oyaga asoslanib darsning maqsadini belgilashda va sinfdan tashqari ishlarni rejallashtirishda axloqiy sifatlar-vatanparvarlik, rostgo‘ylik, do’stlik, o’rtoqlik,

saxiylik; ustoz, ota-onalardan hamda qavmu qarindoshlarga hurmat, shafqat va marhamat, ilmu ma'rifatga da'vat kabilarni ajratib, ustun va diagnostik maqsadlar sifatida belgilab oldik. O'quvchilarda axloqiy sifat va fazilatlarni tarbiyalash borasida quyidagi yo'naltiruvchi maqsadlarni belgiladik;

- o'quvchilarda vatani, elu-yurti, do'st, o'rtoq, ustoz, ota-onalardan va qavmu qarindoshlar oldidagi o'z burchini, mas'uliyatini anglash tuyg'usini maqsadga muvofiq shakllantirib borish;
- Vataniga, elu yurtiga, ilmu ma'rifatga, do'sti va o'rtog'iga, ustoz, ota-onalardan va qavmu qarindoshlariga, umuman insoniyatga hurmat, rahm-shafqat, mehru-muhabbat, saxiylik, xayrixohlik ruhiy kechinmalariga sheriklik fazilatlarini tarbiyalash;
- Vatanga xoinlik, elu yurtga qarshi faoliyat, johillik, urushqoqlik, chaqimchilik va g'iybat, baxillik,adolatsizlik, rahmsizlik va shafqatsizlik, ta'magirlilik, shaxsiyatparastlikka nisbatan nafrat va bunday hatti-harakatlar bilan kelisha olmaslik, ularga qarshi kurashishni tarbiyalash; boshlang'ich sinflardayoq bolalarda insonlarga mehribonlik, rahm-shafqat va marhamatlik, vatanparvarlik, rostgo'ylik, ma'rifatparvarlik, saxiylik, ustoz, ota-onalardan va qavmu qarindoshlariga muhabbat hamda do'stlik va o'rtoqlik kabi axloqiy fazilatlarni shakllantirish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy fazilatlarni tarbiyalashni ustun maqsad qilib belgilash bilan birga uni amalga oshirish uchun darsda pedagogik texnologiya talablariga mos ravishda aniq ta'limi, tarbiyaviy vazifalarni hal etishni belgilash zarur edi. Biz bunda quyidagilarni belgiladik:

- axloqiy fazilatlarning ma'nosini, mazmuni va mohiyatini hamda tavsifini anglab olish, bunga doir tushunchalarni shakllantira borish;
- Vatanga; ustoz, ota-onalardan va qavmu qarindoshlarga; do'st, o'rtoqqa; ilmu ma'rifatga nisbatan qiziqish, saxiylik, xayrihohlik, hamdardlik va marhamat hislarini uyg'otish;
- Vatani, elu yurti, ustoz, ota-onalardan va qavmu qarindoshlar (umuman insoniyat), o'rtoq va do'stlar oldidagi burch nimadan iboratligini tushunish, vatanga mehru muhabbat, insonlarga nisbatan do'stona muomala, ularga mehru muhabbat, saxiy, rahm-shafqatli, muruvvatli bo'lishning ma'nosini anglash.

Yangi usul maktabi tarafdarlarining axloqiy tarbiyaga doir asarlari vositasida o'qish darslarini yangi pedagogik texnologiya asosida tashkil etdik. Darslarga qo'yilgan pedagogik talablar:

- jadid ma'rifatparvarlarining axloqiy tarbiyaga doir darsliklaridan olingan namuna(matn)ga qiziqish hissini uyg'otish, mavzuning mazmunini ochib berish maqsadida ifodali o'qish va emotsiyonal tarzda bayon qilib berish;
- matnni o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar darajasida o'tish, bunda davlat ta'lim standartlari (boshlang'ich ta'lim) alohida e'tiborga olinib, o'quvchilarni o'qitish va nazorat qilib borish kerak. Bunda, o'quvchilarning harflarni to'g'ri talaffuz etishlarini,

so‘zlarni to‘g‘ri o‘qishlarini, gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va obrazli o‘qishlarini, gapdagi tinish belgilarini talaffuzda aks etishini, sanash va ajratish ohanglaridan to‘g‘ri foydalanishlarini hamda so‘z, urg‘u va ohanglariga rioya qilishlariga alohida e’tibor berish juda muhim bo‘lib, o‘qish texnikasining miqdoriy ko‘rsatkichi minutiga – 80-90 so‘zni tashkil qilishi;

- o‘qilgan matnda ifodalangan mazmunni ochib berish maqsadida savol-javob metodidan foydalanib, o‘quvchilar o‘z fikrlari, nuqtai-nazarlarini bildirishi, o‘z bahosini berishi;
- har bir o‘qish darsini iloji boricha , innovatsion texnologiyalar, didaktik o‘yinlar, mul’timediya ilovalari, ko‘rgazmali qurollar orqali o‘tish;
- matndagi qahramonlarning ijobiliy va salbiy hatti-harakatlarini farqlay olish, solishtirish, hayotdan olingan aniq shaxs yohud adabiy qahramonlarning fazilatlariga, munosabatlariga taqqoslash orqali o‘z xulosalarini mustaqil bayon qilishlarini talab etish;
- o‘quvchilarning axloq-odobga doir bilim, tushunchalarini kengaytirish hamda olgan tarbiya va bilimlarini amalda qo‘llash uchun ma’lum vaziyatga qo‘yish;
- darsda matn mazmuniga muvofiq muammoli vaziyatlar yaratish va undan chiqish yo‘lini topishga undash kabilar shubhasiz o‘quv mashg‘ulotlari, darsning samaradorligini ta’minlaydi.

Yangi usul maktabi tarafdarlarining pedagogik merosi vositasida o‘qish, odobnama darslari jarayonida o‘quvchilarni axloqiy tarbiyalash namunaviy tuzilmasini ishlab chiqdik:

<b>Dars qismlari</b>	<b>Qilinadigan ishlar mazmuni</b>
Darsning maqsadi: A) ta’limiy; B) tarbiyaviy; V) rivojlantiruvchi;	Axloqiy fazilatlarning mazmuni va mohiyatini puxta bilish, tavsiflay olish, o‘quvchilarda axloqiy fazilatlarni uyg‘otish va rivojlantirish hamda odatlantirib borish vazifasi ifodalaniishi kerak.
Darsning jahozi: A) didaktik materiallar B) plakat va rasmlar V) o‘quv-texnika vositalari; G) albomlar; D) diafilmlar;	Milliy urf-odat, an’ana va qadriyatlarimiz hamda xalq pedagogikasi, shuningdek, islomiy g‘oyalari va ma’rifatparvarlarimiz, eng avvalo Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning asarlari va rangli rasmlari, axloqiy mavzuga bag‘ishlangan plakatlar, albom va diafilmlar, o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan ko‘rgazmali qurollar bo‘lishi zarur.
Darsda qo‘llaniladigan usullar: ifodali o‘qish; izohlash; suhbat;	Bu usullar o‘quvchilarda his-hayajon, O‘zbekiston Vatani, elu yurtni; ustoz, ota-onasi hamda qavmu qarindoshlarni (umuman insonlarni) sevish, do’sti va o‘rtoqlarini sevish, ularga mehr muhabbatli, rahm-shafqatli bo‘lishni uyg‘otishi, rostgo‘ylik,

munozara; savol-javob; tushuntirish;	insonparvarlik, yurtparvarlik sifatlarini rivojlantirishni; vatanga xoinlik, elu yurtiga nafratli bo‘lish, johillik, yolg‘onchilik, baxillik, soxta do‘stlik, shafqatsizlik, marhamatsizlik hamda ustoz, ota-onas va qavmu qarindoshlariga (umuman insonlarga) hurmatsiz bo‘lishga qarshi nafrat hissini uyg‘ota bilishi, kurasha bilishi kerak
Darsning tuzilishi: an’anaviy; noan’anaviy; muammoli, tizimli, texnologik yondashuvlar va ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida	Boshlang‘ich sinfda har bir dars oldiga qo‘yiladigan maqsad va vazifalarga muvofiq holda tuziladi. Matnni o‘qish, tahlil qilishda ko‘rgazmali qurollardan foydalanish orqali o‘quvchilar dunyoqarashini rivojlantirishga, mustaqil fikrlashga, matndagi qahramonlarning ijobiylari va salbiy xulqlarini baholashga mazmunini imkonli boricha tushunib, ma’lum xulosalar chiqarishga o‘rgatish va shunga erishishni ta’minlanishi kerak.

## **S. Aziziyning “Fatonat” hikoyatini 2-sinfda o‘tish. Darsning texnologik xaritasi.**

Mavzu: Fatonat. S. Azizi. Soatlar soni. 1 soat.
Mavzuga doir tayanch tushunchalar: fatonat, darvoza, uyalish.
Mavzuning qisqacha ta’rifi: Bir bola o‘rtog‘ining darvozasiga “eshak” deb yozib ketgan ekan urtog‘i bu yozuvni kim yozganini aniqlab o‘rtog‘iga: “siz borganingizda yo‘q edim. Darvozaga otingizni yozib ketibsiz”-deb uyaltiribdi.
O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:
Metod: suhbat, hikoya, didaktik o‘yin, ifodali o‘qish, tushuntirish, musobaqa, munozara.
Shakl: jamoa, guruh bilan ishlash.
Jihoz: Mavzuga doir rasmlar.
Nazorat: o‘quvchilar darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.
Baholash: o‘quvchilar olgan ballar dars oxirida bayon qilinadi.
<b>Darsning maqsad va vazifalari:</b>
<b>Maqsadlar:</b>
Ta’limiy: o‘quvchilarning to‘g‘ri, ravon, ifodali o‘qish malakalarini takomillashtirish. O‘quvchilarni buyuk ajdodlarimiz merosi bilan tanishitirish.
Tarbiyaviy: o‘quvchilarni axloq-odobli qilib tarbiyalash.
Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning to‘g‘ri, ravon, ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, axloq-odobli qilib tarbiyalash.
<b>Kutilayotgan natija.</b>
Dars yakunida o‘quvchilarning to‘g‘ri, ifodali va tez o‘qish malakalari takomillashadi, odobli bo‘lishning ahamiyati, tez fikrlash, zehnli bo‘lish yo‘llarini bilib oladilar.

<b>Dars jarayoni va texnologiyasi.</b>			
<b>Yilning nomi</b>	<b>Bajariladigan ish mazmuni</b>	<b>Metod</b>	<b>Vaqt</b>
1-bosqich. Tashkiliy qism.	O‘quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	Suhbat	2 daqiqa.
2-bosqich. (Refleksiya) ehtiyojlarni aniqlash.	Dars davomida rioya qilish lozim bo‘lgan qoidalar belgilanadi. Dars shiori ishlab chiqiladi.	Munozara.	2 daqiqa.
3-bosqich. Darsning borishi.	1. Fatonat – tez zehnlilik haqida qarama-qarshi juftlik so‘zlarni topish o‘yinini o‘tkaziladi.	Didaktik o‘yin.	8 daqiqa.
	2. Yangi mavzuni o‘tishga tayyorgarlik.	Suhbat musobaqa.	4 daqiqa.
	3. O‘qituvchi matnni ifodali o‘qiydi. Matn mazmunini so‘zlab beradi.	Suhbat.	7 daqiqa.
	4. Matnni o‘quvchilar o‘qiydilar.	Ifodali o‘qish.	7 daqiqa.
	5. Topishmoq aytish musobaqasi.		7 daqiqa.
4-bosqich. Mustahkamlash.	O‘rganilganlar takrorlanib, partadoshlar bir-biriga matnni aytib berib dars mustahkamlanadi.	Suhbat.	5 daqiqa.
5-bosqich. Darsni yakunlash.	O‘quvchilarning darsda ishtiroki hisobga olinib, bahosi e’lon qilinadi va dars yakunlanadi, uyga vazifa beriladi.	Tushuntirish.	3 daqiqa.

### **Darsning borishi.**

1. Tez zehnlilik, hozirjavoblik va zehnsizlik, tez javob beraolmaslik belgilari asosida qarama-qarshi juftlik so‘zlarni topish o‘yini o‘tkaziladi.

Zehnlilik. Zehnsizlik.

Hozirjavoblik. Hozir javobli bo‘laolmaslik.

O‘rtoqlari bilan yaxshi. Yomon muomalada bo‘lish.

Muomalada bo‘lish.

Odoblilik. Odobsizlik.

Shirin so‘zlik. Qo‘pol so‘zlik.

2. Yangi mavzuni o‘tishga tayyorgarlik. Yuqoridagi o‘yin ham yangi darsni o‘tishga tayyorgarlikning dastlabki qismi. O‘qituvchi o‘quvchilarning tez zehnlilik va zehnsizlik belgilari haqidagi tasavvurlarini o‘rganib, xulosalab, bugungi dars ham shu mavzuga qaratilganini aytadi.
3. Matnni o‘qish. O‘qituvchi matnni ifodali qilib o‘qiydi. Matn mazmunini so‘zlab beradi. Bir bola bir kuni o‘rtog‘ining ko‘chasidan o‘tganda uning darvozasiga “eshak” degan so‘zni yozib ketibdi. Bu xatni o‘rtog‘i ko‘rib u bolaga aytibdi: “O‘rtoqjon siz borganingizda men uyda yo‘q ekanman. Siz borib, darvozaga nomingizni yozib ketgan ekansiz, ko‘rib o‘zim yo‘qligimga hiyla afsus qildim”, - deb uyaltiribdi. Ma’lum bo‘ladiki, behuda so‘zni yozgan kishi yomon uyaladi.
4. Matnni o‘quvchilar o‘qiydilar. Avval ichda o‘qish, keyin jo‘r bo‘lib o‘qish aytildi. Matn qismlarga bo‘lib yoki rollarga bo‘lib o‘quvchilarga navbat bilan o‘qitiladi.
5. O‘quvchilar bilgan topishmoqlarini aytish va uning javobini izlash, bolalarning darsga qiziqishini oshiradi.
6. Matnni partadosh o‘quvchilar bir-biriga aytib beradilar.
7. Dars umumlashtiriladi va o‘quvchilarning olgan ballarini e’lon qiladi. Uyga vazifa qilib odoblilik sifatlarini o‘rganish topshiriladi.

## **6-Mavzu: Abdulla Avloniyning hayoti, ijodi va pedagogik faoliyati**

### **Reja:**

1. Abdulla Avloniyning hayoti, ijodi va pedagogik faoliyati.
2. Abdulla Avloniy pedagogik merosining tarbiyaviy imkoniyatlari.
3. Abdulla Avloniyning pedagogik asarlari vositasida tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazish jarayoni.

**Tayanch tushunchalar: Abdulla Avloniy, ijod, tarbiyaviy imkoniyatlar, pedagogik asarlar, vosita.**

### **1. Abdulla Avloniyning hayoti, ijodi va pedagogik faoliyati,**

Abdulla Avloniy 1878 yil 12 iylida Toshkent shahrining Mergancha mahallasida mayda hunarmand, bo‘z va chit materiallari bilan savdo qilgan Miravlon aka oyilasida dunyoga kelgan. Abdullaning bobosi Mirne’matboy asli Qo‘qon shahridan. Abdulla yetti yoshida O‘qchidagi Akramxon domlaning eski usul maktabida o‘qigan. 1890 yilda Mergancha mahallasidagi madrasada ta’lim-tarbiya olaboshlagan. Keyin esa, Shayx Xovadi Tahir mahallasidagi Abdumalikboy madrasasida Mulla Umar Oxund qo‘lida ta’lim olgan. Moddiy yetishmovchik, tirikchilik Abdullani qish oylarida o‘qib qolgan fasllarda g‘isht quyish, suvoqchilik, pechkachilik, duradgorlik, binokarlik ishlari bilan shug‘ullangan, mardikorlik qilgan. Abdulla 1900 yilda toshkenlik savdogarlardan birining Salomatxon ismli qiziga uylangan.

1904 yilda Abdulla Avloniy Mirobodda yangi usulda maktab ochgan. 1906 yildan she’rlari bilan matbuotda qatnasha boshlagan. Arab, fors, rus tillarini o‘rganib, bu tillarda ijod qilgan mutafakkirlarning asarlarini o‘qigan, L. Tolstoy, K. D. Ushinskiy asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. She’r va hikoyalarini “Mulla Avloniy”, “Hijron”, “Avloniy”, “Abdulla Avloniy”, “Indamas”, “Nabil”, **Shuhrat, Tangriquli, Surayyo, Shapaloq, Chol, Ab, Chig‘aboy, Abdulhaq taxalluslari bilan tanqidiy va ilmiy maqola, 4000 miyeradan ortiq she’r ijod qilgan.**

1906 yilda «Taraqqiy», 1907 yilda o‘z uyida «Shuhrat» gazetalarini chiqargan. Bu gazetalar yopib qo‘yilgach, 1908 yilda yashirin ravishda «Osiyo» gazetasini nashr etdi. 6- sonidan so‘ng hukumat bu gazetani ham taqiqlab qo‘yan. Shundan so‘ng A. Avloniy ilg‘or g‘oyalarni maktab orqali xalqqa tarqatishga harakat qildi. 1908 yilda Toshkent shahrining Mirobod mahallasida mahalliy aholi bolalari uchun usuli jadid maktabi ochib, o‘zi ona tili va adabiyotdan dars berdi. U 1909 yilda hamfikr do‘stlari bilan hamkorlikda «Jamiyati xayriya» tuzib, yetim bolalarni o‘qitgan. U 1912 yilda Toshkentning Degrez mahallasida ikki sinfli maktab ochgan. Bu maktabda dunyoviy fanlar o‘qitilishi bilan maktabxonalaridan farq qilgan. A. Avloniy 1911 yilda «Birinchi muallim», 1912 yilda «Ikkinci muallim», 1913 yil «Turkiy guliston yoxud axloq», 1909-1915 yillarda 4 juzd (qism)li «Adabiyot yoxud milliy she’rlar» to‘plami, 1915 yil «Maktab gulistoni», 1917yil «Mardikorlar ashuvasi» kabi darsliklar yozib, nashr qildirgan. Shuningdek, qo‘lyozma holida nashr qilinmasdan qolib ketgan “Uchinchi muallim”, “Hisob masalalari”, “Maktab jo‘g‘rofiyasi” kabi asarlari ham ma’lum.

1914 yilda Munavvarqori, Muhammadjon Podshoxo‘jayev, Tavallo, Rustambek Yusufbekov, Nizomiddin Xo‘jayev, Shokirjon Rahimi kabi taraqqiychilar bilan birgalikda «Nashriyot», 1916 yilda esa «Maktab»

shirkatlarini tashkil etgan. Avloniy 1913 yilda “Turon”jamiyati tuzildi. Jamiyat qoshida teatr truppassi tuzildi. 2014 yil 27 fevralda 2000 kishilik “Kolizey” teatri tomshabinlar bilan liq to‘lgan holda Behbudiyning “Padarkush” spektakli qo‘yildi. 1914 yilda teatr Farg‘ona vodiysi bo‘ylab «Turkiston» nomi bilan safarda bo‘ldi. Abdulla Avloniy 1910—1916 yillarda“Qotili Karima”, “Uy tarbiyasining bir shakli”, “Xiyonatkor oilasi”, “Badbaxt kelin”, ”Xo‘r-xo‘r”, “Jaholat”, “O‘liklar” kabi bir qancha sahna asarlarini tarjima qildi va o‘zi sahnalashtirdi. Avloniyning sahna asarlari Toshkent, Farg‘ona, Andijon, Qo‘qon, Xo‘jand kabi shaharlarda ko‘yilgan. Bu asarlarda XX asr boshlaridagi Turkiston hayotining keng manzaralari o‘z ifodasini topgan. Bu truppada Mannon Uygur tarbiya topgan, truppa bilan Hamza, Ozarbayjon dramaturglari Uzayr Hojibekov, S. Ruhullo hamkorlikda bo‘lgan. Oktabr to‘ntarishidan keyin xalqqa va ’da qilingan erkinlikning berilmaganligi shoir ijodida tushkunlikning paydo bo‘lishiga olib keldi, чунончи, 1919 йилда «Xafalik soatda» she’rini yozgan. Abdulla Avloniy 1915 yilda “Pinak”, 1916 yilda “Advokatlik osonmi?”, “Biz va siz” hamda “Po‘rtig‘oliya inqilobi” kabi to‘rtta teatr kitobini yozgan.

1917 yil 6 iyunda Avloniy Toshkent ishchi va soldat deputatlari soveti qaroriga ko‘ra “Eski shahar oziq-ovqat komissiyasi” a’zosi, 20-noyabrdan esa “Russiyaning boshqa vilot va gubernyalariga Sirdaryo viloyatidan yuboriladigan eng zarur oziq-ovqat mahsulotlarini ushlab qolish va Eski shahar oziq-ovqat komitetiga ma’lum qilish huhuqibilan nazorat etuvchi vakil” qilib tayinlandi. Abdulla Avloniy 1917 yilda Qozonda o‘tkazilgan Butunrossiya musulmon o‘qituvchilarining ikkinchi syezdida qatnashgan.U shu yili ”O‘qituvchilar soyuz”ini tuzgan. U 1918 yilda O‘lka sovetiga saylangan, Toshkent partiya tashkiloti, ijrioya qo‘mitalarida mas’ul lavozimlarida faoliyat olib borgan.

Avloniy 1917 yildada «Turon» gazetasini nashr qildi. Gazetada siyosiy va ijtimoiy voqealar yoritilgan. 1918 yilda Avloniy «Ishtirokiyun» gazetasinin tashkil etishda qatnashdi va uning muharriri bo‘ldi. 1919 yil 28 sentabridan 1920 yil 20 iyuliga qadar Sho‘ro hukumatining Afg‘onistonidagi siyosiy vakili va konsuli bo‘ldi. “Afg‘on sayohati” nomli asarini yozgan. U 1921 yili «Kasabachilik harakati» jurnali bosh muharriri, ”Qizil bayroq” gazetasining tahrir hay’ati a’zosi bo‘lgan.

1921 yildan A. Avloniy maktablar ochish, xalqni savodxon qilish, o‘zbek xotin-qizlarini o‘qitish, o‘qituvchilar va ziyoli kadrlar tayyorlash ishlari bilan shug‘ullandi. U 1923—1924 yillarda Eski shahardagi xotin-qizlar va erlar maorif bilim yurtlari (inproslar)da mudir, 1924—1929 yillarda Toshkent harbiy maktabida o‘qituvchi, 1930—1934 yillarda O‘rta Osiyo universiteti til va adabiyot kafedrasi mudiri, professor lavozimlarida faoliyat ko‘rsatgan. U 1933 yilda o‘zbek maktablarining 7-sinfi uchun «Adabiyot xrestomatiyasi»ni tuzib, nashr ettirdi.

A. Avloniy rus, arab, ozarbayjon, fors tillarini yaxshi bilgan. U ilmiy xodimlar seksiyasida, O‘zdavnashrda, Respublika terminologiya qo‘mitasida, Davlat ilmiy sovetida mas’ul vazifalarida ishlagan. A. Avloniyning ko‘p yillik

faoliyati 1927 yilda “Mehnat qahramoni” unvoni, 1930 yilda esa “O‘zbekiston xalq maorifi arbdori” faxriy unvonlari bilan taqdirlangan. Abdulla Avloniy 1934 yil 25 avgustda vafot etdi.

## **2.Abdulla Avloniy pedagogik merosining tarbiyaviy imkoniyatlari**

O‘zbek pedagogikasi tarixida yangi usul maktabi tarafdoirlari harakati, ularning boy pedagogik merosi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bunda shubhasiz Abdulla Avloniyning pedagogik asarlari o‘ziga xos o‘ringa ega. Uning “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Adabiyot”, “Birinchi muallim”, “Ikkinci muallim”, “Uchinchi muallim”, “Hisob”, “Tarixi anbiyo”, “Maktab jug’rofiyasi” kabi darsliklari; “Pinak”, “Advokatlik osonmi?”, “Biz va siz” kabi dramalari Turkiston o’lkasi xalqlari o’rtasida ma’lum va mashhur bo’lgan. Avloniyning yuqorida ta’kidlab o’tilgan darsliklarining ba’zilari bir necha marta nashr qilingan bo’lsa, ba’zilari qo’lyozma holicha qolib ketgan. Abdulla Avloniy darsliklarida maktab o’quvchilariga ta’lim berish bilan birga tarbiya, asosan axloqiy tarbiya berishga katta e’tibor bergan. Axloqqa Avloniy quyidagicha ta’rif beradi: “Insonlarni yaxshilikka chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshilagini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur».

Abdulla Avloniyning fikricha insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi narsa axloq tarbiyasidur. Abdulla Avloniy inson xulqini ikkiga-yaxshi va yomon xulqlarga bo’ladi: “Axloq ulamosi insonlarning xulqlarini ikkiga bo’lmishlar: agar nafs tarbiyat topib, yaxshi ishlarni odat qilsa, yaxshilikka tavsif bo’lub, “yaxshi xulq”; agar tarbiyasiz o’sub yomon ishlarni ishlaydurgon bo’lub ketsa yomonlikka tavsif bo’lub, “yomon xulq” deb atalur”.

Abdulla Avloniydan axloqiy tarbiyaga oid boy pedagogik meros qolgan. Biz ilmiy-tadqiqot ishimizning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, uning she’r va hikoyalarini boshlang’ich sinf o’quvchilarini axloqiy tarbiyalash imkoniyatlariga ko’ra quyidagi yo’nalishlarga ajratdik:

- vatan,vatanparvarlik;
- do’stlik, o’rtoqlik;
- rostgo’ylik;
- ustoz, ota-onva qavmu qarindoshlarga hurmat;
- ilmu ma’rifatga da’vat;
- sabr, qanoat;
- sahovat.

**Vatan, vatanparvarlik haqidagi she’r va hikoyalari.** XX asr boshlarida vatan, vatanparvarlik haqida ko’plab badiiy hamda pedagogik asarlar yozildi. Bular ichida Abdulla Avloniyning vatan, vatanparvarlik haqidagi merosi o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib, u hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo’qotgani yo’q. Abdulla Avloniyning 1912 yilda nashr qilingan “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida vatan, vatanparvarlik, o‘z yurtiga sadoqat va sodiqlik haqidagi “Vatanni

suymak” bobida shunday yozadi: “Har bir kishining tug’ulub o’skan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug’ulgan, o’sgan erini jonidan ortiq suyar...

Biz turkistonliklar o’z vatanimizni jonomizdan ortiq suydigimiz kabi, arablar Arabistonlarini, qumlik, issig’ cho’llarini, eskimo’lar-shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik erlarini boshqa erlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson erlarga o’z vatanlarin tashlab, hijrat qilurlar edi”.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarini axloqiy tarbiyalashda Abdulla Avloniyning “Bahor”, “Yoz”, “Kuz”, “Qish” she’rlari; o’quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda esa “Vatan” hamda “Hijron so’zi” she’rlari, ayniqsa, diqqatga sazovor.

Bizningcha, bunga asosiy sabablar:

- “Vatan” hamda “Hijron so’zi” she’rlari bevosa kichik maktab yoshidagi o’quvchilarga atab yozilgan;
- bu she’rlar kichik maktab yoshidagi o’quvchilarning bilim darajasiga, dunyoqarashiga, yoshi, ruhiy holatlariga mos keladi;
- she’rlardagi ma’no va mazmun sodda, ravon tilda bayon qilingan;
- bu she’rlarning yozilganiga yuz yilga yaqin vaqt bo’lsada, ular hozirgi adabiy tilimizga mosligi bilan alohida ajralib turadi.

Abdulla Avloniyning vatan, vatanparvarlik ruhida yozilgan hikoya va she’rlari XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlarni o’rganishda muhim ahamiyatga ega bo’lib, ularda boshlang’ich sinf o’quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash imkoniyatlari beqiyosdir.

**Boshlang’ich sinf o’quvchilarida do’stlik, o’rtoqlikni tarbiyalash.** “Turkiy guliston yoxud axloq” asarining bir bobu “Munislik” deb nomlangan. Unda “Munislik deb har kim o’z tengi, maslakdoshini topub, ulfat bo’lmakni aytildi. Dunyoning lazzati sodiq do’stlar ila suhbat qilmoqdan iboratdir” – deb ta’kidlangan.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarining yoshi, bilim darajasi hamda dunyoqarashiga mos keluvchi bu bobda do’st ikki xil – sodiq, chin va nodon, yolg’on bo’lishi, ularning bir-biridan farqi, tafovutlarini ko’rsatib, yolg’on, nodon do’stdan uzoqroq yurish, ehtiyyot bo’lish, chin va sodiq do’stlar qanday bo’lishi lozimligi ta’kidlab o’tilgan. Abdulla Avloniy “qissadan-hissa” usulidan unumli foydalangan. Bunda Sharq, xususan o’zbek xalq folkloridan, Sharq klassiklarining she’rlaridan va albatta, Hadisi Sharif namunalaridan ijodiy ravishda foydalangan. Ba’zi hollarda o’zi ham she’r bitgan. “Munislik” bobida quyidagi she’r qissadan-hissa tarzida keltirib o’tilgan:

Yaxshi do’st aybi yoru do’stini,  
Ko’zgudek ro’baro’sida so’zlar.  
Yomon o’rtog’ tarog’cha ming til ila,  
Orqadan birmalab terib so’zlar.

Abdulla Avloniy deyarli barcha darsliklarida o'quvchilarning do'stlik, o'rtoqlik fazilatlarini o'stirishga katta e'tibor bergan. Chunonchi, «Birinchi muallim» darsligidagi “Ittifoq”, «Ikkinci muallim» darsligidagi “Yolg'on do'st”, “Ayiqning do'stligi” hikoyatlari bunga yaqqol misol bo'la oladi.

### **Ittifoq.**

Hayvonlar ichinda eng kichiklari chumolilardir. Lekin o'zлari kichik bo'lсalar ham nihoyatda g'ayratlik, ittifoq hayvonlardur. O'zлaricha podshohhlari, kattalari, askarlari bo'ladur. Ulug'lari nimani buyursa, shuni qilur. Ittifoq va g'ayratlari soyasinda o'zлaridan katta-katta dushmanlardan qo'rmaslar. Agar Ari kabi dushman kelub, birlariga tegsa, hammalari birdan dushmanaga yopishub, biri qo'lini, biri ayog'ini, biri qanotini qattiq tishlab, o'zлarindan necha barobar katta bo'lsa ham tezgina qochirurlar.

Ko'rdingizmi, yung o'zi xo'b maydadur,  
Birlashub arqon bo'lsa, fil boylanur.

Ittifoqa kuch-quvvat kor aylamas,  
Ittifoqa jin ham ozor aylamas.

Shu bilan birga “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridagi “Nifoq” bobida; “Birinchi muallim” darsligidagi “Yaxshilik erda qolmas”, “Arslon ila Ayiq”, “Xo'roz ila Bo'ri”, “Ahmad ila otasi”, “Ko'r ila cho'loq” hikoyalarida ham do'stlik, o'rtoqlik haqidagi fikrlar mayjud.

### **Arslon ila Ayiq.**

Bir kun Arslon ila Ayiq ikkisi do'st bo'lub, ov qilmoqchi bo'ldilar. Sahroga chiqub, yugurib-elib bir kiyikni tutdilar. Emakchi bo'lub, turg'on vaqtlarinda arolarida urush paydo bo'ldi. Arslon:-«Man kattaman, manga ko'brog' berursan. Ayiq»:-Man kichik bo'lsam ham sanddan ko'b harakat qildim, yugurdim, eldim. San bir joyda qarab turding. Sergo'sht erini man erman, deb urush boshladilar. Shul darajaga etdilarki, ikkisi ham o'lar holatga etub, erga yiqilub, qimirlashga majoli qolmadi. Bularning holidan bir necha bo'rilar xabardor bo'lub, kelishub tayyorgina kiyik go'shtini eb, suyagini qo'yub ketdilar. Bu ikki janjal qilgon bechoralar bir-birlariga der edilarki, agar biz urushmag'on bo'lsak edi, ikkimizning ham qornimiz to'yg'on bo'lur edi. Mana, urushg'onimiz uchun ikkimiz ham og'zimizdagи oshimizdan ayrılduk, deb afsus qilub, oxirda surg'olib borib, molimizning so'lakayi deb, quruq suyakni chaynadilar.

Urushg'onlar suyakni zo'rg'a chaynar,  
Tamoshachi suyaksiz etni poylar,  
Sut ham shirin ko'ringiy och ko'ziga.

### **Ahmad ila otasi.**

Bir kishining Ahmad ismlik o'g'li bor edi. Ahmad bir kun mакtabdan kelurida bir bola birla ushub, bir musht urub, boshini yorub qo'ydi. Ul bola kelub Ahmadning otasiga arz qildi. Otasi Ahmadni chaqirub, mahkam ikki qulog'ini(ng) burab, “Ey o'g'lim, man ham yosh vaqtimda sanga o'xhash

mushtzo'r edim, changalimga tushg'on kishini amon qo'ymas edim. Ittifoqo, bir kun o'zim ham bir mushtzo'rning qo'liga tushub qoldim, chunonam adabimni berdiki, ikkinchi o'zimdan kuchsizlarga aslo mushtzo'rlik qilmaydurg'on bo'ldim", -dedi.

Hissa:

Ulug'larni adab saqlab, qil izzat,  
Kichiklarga muruvvat qil, muruvvat,  
O'quvni yoqasini qo'yma zinhor,  
Kuching etsa, qalaming boshini yor.

Bizningcha Avloniyning do'stlik, o'rtoqlik haqidagi hikoyalaridan birinchi sinfda – "Ittifoq"; ikkinchi sinfda – "Ikki do'st"; uchinchi sinfda – "Ayiqning do'stligi"; to'rtinchi sinfda – "Turkiy guliston yoxud axloq" darsligidagi "Munislik" matnlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

**Rostgo'ylikni tarbiyalash.** O'zbek xalqi yoshlarda rostgo'ylikni tarbiyalashga juda katta e'tibor bilan qaragan. Abdulla Avloniyning pedagogik merosida to'g'ri so'zlash, rost gapirish haqidagi she'r va hikoyalar anchagina bo'lib, "Turkiy guliston yoxud axloq" asaridagi "Haqqoniyat", "Kizb" boblari, bolalarga atab yozilgan "Yolg'onchi cho'pon" she'ri bunga yaqqol misol bo'la oladi. Abdulla Avloniy haqqoniyatga, to'g'ri so'zlashga quyidagicha ta'rif beradi: "Haqqoniyat deb ishda to'g'rilik, so'zda rostlikni aytilur. Inson bo'stoni salomatga, gulzori saodatga haqqoniyat yo'li ila chiqar. Insoniyatning ildizi o'lan rahmdillik, haqshunoslik, odillik kabi eng yaxshi sifatlarning onasi haqqoniyatdir".

Avloniyning fikricha haqqoniyat ikki turga bo'linadi: ishda haqqoniyat, ishda to'g'rilik hamda so'zda to'g'rilik. Aql egalari, vijdon sohiblari har doim ko'rgan va bilganlarini, haqiqatni va to'g'risini so'zlaydilar. Ishda to'g'rilik birovning nafsiiga, moliga xiyonat qilmaslikdir. So'zda to'g'rilik har doim rost so'zlamoqlikdir. Aqli, vijdonli inson yuqoridagilarga amal qiladi.

Rostgo'ylikning teskarisi bu yolg'onchilikdir. Yolg'on so'zni Avloniy kizb deb ataydi. Yolg'onchi kishilarni esa kazzob deb nomlaydi. Oqil va diyonatli kishilarga yolg'on so'zlardan tillarini saqlamoq bilan birga avlodlarini yolg'onga odat qildirmasdan tarbiya qilmoqlari eng muqaddas insoniy vazifalardan hisoblanadi.

Xalq og'zaki ijodi badiiy-pedagogik asarlarga muhim ta'sir ko'rsata olishini biz bir qator pedagoglarning ta'limiy-axloqiy asarlarida ko'rishimiz mumkin. Chunonchi, Abdulla Avloniyning pedagogik merosi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Xalq og'zaki ijodi ta'sirida Abdulla Avloniy bir qator she'rlar yozgan. Ulardan boshlang'ich sinf o'quvchilarini rostgo'ylik ruhida tarbiyalashda foydalanish mumkin. "Yolg'onchi cho'pon" she'ri shular jumlasidandir.

### **Yolg'onchi cho'pon.**

Bir kuni bir cho'pon qilub faryod,  
"Bo'ri keldi?-debon chaqirdi dod!

Qishloqilar yugurdi birdan  
 Qo'ylarni asramoq uchun bo'ridan!  
 Balari holini ko'rib cho'pon,  
 Qahqaha ila kulub dedi:-Yoron!  
 Aldabon sizlarni chaqirmish edim,  
 Sinamoqg'a sizni baqirmish edim.  
 Aldanub qaytdilar alar ul on,  
 Ertasiga yana chaqirdi Cho'pon.  
 "Bo'ri keldi!"-debon fig'on etdi,  
 Bo'rilar qo'ylarga kelub etdi.  
 Eshitganlar bunga inonmadilar,  
 Dedi faryodiga ishonmadilar  
 Edilar bo'rilar hama qo'yini,  
 Mana jonim yalonchilik o'yini!  
 Ko'rdingizmu yalonchilik zararin,  
 Bir ilon so'z yo'q etdi bolu parin,  
 Bir alonchi bo'lub edi Cho'pon,  
 To'g'ri so'zlasa ham ko'rundi yalon.  
 O'g'lim aytma, yalon so'zi aslo,  
 Do'st tutmas, yalonchini Ollo.  
 Hamda el ichra hurmati bo'lmas,  
 Halq aro qadru qiymati bo'lmas.  
 Uyi kuysa yalonchini dedilar,  
 Anga hech kim ishonmayur edilar.  
 To'g'ri so'z qutqarur balolardan,  
 Dog'i Hijron va mojarolardan.

**Sabr, qanoatlilikni tarbiyalash.** Abdulla Avloniyning pedagogik merosida sabr, qanoat haqidagi hikoya va she'rlar ko'plab uchraydi. Ayniqsa, "Turkiy guliston yoxud axloq" asaridagi "Sabr" bobি; "Birinchi muallim" darsligidagi "Taqsim", "Ochko'zlik", "Arslon ila Ayiq" kabi hikoyalar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Avloniy sabrga ta'rif berib, shunday yozadi: "Sabr deb boshimizga kelgan balo va qazolarga chidamli bo'lmakni aytilur. Har bir ishda sabr va sovuqqonlik ila harakat qilmak lozimdir". Har bir kishi har bir ishda sabr va sovuqqonlik bilan harakat qilishi lozim. Har ishda sabr va matonat, qanoat bilan faoliyat ko'rsatilsa, o'sha odam o'z maqsadiga tinch va rohatda borib etar, uning farog'atini ko'rар. Kishi shoshqaloqlik bilan ish yuritsa, o'z maqsadiga etishi g'oyat mushkuldir. Abdulla Avloniy "Sabr" bobida nafshi tiyish, oziga qanoat qilish fikrini ilgari suradi.

Birinchi sinflar uchun yozilgan "Birinchi muallim" darsligida sabr, qanoat haqida "Qanoat" hikoyasi berilgan.

### **Qanoat.**

Bir kishining Ali va Vali ismli ikki o'g'li bor edi. Ali qanoatli, Vali qanoatsiz edi. Bir kun otasi bozordan olma olub kelub, bolalarini sinamoq uchun

chaqirub, man sizga olma beraman,-dedi. Vali tezlik birla kelib, “Otajon, menga hammasini bering”,-dedi.

Ali sekingina kelub, manga birgina olma bersangiz bo’ladur,-dedi. Otasi Alining qanoatiga ofarin qilub, quchog’iga olub, peshonasidan o’pub, ikki olma berdi. Ammo Valiga olma bermak qayda, balki qanoatsiz bo’lma, deb adab berdi.

Qanoat birla qorin tuyg’uzursiz,  
Qanoat bo’lmasa, ko’p och qolursiz.  
Qanoatsiz kishi bag’rini dog’lar,  
Qanoatlik kishi og’zini yog’lar.

Bu hikoyada boshlang’ich sinf o’quvchilarini sabr-qanolatlilik ruhida tarbiyalash imkoniyatlari anchagina keng. Chunki:

– Avloniyning “Qanoat” hikoyasi o’zbek xalq og’zaki ijodi ta’sirida yozilgan, unda xalqimizning o’ziga xos xususiyatlari turmush tarzi inobatga olingan;

– bu hikoya boshlang’ich sinf o’quvchilarining bilim darjasи, yoshiga mosligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi;

– boshlang’ich sinflar uchun chiqarilgan aksariyat darsliklarda sabr, qanoat haqidagi hikoyatlar juda kam.

Abdulla Avloniyning xalqni **ilmu ma’rifatga da’vat qiluvchi** ilmli, bilimli bo’lishga chaqiruvchi she’r va hikoyalari axloqiy tarbiyaning muhim vositasidir. “Turkiy guliston yoxud axloq” darsligidagi “Ilm”, “Aqsomi ilm”, “Fatonat”, “Hifzi lison”, “Jaholat”, “Haqqoniyat” boblarida bu masalaga batafsil to’xtalib o’tadi. Avloniyning fikricha ilm deb o’qimak, yozmakni yaxshi bilmak, har bir kerakli narsalarни o’rganmakni aytilar. Millat kelajagi, taraqqiysi yoshlarning ilm va ma’rifatga, hunar va san’atiga bog’liqdir. Avloniy pedagogik ijodida ilmu ma’rifatga da’vat qiluvchi she’rlar muhim o’rin egallaydi. Shuni alohida ta’kidlab o’tish joizki, shoirning “Adabiyot yoxud milliy she’rlar» to’plamiga kirgan aksariyat she’rlardan o’quvchilarни axloqiy tarbiyalash maqsadida foydalanish mumkin. Shu sababli, biz Abdulla Avloniyning “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” to’plamiga kirgan ilmu ma’rifatga da’vat qiluvchi she’rlarini:

– yuqori sinf o’quvchilarini axloqiy tarbiyalash imkoniyatlari mavjud bo’lgan she’rlar;

– boshlang’ich sinf o’quvchilarini axloqiy tarbiyalash imkoniyatlari mavjud bo’lgan she’rlarga bo’ldik.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarini axloqiy tarbiyalashda Abdulla Avloniyning ilmu ma’rifatga doir bir qator she’rlari va hikoyalari mavjud. Ayniqsa, “Maktab”, “Maishatimizdan bir manzara”, “Istiqloldan orzularim”, “Maktaba targ’ib”, “Saodat shundadur”, “Jaholat”; “Ikkinchi muallim” darsligidagi “Maktab”, “Bog’cha”, “Bolalar bog’chasi”, “Maktabga da’vat”, “Ilmsizlik balosi”, “Maktab bolasi”, “Yalqov shogird tilidan”, “Yalqov” kabi she’rlari diqqatga sazovordir.

## **Maktab.**

Maktab uyi-dorilamon,  
Maktab hayoti joyiron.  
Maktab safiyi qalbu jon,  
G'ayrat qilub o'qing, o'g'lon!

Maktab erur doruladab,  
Maktab erur ehsoni Rab,  
Maktab erur gulzor ajab,  
G'ayrat qilub o'qing, o'g'lon!

Maktab duru gavhar sochar,  
Maktab siza jannat ochar,  
Maktab jaholatdan qochar,  
G'ayrat qilub o'qing, o'g'lon!

Maktab sizni inson qilur,  
Maktab hayo ehson qilur,  
Maktab g'amu vayron qilur,  
G'ayrat qilub o'qing, o'g'lon!

Maktab berur Qur'on siza,  
Maktab berur iymon siza,  
Maktab berur huron siza,  
G'ayrat qilub o'qing, o'g'lon!

Maktab o'quvni ko'rsatur,  
Maktab yozuvni o'rgatur,  
Maktab uyqudin uyg'otur,  
G'ayrat qilub o'qing, o'g'lon!

Maktabdadur ilmu kamol,  
Maktabdadur husnu jamol,  
Maktabdadur milliy xayol,  
G'ayrat qilub o'qing, o'g'lon!

Maktab demak masjid yo'li,  
Maktab erur jannat guli,  
Maktabni sizlar bulbuli,  
G'ayrat qilub o'qing, o'g'lon!

Maktab misi tilol qilur,  
Maktab sizni mullo qilur,  
Maktab sil(l)ik sallo qilur,  
G'ayrat qilub o'qing, o'g'lon!

Bu she'rlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy tarbiyalash imkoniyatlari mavjud bo'lib, bizningcha bunga asosiy sabab quyidagilar:

- ular boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshi, bilim darajasiga mos ravishda sodda, oddiy tilda yozilgan;
- yoshlarni savodli, bilimli, ilmli qilishga katta ahamiyat bergenligi muhim ahamiyat kasb etganligi bilan alohida diqqatga sazovor;
- Abdulla Avloniyning ilmu ma'rifat haqidagi she'r va hikoyalarida xalqimizning urf-odatlari, an'analari va qadriyatlari alohida e'tiborga olinganligi;
- ilmu ma'rifatga da'vat qiluvchi islam ahkomlaridan keng foydalanilganligi;
- o'zbek xalq pedagogikasiga asoslanilganligi;
- sharq donishmandligining boy pedagogik merosi ta'sirida yozilganligidadir.

Abdulla Avloniy **ota-onani e'zoz qilishga undovchi** bir qator hikoya va she'rlar yozib qoldirgan. Ayniqsa, "Turkiy guliston yoxud axloq" asaridagi "Tarbiyaning zamoni", "Itoat"; "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" asaridagi "Oila munozarasi", "Mardikorlar ashulasi", "Onasining o'g'liga aytgan so'zleri", "O'g'lining onasiga aytgan so'zi", "Xotuniga aytgan so'zi"; "Ikkinchi muallim" darsligidagi "Aqli bog'bon", "Ahmad ila otasi", "Soqi ila onasi" kabi she'r va hikoyalari shular jumlasidandir. Ota-onani hurmat qilmoq lozimligi, ularga itoat qilish insonlarga xos eng yaxshi fazilatlardan hisoblanishi haqida Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asaridagi "Itoat" bobida shunday yozadi: "Itoat" deb bo'ysunmakni aytilur...Ota-ona, ustod, muallim kabi o'zidan ulug' kishilarga bo'ysunib itoat qilmak eng yaxshi sifatlardandur".

"Oila munozarasi" she'ri o'g'lini ilmu ma'rifatli, bilimli bo'lishini xohlovchi-ota hamda o'g'lining bilimsiz qolishini xohlovchi johil-ona o'rtasidagi bahs haqida boradi.

Bundan tashqari, "Mardikorlar ashuvlasi" asarida ota-onani hurmat qilish, e'zozlash haqida muhim fikrlar bor. Bu asarni sinf va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayonida, chunonchi, adabiy ertaliklardan foydalanish, ota-onalar o'qib berishi ko'proq natija beradi.

Abdulla Avloniyning "Ikkinchi muallim" darsligida ham bu mavzudagi hikoyalar anchagina bor, ulardan biri ota nasihatiga amal qilib, boyib ketgan o'g'il haqidagi "Aqli bog'bon" hikoyasidir.

### **Aqli bog'bon**

Bir bog'bonning uch o'g'li bor edi. Uchi ham dangasa va ishyoqmas edilar. Bog'bon bir kun kasal bo'ldi. O'g'illarini ishga solmak uchun yoniga

choqirub: «O'g'lonlarim, mani ajalim etgan o'xshaydur. Man sizlarga vasiyat qilub ketayin. Bog'ning ichiga bir ko'za oltun ko'mub qo'yg'onman. Mandan so'ngra o'zingiz kavlab, topub, bo'lashub olursiz» - dedi. Arodan bir necha kun o'tmay, bog'bon dunyodan o'tdi. O'g'illari oltun axtarub, bog'ni chunon qazidilarki, tufrog'lari kul bo'lib ketdi, lekin tokning ildizidan boshqa hech narsa topolmadilar. Ammo shul yil tok chunon uzum qildiki, aqchasi necha ko'zaga to'ladurgon oltun bo'ldi. So'ngra bu yalqovlar bildilarki, oltin erda emas, ishlovda ekan.

Hissa: «Hamma yamonliqlarning onosi – dangasalik, qo'rqoqlik – otosidur».

**Saxiylik, sahovatpeshalik** xalqimizning qon-qoniga singib ketgan fazilatlardan biridir. Abdulla Avloniy ham ko'plab pedagoglar kabi saxiylik haqida hikoya va she'rlar yozib qoldirgan. Shulardan biri “Ikkinchi muallim” darsligidagi “Saxiylik” hikoyasidir.

### Saxiylik

Bir kishining Said ismli o'g'li bor edi. Otasi har kun mакtabda taom olib emak uchun o'n tiyin pul berur edi. Bir kun mакtabga ketub borganda, bir faqir kishi yo'luqub:

- O'g'lim ikki kundan beri ochman. Taom olib ey desam ustimdagi yirtiq chakmondan boshqa hech narsam yo'q. Bir oz oqchang bo'lsa, bersang, savob topur eding, - dedi.

Said faqirning so'ziga toqatsiz bo'lub, holig'a rahmi kelub, atosi bergen o'n tiyin pulni faqirga berdi. Faqir bu yosh Saidning qilg'on shafqatu marhamatiga ofarin qilub, yig'lay-yig'lay duolar qilub ketdi. Said ul kun o'zi och qolsa ham, ochlig'uni hech kimga bildurmay, sabru qanoat ila o'tkardi. Maktabdan ozod bo'lub, uyiga borgan zamon qilg'on ishini otasiga so'zladi. Otasi ham «saxiy Saidim», deb xursand bo'lub, duo qildi ham bundan so'ng Saidga har kun yigirma tiyindan berurga va'da qildi. Saodatlik Said otasi bergen yigirma tiyinning o'n tiyinini eb, beshini faqirlarga berub, beshini yig'ub, tezdan boy bo'lub ketdi.

Olihimmatlik haqida Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida shunday yozadi: “Olihimmat deb din va millatga foydali ishlarni mol va jon ila ishlamakni aytilar.

Himmat shunday bir oljanob fazilatdurki, insoniyatning koni, yaxshi xulq sohiblari karim sifatlik, rahm tabiatlik bo'lur. O'z jinsining avlodidan har vaqt yordamini ayamas. Xayru sahovatlik ishlardan o'zini tortmas. Pul va molini millat yo'lida sarf etmakdan qizg'anmas, olihimmat kishi soyasi latif, mevasi laziz daraxt kabiturki, bu soyaga yaqin bo'lgan kishilar har vaqt foydalanurlar”. Avloniy fikrini davom qildirib, olihimmat insonlarda vijdon mavjuddir degan g'oyani ilgari suradi.

Saxiylikning qarama-qarshisi baxillikdir. Abdulla Avloniy “Ikkinchi muallim” asarida “Baxillik” hikoyasini keltirgan. Unda baxil kishining hech qachon bog'i ko'karmasligini ta'kidlaydi.

## Baxillik

Bir baxil kishining uyiga bir necha yaqin do'stлari mehmon bo'lub keldi. Ul baxil mehmonlarni(ng) ziyofat qilmak o'rniga behuda so'zlarni(ng) so'zlab o'lturdi. Arodan ko'p vaqt o'tgandan so'ng xizmatchisini choqirub:

- Bor, taom pishgan bo'lsa, olib kel! – dedi.

Shul vaqt xizmatchi bir taboq ustida pishgan xo'rozni olib kelgan zamon, baxil xizmatchiga boqub:

- Boshini nima qilding? – dedi. Xizmatchi: - Afandim, nima qilur edim, tashladim. Baxil: - Nodon! Kishi xo'rozning boshini ham tashlarmi? Agar bir kishi tovuqning ayog'ini tashlasa, man borub olur erdim. Bosh degan a'zolarning xo'jasidur. Ul boshi ila qanday yaxshi qichqirar erdi. Marjon kabi toji boshinda edi. Eng shirin a'zolarindan sanalgan tili, eng ulug' a'zolarindan miyasi, ikki shahlo ko'zлari barchasi boshinda edi. Bor topib kel! Biz emasak, mehmonlarga edururmiz! – dedi.

Ko'rdingizmi, bu baxil kishi hech narsaga arzimaydurgon bir xo'roz boshidan bir necha xosiyatlar bayon qilib, o'zining qanday kishi ekanligini bildurdi.

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, Abdulla Avloniyning pedagogik asarlari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar mavjud.

### **3.Abdulla Avloniyning pedagogik asarlari vositasida tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish jarayoni**

Tarbiyaviy tadbirlar umumiy o'rtalim maktablaridagi o'quv - tarbiya tizimning ajralmas qismi bo'lib, o'quvchilarining bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etishga xizmat qilib, tashkil etilishiga qarab turli yo'nalish, mazmun, usul va shakllarda olib boriladi. Boshlang'ich sinflarda bolalarning yosh xususiyatlariga, ta'lif muassasining mahalliy sharoitlariga, o'ziga xos xususiyatlariga qarab quyidagi shakllarda va ko'rinishlarda tashkil etilishi mumkin:

- bayramlar uyuştirish;

-tantanali kunlar, sana, yubileylarni nishonlash;

-musobaqlar, bellashuvlar, mushoiralar uyuştirish;

-sinfdan tashqari o'qishni tashkil etish;

-ko'rgazmalar uyuştirish (fan sohalari bo'yicha);

-sayohatlar tashkil etish; a) tabiat qo'yniga; b) tarixiy joylarga, muzeylarga;

v) ishlab chiqarish korxonalariga; g) turli shaharlarga, ziyoratgohlarga; d) asarlar bo'yicha ularning g'oyalari, qahramonlariga mos aqliy sayohat; e)

muayyan shoir, yozuvchi ijodini o‘rganishga bag‘ishlab o‘lkashunoslik materiallarini to‘plash, tug‘ilgan joyiga sayohat uyshtirish;

-viktorina, disputlar tashkil etish;

-mehnat va urush faxriylari, atoqli kishilar, ilg‘or kasb egalari bilan uchrashuvlar o‘tkazish; Bolalar bog‘chalari, mehnat va urush nogironlariga, keksalarga beg‘araz yordami ko‘rsatish;

-turli sohalar, fanlar to‘garaklarida ishtirok etish;

- ijodiy, tarixiy, arxeologik, folklor va boshqa ekspeditsiyalarda ishtirok etish;

-maktab burchaklari tashkil etish;

-bolalarning turli uyushmalari faoliyatida ishtirok etish; Kolleksiylar (namuna) yig‘ish; Milliy urf-odatlar, marosimlarda ishtirok etish;

-turli jamoatchilik topshiriqlarini bajarish: shanbalik, yakshanbaliklarda ishtirok etish; xo‘jalik ishlarida yordam ko‘rsatish va boshqalar.

Boshlang‘ich ta’lim amaliyotida sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni quyidagi shakllarda o‘tkazish maqsadga muvofiq:

-axloqiy mavzudagi suhbatlar;

-kitoblar ko‘rgazmasi;

-adabiy ertaliklar;

-kitobxonlik konferensiylari;

-qiziqarli savol-javob o‘yinlari (viktorinalar).

## SINFDAN TASHQARI TADBIRLARNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

Sinfdan tashqari tadbirlarni tashkil etish o‘quv mashg‘ulotlari, o‘quv dasturlaridagi mavzular, boblar, bo‘limlar mazmuni bilan bog‘liqlikda har bir o‘quv haftasi, oylik, yillik bosqichga mos tashkil etilsa, samarali natijalar beradi. Darsdan tashqari tadbirlar o‘quvchilarning darsda olgan bilimlarini kengaytirishga, to‘ldirishga, boyitishga olib keladi.

Sinfdan tashqari tadbirlarning mavzulari, rejalar har bir sinfda alohida tuzib olinib, maktab metodik kengashida muhokama etilishi, maktab ma’muriyati, sinfdan va maktabdan tashqari ishlar bo‘yicha direktor o‘ribbosari bilan kelishib hamkorlikda o‘tkaziladi. Umummaktab miqyosida tadbirlarni birlashtirib, kengroq miqyosda tashkil etish rejalar tuzilsa yaxshi samaralar berdi.

Sinfdan tashqari tadbirlarni tashkil etishda o‘qituvchilar tashkilotchilik, tashabbuskorlik, rahbarlik vazifasini o‘tashlari lozim. O‘qituvchi, sinf rahbari

har bir mashg‘ulotni, tadbirni tashkil etish, rejalashtirishda har bir ishtirokchining o‘rnini, vazifasini, aniq belgilanishi lozim. Tadbirning maqsadi, amalga oshirish bosqichlari, har bir bosqichni ijro qilishning shart-sharoitlari moddiy texnik jihatdan ta’minlanishi, uslubiy materiallar, zaruriy yuriqnomalar, jihozlar bilan ta’minlanish choralari aniq belgilab ko‘rsatiladi.

Sinfdan tashqari tadbirlarning maksadini belgilashda uning tarbiyaviylik, kreativlik, ijodkorlik, rivojlantiruvchilik tomonlariga e’tibor qaratilishi kerak bo‘ladi.

Tarbiyaviy tadbirlarni uyushtirishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari she’r, deklamatsiya, o‘yinlar bilan faol ishtirok etadilar. Bayramlarning to‘laqonli, faol, qaynoq tashkil etilishini ta’minlaydilar. Maktablarda turli bayramlarni tashkil etishda o‘qituvchi ishtirokchi bo‘lishi shart emas, ammo tayyorlash davrida maslahatchi, rahbar, kuzatuvchi bo‘lishi tabiiydir.

Bayramlar turli mavzularga bag‘ishlab tashkil etilishi mumkin. Turli mehmonlar taklif etilishi, kichik yoshdagi o‘quvchilar bag‘ishlov o‘qishlari, sovg‘alar berishlari va qabul qilishlari mumkin.

O‘qituvchi tadbirga tayyorgarlik davrida o‘quvchilardan kim qanaqa asarni (yoki asar parchasini) o‘qiganligini va navbat bilan o‘qigan asarlarining mazmunini hikoya qilib berishlarini so‘raydi. Hikoya tugagach, savollar berib, javoblar sifati nazorat qilinadi. Agarda bolalarga o‘zları o‘qigan asarlari orqali mavzuli rasmlar, suratlar, ko‘rsatma vositalar chizib, yasab kelish topshirilsa, yanada yaxshi. Muhokama davomida o‘qigan asarlar bo‘yicha yalpi o‘qishni tashkil etadi. YA’ni asarni bir o‘quvchi ovoz chiqarib o‘qiydi. U asardan parchani o‘qib bo‘lgach, o‘quvchilardan uning mazmunini so‘raydi. Jumboqli savollar beriladi. Keyin boshqa bir o‘quvchidan navbatdagi parchani o‘qib berish so‘raladi. O‘qituvchi uning mazmunli, ohangli o‘qish, tinish belgilarida pauzalarning saqlanishi, o‘qish tezligi, ovozining jarangliligi, bo‘g‘inlarning to‘g‘ri ko‘chirilishiga e’tibor berib boradi.

Ovoz chiqarib o‘qiyotgan o‘quvchi nutqi magnit tasmasiga yozib olinib, sinfga qaytadan o‘quvchi guvohligida qo‘yib berilsa, juda yaxshi natija beradi. Bu birinchidan, o‘sha o‘quvchining o‘z nutqini o‘zi eshitishi, xatolarini o‘zi tuzatishiga yordam bersa, ikkinchidan, o‘qilgan matnni navbatdagisi bilan solishtirib borishga, bir xil kamchiliklar takrorlanishining oldini oladi. Uchinchidan, magnit tasmasi doimiy saqlanadi. O‘qituvchi o‘quvchilarga tegishli mavzular va parchalarni zarur paytlarda eshittirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Sinfdan tashqari asarlarini o‘qishning namunaviy zahiralari boyib boraveradi.

Sinfdan tashqari o‘qishni tashkil etishda, o‘qilgan adabiyotlar, magnit tasmalari, tarqatma materiallar, ma’ruzalar matnlari saqlanib tartib bilan kartoteka sifatida yig‘ib boriladi. Natijada sinf kimmata baho uslubiy jamlanmaga, boy ovozlar zahirasiga ega bo‘ladi.

Tayyorgarlik davrida tadbirlar o‘tkaziladigan joy tartibga keltiriladi, bezatiladi, tasvirlar ilib qo‘yiladi.

Boshlang‘ich sinflarda jadidlar merosini o‘rganishda, ularning asarlaridan parchalar, rivoyatlar, hikmatlar va hikoyatlarni diqqat bilan diktant, bayon yozdirish orqali ham tashkil etish mumkin. Bayonni o‘zlashtirishda quyidagi izchillik saqlanmog‘i lozim:

Hikoyat, rivoyat hajmi (necha so‘zdan iboratligi) aniqlanadi va bu matnning mazkur sinf o‘quvchilariga mos kelishi aniqlanadi.

Mavzu doskaga yozib qo‘yiladi.

Matn bir marta sekin, ifodali o‘qiladi.

Ishtirot etuvchi kishilar, siymolar, joy nomlari, sonlar, jonivorlar, o‘simliklar kabilar yoziladi. Raqamlar eslatiladi, matn ikkinchi marta o‘qiladi.

Har bir xat boshi bo‘yicha savol-javoblar tashkil etiladi.

O‘qituvchi mustaqil ishni baholar ekan, o‘quvchilarning bayonidagi har bir savolga bergan javoblari sifati va so‘zlar hajmini e’tiborga oladi. Ushbu 120 so‘zdan iborat matndan 110 dan ziyodini yozgan o‘quvchiga “a’lo”, 100 dan ziyodiga “yaxshi”, 90 dan ziyodini yozgan o‘quvchiga “qoniqarli”, 50 dan ziyodini yozgan o‘quvchiga “qoniqarsiz” baho qo‘yish mumkin. Bayonlarni yozdirish va baholashda xulosaviy g‘oyaning chiqarilishiga, so‘zlearning assosiy matndan oshib ketmasligi, matndagilardan tashqari notanish so‘zlearning kirib qolmasligiga e’tibor berish lozim. Har bir yozilgan bayon kelgusi mashg‘ulotlarda muhokama qilinishi va baholanishi lozim.

Sinfdan tashqari ishlar jarayonida ertaliklar o‘tkazish muhim ahamiyat kasb etib, maktab o‘quvchilarining dunyoqarashiga, axloqiy fazilatlari shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsata olishi bilan alohida ajralib turadi. Bu ishlarni boshlang‘ich sinflardanoq amalga oshirish o‘zining ijobiy natijalarini beradi.

Aksariyat maktablarning boshlang‘ich sinflarida ertaliklar o‘tkazish juda kam, ba’zi hollarda o‘tkazilmas ekan. Bu sohadagi talab va istaklarni o‘rganib chiqib, boshlang‘ich sinflarda bir necha marta bayram ertaliklar o‘tkazdik. Bizningcha, bayram ertaliklarni quyidagi tartibda o‘tkazish diqqatga sazovor:

ertalikning mavzusini tanlash va mavzu bo‘yicha materiallar to‘plash;  
ertalikning dasturini va tafsilotini tuzish;

ertalikni o‘tkazish uchun hay’at a’zolarini tuzish;  
o‘quvchilarni tanlab olish va ularga rollarni bo‘lib berish;  
ertalik o‘tkaziladigan joy va uning jahozi;  
bayram ertalikni o‘tkazish va undan keyin qilinadigan ishlar.

Ertalikning mavzusini tanlash va materiallar to‘plash. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ertalikni o‘tkazish uchun avvalo mavzu tanlaydi. Bu mavzu bolalar yoshiga, bilim darajasiga mos bo‘lishi lozim. Shundan keyin mavzuga oid materiallarni to‘plashga kirishadi. Biz yangi usul maktabi tarafdarlarining badiiy asarlaridan foydalanib, bayram ertaliklar o‘tkazish uchun adabiyotlar royxatini tuzdik. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, biz tavsiya qilgan adabiyotlar royxatini tuzishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yoshi, bilim darajasi e’tiborga olingan.

Ertalikning dasturi va tafsiloti. Ertalikning mavzusini tanlab olib, materiallar to‘plab bo‘lgandan keyin dastur tuzdik. Dastur kirish, asosiy, badiiy, yakuniy qismlardan iborat bo‘ldi.

Kirish qismida jadidlar harakatining vujudga kelishi, bu harakatning yirik namoyandalari hayoti, pedagogik faoliyati va darsliklari to‘g‘risida mактаб директори, direktorning ma’naviy va ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari yoki boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi qisqacha nutq so‘zlaydi.

Asosiy qismda ertalikni o‘tkazishdan ko‘zda tutilgan maqsad, mazmuni yoritiladi.

Badiiy qismda axloqiy tushunchalar, axloqiy hislarni shakllantirish to‘g‘risidagi fikrlar she’rlar, qo‘shiqlar orqali mustahkamlanadi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini, ruhiy holatlarini inobatga olib, maroqli dam olishlari uchun o‘zbek xalq kuylari va qo‘shiqlariga oyinlar sahnalashtiriladi.

Yakuniy qismda ertalikka atab tayyorlab kelingan ko‘rgazmali qurollar, devoriy gazetalarga baho qo‘yiladi. Unda qatnashgan ikki-uch o‘quvchining fikrlari so‘raladi va faol ishtirok qilgan bir guruh o‘qituvchi va o‘quvchilarga esdalik sovg‘alari topshiriladi.

Dastur asosida ssenariy tuziladi. Ssenariy bir necha turda tuzilishi mumkin:-bir sinf uchun (1-“A”); -bir yoshdagi parallel sinflar uchun (2-“A”, 2-“B”, 2-“V”); -ikki yoki undan ortiq boshlang‘ich sinflar uchun (1-“A”, 2-“V”, 4-“A”), (4-“A”, 3-“B”).

Bunda ssenariy tuzuvchi maktabdagi boshlang‘ich sinflar sonini inobatga olishi lozim.

Ertalikni o‘tkazuvchi hay’at a’zolarini tanlash. Ertalikni o‘tkazish mактабнинг yillik rejasiga kiritilishi, shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining tarbiyaviy tadbirlar o‘tkazish yillik rejaga kiritilishi va maktab pedagogika kengashining qaroriga ko‘ra tadbir bo‘ladigan oy, kun, tadbirni bajaruvchilar va ularning vazifalari aniq ko‘rsatilishi kerak. Biz Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumani 6-umumiyl o‘rta ta’lim maktabida “Yaxshi xulqli bola bo‘lamiz” deb nomlangan ertalikni o‘tkazish uchun maktab pedagogika kengashining qaroriga binoan hay’at a’zolarini tuzdik.

Ertalikni o‘tkazish uchun tanlab olingan hay’at a’zolari:

Mirishkor tuman 6-umumiyl o‘rta ta’lim maktabi direktori, hay’at raisi; maktab direktorining ma’naviyat va ma’rifat ishlari bo‘yicha o‘rinbosari, kotib; boshlang‘ich sinflar bo‘yicha ilmiy bo‘lim mudiri; ertalikning tashkilotchisi, dastur va sstenariy muallifi; maktab musiqa o‘qituvchisi, “Yosh ijrochilar” to‘garagi rahbari; maktabning tasviriy san’at va rasm fanlari o‘qituvchisi ertalikka tayyorlanadigan ko‘rgazmali qurollar bo‘yicha mas’ul shaxs; boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, ertalikni olib boruvchi.

O‘quvchilarni tanlash va rollarni bo‘lib berish. Ssenariyni tuzib bo‘lgach, bayram ertalikda qatnashuvchi o‘quvchilar tanlab olinadi. Iloji boricha ko‘proq o‘quvchilarni jalb qilmoq lozim. Shuningdek, o‘quvchilarni ko‘rgazmali qurollar va devoriy gazetalar chiqarishga ham jalb etish maqsadga muvofiqdir. Ertalikni o‘tkazishga tayyorgarlikni quyidagi tartibda olib borish o‘zining yaxshi samarasini beradi:

o‘quvchilarga rollarni 25-30 kun avval bo‘lib berish;

ko‘rgazmali qurollar va devoriy gazetalar tayyorlashga (boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi va tasviriy san’at o‘qituvchisi yordamida) 20-25 kun avvalroq kirishish lozim;

musiqiy tayyorgarlikni (maktab musiqa o‘qituvchisi va musiqa to‘garagi rahbari yordamida) 15-20 kun oldin boshlash kerak.

Boshlang‘ich sinflarda ertaliklar o‘tkazish vaqtini quyidagicha belgilash lozim:

1-sinfda jami 35-45 minut vaqt ajratish. Bundan kirish qismiga 5-7 minut, asosiy qism uchun 10-12 minut; badiiy qism uchun 15-19 minut; yakuniy qismiga 5-7 minut;

2-sinfda ertalikni 45-55 minut davomida o‘tkazish: kirish qismiga 7-9 minut; asosiy qismiga 12-15 minut; badiiy qismiga 18-20 minut va yakuniy qismiga 8-10 minut vaqt ajratish;

3-sinfda ertalik o‘tkazish vaqt o‘rtacha 60-75 minut bo‘lishi mumkin. Bunda kirish qismiga 9-13 minut; asosiy va badiiy qismlarga bir xil 20-25 minutdan va yakuniy qismga 10 minut vaqt belgilash;

4-sinfda esa 65-80 minut davomida o‘tkazish; kirish qismini 10-15 minut; asosiy qismni 25-30 minut; badiiy qismni 22-25 minut; yakuniy qismni esa 10 minut qilib belgilash.

Ertalik o‘tkaziladigan joy va uning johozi: O‘zbekiston sharoitida tadbirlarni kuz va bahor fasllarida tabiat qoynida, qish faslida esa maktab klubida o‘tkazgan ma’qul. Maktab klubida tadbir o‘tkazilayotganda sahnaning orqa tarafida O‘zbekiston Respublikasining davlat bayrog‘i va gerbi tushirilgan stend, ikki yon tarafda esa yangi usul maktabi tarafдорлари Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitratlarning rasmlari, o‘quvchilar va o‘qituvchilar hamkorligida ertalikka atab tayyorlangan ko‘rgazmali qurollar, devoriy gazetalar, axloq-odobga oid xalq maqollari, hadisdan namunalar yozilgan plakatlar ilib qoyilishi kerak.

Ertalikni o‘tkazish va undan keyin qilinadigan ishlar: maktab ma’muriyatining roziligidagi va tavsiyasiga ko‘ra, ertalikning vaqtini belgilash ayni muddao bo‘ladi. Ertalikni o‘tkazish yuqorida ko‘rsatilgan vaqt bo‘yicha davom etishi yaxshi natija beradi. Ertalikni o‘tkazish vaqt va undan keyin quyidagilarga e’tibor berish kerak:

bayram ertalik o‘tkazayotgan vaqtida suratchi chaqirish va u bo‘layotgan voqealarni maqsadga muvofiq suratga olishi;

rasmlarni olgach, bayram ertalik haqida devoriy gazeta, stend va albom tayyorlash;

bayram ertalikning dasturini, tafsilotini va so‘zlangan nutqlarni “Tadbirlar” deb nomlangan papkaga tikib qo‘yiladi.

Mirishkor tuman 6-o‘rta maktabda A. Avloniyning tug‘ilgan kuniga bag‘ishlangan ”A. Avloniy-shoir, ma’rifatparvar va davlat arbobi” mavzusidagi bayram o‘tkazildi. Bayram bir necha bosqichda olib borildi. 1-bosqich - tayyorgarlik davrida maktabda faollar zali tantanani o‘tkazishga tayyorlandi. Devorga A. Avloniy rasmi ilib qo‘yildi. A. Avloniy asarlaridan olingan hikmatli so‘zlar, maqollar yozildi. A. Avloniy asarlari nomlari, qaysi vaqtida yozilganligi plakatlarda aks ettirildi.

Barchaga ko‘rinarli qilib, “A. Avloniy- shoir, ma’rifatparvar va davlat arbobi ” shiori yozib qo‘yildi.

Bayramni maktab direktori kirish so‘zi bilan ochadi: U bugungi tantana A. Avloniyning ijodiga bag‘ishlanganligi, bayramni olib borish 4 “A” sinf

o‘quvchisiga topshirilishini aytди. Shundan so‘ng musiqa va A. Avloniyning ma’rifatga bag‘ishlangan ashulalari yangradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilar barcha o‘qituvchilarga gullar taqdim etishdi.

Bayram quyidagi reja asosida olib borildi:

Kirish so‘zi.

A. Avloniyning tarjimai holi.

A. Avloniy g‘azallariga bag‘ishlangan bayti-barak mushoira (4“A” va 4“B” sinf o‘quvchilar).

Boshlovchi: A. Avloniy tarjimai holi to‘g‘risida qisqacha ma’ruza o‘qidi. Yana musiqa va o‘yin davom etdi.

Navbat A. Avloniyning «Maktab» she’ri bo‘yicha 4“A”, 4“B” sinf o‘quvchilarining bayti-barak mushoirasiga keldi. Mushoirani olib borish dastlab erkin holda, keyinchalik mavzuli, davom etdi. Erkin mushoirada o‘quvchilar mazkur she’rdan parchalar o‘qigan bo‘lsalar, mavzuli-maqsadli mushoirada boshlovchining so‘z ishorasidan keyingina shunga mos maqollar bilan o‘quvchilar davom ettirdilar.

Mushoiraning ikkinchi qismida boshlovchi A. Avloniy hayoti va ijodidagi ahamiyatlari jihatlarni ta’rifladilar. Mushoiraning uchinchi qismida boshlovchi A. Avloniy asarlarining nomlarini aytib, o‘quvchilardan o‘sha asarlardan rivoyatlar, hikmatlar, ruboiylar keltirishni so‘radi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilar, hay’at a’zolari ishorasi bilan “to‘g‘ri”, “noto‘g‘ri”, “noaniq” kabi so‘zlar yozilgan karton ko‘rsatgichlarni o‘z vaqtida ko‘tarib, hakamlarga yordam berib turdilar.

Mushoira A. Avloniyning darsliklaridagi hikoyalar, she’rlar, mazmuni buyicha olib borildi. O‘quvchilar asar nomlari aytilishi bilan taalluqli misralar keltirib, bahru bayt uyushtirdi.

Hay’at a’zolari bolalarning so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qila olishlariga, tinish belgilarining ta’siriga mos holda o‘qiy olishlariga, tartibli chiqishlariga qarab qo‘yilgan baholarni e’lon qilib bordilar. 2-sinf o‘quvchilar qo‘llaridagi baholar yozilgan ko‘rsatkichlarni ko‘tarib, g‘oliblarni tabrikladilar.

Bayram so‘ngida hakamlar hay’ati raisi matab direktori to‘plangan baholar yig‘indisini e’lon qilib, bayramda faol qatnashgan o‘quvchilar nomi, ismi-sharifini keltirib o‘tdi. Ushbu bayramda o‘quvchilarning A. Avloniy to‘g‘risida, vatanimiz, ma’naviyatimiz tarixi, shoirning asarlari to‘g‘risidagi tasavvurlari, ma’naviy tushunchalari, qobiliyatları, she’rlarini o‘qiy olish layoqatlari namoyon bo‘ldi.

Boshlang‘ich sinflarda tarixiy manbalarni o‘rganish maqsadida o‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘quvchilar faolligini oshirish,

ularning tashabbuskorligini ta'minlash yuqori samaradorlikka erishishning asosiy shartlaridan hisoblanadi. O'tkazilayotgan tadbirlarda tayyorlashda har bir o'quvchining o'rnini, vazifasini aniq belgilab bera olish mazkur sinf o'qituvchisining pedagogik mahoratiga bog'liq bo'lgan muhim shartlardan hisoblanadi. Boshlang'ich sinflardagi tadbirlar va dars mashg'ulotlarining asosiy xususiyatlaridan biri, bu ularning kreativ yondashish, amaliy-ijodiy mazmunda ekanlidir. Chunki, mazkur sinflarda o'kuv mashg'ulotlarini tashkil etishda o'kuvchilarining ko'rish, eshitish, xotira, tuyg'u, sezgilar qo'zg'alib, ularning qobiliyatlariga tayaniladi. Har bir mashg'ulotda yoki tadbirda ko'rsatmali tarqatmali, namoyish qilish vositalari ovozli (og'zaki) bayon qilish bilan uyg'unlashtirib olib borilsa, kutilayotgan, natijalar yanada samarali bo'ladi.

A. Avloniyning pedagogik merosini o'rganish asosida tarixiy, ma'naviy, madaniy merosimizni boshlang'ich sinflarda o'rganish jarayonida avvalo, har bir asarni o'rganish tizimini ishlab chiqilib, so'ngra, yaxlit jarayonning pedagogik texnologiyasi yaratilmog'i lozim. Boshlang'ich sinflardagi ta'llim-tarbiya ishining mazmuniga, xususiyatlariga uyg'unlashgan holda, tarixiy asarlarni o'rganish texnologiyasi ishlab chiqilib, bu jarayonni tashkil etishda o'quvchilar faolligini tashabbuskorligini o'qituvchi ijodkorligi bilan ta'mnlansa, erishiladigan natijalar yanada samarali bo'ladi.

## **7-mavzu: Boshlang'ich sinflarda Ishoqxon Ibratning pedagogik merosidan foydalanish**

Reja:

1. Ishoqxon Ibratning pedagogik merosini o'rganish ijtimoiy zarurat sifati.
2. Isoqxon Ibratning "Lug'oti sittati alsina" ("Olti tilli lug'at") asari-muhim didaktik manbaa
3. Isoqxon Ibratning ma'rifatparvarlik faoliyati

Tayanch tushunchalar: Ishoqxon Ibrat, ma'rifatparvarlik, ijtimoiy zarurat, didaktik manbaa.

### **1. Ishoqxon Ibratning pedagogik merosini o'rganish ijtimoiy zarurat sifati.**

XX asr Milliy uyg'onish davrining yetuk namoyandalaridan biri, noyob iste'dod egasi, ko'plab Sharq va G'arb tillarining bilimdoni, o'lkamizdagi ilk matbaachilardan biri sifatida Vatan taraqqiyoti yo'lida fidokorona xizmat

qilgan Isoqxon Ibrat nomini abadiylashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 13 aprelda 208-sonli “Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanida atoqli ma’rifatparvar Isoqxon Ibrat nomidagi yodgorlik majmuasini tashkil etish to‘g‘risida” qarori qabul qilindi. Qarorda Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanida Isoqxon Ibrat nomidagi bog‘, atoqli ma’rifatparvarning haykali va muzeyi hamda xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan maktabdan iborat «Isoqxon Ibrat majmuasi»ni tashkil etish haqidagi takliflar ma’qullanib, Isoqxon Ibrat muzeyi To‘raqo‘rg‘on tumanidagi madaniy meros obyekti bo‘lgan G‘oyibnazar Qozi madrasasi negizida tashkil etilishi va Namangan viloyat o‘lkashunoslik muzeyining filiali sifatida faoliyat yuritishi ko‘rsatib o‘tildi. Shuningdek, Isoqxon Ibrat majmuasini tashkil etish bo‘yicha respublika ishchi guruhi tarkibi tasdiqlandi. Qarorda O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligiga, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga:

xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan maktab faoliyatini yo‘lga qo‘yish va uni malakali kadrlar bilan ta’minalash;

umumta’lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari hamda oliy ta’lim muassasalarining o‘quvchi va talabalarini ushbu maktabga keng jalb etgan holda targ‘ibot tadbirlarini tashkil etish vazifalari yuklatildi.

O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Isoqxon Ibrat xotirasini abadiylashtirish ishlarini keng yoritish tavsiya etildi.

2. Isoqxon Ibratning “Lug‘oti sittati alsina” (“Olti tilli lug‘at”) asari-muhim didaktik manbaa.

Jadidchilik harakatining yirik nomoyandalaridan biri Isoqxon Ibratning asarlari ichida “Lug‘oti sittati alsina” (“Olti tilli lug‘at”) muhim o‘rin tutadi. “Lug‘ati sittati alsina” asari arabcha, forscha, hindcha, turkcha, o‘zbekcha va ruscha so‘zlarni o‘z ichiga olgan lug‘at bo‘lib, 1901 yil Toshkentda V.I.II’in litografiyasida bosmadan chiqqan. Lug‘at 1898 yilda yozib tugallangan, uzoq qarshiliklardan keyin, chor hukumatining tazyiqi ostida qiyinchilik bilan chop etilgan. Lug‘at mingdan ortiq so‘zni o‘z ichiga olib, ikki qism, 53 betdan iborat. Lug‘atning birinchi qismida alifbe tartibida tuzilib, har qaysi harfga alohida kichik-kichik boblar ajratilgan. Shuningdek, bu qismda fe’llarning noaniq va kelasi zamon shakllari avval forscha, keyin arabcha, turkcha, o‘zbekcha, hindcha va ruscha tarjimalari berilgan.

Isoqxon Ibrat o‘zbek ma’rifatparvarlari orasida birinchi bo‘lib olti tildan iborat lug‘at yaratdi. Yozuvlar tarixini o‘rganish murakkab soha hisoblanadi. Shu jihatdan olganda Ibratning “Jome’ ul-xutut” (“Yozuvlar majmuasi”) asari muhim ahamiyatga ega. “Jome’ ul-xutut” 1912 yil “Matbaai Isoqiya” (o‘zini nashriyoti)da chop etilgan. Asar 132 betdan iborat. “Jome’ ul-xutut”da yozuvlarning eng ibridoysi-piktografik yozuvlardan boshlab, finikiya, yahudiyl, suriya, arab, yunon, fors, slavyan, sanskrit, hind, lotin, arman, gruzin, uyg‘ur kabi qirqdan ortiq yozuvlar, ularning tarixi va taraqqiyotini ilmiy asosda ochib

berdi. Ibrat asarida Kipr g‘orlaridan topilgan yozuv qoldiqlarini ham keltirib o‘tgan. U tovush-harf yozuv tizimi birinchi marta finikiya xalqlarida yaratilgan degan g‘oyani ilgari surgan. Qo‘sni xalqlar arab, yahudiy, suriyaliklar finikiya yozuvi asosida vujudga kelgan.

Chet tillarni o‘rganish lozimligi haqida Isoqxon Ibrat “Jome’ ul-xuttut” asarida yozadi: “Dorixonoga borganda lotincha zarur. Hindistonga xat qilinsa, inglizcha bo‘lmasa olmaydur, Eronistonga fransaviy. Biz turkistonliklarga birinchi zarurimiz rusiya xatidurki, muni qozi va mudarrislar inkor qilmaslar. Axborotnama, rapurt yozsalar, mudarrislar bo‘lsa, o‘ruscha biladurgan kishiga oqcha berib, rapurt yozduradurlar, olarga juda zarur. Savdogarlarga Maskovdan mol yozmoqqa zarur hukumat xati bo‘lub, binobarin, ehtiyoji xalqullohhama jihatdin buni bilmak zarurligi badehiy”.

Ibratning “Lug‘ati sittati alsina”, “Jome’ ul-xutut” asarlaridan tashqari “Devoni Ibrat”, “Tarixi Farg‘ona”, “Tarixi madaniyat”, “Lison uz-zamon” kabi asarlari mashhurdir.

### 3. Isoqxon Ibratning ma’rifatparvarlik faoliyati

Isoqxon Ibratning ma’rifatparvarlik faoliyatida maktabdorlik qilish muhim ahamiyatga ega. U “Matbai Isoqiya” nashriyotida “San’ati Ibrat, qalami Mirrajab”, “Ilmi Ibrat” kabi darslik va qo‘llanmalarini nashr ettirdi. Birinchi marta 1906 yilda, keyin esa, 1907 yilda yana “usuli jadid” maktabini olib, 25 nafar qishloq bolalarini o‘qitdi. Darslik sifatida Saidrasul Aziziyning “Ustodi avval”, Munavvarqori Abdurashidxonovning “Adibi avval”, Ali Asqar Kalininning “Muallim us-soniy” va o‘zining “Lug‘ati sittati alsina”, “San’ati Ibrat, qalami Mirrajab” asarlarini manba qilib oldi.

Isoqxon Ibrat o‘sha davr vaqtli matbuotida faol ishtirok qilgan. Mashhur “Kutubxonai Isoqiya”ni tashkil qilgan. Kutubxonada o‘zbek, tojik, fors, turk, tatar, rus tillaridagi o‘n mingga yaqin kitob, gazeta va boshqa vaqtli matbuot nashrlari, qo‘lyozmalar joy olgan. “Isoqiya bog‘ini” tashkil qilgan.

Ko‘plab jadid ma’rifatlari kabi Isoqxon Ibrat ham 1937 yil 75 yoshida qatag‘on qurboni bo‘ldi. Uning asarlari mustaqillik sharofati bilan bir necha marta nashr qilindi. Isoqxon Ibrat shoir va olim, ma’rifatparvar va matbachi, din arbobi va fidoiy inson, vatanparvar sifatida xalqimiz shuurida, ongida abadul abad yashaydi.

## 8-mavzu: Sadriddin Ayniyning adabiy-pedagogik merosi.

Reja:

1. Sadriddin Ayniyning adabiy-pedagogik merosini o‘rganilishi.
2. Sadriddin Ayniy hayot yo‘li.
3. Ayniyning ma’rifatparvarlik faoliyati va darsliklari.

**Tayanch tushunchalar:** Sadriddin Ayniy, adabiy-pedagogik meros, ma’rifatparvarlik faoliyati, ma’rifatparvarlik, darsliklar.

## **1.Sadriddin Ayniyning adabiy-pedagogik merosini o'rganilishi.**

O'zbek pedagogikasida yirik iste'dodlilar bisyordir. O'zbek va tojik pedagogikasining yirik vakili Sadriddin Ayniyning pedagogik asarlarida bu holat yaqqol ko'zga tashlanadi.

Sadriddin Ayniyning ijodiy-pedagogik merosi tojik, o'zbek va rus olimlari tomonidan ancha keng tadqiq qilingan. Bu borada M. Asimov, M. Shukurov, A.Maniyozov, A. Sayfullayev, R. Hodizoda va boshqa bir qator faylasuf hamda adabiyotshunos olimlarning hissasini alohida ta'kidlash lozim. Sadriddin Ayniy merosini o'rganishda uning farzandlari Xolida Ayniy va Kamol Ayniylarning yig'uvchilik va tadqiqotchilik ishlarini ta'kidlab o'tish lozim. I.Braginskiy, Z. Osmanova singari moskvalik olimlar ham adib ijodining o'ziga xos qirralarini tadqiq etganlar. O'zbek adabiyotida esa N. Mallayev, N. Rahimov, G'. Sobirova, M. Hasanov, M. Qo'shjonov, M. Hasanov, S.Aliyev, O.Safarov, R. Vohidov, M. Mahmudov singari adabiyotshunoslар qator maqola va monografiyalarini S. Ayniyga bag'ishlaganlar.

## **2. Sadriddin Ayniy hayot yo'li.**

Sadriddin Ayniy ijtimoiy-siyosiy voqealar shiddat bilan kechgan ikki (XIX va XX) asrni ko'rib yashadi. U ham feodal boshboshoqlik, ham sho'roviy istibdod fojialarining bevosita guvohi bo'ldi. Ayniqsa, adib 30-yillardagi stalincha qatag'on fojialari amirlik tuzumi davridagi fojialardan kam emasligini o'z ko'zi bilan ko'rdi. Pedagogdan bizga ulkan hajmdagi she'riy, nasriy, tarixiy, ilmiy va publisistik asarlar meros bo'lib qoldi. U o'zbek va tojik xalqlarining, balki butun Markaziy Osiyo xalqlari yangi pedagogikasining, adabiyotlarining bayroqdoqlaridan biri bo'ldi, bu adabiyot shuhratini jahoniy minbarga ko'tardi, olam ahliga tanitdi. Shu boisdan 1962 yilda Qohirada bo'lib o'tgan Osiyo va Afrika yozuvchilarining Xalqaro kongressida Ayniy nomi hind Robindranat Tagor, xitoy Lu Sin' va arab Toho Husaynlar qatoriga qo'yilgan, qolaversa ustod tavalludining yuz yilligi nishonlangan 1978 yil YUNESKO tomonidan Sadriddin Ayniy yili deb e'lon qilinib ehtiromga burkangan edi.

Ustod Ayniyga jahon miqyosida qiziqishning boisi bejiz emas. Buning asosiy sababi shundaki, adib asarlarida xalq turmushi o'ziga xos milliyligi va butun murakkabligi bilan haqqoniy aks ettirilgan. Pedagog XIX asrning boshlaridan XX asrning 30-yillarigacha bo'lgan davrda Buxoro zaminida ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni jahonda olib borilgan erk va ozodlik yo'lidiagi kurashlar bilan bog'lab estetik jihatdan to'g'ri baholay bilgan. eng muhimi, u betakror san'atkorlik dahosi tufayli tarixiy haqiqatni badiiyat sintezidan o'tkazib, mohirona tasvirlay olgan. Shu ma'noda ustod Ayniyni

pedagog, adib-u yozuvchilikda tarixning ulkan bilimdoni, deya ta`riflash mubolag`a bo`lmaydi. U xalqimiz o`tmishini xuddi o`zi yashagan zamonday mukammal bilar, bilganlarini esa, badiiyat libosiga o`rab shu qadar aniq, ravshan va ravon tasvirladiki, undan nainki zamon ruhi ufurar, balki zamon chaqirig`i ham aks sado berib turardi. Uning o`tkir qalami tariximizdagi har bir nuqtadan kutilmagan serzavq she`riy ohang tuyar, jonli badiiy obraz yasar, ajdodlarimizning boy ma`naviy mulkini yaratganlar siymosini kashf eta olgandi. Inchunun, Rudakiy, Firdavsiy, Abu Ali ibn Sino, Sa`diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy, Kamol Xo`jandiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Mirzo Bedil, shuningdek, mamlakatimiz erkining fidoyilari, xalq qahramonlari Muqanna, Temur Maliklar haqidagi ilmiy va badiiy yaratmalari shunday xususiyatlarga ega. Ayniqla, Zayniddin Vosify va uning “Badoe` ul-vaqoe” asari va Alisher Navoiyning adabiy merosini o`rganishga oid tadqiqoti sharqshunoslikdagi ulkan kashfiyat darajasida e`tirof etildi va keyingi ishi uchun unga dissertatsiya himoya qilmay ham Sankt-Peterburg universiteti ilmiy kengashi tomonidan filologiya fanlari doktori ilmiy darajasi berilgan edi. U zamonaviy sharqshunoslikni rivojlantirishda nafaqat adabiyot tarixi tadqiqotchisi-adabiyotshunos, balki tarixchi-etnograf, folklorshunos, lug`atchi-leksikograf, tilshunos, tarbiyashunos-uslubchi va mohir murabbiy sifatida ham munosib hissa qo`sha oldi. Serqirra faoliyati davomida xalqni ma`rifatli qilishni ko`zlab maktablar ochdi, ularda o`qitish uchun qator darsliklar yaratdi, eng muhimi, muttasil qizg`in ilmiy va badiiy ijod bilan shug`ullanib o`zi mansub bo`lgan xalqning betakror milliy-tarixiy badiiy qiyofasini jahon badiiy tafakkuri ko`zgusida ko`rsatishga muvaffaq bo`ldi va shu xizmatlari evaziga el tomonidan ustod deya e`zozlandi.

Xullas, ustod Ayniy o`zbek bolalari uchun, asosan, nasrda ijod etib, realistik prozaning shakllanishi va ravnaqiga munosib hissa qo`shgan, uni yangi janrlar va obrazlar hisobiga boyitib, mavzu ko`lamini kengaytirgan zullisonayn adib sifatida o`z mavqeiga egaligicha adabiyotimiz tarixida nom qoldirdi. Xuddi shu tarixiy xizmati uchun u 2003 yilda Vatanimizning “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlandiki, bu adib dahosining buyukligi va manguligi shahodatidir.

Insoniyat pedagogik- adabiy hayoti taraqqiyoti tarixida shunday o`chmas siymolar mavjudki, ular yaratgan beqiyos ma`naviy meros nafaqat bir xalq manfaati, balki dunyo ahli estetik zavqi ravnaqi taraqqiyoti va tamadduniga sezilarli ta`sir ko`rsatgan munosib madaniy boylik bo`lib qo`shiladi. Ana

shunday umrboqiy shaxslar sirasiga mashhur adib, otashnafas shoir, nuktadon olim va ulug` donishmand Sadriddin Ayniy (1878 – 1954) ham mansubdir.

Ustod Ayniy haqida xayol surar ekanmiz, xotira qavatlaridan XX asr tojik badiiy kalomining ulug` allomalaridan biri Mirzo Tursunzodaning quyidagi haroratli misralari bevosita jilvalanib qoladi:

Yangidan tug`ildi, bizning adib ham,  
Qaynoq buloq kabi yo`l tutdi ildam...  
Kurashda qalamin yaroq qildi u,  
Aqlu zakovatin bayroq qildi u.  
Adib olmos kabi sochar edi nur,  
Xalq daryo edi-yu u porlagan dur....  
Qalamkash ustodga yetkazib payg`om,  
Shahar boshdan oyoq derdi: “Assalom!”  
Qo`sha-qo`sha salom keldi Ayniya,  
Qo`sinq bo`lib kalom keldi Ayniya<sup>1</sup>.

Nekbin tojik pedagog-shoirining ayni satrlari bugun uchun ham zamondoshdir. Darhaqiqat, Ustod Sadriddin Ayniy qoldirgan ulkan ma`naviy xazina insoniyatning har bir avlodi uchun “yangidan tug`ilishda” , “buloqday qaynab oqishda” davom etadi. “Markaziy Osiyo xalqlari adabiyotining otasi” (G`afur G`ulom) rutbasida ulug`langan, tojiku o`zbek yangi adabiyotini shakllanishida katta hissa qo`sghan zullisonayn adibning yangi-yangi elu elatlarga tashrifি ularning zabardast allomaga issiq salomi dilkash qo`sqliar misol asrlar osha yangrashda davom etadi.

Sadriddin Said Murodzoda 1878-yilning 15-aprel kuni Buxoro amirligining Suktare qishlog`ida, oddiy dehqon oilasida tug`ilgan. Sadriddin Ayniy hayot yo`li uzun, murakkabdir. Adib bolalik yillarini “Esdaliklar” nomli asarida shunday bayon etadi: “Bolalik vaqtim ikki qishloqda o`tgan: tug`ilgan va besh yasharligimdan o`n uch yasharligimgacha yashagan joyim G`ijduvon rayoniga qarashli Suktare qishlog`i – ota-bobom qishlog`idir, bir yasharligimdan besh yasharligimgacha o`sgran joyim Shofirkom (Shofirkon) rayoniga qarashli Mahallai Bolo qishlog`i – tog`olarim qishlog`idir”.<sup>2</sup> Bundan ko`rinib turibdiki, adibning bolaligi dastlab Shofirkon tumaniga qarashli Mahallai Bolo qishlog`ida, so`ngra G`ijduvondagi Suktare qishlog`ida kechgan. Adibning otasi Saidmurodxo`ja Saidumarxo`ja o`g`li o`z davrining bilimli kishisi, onasi Zevaroy esa savodsiz bo`lsa ham, o`z ishiga puxta, farzandlarining mehribon

<sup>1</sup> Mirzo Tursunzoda. Abadiyat charog`i. “Ayniy zamondoshlari xotirasida” G`.G`ulom nomidagi BAN Toshkent – 1978 y 216-217 bet.

<sup>2</sup> Sadriddin Ayniy “Esdaliklar” sakkiz tomlik asarlar beshinchchi tom – Toshkent 1965 y.

onasi hisoblanardi. Adibning o'zi "Esdaliklar" asarining "Otam bilan Onam" nomli bobida ular haqida to'liqroq ma'lumot berishga harakat qiladi: "Men bu yerda ota-onamning mashg'ulotlari ularning fe'l-atvor va xislatlari to'g'risida biroz gapirib o'tishni lozim bilaman, chunki men birinchi navbatda tarbiyani ulardan olganman ularning xislat va xususiyatlari shubhasiz menga ta'sir ko'rsatgan.

Otam dehqonchilikdan bo'shagan vaqtlarida, ikki ish bilan mashg'ul bo'lardi: bu ishlarning biri, tegirmon charxi yasash, ikkinchisi to'quvchilik edi. Otam o'z zamonasi odamlaridan ancha boshqacharoq edi: u, rasmiy mullalar, imomlar, qozilar, ruslarni yomon ko'rар, ulardan ba'zilarini nodon, ba'zilarini noinsof. zolim derdi. U qozilardan G'ijduvon qozisi Abdulvohid Sarirni va imomlardan men ko'rmagan, bilmagan bir ikki imomni sevardi.

Onam savodsiz bo'lib, fikr jihatdan boshqa qishloq xotinlaridan farq qilmasdi. Lekin otam boshqa odamlardan biroz farqli bo'lgani sababli, buning alohida fikrlari unga ta'sirsiz ham qolmagan edi. Onam o'z bolalariga, shu jumladan, menga juda mehribon edi: u bizning kiyim-kechagimizdan va badanimizning tozaligidan har vaqt xabardor bo'lib turardi. U, yolg'onchilar va o'g'rilar to'g'risida qo'rqinchli ertaklar aytib, bu ishlardan saqlanishga undardi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan Sadriddin Ayniyning adabiyotga mehri bo'lakligi, unga telbalarcha oshno bo'lganligiga ota-onasining xizmatlari beqiyos ekanligini ko'ramiz.

Sadriddin 1884-1887-yillarda eski maktabda, keyin bir qator madrasalarda: Buxorodagi Mir Arab (1890-1891), Olimxon (1890-1893), Badalbek (1894-1896), Hoji Zohid (1896-1899), Ko'kaldosh (1899-1900) madrasalarida tahsil olgan. Ahmad Donish "Navodir ul-vaqoe" va ozarbayjon yozuvchisi Hoja Marog'iying "Ibrohimbekning sayohati" hamda jadid ma'rifatparvarlarining asarlari uning dunyoqarashiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Sadriddin Ayniy ijod maydoniga dastlab shoir sifatida qadam qo'ydi, tojik tilida Sharq xalqlari adabiyoti an'analari ruhida dilkash she'rlar yoza boshladi. Barcha qalamkashlarning ijodiy tajribasi singari Ustodning ham adabiy yo'li murakkab adabiy-ijodiy jarayon sifatida kechdi. U dastlab "Sifliy", "Muhtojiy", "Muhtoj", "Jununiy" kabi taxalluslar bilan mashqlar qila boshladi. O'sha davrdagi izlanishlari talabchan shoir uchun kutilgan natijani bermagani kabi, yuqorida zikri o'tgan adabiy taxalluslar ham iste'dodli adibga manzur tushmadi. XIX asrning oxirgi yillari chindan-da ustod Sadriddin Ayniy uchun chinakam qalamkash maqomida shakllanish davri vazifasini o'tadi. Adib ijod maydonidagi dadil qadamini jiddiy, adabiy taxallus tanlashdan boshladi. Ustod

shunday maylning izohlarini “Esdaliklar”ning maxsus bobida “Taxallus tanlash “ sarlavhasini ostida bayon qilgan. Aslida ijodkor taxallusini shunchaki soxta nom deb qarash to`g`ri bo`lmaydi. Masalaga teranroq baho berilsa, shu birgina so`zning o`ziyoq uni taxallus vazifasida qo`llagan qalamkashning g`oyaviy olami, dunyoqarashi, ilohiy-irfoniy e’tiqodi, ijodkor maqomidagi salohiyati kabi xilma-xil qirralari xususida so`zlaydi.

Ustod Sadriddin Ayniy adabiyot olamini muqaddas va donishmandlik manbai sifatida bilgani tufayli o`sha mo`tabar dargohni yuksak qadrlagan. Alloma qalamkash uchun adabiyot dunyosida mayda va katta narsalar bo`lman. Uning uchun bu ma’voning har bir zarrasi ham ulug` bo lib ko`ringan. Shundan bo`lsa kerak, ustod asarni yozishdan taxallusga qadar bo`lgan barcha jarayonlarga jiddiy ahamiyat bergen. Xusan, XIX asrning oxirida Buxoroda taxallusbozlikning avj olganligi adibga xush kelmaydi. U “Esdaliklar”da bu hodisaga shunday izoh beradi:”... Shunga qaramay, ular tanlagan taxallusning aksari boshqa shoirlar tomonidan ishlatilgan yoxud ma’nosiz yoinki ma’nolari taxallusga nomunosib bo`lib chiqardi.

Hatto adabiyotga hech havasi bo`lman, she’r o`qishni yoqtirmaydigan, suhbatda she’rxonlik boshlansa darrov chiqib ketadigan Mirqodir Maxdum ham taxallus tanlash jarayonidan chetda qolmagan edi. U bunday suhbatlarda: “ Agar men shoir bo`lsam taxallusimni “Gambusk” deb qo`yardim. Chunki taxallus o`rnida qabul qilinmagan”,<sup>3</sup> - der edi.Uningcha taxallus ijodkorning badiiyat bobidagi yo`lini oydinlashtirib bermog`i, u o`tkinchi hoyu havaslardan xoli bo`lmog`i, boshqa qalamkashlar tarafidan (“soxta nom”) vazifasida ishlatilmagan bo`lishi shart. Ustod yuqoridagi mulohazalarini davom qilarkan, yozadi: “Bu munozara va mubohasalar va umumiyl taxallus izlashlardan men shunday fikrga keldim: “Shunday taxallus topishimiz lozimki, U serma’no va taxallusga munosib bo`lsin va ayni zamonda boshqa shoirlar tomonidan adabiy taxallus sifatida olinmagan bo`lsin”. Ustod shirin orzu bilan lug`atlar sahifalariga sho`ng`ib “AYN” so`zini topadi va uni pisand ko`radi. Allomaning oldida endi boshqa muammo ko`ndalang bo`lib turardi: mazkur so`z boshqa qalamkashlar tomonidan taxallus sifatida tanlanmaganmi? O`rtaga qo`yilgan bu savolga ijobiy javob topish maqsadida Lutf Alibek Ozarning “Otashkada”, Davlatshoh ibn Baxtshohi Samarqandiying “Tazkiratush – shuar” asarlarini ko`zdan kechiriladi. Darhaqiqat, tilga, olingan tazkiralarda “Ayniy” taxallusli shoirlarda uchramaydi. Bu javob Ustodni yanada tinchlantiradi va u “Ayniy”

<sup>3</sup> Rahim Vohidov, Melis Mahmudov – “Ustod Ayniy saboqlari” O’zbekiston – “Fan” – 2004 y.

so`zini o`zining doimiy taxallusi sifatida qabul qiladi. “Esdaliklar”da ana o`sha tafsilotlar haqida o`qiymiz: “..bu so`zni boshqa shoirlar tarafidan taxallus sifatida olinmaganiga qanoat hosil qilgach, ko`z, chashma yoki sopqon tosh otadigan charm ma’nosida “Ayniy” so`zini o`zimga taxallus qilishga qaror qildim. Mening shoirligim va taxallusim shoirlar havasidagi yoshlarga ma’lum bo`lgandan so`ng, ular mendan she’r va uning ma’nosini surishtirmay, taxallusimning ma’nosini so`rab-surishtirar edilar, men esa: - Bu so`zning qirq sakkiz ma’nosi bor. O’zlaringiz lug’at kitoblarini o`qib bu so`zning ma’nolarini bilib olinglar, bularni tushuntirishga mening vaqtim yo`q, - der edim. Mening javobim so`rovchilarni yana ko`proq hayratga solar va yoshligim tufayli bu javobimdan o`zim ham zavqlanar edim”.

1895-yilni shoir Sadreddin Saidmurodzodanining adabiy qismatida burilish nuqtasi hisoblash mumkin. Chunki Ustod ana shu yilda “Ayniy” taxallusini manguga tanladi va she’riy merosining debochasi sanalmish “Guli surx”da (“Qizil gul”) uni qo’lladi...

Pedagogning birinchi nazmiy bisoti “Guli surx” (qizil gul) she’ri Buxoroyi sharifda shakllangan an'anaga binoan har yili aprel-may oylarida Bahouddin Naqshband mazoroti atrofida qizil gul-lolalar ochilishi munosabati bilan tashkil qilinadigan ommaviy saylga bag’ishlab yozilgan. O’sha tarixiy she’rning “tarjimai holi” haqida muallifning “Esdaliklar” asarida batafsil mulohaza yuritiladi. Ustodning shahodatiga qaraganda “Guli surx”ning birinchi tinglovchisi va tanqidchisi ham iste’dodli shoir Hayrat bo’lgan. Alloma adib o’sha tafsilotlarni eslarkan, yozadi: “Hayrat u she’rni men o`qib eshittirganimdan so`ng o’z qo`liga olib, ikkinchi marotaba uzoq davom qilgan mulohaza bilan xomushona mutolaa qilib, keyin menga baland ovoz bilan o`qib berib, kamchiliklarini ko`rsatdi va yana bir karra ishlab chiqishimni maslahat berdi. Men u she’rni o’sha vaqt Hayrat rahbarligida tuzatgan edim. Mehrubon do`stim xotirasini yodga olib o’sha tafsilotlarni bu o`rinda naql qilishni (so`zlashni)ni munosib ko’rdim”.<sup>4</sup>

### **3.Ayniyning ma’rifatparvarlik faoliyati va darsliklari**

Ayniy Buxoroda yangi usuldagagi maktablar ochadi, ular uchun o`quv qo’llanmalar, ommani ilm-ma’rifatga chaqiruvchi she’r va hikoyalaridan iborat “Yoshlar tarbiyası” (1909) darsligini tuzadi. Yosh buxoroliklar harakatiga faol

<sup>4</sup> Rahim Vohidov, Melis Mahmudov –“Ustod Ayniy saboqlari” O’zbekiston – “Fan” – 2004 y.

qatnashadi. 1918-1921-yillarda tojikcha, o'zbekcha qo'shiq va she'rlar yaratgan. "Buxoro jallodlari" (1922) povesti, "Buxoro mang'it amirligining tarixi" (1921), asarida Buxoroning ijtimoiy-siyosiy hayoti ifodalangan. "Odina", "Qiz bola yoki Xolida" (1924) "Tojik adabiyotidan namunalar" (1926), "Qulbobo yoki ikki ozod" (1928) kabi qissa, hikoya, ocherklari muhim ahamiyatga ega. Ayniy tojik va o'zbek adabiyotlarining ming yillik tarixiy taraqqiyotida yetishib chiqqan 200 dan ziyod shoir, tarixchi, olim, tazkiranavislardan hayoti va ijodi haqida ma'lumot beradi. Ayniy 1927-1929-yillarda yirik romani "**Doxunda**"ni tojik tilida nashr ettiradi. 1934-yilda esa o'zbek tilida "Qullar" romanini yaratdi. Unda o'zbek va tojik xalqining yuz yillik hayoti aks etadi. Ayniyning 1935-yilda yozgan "Eski mакtab" asarida eski maktabdagagi o'qish va o'qitish haqida hikoya qilinadi. Yigirmanchi yillarda e'lon qilingan qator hajviy asarlari, "Yana bu qaysi go'rдан chiqdi", "Puling halol bo'lsa, to'y qil" (1924), "Mashrab bobo", "E, to'nim" (1925), "Bilganim yo'q", "Kengash" (1926) kabi o'zbekcha feletonlari, 242 ta hajviy she'r va maqolalari, ayniqsa, "**Sudxo'rning o'limi**" (1939) hajviy povesti yozuvchining mohir satirik ekanligini ko'rsatadi. Yozuvchining xasislik ramzi bo'lgan qahramoni "Sudxo'rning o'limi" asaridagi **Qori Ishkambadir**. Ishimiz bevosita bu asar bilan bog'liq bo'lib, bu asar haqida to'liq ma'lumotlarni keyingi fasllarda berib o'tamiz. Muqanna va Temur Malik boshchiligidagi xalq qo'zg'aloni aks ettiruvchi adabiy-tarixiy ocherklar yozdi. U to'rt qismdan iborat "Esdaliklar"ida (1949-1954) Buxoroning o'tmish hayoti va o'sha davr ijtimoiy-madaniy muhitini yoritadi. Ayniy adabiyotshunos, tilshunos, sharqshunos olim sifatida Firdavsiy va uning "Shohnoma"si haqida (1934), "Kamol Xo'jandiy", "Shayx ur-rais Abu Ali ibn Sino" (1939), "Ustod Rudakiy" (1940) "Shayx Muslihiddin Sa'diy Sherazi" (1942), "Alisher Navoiy" (1948), "Zayniddin Vosify" (uning "Badoye ul-vaqoye"asari haqida), "Mirza Abdulqodir Bedil, Muqimiylar haqidagi asarlari o'zbek va tojik adabiyotshunosligi va tanqidchiligidagi "Fors va tojik tillari haqida", "Tojik tili" kabi ilmiy ishlari tojik tilshunosligida muhim voqeа bo'ldi. Adib 1954- yil 15-iyulda Dushanbe shahrida vafot etgan.

Sadriddin Ayniy O'zbekiston Fanlar akademiyasining faxriy a'zosi, Tojikiston Fanlar akademiyasining akademigi va birinchi Prezidenti, xizmat ko'rsatgan fan arbobi, Davlat mukofoti sovrindori, filologiya fanlari doktori, professor unvonlariga sazovor bo'lgan alloma edi.

S.Ayniy haqida gapirganda shuni faxr bilan ayta olamizki, u ham zamondoshimiz, ham zamindoshimizdir. Ustod Ayniy ijodining sarchashmasi

shu sharif o`lkamizda shakllandi va kamol topdi. Buyuk vatandoshimizga yuksak ehtirom namunasi sifatida Sharif shahrimizdagi muzikali drama teatri uning nomi bilan yuritiladi, adibning hujra-muzeyi, G`ijduvon tumanida uy-muzeyi faoliyat ko`rsatmoqda. Shuningdek, shahrimizning ulkan bilim dargohidorilfununimizning muhtasham binosi oldida dunyo madaniyati beshagini tebratgan ulug` siymolar safida S. Ayniy siy whole sining salobat to`kib turganligi biz buxoroliklarning ulug` donishmand adibga bo`lgan cheksiz ehtiromimiz namunasidir. Muhtaram birinchi Prezidentimiz

I. A. Karimovning farmoni bilan ulug` adibimiz S. Ayniyning xalqimiz madaniyati taraqqiyoti uchun qo`shgan ulkan xizmatlari inobatga olinib, Ona Vatannimizning yuksak mukofoti – “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandi.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, Sadriddin Ayniy o`zbek va tojik adabiyotining yetuk qomusiy olimi bo`lib uning asarlarini har qancha o`qib, o`rgansak arziydi. Uning biz yoshlarga qoldirgan ma`naviy merosi hali hanuz o`z ahamiyatini yo`qotgan emas.

“Tahzibus – sibiyon” Sharq adabiy maktabi an’analari ta’sirida vujudga kelgan badiiy – axloqiy asardir. Ustodning ushbu kitobi Shayx Sa’diyning “Guliston”, Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston” asarlarini xotirga keltiradi. Shunday gapni asarning g`oyaviy yo`nalishi va ifoda tarzi xususida ham aytish joizdir. “Tahzibus – sibiyon”da nasru nazmga birday munosabatning yetakchilik qilishi ham o`shanday xulosaga kelish asosini beradi. Asarda imkon qadar ixcham va sodda fikr yuritishga harakat qilinadi. Bayon qilingan tarbiyaviy fikrlar mitti hikoyalar guvohligida mustahkamlanadi.

Qiroat kitobining “Tarbiya ko`rgan bola”, “Odobli bola”, “Ustoz – muallim”, “Marhamatli Ahmadjon” sarlavhalari ostida kelgan maqolachalari ham sodda bayoni, ixchamligi bilan diqqatni tortadi.

“Aqli odam va baland baxt sohibi” sarlavhasi ostida kelgan voqealardan so`ng mana bu to`rtlik “bayt” ishorasi bilan keltiriladi:

*Oqil on boshad, ki o`shokir buvad,  
V – on gohe bar nafsi xud qohir buvad.  
Har ki xashmi xud furo` xo`rd, ey javon,  
Boshad o` az rostkoroni jahon.*

Ravshan bo`layotirki, “Aqli odam”, “Aqli odam va baland baxt sohibi”, “Tahzibus – sibiyon” tarkibida mustaqil bir “asarchalar” maqomida kelgan va ular o`zining pishiq g`oyaviy – badiiy tuzilishiga ega. Ko`chirganimiz she’riy

qatorlar o'sha "asarcha"lardan birining xulosasi vazifasini ado etmoqda. Muallif nigohida oqillik shukru sabru qanoat bilan go'zaldir<sup>5</sup>.

Sadriddin Ayniy XX asrning buyuk adiblaridan biri. Uning adabiy va ilmiy merosi tojik hamda o'zbek xalqlarining ma'naviy boyligidir.

Ayniy tojik va o'zbek tillarida ko'plab nasriy asarlar yaratdi, u ozodlik vaadolat kuychisi edi. Uning jaholat, qoloqlikni tanqid ostida olish, ma'rifatni ulug'lash g'oyalari tarannum etilgan asarlari uyg'onish davri adabiyotining nodir namunalari hisoblanadi.

Sadriddin Ayniyni bolalar uchun ijod etishga ma'rifatparvarlik faoliyati boshlab kelgan edi. XX asrning dastlabki o'n yilligi oralig'ida boshlangan bu faoliyat nafaqat amirlik istibdodiga, balki butun O'rta Osiyoda hukm surayotgan chorizm mustamlakachilik siyosatiga ham qarshi kurashning o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, Ayniy hayotida alohida dolg'ali bir bosqichni tashkil etadi. Zero, 1905-1911 yillar oralig'ida sodir bo'lган birinchi rus, Turkiyadagi "yosh turklar" va erondagi inqilobiy voqealar Turkiston xalqlarining uyg'onishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Natijada bu xalqlarda milliy o'zlikni anglashga intilish harakati boshlandiki, bu jadid ma'rifatparvarlik harakati tusini olgan bo'lib, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Hamza va Fitratlar qatorida Sadriddiy Ayniy ham bu harakatning yorqin namoyandalaridan biri sifatida maydonga chiqqan edi. Binobarin, u ham Buxoroda hukm surayotgan qoloq feodal tuzum – amirlik sultanatining beedad shafqatsizliklari va mehnat ahlini ommaviy nodonlikda saqlash siyosati tufayli o'z haq-huquqini unutayozgan, ilmsizlik va ma'rifsizlik botqog'iga botgan vatandoshlarini uyg'otishning yagona yo'li – ularni o'qish va o'qitishga safarbar etish deb tushundi, buni yosh avlodni maktabga jalb qilishdan boshlab g'ayrat bilan ishga kirishdi. O'zi eski maktab va madrasalarda uzoq yillar tahsil ko'rgani bois eskicha o'qish va o'qitishning barcha mashaqqatlarini anglab yetganligi sababli yevropacha tipdagi yangi usuli jadidiya maktablari haqida ko'proq bilishga intildi. Shunda maktab va maorifni isloh qilish va yangilash g'oyalalarini ijtimoiy dard darajasiga ko'tarib bong ura boshlagan buyuk ma'rifatparvar Ismoil Gaspirali tomonidan Qrimda chop qilinayotgan "Tarjimon" hamda tatar ma'rifatparvarlarining Orenburgdagi nashri afkori "Vaqt" gazetalari uning joniga oro kirdi. Qolaversa, 1903 yilda u Samarqandga borib, Mahmudxo'ja Behbudiy tashabbusi bilan tashkil etilib, o'sha davrda dovruq yoygan Abdulqodir Shakuriyning usuli jadidiya maktabini ko'rdi, undagi o'qish va o'qitish jarayonlari bilan tanishdi. U yangi usul maktablari haqida ko'proq bilishni istab,

<sup>5</sup> "Barhayot she'riyat" – Buxoro – 2004 y.

Buxoroda yashovchi tatarlarning o`z bolalari uchun ochgan xususiy maktabni ham borib ko`rdi.

Keyinchalik Ayniy shu maktablarning tajribasiga asoslanib, do`sti Abdulvohid Munzim bilan hamkorlikda uning hovlisida 1908 yilda shunday maktab ochishga muvaffaq bo`ldi. Shu maktab talabalari uchun u Abdulvohid Munzim bilan hammualliflikda “Alifbo” kitobi tartib berdi. Bu ustodning bolalar yosh xususiyatlari va saviyasini hisobga olish va anglash yo`lidagi ilk tajribasi va ilk darsligi edi. U bu maktab uchun diniy saboqning zarurligini ham unutmadi, shu maqsadini amalga oshirish uchun “Zaruriyati diniya” (“Dinning zaruriyligi”, 1908) va “Tartilul-qur`on” (“Qur`onni to`g`ri o`qish qoidalari”, 1908) darsliklarini yaratdi. Bu darsliklar ikki jihatdan ilmiy-amaliy ahamiyatga ega edi. Birinchidan, ustod Ayniy o`zi asos solgan zamonaviy maktabdagi ta`lim jarayoniga dunyoviy bilimlar bilan birga diniy saboqni ham kiritib, yosh avlod dunyoqarashini iymon-e`tiqodlilikka omuxta holda tarbiyalash muammosini to`g`ri hal qilgan edi. Aslida bu muammo nainki ustod Ayniy, balki barcha jadidlarning milliy uyg`onish dasturidagi o`zak muammo bo`lib, o`sha davr ma`rifatparvarlik harakati doirasida g`oyat dolzarb edi.

Ikkinchidan, usuli jadid maktablari uchun tuzilgan dinga oid bu darsliklar vositasida ustod o`z maktabini eskicha usuldagagi ta`lim tarafdarlari xurujlaridan himoya qilishni ham ko`zda tutgan edi.

Ayni chog`da u Ismoil Gaspiralining “Xo`jai sibyon” (“Bolalar muallimi”) va Mahmudxo`ja Behbudiyning “Kitobat-ul atfol” (“Bolalar kitobi”) darsliklaridan ilhomlanib, shuningdek, “Chor kitob” hamda Shayx Sa`diyning “Guliston”, Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarlariga xos an`analardan ijodiy foydalanib, 1910 yilda “Tahzib-us – sibyon” (“Iffatli bolalar”) darsligini yaratdi.

Ayniyning ijodiy qismatida Samarqand asosiy ro`l o`ynaydi. endi u yangi ijtimoiy tuzum taqozosiga ko`ra maorif va matbuot ishlari bilan yanada qizg`inroq shug`ullana boshlaydi. Tojik va o`zbek matbuotida birday qatnashdi, tojik va o`zbek maktablarida o`qish va o`qitishni yo`lga qo`yishda birday jonbozlik ko`rsatdi, har ikki tilda ijod etishdan tolmadi. Maktablar uchun talay alifbe, o`qish kitoblarini tartib berdi. Cunonchi, “Qiz bola yoki Xolida” (1922), birinchi sinf uchun “Soli naxustin” (“To`ng`ich yil”, 1924), “Tojik alifbesi” (1927), chalasavodlar maktablari uchun “Qiroat kitobi” (1930), Ismoilzoda, Payrov Sulaymoniy va Rahim Hoshimlar bilan hamkorlikda birinchi bosqich maktablar va texnikumlar uchun “5 dar 4” qiroat kitoblarini (1931) tartib berdi. Bulardan tashqari shogirdi Rahim Hoshim tomonidan 1929 yilda savod

o`rgatuvchi maktablarga mo`ljallab tuzilgan “Jahoni nav” (“Yangi jahon”), 1930 yilda chala- savodlarga mo`ljallangan “Soxtomoni nav” (“Yangi qurilish”) va boshlang`ich maktablarning 2-sinf uchun tartib berilgan “Rohi nav” (“Yangi yo`l”, 1931) kabi darslik va o`qish kitoblariga maxsus didaktik materiallar tayyorlab berdi. Bu darsliklar silsilasida “Qiz bola yoki Xolida» qizlar maktabiga mo`ljallangan bo`lib, o`zbek tilida yozilganligi bilan ajralib turadi. Bu axloqiy-adabiy asar ustozning yangi zamon maktablari uchun tuzgan birinchi darsligi edi. Darslik o`sha paytda Olmoniyada o`qiyotgan turkistonlik 74 talaba va adibning do`sti Abdulvohid Munzimlar ko`magi va tashabbusi bilan 1924 yilda Berlindagi “Ozod Sharq” shirkati nashriyotida chop etilgan.

“Qiz bola yoki Xolida” o`ttiz darsga mo`ljallangan. Har bir dars materiali o`ziga xos adabiy-axloqiy lavha shaklidir. Ularda nazariy bilimning amaliyot bilan aloqadorligi, mehnatning foydasi va mehnatsevarlik, xotin-qizlarning jamiyatdagi roli va boshqa qator masalalar to`g`risida bahs yuritiladi.

Mashhur fransuz adibi Lui Aragon Ayniyining “Sudxo`rning o`limi” va “Esdaliklar” asarlarini o`z ona tiliga o`girib, yevropaliklarni Ayniy bilan tanishtirar ekan, mardona tantilik bilan: “Sadriddin Ayniy o`zining bu o`lmas asari (“Sudxo`rning o`limi” demoqchi) bilan jahon adabiyotining buyuk namoyondalari Balzak, Shekspir, Gyotelar qatorida turadi”, -deya iftixor etdi. Nemis adibi Alfred Kurilla esa, uni “Sharq madaniyatini puxta o`rgangan buyuk bilimdoni” va uning vorisi sanasa, polyak adibi Bruno Yasenskiy “mazlumlar-u sitamdidalar kuychisi” deya sharafladi. Chex adibi Yulius Fuchik uning siy whole o`z xalqi dardini ham ifodalay olgan adibni ko`rsa, boshqa bir fransuz adibi Andre Voyurmser, eron adiblari Said Nasafiy va Gulpochin Ulfat hamda rus adiblari K.Fedin va L.Leonovlar Ayniyini jahon adabiyotining buyuk namoyondalari Jek London, Redyard Kipling, Maksim Gorkiy va Knut Gamsunlar qatoriga qo`yishdi. Bular asossiz da`volar bo`lmay, balki Ayniy asarlarining xorijiy mamlakatlarda tarqalish jarayoniga daxldor dalillarga qat`iy suyanadi. Aytaylik, uning birgina “Esdaliklar” asari to`la holida 1954-1978 yillar orasida faqat rus tilida 14 marta qayta-qayta chop etildi. Bu asar Ayniyga shu qadar katta shuhrat keltirdiki, natijada qisqa muddatda litva (1951), qozoq (1951, 1953), ukrain (1952), eston (1953), qirg`iz (1954), turkman (1956), gruzin (1956), arman (1957), ozarbayjon (1958), shuningdek, polyak (1950), bulg`or (1952), chex (1952), uyg`ur (1952, 1953, 1954, 1955), xitoy (1953, 1957), nemis (1955), frantsuz (1956), mojor (1956) va arab (1957) tillariga tarjima qilingan holda chop etildi. Ustodning o`zi bu asarining dastlabki ikki qismini o`zbek tilida yozishga ulgurib, 1953 yilda nashrdan chiqargan edi.

“Esdaliklarning” uchinchi qismini To’xtasin Jalolov va to’rtinchi qismini Abdulla Hakimovlar o’zbekchaga tarjima qilishdi. Bu asar eron va Avg`onistonda, shuningdek, pushtu va hind tillarida ham nashr qilingan. “Esdaliklar”ni hozir jahonning o’ttizdan oshiq tilida o’qishadi.

Ustodning “Odina”, “Buxoro jallodlari”, “Eski maktab”, “Sudxo’rning o’limi” qissalarini ham jahon xalqlarining qirqdan ortiq tillariga o’girilgan.

Xullas, Sadriddin Ayniy o’zbek va tojik qissachiligi taraqqiyotiga samarali ulush qo’sha oldi. U o’zi yaratgan qissalar asosida tarixiy qissachilikni yangi bosqichga ko’tarishga erishdi.

XIX asr oxiri XX asr boshidagi o’zbek va tojik milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri atoqli ma’rifatparvar shoir, nosir, publitsist, olim Sadriddin Ayniy jadid harakatchilaridan biri edi. Ayniy millatning ma’naviy inqirozga yuz tuta boshlaganini tanqid qildi, barchani savodli va zamonaviy fan, madaniyat yutuqlarini egallahsga chaqirdi.

XX asr boshlarida O’zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida va adabiyotning rivojida Ayniy alohida o’rin egalladi, butun faoliyati davomida xalq ma’naviyatini shakllantirish, maorif sohasini rivojlantirish, badiiy adabiyotni boyitish masalasiga alohida e’tibor berdi.

Uning madaniyatimiz tarixidagi o’rni haqida gap ketganda, ikki jihatini alohida ta’kidlash zarur: pedagogik faoliyati va adabiy-badiiy ijodi. Sadriddin Ayniy iste’dodli shoir, qissanavis va romannavis, adabiyot tarixining zukko bilimdoni sifatida boy va mazmunli asarlar yaratdi.

Sadriddin Ayniy o’zining butun kuch-quvvati, ijodi, umrini o’zbek va tojik xalqining baxt-saodati yo’liga, ikki xalq orasidagi yaqinlikni mustahkamlashga nisor etdi. Mana shu ma’noda Ayniy siymosi, Ayniy faoliyati biz uchun g’oyat qadrlidir.

Sadriddin Ayniy hamisha xalq, Vatan dardi bilan yashadi. Buning guvohi – uning ijodi, uning faoliyati! U hamma vaqt xalqni himoya qilishga intildi. U o’z xalqi g’amiga hamdardgina bo’lib qolmadni, uning istiqboli uchun qayg’urdi, unga ozodlik va baxt qidirdi, uni muqaddas g’oyalar uchun kurashga da’vat qildi.

G’oyaviy-badiiy jihatdan etuk asarlar yaratgan Ayniyini, haqli ravishda o’zbek va tojik nasrida tarixiy-badiiy qissa janrining yaratilishi va rivojlanishiga ulkan hissa qo’shgan adibdir deya olamiz.

Ustod Sadriddin Ayniy hayoti va ijodi haqidagi fikr va mulohazalarimizdan quyidagi xulosalarga keldi

1. Buxoro shahri va uning atrofidagi qishloqlarda o'zbek – tojik xalqlari qadimdan qon-qardosh bo'lib, yashab kelmoqda. Sadriddin Ayniy ana shu muhitda o'sdi, kamol topdi. U yoshligidanoq o'zbek-tojik xalqlari hayoti, adabiyoti, og'zaki ijodi bilan yaqindan tanishdi:shoir, publitsist, tarixchi, adabiyotshunos adib Ayniy ana shu xalqlar hayotidan, adabiyotlari an'analaridan bahra olib ikki tilda ijod etdi va har ikkala xalqning sevimli san'atkoriga aylandi.

2. Sadriddin Ayniy shaxsiyati uchun eng xarakterli xususiyat – mehnatsevarlik va xalqparvarlik; ijodi uchun o'sish o'rganish, g'oyaviy-badiiy nuqson va kamchiliklardan xoli bo'la borish. Agar yozuvchi o'z ijodining dastlabki davrlarida yaratgan asarlarida badiiy mukammalikka ega bo'lsa, keyinchalik hayotiy haqiqat zaminida mustahkam turgani holda g'oyaviy-badiiy umumlashmalarni beradi. Haqqoniy manzaralar va psixologik jihatdan chuqur, tipik ijobiy qahramon obrazlari yaratish darajasiga ko'tariladi.

3. Sadriddin Ayniyning "Sudxo'rning o'limi" qissasi oktabr inqilobidan avvalgi ijtimoiy hodisalar tasviriga bag'ishlangan. Bunda Buxoro sharoitida sudxo'rlikning paydo bo'lishi, rivoji va halokati Qori Ishkamba obrazida tipiklashtirildi. Mazkur satirik obraz o'zining haqqoniyligi va hayotiyligi, psixologik teranligi va ta'sirchanligi bilan o'quvchi tasavvurida chuqur iz qoldiradi. Shu bilan birga yozuvchi bu qissada xalq ommasining sudxo'rlikka bo'lgan nafratini, sudxo'rlarga qarshi isyonini ijobiy qahramonlar xarakterida va faoliyatida ishonchli gavdalantira oldi. Ushbu asarda muallifning xarakter yaratish mahorati, ijtimoiy tuzum va xalq hayoti bilan bog'liq lavhalarni jonli tasvirini ko'rish mumkin.

4. Sadriddin Ayniy mazkur qissasining mazmundor, haqqoniy bo'lishigagina emas, asar tilining badiiy bo'yoqdor, shirali bo'lishiga ham alohida e'tibor beradi. Yozuvchi asarning badiiyligini ta'minlash maqsadida badiiy tasvir vositalaridan, o'xshatish, sifatlash, istiora va frazeologik birlik (ibora, maqol, matal)lardan unumli foydalangan. Shuning uchun ham bu qissaning tili sodda, tushunarli, obrazli va mazmunan boy hisoblanadi.

## **9-mavzu: Sirojiddin Sidqiy Xondayliqiyning hayoti, faoliyati va pedagogik merosi**

Reja:

1. Sirojiddin Sidqiy Xondayliqiyning hayoti va faoliyati.
2. Sidqiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari.
3. Sirojiddin Sidqiy didaktik merosininig boshlang'ich sinflarda foydalanish imkoniyatlari.

Tayanch tushunchalar: Sirojiddin Sidqiy Xondayliqiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlar, didaktik meros.

### **1.Sirojiddin Sidqiy Xondayliqiyning hayoti va pedagogik faoliyati**

Sirojiddin Sidqiy Xondayliqiy 1884 yilda Toshkentning shimoli sharqida Chirchiq daryosi bo‘yidagi Xondaqliq qishlog‘ida kambag‘al oilada tug‘ilgan. Otasi Mirzohid oxund o‘qimishli kishilardan bo‘lib, otu uloq boqib, xizmatkorlarga osh tashib tirikchilik qilganligini “Holoti Sidqiy” nomli avtobiografik asarida ta’kidlab o‘tgan. Sirojidinning 6 yoshida xat – savodi chiqib, sheriklari orasida iqtidori bilan alohida ajralib turgan.

O‘qishga bo‘lgan intilishi uni Toshkentga yetakladi. 1903 yilda Kesakqo‘rg‘an mahallasidagi Madrasai Rahmatullohda Shomuhiddin oxund qo‘lida arab tili morfologiya, sintaksisini o‘rgangan. Xattotlikka mehr qo‘yib Toshkentning Arpapoya mahallasida istiqomat qiluvchi Muhammad Shohmurod kotibga shogird tushadi. Keyinroq Farg‘ona vodiysiga borib Mirza Hoshim Xo‘jandiydan ruq‘a, suls, ta’liq, yoqutiy, ubaydiy, lohuriy kabi xat turlarini o‘rganib shuhrat qozondi. She’rlar molik qilib, tarjima bilan shug‘ullandi. She’rlar yozishida Karimbek Koshiy unga ustozlik qildi. Tavallo, Toshqin, Miskin va Xislatlar bilan do‘sst tutinib she’rxonliklarda faol ishtirok qildi. Shavkat taxallusi bilan 1913 yilda “Tuhvai Shavkat”, 1914 yilda “Savg‘oti Shavkat” nomli kitoblarni nashr ettirdi. “Shevan” (“nola”, “fig‘on”) taxallusi bilan she’rlar yozdi. Keyingi barcha she’rlarini Sidqiy taxallusi bilan yozdi. Devon tuzib “Devoni Sidqiy” deb nomladi. Sidqiy Xondayliqiy tik so‘z, har qanday holatda ham o‘z so‘zini dadil aytadigan, haqtalab inson bo‘lgan. Buni she’rlarida, doston va hikoyalarida ham ko‘rish mumkin. 1984 yilda shoir tavalludining 100 yilligi munosabati bilan Sidqiy Xondayliqiy “Navbahor” to‘plami G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyotida chop etildi. R. Javharova esa 1996 yilda “Sirojiddin Sidqiy Xondayliqiyning adabiy merosi” mavzusida filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya yozdi.

Sidqiyning tarjimai holi bayon qilingan “Holoti Sidqiy”da Mirzohidxon oilasining ahvoli haqida shunday jumlalar yozilgan: “”Sidqiyning jannatmakon padari kamdastroq va bechoraholroq bulg‘onlikdan dehqonchilik ishining ba’zi kamchiliklarig‘a boqishib, ya’ni xizmatkorlarga osh toshib, otu ulog‘ boqib, alarg‘a qarashur edi”.

Sidqiy ham otasiga yaqindan yordam beradi, ro‘zg‘or tirikchiligi uchun “xizmatkorlarga osh toshib, otu ulog‘ boqib” yuradi. Sidqiy 1909 yilda Toshkent shahriga keladi. O‘qishni davom qildirish uchun Toshkentning Kesakqo‘rg‘on

mahallasidagi Madrasai Rahmatullohda mavlono Shoh Muhiddin oxund qo‘lida bir necha yil davomida sarf (morphologiya) u nahv (sintaksis)ni o‘rganadi. Boshlang‘ich maktabda yaxshi savod chiqarganlari bu yerda ham qo‘l keladi. Ko‘p yillar davomida o‘qishdan uzilib qolgan bo‘lsada deyarli salbiy ta’sir ko‘rsatmaydi. Shu sababli “Xolotiy Sidqiy”da: Gavhar agar balchiqaro qolsa ham, hech mahal bo‘lmag‘usi qadri kam deb ta’kidlangan.

Sirojiddin Sidqiy tengdoshlariga nisbatan chiroyliroq yozsada, xusnixat bo‘lishni orzu qilib Toshkentning Arpapoyasidan bo‘lgan Muhammad Shahmurod ketib (1850-1922)ga shogird tushib, olti oy ustozidan ta’lim-tarbiya oldi. So‘ngroq esa farg‘onalik Mirza Hoshim Xo‘jandiydan arab yozuvidagi suls, ta’liq, ruq’a, yoqutiy, ubaydiy, lohuriy kabi xat turlarini o‘rganadi. Mirzo Hoshim o‘z zamonasining mashhur ziyyolilaridan bir bo‘lib Sirojiddin Siddiqiyga yaqindan yordam beradi, uni himoya va tarbiya qiladi. Sirojiddin Sidqiy xusnixat va go‘zal she’rlar orqali ancha tanilib qoladi. Keksa pedagog, shoir va jurnalist Mo‘minjon Muhammadjonov (1883-1964) “Toshkentlik va Toshkentda bo‘lgan o‘zbek shoirlarining tarjimai hollari” qo‘lyozmasida ma’lum qilishicha, tabiatan g‘oyat zakiy bo‘lgan bu shoir mulla Qo‘shoq Miskin (1880-1937) bilan juda inoq bo‘lib, ular birqalikda Ko‘kaldosh madrasasining o‘ng qanoti birinchi qavatidagi hujralardan birida yashagan. Ta’limni davom qildirgani “Beklarbegi” madrasasiga borib Abdumalikhoji oxund qo‘lida tahsil olgan.

Sidqiy nafaqat Miskin bilan balki o‘z davrining mashhur shoiri Xislat (1882-1945) bilan ham yaqin do‘st bo‘lgan. Ular mullo Qo‘shoq Miskinning Devonbegi mahallasida tog‘asi Hoshim novvoy ochib bergen baqqollik do‘konida tez-tez yig‘ilib turganlar. Sidqiy o‘z tarjimai holida Miskin va Xislatlarga yuqori baho beradi. Shoir Xislatdan she’r ilmini o‘rganganligini yozadi. Sidqiyning yaqin do‘stlaridan biri, maslakdoshi, shoir Karimbek Koshiy (1865-1922)ning Sidqiyga yaqindan yordam beradi. “Beklarbegi” madrasasi xujrasida faqirona yashagan bu shoir Toshkentdagi mashhur 7 bedilxonidan biri bo‘lib, u “Ko‘kaldosh” madrasasidagi ma‘rifatparvar shoirlardan Sidqiy Xondaylaqiy, Miskin, Xislatlar, “Beklarbegi” madrasasidagilardan mula to‘lagan – Tavallo (1882-1939), Mo‘minjon Toshqinlarga ustozlik qilgan. Sidqiy Xondayliqiyning maslakdoshlari ichida Miskin, Tavallo, Xislat, Toshqin, Koshiylar bilan birga G‘azanfar, Xayoliy, Iffat, Bog‘istoniy, Rizoiy, Andijoniy, Muh’yi Ho‘qandiy, Saidahmad Vasliy Samarqandiy, G‘urbatiy Turkistoniy, Abdulqodir Qoshg‘ariy kabi ma‘rifatparvar – ziyyolilar edi.

Sirojiddin Sidqiyning taxalluslaridan Shavkat, Shevan bo‘lib dastlabki ikki she’r kitobini Shavkat taxallusi bilan yozgan. Bularga 1913 va 1914 yillarda

yozilgan “Tuhfai Shavkat”, “Savg‘oti Shavkat” kitoblari bunga misol bo‘ladi. Ba’zi she’rlariga Shevan ya’ni “Nola”, “Fig‘on” taxalluslari qo‘yilgan.

Sirojiddin Sidqiy xushxat, shoir bo‘lish bilan birga tabiatan mehnatkash, hunar va kasb o‘rgatishga moyil va mohir bo‘lgan. Tosh yo‘nib, unga turli ishlov berish, o‘yib yozish, rasm tushirish, muhr tayyorlashni o‘rgangan. Bizgacha to‘ychi, hofiz va tovallolarning rasmlari, ko‘plab muhrlar, ko‘plab devon, bayoz, risolalar qolgan.

Sirojidin Sidqiy Xondayliqiy tabiatan haqtalab, adolatparvar, tikso‘z va hozirjavob bo‘lgan. Buni O‘nqo‘rg‘on qozisi bilan bo‘lib o‘tgan voqeiy hikoya orqali ko‘rishimiz mumkin. Bu hikoya 1984 yilda nashr qilingan. Navbahor to‘platiga kitilgan mazkur she’riy hikoyatda joxil va bangi bir eshonning yuragiga qozi bo‘lish g‘ulg‘ulasi tushib, murutlarini yig‘ib, pora bilan unga erishgani shariat ishlarini poymol qilgani, poraxo‘rlik, haqsizlikka rivoj bergani haqida gap ketadi va misol sifatida shariat peshvosining faoliyatidan bir lavha keltiriladi: bir oqsoqol bir dehqonning ustidan arz qilib keladi. Kuch va tezlikda yakka-yu yolg‘iz ayg‘iri bor falon dehqon qirchang‘i qo‘tir battolini xaydab qo‘ygan ekan. Shu bilan qo‘shilibdi va bu ham shu kundan qo‘tir bo‘libdi. Aslida bu g‘irt yolg‘on bo‘lib, dehqonni tushishirish uchun qilingan nayrang edi. Dehqonni topib keladilar va urib-so‘kib, o‘ttiz so‘mlik qirchang‘ini baytal egasiga sakson so‘mga o‘tkazadilar. Dehqon qattiq qayg‘uradi va fozil, iymoni mustahkam shariat rahnomasi bo‘lgan olimdan maslahat so‘raydi. Olim dehqonni haq ekanligini aytadi. Sidqiy bu voqeani yozib, e’lon qiladi. Natijada shoir yozadi: “Bu so‘zlarim barchaga quyosh kabi fosh bo‘lg‘och, ul zolim bangi qozi o‘zi kabi zolim va mustabidlarni yollab, men kabag‘alni sibirg‘a surgun va turma ichra turg‘un qilmoqg‘a ancha olishdi. Mavlono Firdavsiy Sulton Mahmud G‘oziyini xajv qilib, Tuz shahrig‘a qochgandek ul zolim amaldin qolg‘uncha men ham Farg‘onalarda qochib yurdim va ikki yilga umrimni kechirdim. 1329 sana xijrinda qish havosinda toki ul zolim taxtdin tobutg‘a tortildi, men ham o‘z vatanim dardu devorig‘a tortildim va birgina haqiqat ishori uchun shunchalik tashvish chekdim. Qanchalik og‘ir bo‘lmisin Sidqiy ro‘y – rost aytishni qo‘ymadi”. Bu hol to‘ralar davrida ham davom qildi. Bu haqida zamondoshlarimdan biri yozadi: “Shu jihatdin barchalari Sidqiyyg‘a mumkin qadar kulfat bermoqg‘a jazm etdilar. Sidqiy xalqni harchand maorif ishlariga qiziqtirib borsa ham, lekin xo‘kizni qulog‘iga do‘nbura va tanbur chertgandek bo‘lib, oni so‘zig‘a biror kishi qulq solmag‘ay erdilar....”

Sirojiddin Sidqiy Xondayliqiy 1917 yilgi voqealarga to‘ralar davriga va davlatiga ijobiy munosabatda bo‘lgan deya olmaymiz. Bu haqda muallifning

o‘zi yozadi: “Barchaga mashhurdirki, har bir mol xaridor birla rivoj tasdig‘i kabi so‘z ham xaridor ko‘plig‘i birla va talabga jo‘sishi bilan taraqqiy etar. So‘z xaridori o‘lmasalar erdi, matbuot dunyosinda “Qulmiyoti Shayx Sa’diy”, “Hamsai Nizomiy”, “Qulliyoti Bedil”, “Haft avrangi Jomiy” kabi kitoblarni, albatta hech kim ko‘rmas erdi, qadimg‘i shuarolar amsolini ham ahvoli hoziramizda ko‘rar erdik.

Bechora Sidqiyning oz she’r aytmog‘ig‘a bois so‘z xaridorining yo‘qlig‘idur”.

1917 yilgacha tinmasdan ijod qilgan, o‘nlab she’riy, hajviy, nasriy va tarjimlar yozgan Sidqiy 1917 yildan keyin durustroq asar yozmadi. Bunga asosiy sabalarni yuqorida muallifning o‘zi ta’kidlab o‘tgan edi.

Sirojiddin Sidqiyning oilaviy ahvoli ham 1917 yildan keyin ko‘ngildagidek bo‘lmadi. Ketma-ket ikki o‘g‘il Fatxulkarim va Omonullolardan ajralish Sidqiyga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. 1934 yilda shoir Xondayliqiy qishlog‘idagi Parveztepa mavzesida vafot etdi.

Sidqiy Farg‘ona vodiysiga “Mashhuri davron” Mirzo Hoshim Xo‘jandiydan arab yozuvi turlarini o‘rganib yurgan bir paytda she’r mashq qila boshladi, tarjimlar qiladi. Sidqiy nafaqat shoir balki tarjimon hamdir. U arab xalqining durdongasi asari “Ming bir kecha”ni va mashhur donishmand Shayx Sa’diy Sheroziyning “Bo‘stoni”ni “Unvoni tarjimai Bo‘ston” hamda “Karimo” risolasini “Rahimo tarjimai Karimo”, So‘fi Allayorning “Maslakul muttahiyn” asarini “Sharhi Sirojiddin” tarjimasi “Maslakul muttahiyn”, ikki jildli “Alif laylo” asari va o‘nlab hikoya hamda latifalarni arab va fors tillaridan o‘zbek tiliga tarjimalar qildi.

Sidqiy Xondayliqiy jadidlarning aksariyati kabi yangi usuldagagi maktab ochganligi yoki biror maktabda dars bergenligi haqidagi ma’lumotlarni uchratmadik.

Sidqiyning o‘ninchisi yillarda litografiyada chop etilgan “Bayozi Xaziniy”, “Bayozi Muhallo”, “Armug‘oni Hislat” kabi to‘plamlarda uning “Shavkat”, “Shevon” taxalluslari bilan yozgan hajviya va she’rlari uchraydi.

Sidqiy xalqimiz uchun g‘oyat qiyin bo‘lgan, ijtimoiy-siyosiy hayot g‘oyat murakkablashgan bir davrda yashadi va shunisi diqqatga sazovorki bu jarayonda faol ishtirok ham qildi. Xususan, uning 1916 yilgi mardikorlik voqealariga o‘z munosabatini bildirdi va “Rabochilar namoyishi” asarini yaratdi. Ma’lumki, Rossiyadagi 1917 yil fevral voqealarining natijasida jahon jamoatchiligining

ta'siri, turkistonlik taraqqiyatining talablari bilan o'z yurtlariga qayta boshladilar. Bu voqealarga bag'ishlab Sidqiy Xondayliqiy "Rabochilar qaytishi" asarini yaratdi va tez (1917 yil 19 mart) da bosmadan chiqarildi.

Sidqiy o'lka ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok qiladi. U "Toza hurriyat" asarida (kitob 1917 yil 24 martda boshilgan) Nikolayning taxtdan ag'darilishiri chin dildan qutlaydi. Shu bilan birga hali oldinda qilinadigan ishlar ko'p ekanligini, haqiqiy ozodlik hali kelmaganligini ta'kidlab, she'riy sintaksisda "Bo'ldi!" emas "Bo'lsin!"ni tanlaydi.

1916-1917 yillarda yozilib tezda nashr qilingan bu asarlar xalqimiz milliy ongidagi o'zgarishlarni kuzatishda, mustaqillik va uning uchun kurash g'oyasining adabiyotga, pedagogikaga kirib kelishi tadrijini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

## 2. Sidqiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari

Sidqiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini o'rganishda "Rusiya inqilobi" dostoni yetakchi ahamiyat kasb etadi. Asar 48 betdan iborat bo'lib, 1502 satrni tashkil qiladi, shundan 1430 satr o'zbek, qolgan satrlari esa fors-tojik tilida yozilgan. "Rusiya inqilobi"dagi boblarning biri "Din dushmani-misyo'nerlar firqasining ahvoli badomoli" deb atalgan. Bu bobda 1883-1917 yillarda "Turkiston viloyatining gazetasi"da muharrirlik qilgan, o'lka o'quv-o'qituv idoralarida faoliyat yuritgan, ruslashtirish siyosatining ashaddiy tarafdori, shovinist N.P.Ostroumov (1846-1930) ning nayrang va kirdikorlari fosh etilgan:

Risola aro so'z qilibdur to'lo,  
Tushung'ay eshitsa, oni omi ham.  
Anga la'nat aytgay so'kub dam-badam,  
So'zi bas, o'r(g)umchakni toricha sust.  
Ki, ya'ni sarosar erur nodurst,  
Edi ishlari mangu nayrangu rev.  
Xaloyiqni aldar edi misli dev,  
Xaloyiq ham aldanmadi makrig'a.  
Xudo qilsa elni hidoyat mudom,  
Zalolat sari qayda qilg'ay xirom?!

Islomiy g'oyalar ta'sirida ulg'aygan Sidqiya N.P.Ostroumovning nayranglari, chor hukumatining buzish, ruslashtirish siyosati ma'qul bulmadidi. Bu "siyosat"ning asl ma'nosini muallif payqay oldi va fosh qildi. Din va shariatga qilinayotgan tazyiq, tajovuz qattiq tanqid qilindi. Muallif payqaganidek N.P.Ostoymov kabilarning niyati Markaziy Osiyo xalqlarini

o‘zligini, urf-odat, udum, an’ana va qadriyatlarini anglashga yo‘l qo‘ymaslik edi.

Sirojiddin Sidqiy 1917 yilgi fevral voqealarini xursandchilik bilan kutib olsada natijalardan qoniqmadı. U “Sho‘royi islomiya” jamiyatini qo‘llab quvvatlaydi. Barcha musulmonlarni jamiyat tevaragida bir jon, bir tan bo‘lishini huquq istashga, mustaqillikka da’vat kiladi-ki, bu fikrlar hozir ham dolzarbligini, ahamiyatini yo‘qotmagan. Sidqiyning 1918 yil 18 yanvarida varaq holida chop etilgan “Umidi ittifoq” tarjibandi muhim o‘rin egallaydi. (Mustaqillik uchun kurash tarixida).

Sirojiddin Sidqiy nafaqat she’r, dostonlar yozgan, yoxud tarjimalar bilan shug‘ullangan balki nasriy asarlar ham yozgan. Bu asarlarga “Tazkirai Imomi A’zam”, “Sad irshodi mulla Sidqiy Xondayliqiy”, “Mezoni shariat”, “Zarbulmasali Sidqiy” kabilar yaqqol misol bo‘la oladi. Xondayliqiy asarlarining katta qismi diniy-axloqiy mavzudadir. Bular ichida 1914 yilda chop qilingan “Tazkirai Imomi A’zam” asari yetakchi xususiyat kasb etib, unda islam olamida Imomi A’zam nomi bilan shuhrat qozongan, Sunniy “Hanafiya” mahzabining asoschisi Abu Hanifa an-Nu’mon ibn Sobit (699-700-767) haqida yodnama, tazkira, monoqiblar maydonga kelgan, son-sanoqsiz rivoyatlar saqlanib qolgan.

Xondayliqiyning 1915 va 1917 yillarda 2 marta nashr qilingan “Mezoni shariat” (“Shariat tarozusi”) asari “Kitob ul iymon”, “Kitob ut-tahorat”, “Kitob us-salot”, “Kitob uz-zakot”, “Kitob us-savm”, “Kitob ul-haj” boblaridan iborat. Asardagi boblardan ko‘rinib turibdiki, risola maqsadiga ko‘ra, shariat ilmi bilan tanishtiruvchi, ma’lumot beruvchi xarakterga ega bo‘lib muammo savol-javob tarzida ifodalanadi. Masalan:

Savol: - Iymonning tani nadur?

Javob: - Besh vaqt namozni o‘qimog‘liq turur.

Sharq xalqlari pedagogikasida keng tarqalgan xalq donoligi nomunamunasi pand nasihatlar, hikmatli so‘zlar, maqollar ko‘rinishidagi qaydlardan iborat bulgan “Sad irshodi Mullo Sidqiy Xondayliqiy” (“Mullo Sidqiy Xondayliqiyning yuz nasihati”) asari muhim o‘ringa ega.

Sidqiy Xondayliqiyning nasihatlari asosan axloq-odobga doir. Muallif do‘stlik, ilmgan rag‘bat, kechirimlilik, donishmandlik, hushyorlik, oriyat, adolat, shukr, shafqat va marhamat kabi axloqiy fazilatlarga ta’rifu tavsif beradi. Shu bilan birga zaifliklar, yomon sifatlar ham insonga begona emasligini dalillar bilan isbotlaydi.

Sharq xalqlarida tarjimai holga doir asarlar yozish an'anasi o'zbek fozilu fuzalolariga ham xos bo'lib, bu jihatdan buyuk Navoiyning "Xomsot ul-mutahayyirin", "Holoti Pahlavon Mahmud", "Xoloti Said Hasan Ardasher", Boburning "Boburnoma", Furqatning "Ho'qandlik shoir Zokirjon Furqat" kabilar yetakchi o'ringa davogarlik qilsa, shubhasiz, Xondayliqiyning "Holoti Sidqiy" sining ham o'z o'rni bor. Asar 1924 yilda yozilgan bo'lib, unda bo'lajak shoirning yosh paytida Toshkentga kelgani-yu ona qishlog'iga qaytgan davrlari uchinchi shaxs tilidan bayon qilingan.

O'zbek pedagogikasi va adabiyoti tarixida masal janrida yozilgan asarlar anchagina. Bular ichida zarbulmasal an'anasi ayniqsa diqqatga sazovor. Dastlab Muhammad Sharif Gulxaniy (XVIII-XIX), Nozim Xo'jandiy (1788-1876), Sulaymonqul Rojiy (1871-1824) kabilar "Zarbulmasal"lar yaratdilar. Ma'lumki, Gulxaniy xalq maqollari, matal, masal, rivoyat va hikmatli so'zlarni bir qissaga birlashtirgan bo'lsa, Rojiy ularni barchasini masnaviyda berdi.

Yuqoridagilardan shunday xulosa chiqarish mumki:

Birinchidan, Sidqiy o'lka ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok qilib, bu mavzularda asarlar yozgan.

Ikkinchidan, Xondayliqiy 1917 yilgi fevral voqealarini qo'llab quvvatlagan, lekin natijalardan qoniqmagan. U "Sho'royi islomiya"ni tarafdori bo'lib, mustaqil davlat qurish g'oyasi uchun bir tanu bir jon bo'lib kurashishga chaqirgan.

Uchinchidan, chor Rossiyasining mustamlaka siyosati, mardikorlik, ruslashtirish masalalari hamda Turkistonni bo'lib tashlash rejasiga qarshi bo'lgan, qattiq tanqid ostiga olgan.

### **3. Sirojiddin Sidqiy didaktik merosininig boshlang'ich sinflarda foydalananish imkoniyatlari**

Sirojiddin Sidqiy didaktik merosini o'rganishda "Sad irshod yoxud sad qonun", "Zarbulmasali Sidqiy", "Parokanda ash'or va maktub" asarlari yetakchi ahamiyatga ega.

Sidqiy Vatan, vatanparvarlik haqida boy pedagogik meros qoldirgan bo'lib, buni "Vatan nodir...." she'ri misolida ham ko'rish mumkin:

Vatan nodir, tuqqan yerim, turg'on yerim,  
O'sib-unib, o'ynab-kulib yurg'on yerim.  
Vatan menga haqiqatda qo'ndoq kabi,  
Tarbiyaning negizini qurg'on yerim.  
Ot-eshakda o'rdan-qirdan bug'doy toshib,  
Issiq kunda o'ng'ay, sozlik qo'rg'on yerim.

Qayda bo‘lsam, qayda tursam, qayda yursam,  
Mangu o‘ynar ko‘zda javlon urg‘on yerim....

Sidqiyning didaktik merosida do‘stlik, o‘rtoqlik haqidagi she’r, ibrat va hikoyatlar ko‘p uchraydi. Chunonchi, muallif “Bemuruvvat oshnodin qoch....” deb boshlanuvchi she’rida yozadi:

Ilm o‘rganmoq til arsen, aylag‘il jahdu jadal,  
Toki bo‘lg‘ay mushkulingni barchasi oning-la hal.

Qobil va noqobil kishilarni tarbiya qilish haqida Xondayliqiy fikr bildirib tarbiya kishini tarbiya qilish lozim, noqobilni tarbiya qilmagin. Zero, qobiliyatli bola tarbiya qilmasdan noqobil kishini tarbiya qilish nomardlik, zulmlikdir-deydi.

Sidqiyning ma’rifiy-pedagogik qarashlarini o‘rganishda “Zarbulmasali Sidqiy” asari muhim ahamiyatga ega. “Tubandin yuqori turuvchi narsa nima” ekanligiga javob berib, bilim deydi. Bilim molu-dunyodan yaxshiroq, chunki bilim insonni saqlasa, molni inson saqlaydi. Bilim hokim, mol mahkumdir. Savol-javob tarzida yozilgan bu asarda qimmati oz bo‘lgan kishi kim degan savolga, bilimi oz kishi deb javob berilgan. Har bir yigitning qimmati bilim bilan bo‘lib bunday sharofatli va shifoat narsani boshqa joydan topib bo‘lmaydi.

Muallif, inson ruhini ilm bilan shakllantirilsa odam shafqatli va beta’ma bo‘ladi-degan fikrni ilgari suradi.

Dunyoning barqaror bo‘lishi qilich kuchi va ilm bilan bo‘lishi haqidagi g‘oyalarni biz Amir Temur “Tuzuklar”ida bir necha bora duch kelgan edik. Sidqiy ham bu fikrni qullab-quvvatlaydi va ilgari suradi.

Sidqiy Xondayliqiy ma’rifiy qarashlari buyuk ota-bobolarimiz Abu Nasr Forobi, Beruniy, A.Navoiy, M. Gulxaniylarning kuchli ta’siri borligini ko‘ramiz.

Diniy-axloqiy mazmunda yozilgan “Tazkirai imomi A’zam”da oila tarbiyasi, ayomlar taqdiri va ularni e’zozlash lozimligi alohida bobda bayon etilgan bo‘lib, bu bob “Er birla xotunlar bayonida” deb nomlangan. Bu bobda har kim xotunini izzat qilsa, ani Ollohi Taolo izzat qilur edi degan hadisi sharif berilgan. Ayollarning erlarida besh haqlari bor ekanligi, bular:

xotin ish buyursa uy ichida buyuradi;  
halol taom berish;  
zulm qilmaslik;  
yaxshi so‘z bilan ko‘nglini xursand qilishdir.

Muallif Ayol kishiga xaqrarat va shahvat ko‘zi bilan boqmasdan shafqat va e’tibor bilan qarash lozim, -deydi.

Sirojiddin Sidqiy “Zarbulmasali Sidqiy”da balog‘atga yetgan qizni saqlab turmaslik lozimligi, u yetilgan qovunga o‘xshashini ta’kidlaydi. Sidqiyning fikricha, hayot masalasidagi eng yomon narsa qaytib kelgan qiz bo‘lib, u qayta bostirib kelgan yovga o‘xshatadi.

Muallif asarlarida go‘zal xulq –odobli ayol siyosini chizishga harakat qiladi. Ularni oila tinchligi, obodligi, mustahkamligida juda muhimligini ta’kidlaydi. Sidqiy she’riyatida ayolning ichki va tashqi go‘zalligini ta’riflasa, nasriy asarlarida xulq-odobining go‘zal bo‘lishini ulug‘laydi.

Sidqiyning didaktik merosida yetakchi o‘rinni do‘stlik, o‘rtoqlilik haqidagi g‘oyalar egallaydi. U do‘stlikka ta’rif berib shunday yozadi: “Do‘stlik uldurki, sanga in’om qilg‘ay. Do‘stliqdin oshuqcha ish bo‘ldurki, sanga in’om qilmag‘ay va o‘z haqingni o‘zingg‘a qo‘yg‘ay”. Muallifning fikricha, xolis do‘st shunday bo‘ladiki, suhbatlashgandan xafa bo‘lmaydi, vijdoniylikni unutmaydi. Rost do‘st esa, to‘g‘ri yo‘ldan ozib, noto‘g‘ri yo‘lga kirganingda senga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatadi. Sodiq do‘st esa, aybing bo‘lsa yuzingga aytadi. Siringni bilsa yashiradi. Senga sovg‘a qilsa diliga tutmaydi. Sendan biror foyda ko‘rsa esidan chiqarmaydi. Sendan biror xatolik o‘tsa va senga beadablik ko‘rgan bo‘lsa yuz o‘girmaydi. Uzringni aytsang qabul qiladi. “Zarbulmasali Sidqiy”da muallif yozadi.

Savol: - Do‘stqayu chog‘da bilinur?

Javob: - Musibatda, qarindosh-kambag‘allikda, mehribonliq va bekor qolg‘anindakim, shuning birla martabangni bilurlar.

Do‘stlar har xil bo‘ladi. Buni yangi usul maktabi tarafdarlaridan A.Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq”, Qori Nizomiddin bin mullo Husaynning “Ilmi axloq”, S. Aziziyning “Ustodi avval” kabi asarlarda ko‘plab misollar uchratamiz. Ular bilan bir davrda yashagan Sidqiy “Sad irshod yoxud sad qonun” asarida ham o‘z qarashlarini bildirgan. Uning fikricha, agar birovga do‘st bo‘lmoqchi bo‘lsang avval uni axloqini, jahli chiqqanda o‘zini tutishini o‘rgan. Agar xolis va namunali chiqsa, u bilan do‘st bo‘l. Agar aksi bo‘lsa unga siringni aytma, ko‘p suhbatlashma, u bilan do‘stlik rishtasini bog‘lama, sinamagan kishingni do‘st tutma. Nodon do‘stdan bilimlik dushman yaxshi. Xondayliqiy “Zarbulmasali Sidqiy”da, “do‘stiga ishonib firib yegan tulki nima dedi?” savoliga, javob berib deydi: Ishonmag‘il do‘stingg‘a-somon tiqar po‘sting‘a.

O‘zing‘a puxta bo‘l: aldanma. Sidqiy kissaburlarg‘a-jahonda senga tulkinining so‘zi yanglig‘ o‘gut bormu?

Do'stlikni ehtiyot qilish zarur. Zero do'stdan dushman ham chiqishi mumkin. Ikki o'rtoqning orasidagi xafalik aqcha birla og'ishmoqdan keyin paydo bo'ladi. Dushman kuldirib gapirar, do'st achitib. Bunga o'xhash xalq og'zaki ijodi durdonalaridan Sidqiy unumli tarzda ko'p va xo'p foydalangan. Fikrlarini bildirishda muallif islomiy qadriyatlardan ham foydalangan. Agar Haq taolo xohlasa, do'stlardin ba'zisining izzati pardasining ostida ag'yor nazaridin yoshurun tutqay, zohiran alarni g'anilik va borliq libosi birla yorushg'ay, tok zohirbinlar alarni dunyo talab gumon qilg'aylar, bu sabab birla alarni hollarining jamoli nomahramlar ko'zidin yoshurun qolq'ay:

Sidqiyning fikricha haq taolo uch firqani do'st va yana uch firqani do'stroq tutgay. Xudoning do'stlari: narsa va obid juvonmard tavoze' qiluvchi kishi. Xudo: a) porso yigitni; b) juvonmard faqirni; v) tavoze' qilg'uvchi izzat egalarini do'strog' tutadi.

Xondayliqiy nafaqat Turkiston taqdiri xususida, mustaqillik haqida she'rlar bitgan bolki, o'z qarashlarini ham bildirib shunday degan ko'zga eng yaxshi ko'ringan yer bu tug'ilgan yer ya'ni vatandir. U quyidagi misralarni keltirgan:

Tug'ulg'on yer agarchi kultefa bo'lsun, bo'lur issig',

Ko'rung'ay Sidqi(y)ning qishlog'i ham o'z ko'zig'a gulzor.

Bundan qariyb bir asr oldin har bir xalqning istiqboli, rivoji va taraqqiyotida o'ziga xos urf odat, tili va tarixini bilish, ularga amal qilish orqali bo'lishini muallif ta'kidlagan edi. Bu fikrlar hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Mamlakatni boshqarish qattiqko'llik bilan amalga oshirishi lozim. Buni Sidqiy shunday ta'kidlaydi:

Mamlakat bo'lg'ay siyosat birla obodchilig',

Yo'qsa diqlonlarni har qo'rg'onchada o'g'ri bosar.

Adibning fikricha ozodlik birov tomonidan berilmaydi. Uni chetdan ko'rish besamar ish. Odam bolasining qiymati ozodlik, biror narsani birovdan ko'z tutmaslik, o'z harakati bilan amalga oshirishdir.

Jafokash, tutqun, mustamlaka Turkiston taqdiriga kuyinish Sidqiy she'riyatining o'zagini tashkil qiladi. Yurtimizga qilingan xurujlar, mustamlaka siyosatini xalqqa tushuntiradi, xalqni birlikka chorlaydi, ozodlik uchun kurashga tashviq qiladi.

Adolatli, haq so'z bo'lган shoir xalqni haqiqatchi bo'lishga chorlaydi. Haqiqatni hech bir davrda yashatmaganlar, qo'lu oyog'iga kishan solib zindonga tashlaganlar. Qachonki haqiqat maydonga chiqsa, nohaqlik yer ostiga kiradi.

Sidqiy Xondayliqiyning pedagogik qarashlari asosan axloq-odob, ma’naviy-ma’rifiy masalalariga bag‘ishlangan. Ma’rifatparvarning yuksak axloq mezonlari va ilm-ma’rifatga da’vat qiluvchi qarashlari o‘zbek g‘oyalardan hisoblanadi.

Sidqiy “Ibrat tilsimi” she’rida xalqni ma’rifatga da’vat qilmaslik yomon oqibatlarga olib kelishi haqida yozadi:

Ilm yo‘lig‘a kirmaduk bizlar,  
Ilma elni chaqirmaduk bizlar.  
Fazlimizni oshirmadik bizlar,  
Hech hunarni qidirmadik bizlar.  
Biz aningchun zabunu hayrona,  
Bizg‘a basdur hamisha bo‘lsa o‘yun.  
Sarf etarmiz o‘yun uchun oltun,  
Kelmag‘ay fikrimizg‘a hech funun.  
Kasb aro bizdin o‘tti bas yopun,  
Uchurub kema charxi gardona.

Shoir fikrini davom qildirib, kasb-hunar o‘rganish lozimligi, oq-qorani “o‘ngu so‘l”ni bilish kerakligi, bu hol ikki – uch yil davom etsa, “dahr elig‘a afsona” bo‘lishini ta’kidlaydi. Yoshlar vaqtini o‘yin, bedana, kaklik bilan o‘tkazishlariga sarflayotganlariga afsuslanadi. O‘qishga ishtiyoq kamligidan kuyingan shoir yozadi:

Ko‘broq elda yo‘q ilm o‘qug‘ali tob,  
Shul sabab xalqimiz zabunu xarob,...

Yoki:

Jahl omida yo‘q ilm o‘qurg‘a yurak,  
Kiysa basdur sillig‘ to‘nu telfak.  
Bilmag‘ay nimadur yaqoyu etak,  
Gar desang ilm o‘qu degay: “Ne kerak!”.  
Bil esiz,Sidqiy, so‘zni nedona.

Ulamolar ilmgaga amal qilishlari lozimligi, agar amal qilmasalar din uchun ofat, shariatning sho‘ri ekanligini “Ulamo haqinda” she’rida yozadi va fikrini davom qildirib har yig‘inda millat sha’nini kam o‘ylab “ag‘niyonlarg‘a” xushomadgo‘y bo‘lganlaridan afsuslanadi. Sidqiy haqiqiy ilm kishini shunday ta’riflaydi va pulga dinni sotgan odamni qattiq tanqid qiladi:

Haqiqiy ilmi uldur qo‘rqmayin izhori haq aylar,  
Vale biz aqchag‘a dinni sotqon behamiyatmiz....

Sidqiy 1917 yilgi fevral voqealarini qo'llab quvvatlab, uning natijasi mustaqillikka olib borishi lozimligi to'g'risidagi ijtimoiy-siyosiy qarashlari muhim o'ringa ega bo'lib, xalq ilmli bo'lishi, jaholat ko'chasidan chiqishi lozimligini uqtiradi. Xalqni uyg'onishga chaqiradi:

Endi tur, tezroq yugur, ilmu maorifga qo'l ur,  
Yotma parqu ko'rpada, endi qachon uyg'onasan?  
Tur, turish, ilm ista yotma, o'zgalarni tobakay,  
Qo'l ochib, aylab duo, endi qachon uyg'onasan?

Xondayliqiy uch narsaning "bahosi bo'limg'ay"ligini yozadi, bulardan birinchisi-bahs, munozarasiz va jadalsiz ilm; navbatdagisi-tijoratsiz mol; uchinchisi-siyosatsiz mulk.

Ma'rifatparvar fikrini quyidagi masnaviy bilan to'ldiradi:

Ilm o'rganmoq til arsen, aylag'il jahdu jadal,  
Toki bo'lg'ay mushkulingni barchasi oning-la hal.

Savol: - Ishi qurtlag'an dehqonning dushmani kimdur?  
Javob:-Ishsiz dangasa.

Savol:-Ul nimadurkim, andin hech narsa qutulmayduri?  
Javob:-G'ayrat.

G'ayrati kamdan-yaxshi xotun,  
Undog' odam pechkag'a bo'lsun o'tin.  
Savol:-Yigitning rohati nimada?

Javob:-Ishlab yemoqda.

Shuningdek, Xondayliqiy ibratlar va hikmatlarida yolqovlikni qattiq qoralaydi:

Jahd qil, o'lturma ey, yalqov kishi,  
Kim tutar hamyong'a har kim qilmishi.  
Suv keltirg'aysan olib borsang chelak,  
Osh buyur o'z ----singa, qilg'ay ko'mak.  
O'zgalarga qad egib bo'ysunmag'il,  
Ishlabon mumkin qadar topib yegil....

Yoki, Sidqiyning "Iktisob" asarida ham dangasalik, yolqovlik qoralanadi, mehnat qilish, mehnatsevarlik ulug'lanadi:

Mehnat aylang hamisha, ey o'rtoq,  
Ketmon ushlab qabarturung barmoq.  
Xor qilg'ay kishini yalqovlik,  
Yaramas uyda yalpayib yotmoq.  
Osh yeganlarni luqmasiga qarab,

Tish kirini so‘rub tamoq qoqmoq.  
Yaxshidur bu kabi fano ishdan,  
Mard o‘lub tog‘u cho‘lda qo‘y boqmoq.....  
Sudralib yurma, o‘lmaq‘il bekor,  
Ori, bekordan xudo bezor.  
Ish qilib, non topib yesang, yaxshi,  
Xoh yo‘lg‘a suv sepu qish kura qor.  
Ishlamay yoursang o‘lasan bangi,  
Ko‘knori, qaroqchi, nayrangi.  
Kir bosib, bit bosib libosingni,  
Xor ulursan, ketar yuzung ranggi.

Bunday misollarni Sidqiy merosida ko‘plab uchratish mumkin. Xondayliqiy didaktik merosida sabr, qanoat fazilatlari haqida ham ko‘plab misollar uchraydi. Muallifning fikricha, qorin to‘yduradurgan narsa bu-qanoatdir. Qanoatsizlik yolg‘iz otni ham so‘ydiradi. Topishiga qaramay sarf qiluvchi, musrif kishini Sidqiy xaltasi teshik odamga o‘xshatadi. Xaltaga qanchalik ko‘p narsa solsang ham to‘lmaydi, balki tushib ketaverib hech vaqo qolmaydi. U yozadi:

Savol:-Rohat qaydadur?

Javob:-Rohat yolg‘uzlikda, boylik-qanoatda, tinchlik birovga og‘ir so‘z aytmaslikda.

Sidqiy hikoyatlaridan birida keltirib o‘tadiki: bir itdan so‘rabdilarki, nega sen bor yerg‘a gadoylar kelmaslar. It javob berdiki, men qanoat birla qursoq to‘yg‘uzurman va gadoylar ta’magirlik bila ko‘cha kezarlar. Qissadan-hissa tarzida quyidagi she’r keltirilgan:

Bo‘lsa har kimda qanoat, Sidqiyo,  
Aylag‘ay boricha rohat, Sidqiyo.

Sidqiy juvonmardlik, mardlik fazilatiga tavsif berib yozadi: “Juvonmardliq uldurki, har na yaxshi ish qilsang, Xudodin savob talab qilg‘aysen va ravo ko‘rmag‘aysenki, aning birla seni xalq yod qilg‘aylar va aning uchun seni cho‘ng va katta tutqaylar”.

Sidqiy qaydlari ham juvonmardlik haqidagi g‘oyalarga asoslanadi.

Metodik tavsiyani tayyorlash natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. tadqiqot muammosiga doir mavjud ilmiy-nazariy manbalarni, Sidqiy Xondayliqiy merosini o‘rganish, pedagogika fanining dolzarb vazifalaridan biri ekanligini ko‘rsatdi.

2. Sidqiy Xondayliqiy yaratgan darsliklarining aksariyat qismi axliq odobga doir asarlardan iborat bo'lib, xalqimizning urf-odat, an'ana va qadriyatlarga, shuningdek, Sharq va Evropa pedagoglarining ilg'or g'oyalariga asoslangan.
3. Sidqiy Xondayliqiy darsliklaridagi vatanparvarlik, do'stlik, o'rtoqlik, rostgo'ylik, ota-onas, ustoz va qavmu qarindoshlarga hurmat, ilmu ma'rifatlilik, shafqat va marhamat kabi axliqiy fazilatlar haqidagi badiiy matnlar o'quvchilarini axloqiy tarbiyalashda keng imkoniyatlarga, katta ta'sir kuchiga ega

#### **10-Mavzu: Boshlang'ich sinf darsliklarida jadidlar merosidan foydalanish holati**

Reja:

1. Boshlang'ich sinf darsliklarida jadidlar merosidan o'tgan asrning boshlaridan 30-yillarning ikkinchi yarmigacha bo'lgan davrda foydalanish holati.
2. Mustaqillik yillarida boshlang'ich sinf darsliklarida jadidlar merosidan foydalanish holati.

**Tayanch tushunchalar:** Boshlang'ich sinf darsliklari, jadidlar, meros, asr, Mustaqillik yillari, holat.

#### **1. Boshlang'ich sinf darsliklarida jadidlar merosidan o'tgan asrning boshlaridan 30-yillarning ikkinchi yarmigacha bo'lgan davrda foydalanish holati.**

Yangi usul maktabi tarafdarlarining asarlarini boshlang'ich ta'lim amaliyotida qo'llash va boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy tarbiyalashda ulardan foydalanishning tarixiy taraqqiyotini quyidagi davrlarga bo'lish mumkin:

Birinchi davr – asrimiz boshlaridan 30-yillarning ikkinchi yarmigacha. Bu davrni ham shartli ravishda 3 ga bo'lish mumkin:

a) 1900-1917 yillar. Bu davrda jadid ma'rifatparvarlar o'zbek pedagogikasi va metodikasi tarixida muhim o'ringa ega bo'lgan yuzdan ortiq pedagogik, ayniqsa, axloqiy-ta'limiy asarlar yozdilar. Bu asarlar o'sha davrdagi boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy tarbiyalashda muhim qo'llanma va darsliklar bo'lib xizmat qildi. Turkiston kelajagi bo'lgan yosh avlodni axloq-odobli qilib tarbiyalashda dasturilamal bo'lib xizmat qildi.

b) 1917-1930 yillar. Bu davrda yangi usuldagagi maktablar tugatildi. Bu maktablar uchun yozilgan ta'limiy-axloqiy darsliklar nashr qilinmay qoldi. Shunga qaramasdan Munavvarqori Abdurashidxonov va Shokirjon Rahimiylar o'zbek tili va adabiyoti hamda alifbe darsliklarini yozdilar. Shuni alohida ta'kidlab

o‘tish joizki, aksariyat yangi usul maktabi tarafdorlari 1917 yilgi Oktabr voqealari xalqqa ozodlik va erk beradi, xalqni ilmli, bilimli qilishga imkoniyat yaratadi deb o‘ylagan orzulari chilparchin bo‘lganligini ko‘p o‘tmay angladilar. v) 1930-1937 yillar O‘zbekiston uchun g‘oyat og‘ir va ayanchli yillar bo‘lib, pedagogika tarixi sahifalarida ham yozib qoldirilishi shubhasizdir. Bu davrda aksariyat yangi usul maktabi tarafdorlari qatag‘on qilindi. Ularning adabiy, badiiy-pedagogik merosi qattiq tanqid ostiga olindi. Maktab va maorif tizimida ulardan foydalanishga, darsliklarga kiritishga yo‘l qo‘yilmadi. Bunga amal qilmagan o‘qituvchilarga qattiq jazo choralar ko‘rildi.

Ikkinci davr – 1937-1991 yillarni o‘z ichiga olib, ta’lim-tarbiya jarayoni butunlay kommunistik mafkura tazyiqi ostiga olindi. Ta’lim-tarbiyani ruslashtirishga asosiy e’tibor berildi. Bu davrda yangi usul maktabi tarafdorlaridan H.H.Niyoziy, Sadriddin Ayniy va Abdulla Avloniylarning pedagogik faoliyati va ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlari bir tomonlama o‘rganildi. Lekin yangi usul maktabi tarafdorlarining pedagogik, ayniqsa, axloqiy tarbiyaga doir merosidan boshlang‘ich sinflarda foydalanish imkoniyatlari, yo‘l, usul va shakllari ko‘rsatib berilmadi. Darsliklarda, chunonchi, boshlang‘ich sinf darsliklarida ulardan ijodiy ravishda foydalanimadi.

## **2.Mustaqillik yillarida boshlang‘ich sinf darsliklarida jadidlar merosidan foydalanish holati.**

Uchinchi davr – 1991 yildan-hozirgi kungacha bo‘lgan vaqtini o‘z ichiga olib, respublikamizning mustaqillikka erishishi ko‘plab sohalarda bo‘lgani kabi uzluksiz ta’lim tizimida ham tub o‘zgarishlarni amalga oshirish davri bo‘ldi. Bu davrni shartli ravishda, yangi usul maktabi tarafdorlarining pedagogik merosidan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda foydalanilishiga qarab ikki bosqichga bo‘lish mumkin:

I bosqich – 1991-1996 yillarni o‘z ichiga olib, bu davrda ma’rifatparvarlarning asarlari, dastlab oliy o‘quv yurtlari, keyinroq esa maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar, boshlang‘ich sinflar uchun chiqarilgan o‘quv dasturlari va darsliklarga, o‘quv qo‘llanmalarga kiritilishini quyidagi rasmda ko‘rish mumkin:

Mualliflar	Darsliklar	Darslikka kiritilgan asar (badiiy matn) nomi
<b>Кирилл алифбоси асосида тузилган дарсликлар: (1991-1997 йиллар)</b>		
1. Қ.Абдулаева	“Алифбе” 1-синф учун дарслик	Жадидларнинг педагогик меросидан намуна берилмаган
2. Қ.Абдулаева	“Ўқиши” 1-синф учун дарслик	Жадидларнинг педагогик меросидан намуна берилмаган

3. Тузувчилар: Қ.Абдуллаева, М.Юсупова, М.Махмудова ва М.Мавлонова	“Ўқиши” 2-синф учун дарслик	Жадидларнинг педагогик меросидан намуна берилмаган
4. Тузувчилар: Т.Ашрапова, А.Ҳотамов, С.Саъдуллаева	“Ўқиши китоби” 3-синф учун дарслик	Жадидларнинг педагогик меросидан намуна берилмаган
5. Тузувчилар: А.Шожалилов, Г.Тошматова, С.Матжонов	“Ўқиши китоби” 4-синф учун дарслик	Жадидларнинг педагогик меросидан намуна берилмаган
6. Тузувчилар: У.Нурмуҳаммедов Б.Турдиев, Т.Абдуллаева	“Синфдан ўқиши” I-IV ташқари синклар учун дарслик	Абдулла Авлоний “Ҳаё”, “Итоат”, “Қаноат”, “Иқтисод”, “Олиҳиммат”, “Сабр”, “Интизом”, “Виждон”
Lotin yozuvi asosida tuzilgan darsliklar: (1996-2021 yillar).		
1. T.G'afforova, E.Shodmonov, G.Eshturdiyeva	“Alifbe”(“Savod”) I-sinf uchun darslik	Abdulla Avloniydan: “Qanoat”, , “Ittifoq”, “Javlon-aqlli bola”; S.Aziziy: “Aqlli bola”

2. Tuzuvchilar: T.G'afforova, E.Shodmonov, G.Eshturdiyeva	“Ona tili” va “O’qish” I-sinf uchun darslik	Abdulla Avloniydan: “Maqtanchoq g’oz”, “Taqsim”
3. O.Sharafiddinov, Q.Abdullayeva, G.Eshturdiyeva	“Alifbe” (“Shodlik”) I-sinf uchun darslik (2007 й)	Abdulla Avloniy: “Otalar so’zi-aqlning ko’zi”
4. Tuzuvchilar: Q.Abdullayeva, M.Yusupov, M.Maxmudova, M.Mavlonova	“O’qish kitobi” 2-sinf uchun darlsik	Jadidlarning pedagogik merosidan namuna berilmagan
5. Tuzuvchi: M.Umarova	“O’qish kitobi” 3-sinf uchun darslik	Abdulla Avloniydan: “Vatanni suymak”, “Vatan haqida she’r”, “Ilm”, “Sabr”, “Ochko’zlik”, “Yaxshi-lik yerda qolmas”
6. Safarova R., Inoyatova	“Alifbe”(“Savod”) I-sinf	S.Aziziy: “Yaxshi

M., Shokirova M.	uchun darslik	bola”, “Dangasa bilan g’ayratli”
7. Tuzuvchilar: T.G’afforova, E.Shodmonov, G.Eshturdiyeva	“O’qish kitobil-sinf uchun darlsik.	Abdulla Avloniy: “Taqsim”, “Soqi bilan onasi”, “Maqtanchoq g’oz”,
8. Tuzuvchilar: Q.Abdullayeva, M.Yusupov, M.Maxmudova, Raxmonbekova S.	“O’qish kitobi”(“Bilim bulog’i”) 2-sinf uchun darlsik. 7-nashr.	Usmon Nosir: “Yur , tog’larga”, “Elbek”, “Momaguldurak”; “Aziz insonlar xotirasi”
9. Tuzuvchilar: Umarova M., Xakimova Sh.	“O’qish kitobi 3-sinf uchun darlsik. 7-nashr.	Abdulla Avloniy: “Vatanni suymak”, “Vatan haqida she’r”, “Yaxshilik yerda qolmas”, “Yoz”; Cho’lpon: “ko’klam yomg’iri”, H.H.Niyoziy: “Otamiz”, “Onamiz”, Abdulli Qodiriy: “Chin do’st”, “Gulzorda”; Elbek “Chumoli bilan chivin”,
10. Tuzuvchilar: Matchonov S., Shojalilov A., G’ulomova X.	“O’qish kitobi” 4-sinf uchun darlsik.	Munavvarqori Abdurashidxonov: “Har kim ekkanin o’rar”
11.Tuzuvchilar: G’afforova T. E. Shodmonov, G. Eshturdiyeva	“O’qish kitobi” 1-sinf uchun darlsik.(2019 y.)	Abdulla Avloniy: “Aqlli qarg‘a”, “Maqtanchoq g’oz”
12.Tuzuvchilar: G’afforova T. Nurullayeva Sh. Mirzahakimova Z.	“O’qish kitobi” 2-sinf uchun darlsik.(2018 y.)	Abdulla Avloniy: “Ilm”
13. Tuzuvchilar: Umarova M. Xamrakulova X. Tojiboyeva R.	“O’qish kitobi” 3-sinf uchun darlsik.(2019 y.)	Abdulla Avloniy: “Bolari bilan pashsha”
14. Tuzuvchilar: Matchonov S., Shojalilov A., G’ulomova X., Sariyev Sh.,	“O’qish kitobi” 4-sinf uchun darlsik.(2020 y.)	Jadidlarning pedagogik merosidan namuna berilmagan

Dolimov Z.		
Sinfdan tashqari o'qish darsliklari:		
1. Tuzuvchilar: V.Ma'qulova, T.Adashboyev	"Kitobim-oftobim" 1-sinf uchun darslik	Abdulla Avloniy: "Maqtanchoq g'oz"
2. Tuzuvchilar: V.Ma'qulova, S.Matjonov	"Kitobim-oftobim" 2-sinf uchun darslik	Jadidlarning pedagogik merosidan namuna berilmagan
"Odobnama", "Tarbiya" darsliklari:		
1. Abdullayeva Q. Yusupova M. Raxmonbekova S.	2-sinf uchun darslik	S.Aziziy: "Shogirdlik odobi"
2. Hasanboyeva O., Ne'matova A., Turopova M.	3-sinf uchun darslik	Abdulla Avloniy: "Bolari ila pashsha", "Vatan"; "Vatan tuyg'usi va milliy g'urur bilan yashagan bolalar"
3. Hasanboyeva O., Ne'matova A., Ibragimova G.	4-sinf uchun darslik	Abdulla Avloniy: "Yaxshilik yerda qolmas", "Ittifoq"; "Yamonliq jazosi"; "Shaxidlar xotirasi unutilmaydi", "Istiqlol bergan buyuk ne'matlar"
4. Ismatova Nargiza va b.,	"Tarbiya" 1-sinf o'quvchilari uchun Darslik	Jadidlarning pedagogik merosidan namuna berilmagan
5. Ismatova Nargiza va b.,	"Tarbiya" 2-sinf o'quvchilari uchun Darslik	Jadidlarning pedagogik merosidan namuna berilmagan
6. Ismatova Nargiza va b.,	"Tarbiya" 3-sinf o'quvchilari uchun Darslik	Jadidlarning pedagogik merosidan namuna berilmagan
7. Ismatova Nargiza va b.,	"Tarbiya" 4-sinf o'quvchilari uchun Darslik	Jadidlarning pedagogik merosidan namuna berilmagan

### **Rasm. 1.1. Yangi usul maktabi tarafdarlarining pedagogik merosidan boshlang'ich sinflarning darsliklariga kiritilishi**

II bosqich – 1991 yildan 2021 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, bu davrda lotin alifbosi asosida darsliklar yaratildi va bu darsliklarda yangi usul maktabi tarafdarlarining pedagogik asarlaridan ma'lum miqdorda foydalanila boshlandi. Chunonchi, T.G'afforova, E.Shodmonov, G.Eshturdiyevalar tomonidan

yozilgan “Alifbe” (“Savod”) darsligida Abdulla Avloniyning “Qanoat”, “Ittifoq”, “Javlon aqli bola” va Saidrasul Aziziyning “Aqli bola” hikoyalaridan parchalar kiritilgan; 1-sinf uchun T.G'afforova, E.Shodmonov va G.Eshturdiyevalar tuzgan “O'qish kitobi” darsligida Abdulla Avloniyning “Maqtanchoq g'oz”, “Taqsim” hikoyalari; Saidrasul Aziziyning “Odobli bola”, “Beodob” va “Odob” hikoyalaridan namunalar berilgan. Q.Abdullayeva, M.Yusupova, M.Mahmudova va M.Mavlonovalar tomonidan tuzilgan 2-sinf uchun “O'qish kitobi” darsligida yangi usul maktabi tarafdarlarining pedagogik, ayniqsa, axloqiy tarbiyaga doir asarlaridan birorta ham namuna berilmaganligini afsuslanarli holdir. M.Umarova tomonidan tuzilgan “O'qish kitobi” 3-sinf uchun darsligida Abdulla Avloniyning “Vatanni suymak”, “Vatan haqida she'r”, “Ilm”, “Sabr”, “Ochko'zlik”, “Yaxshilik yerda qolmas” kabi hikoyalaridan namunalar berilgan. Sinfdan tashqari o'qish darsliklarida yangi usul maktabi tarafdarlarining pedagogik asarlaridan namunalar kiritilishi hozir ham qoniqarli ahvolda deya olmaymiz. Chunonchi, B.Ma'qulova va T.Adashboyev tomonidan tuzilgan 1-sinf uchun “Kitobim-oftobim” darsligida faqat Abdulla Avloniyning “Maqtanchoq g'oz” hikoyasi kiritilgan bo'sa, 2-sinf uchun “Kitobim-oftobim” darslgida birorta ham namuna kiritilmagan.

Yuqorida keltirilganlardan ko'rinib turganidek, 2002 yilgacha bo'lgan davrda boshlang'ich sinf darsliklarida faqat Abdulla Avloniyning pedagogik asarlaridan ma'lum miqdorda namunalar berilgan xolos. T.G'afforova, E.Shodmonov, G.Eshturdiyevalarning “Alifbe” (“Savod”) darsligidagi “Aqli bola” hikoyasini muallifi yozilmagan bo'lsada, bu hikoya Saidrasul Aziziyning «Ustozi avval» darsligidan olingan. Shuningdek, shu darslikning 47-betida “Qanoat” hikoyasi berilgan. Bu hikoya muallifi ham aniq ko'rsatilmagan.

T.G'afforova, E.Shodmonov, G.Eshturdiyevalarning 2007 yilda nashr qilingan 1-sinf uchun «O'qish kitobi» darsligiga A.Avloniyning «Taqsim», «Soqi bilan onasi», «Maqtanchoq g'oz» hikoyatlari kiritilgan.

T.G'afforova, E.Shodmonov, G.Eshturdiyevalarning 2019 yilda nashr qilingan 1-sinf uchun «O'qish kitobi» darsligini o'n beshinchi nashrida A.Avloniyning «Aqli qarg'a», «Maqtanchoq g'oz» hikoyatlari kiritilgan.

R.Safarova, M.Inoyatova, M.Shokirova va boshqalar tomonidan nashr qilingan «Alifbe» darsligining 54-betida «Dangasa bilan g'ayratli» va 60-betda «Yaxshi bola» hikoyalarida S.Aziziyning «Ustozi avval» darsligining «Odobli bola» va «Yaxshi bola» hikoyatlaridan foydalanilganligi seziladi.

Q.Abdullayeva, M.Yusupova, S.Raxmonbekovalar tomonidan 2-sinf uchun chiqarilgan «Odobnama» darsligining 17-betida «Shogirdlik odobi» mavzusi berilgan, bu matnda S.Aziziyning «Ustozi avval» asaridagi «Yaxshi bola» hikoyati ta'siri seziladi.

Q. Abdullayeva, M.Yusupov, M.Mahmudova, S.Rahmonbekovalar tomonidan 2-sinf uchun nashr qilingan «O'qish kitobi» (Bilim bulog'i) darsligining 17-betida Usmon Nosirning «Yurt, tog'larga» she'ri hamda 111-112-betlarda «Aziz insonlar xotirasi» hikoyasida jadid namoyondalari Abdulla Qodiriy, Fitrat,

Usmon Nosir, Cho‘lpon kabi ma’rifatparvarlar hamda «Shahidlar xiyoboni» haqida ma’lumotlar berilgan. Darslikning 161-betida esa Elbekning «Momoguldurak» she’ri keltirilgan.

2018 yilgi 2-sinf uchun G‘afforova T., Nurullayeva Sh., Z. Mirzahakimovalar tomonidan tuzilgan “O‘qish kitobi” 4-nashrini 33-betida Abdulla Avloniyning “Ilm” hikoyasi berilgan.

3-sinf uchun M.Umarova va Sh.Hakimovalar tomonidan tayyorlangan “O‘qish kitobi”da 12-13-betlarida A.Avloniyning «Vatanni suymak», 16-betda «Vatan haqida she’r», 161-betda Cho‘lponning «Ko‘klam yomg‘iri» she’ri, 180-181-betlarda esa H.H. Niyoziyning «Otamiz» va «Onamiz» she’rlari, 194-196-betlarda A.Qodiriyning «Chin do‘sit» hikoyasi, 201-betda Elbekning «Chumoli bilan chivin» she’ri, 210-211-betlarda A.Avloniyning «Yaxshilik yerda qolmas» hikoyasi berilgan. Shuningdek, darslikning 221-222-betlarida A.Avloniyning «Yoz» she’ri, 227-betda esa A.Qodiriyning «Gulzorda» hikoyasi berilgan.

2019 yilda Umarova M., Xamrakulova X., R. Tojiboyevalar tomonidan tayyorlangan 3-sinf uchun “O‘qish kitobi”ning 4-nashridagi 120-betida Abdulla Avloniynining “Bolari va pashsha” hikoyati berilgan.

2020 yilda Matchonov S., Shojalilov A., G‘ulomova X., Sariyev Sh., Z. Dolimovlar tomonidan tayyorlangan 4-sinf uchun “O‘qish kitobi”ning 6-nashrida afsuski jadidlarning pedagogik merosidan namuna berilmagan.

O.Hasanboyeva, A.Ne’matova, M.Turopovalarning 3-sinf uchun nashr qilingan “Odobnama” darsligining 39-40-betlarida A.Avloniyning «Bolari va pashsha» hikoyati keltirilgan. 60-62-betlarda esa «Vatan tuyg‘usi va milliy g‘urur bilan yashagan bolalar» hikoyasida A.Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Behbudiy, Munavvarqori, Elbek, Usmon Nosirlar Vatan ozodligi, erki yo‘lida kurashib, qurban bo‘lganliklari, ularning pok nomlari mustaqillik tufayli oqlanganligi va o‘zbek xalqi bu vatandoshlarini hech qachon unutmasligi bayon qilingan. Darslikning 62-63-betlarida esa A.Avloniyning «Vatan» she’ri berilgan.

S.Matchonov, A.Shojalilov, X.G‘ulomovalarning 4-sinf uchun “O‘qish kitobi” da Munavvarqori Abdurashidxonovning «Har kim ekkanini o‘rar» she’ri keltirilgan.

O.Hasanboyeva, A.Ne’matova, G.Ibragimovalarning 4-sinf uchun nashr qilingan “Odobnama” darsligida «Shahidlar xotirasi unutilmaydi» mavzusida jadid namoyondalari haqida ma’lumotlar berilgan. «Istiqlol bergen buyuk ne’matlar» matnida jadid ma’rifatparvarlari A.Qodiriy, A.Fitrat, A. Cho‘lpon, M. Behbudiy, U.Nosir kabi milliy-ozodlik harakati namoyondalarining nomlari tiklanganligi, «Barhayot siymolar» bo‘limida esa A.Avloniyning hayoti, pedagogik merosi haqida ma’lumotlar hamda «Ittifoq» va «Yamonliq jazosi» hikoyatlari keltirilgan.

2020 yil Ismatova Nargiza, Ro‘ziyeva Dilnoz, Islomov Zohidjon, Rahimjonov Durbek, Sattorov Shuhrat, Zamonov Zokir, Mahmudov Obiddin, Zokirova Sevara, Madaliyeva Sevara, Shermuhamedova Saodat, Akkulova Saodat, Mo‘minova Laylo, Xolmuhamedova Nilufarlar tomonidan 1-sinf

o‘quvchilari uchun “Tarbiya” darsligining 1-nashrini muqovasida ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir” –degan fikrlari bilan boshlangan. Ammo jadid ma’rifatpavarlarini ijodidian namuna berilmagan. Shu holni 2-; 3-; 4-sinflarning “Tarbiya” darsliklarida ham ko‘rishimiz, jadidlarning pedagogik merosidan foydalanilmaganligi afsuslanarli hol. Tarbiya darsliging boshlang‘ich sinflar uchun chop etilgan darsliklarida jadidlarning hayoti, faoliyati va ijodidian birorta ham namuna bermalmagan.

Mustaqillik sharofati bilan axloq va odob ilmiga, ma’naviyat masalalariga jiddiy e’tibor berilmoqda. Ta’lim to‘g‘risidagi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi mustaqil yurtimizga komil, barkamol shaxslarni yetishtirib berish vazifasini kun tartibiga qo‘ydi. Mazkur hujjatlarni hayotga tadbiq etish maqsadida 1998-1999 o‘quv yilidan boshlab umumta’lim maktablarining I-IV sinflarida tajriba sifatida “Odobnama” fani bo‘yicha umumta’lim maktablari uchun sinov dasturi O.Hasanboyeva, O.To‘rayeva, T.Qurbanov, M.Turopova, A.Ne’matovalar tomonidan tayyorlandi. Dasturda xalqimizning urf-odat, an’ana va qadriyatlaridan o‘zbek xalq pedagogikasi va ma’rifatparvar pedagoglarning asarlaridan ma’lum miqdorda foydalanilgan. Dasturda bir qator juz’iy xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgan, chalkashliklar ham uchraydi. Chunonchi 3-sinf uchun tuzilgan reja va dasturdagi “Istiqlol tamoyillari” mavzusini bir soatda o‘tish juda qiyin bo‘lsa, ba’zi hollarda tavsiya qilingan adabiyotlar ro‘yxati takrorlanib keladi. I-IV sinflar uchun tuzilgan bu sinov dasturida ikki marotaba Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari tavsiya etilgan bo‘lsa-da, boshqa biror mavzuda yangi usul maktabi tarafdarlarining pedagogik asarlaridan foydalanish tavsiya qilinmagan. Dasturda “Bobolar o‘gitlari”, “Oila muqaddas dargoh”, “Bilim – aql bulog‘i”, “Saxiylik va baxillik”, “Farzand burchi” kabi bo‘limlarda yangi usul maktabi tarafdarlarining pedagogik merosidan keng ko‘lamda foydalanish imkoniyatlari mavjud bo‘lsada, tavsiya qilingan adabiyotlar ro‘yxatida bu holni ko‘rmaysiz.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” qaror qabul qildi. Bu qarorda umumiy o‘rta ta’lim davlat ta’lim standartlarining tayanch o‘quv rejasi ham ko‘rsatilgan bo‘lib, bu o‘quv rejaga ko‘ra “ma’naviyat” alohida ta’lim sohasi sifatida ko‘rsatilish, unga ko‘ra I-IV sinflarda – Odobnama; V-VI sinflarda – “Vatan tuyg‘usi”; VII-IX sinflarda “Ma’naviyat asoslari” fanlari o‘qitiladigan bo‘ldi. Bu o‘quv reja avvalgilardan tubdan farq qilib, jahon andozalariga javob bera oladigan qilib tuzilganligi bilan ajralib turadi.

I-IV sinflarda “Inson va jamiyat” ta’lim sohasi berilgan bo‘lib, bu sohada o‘quvchilarning tayrgarlik darajasiga qo‘yiladigan majburiy minimal talablar ko‘rsatilgan. Insonning moddiy va ma’naviy ehtiyojiga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlari shart bo‘lgan talablar quyidagicha ko‘rsatilgan:

Vatan tushunchasi haqida bilimga ega bo‘lish;

davlat tushunchasi, davlatning ramziy belgilarini, ona-Vatan tuyg‘usini anglash; O‘zbekiston aholisi va milliy tarbiyani bilish; mamlakat hayotidagi buyuk sanalarni bilish; axloq va kiyinish meyorlarini bilish va hokazo.

Ma’lumki, davlat ta’lim standartlari boshlang‘ich ta’lim mazmuniga hamda sifatiga qo‘yiladigan talablarni ham belgilaydi.

Respublikamizning yetakchi pedagog olimlari Q.A.Abdullayeva, R.F.Safarova, M.O.Ochilov, K.N.Nazarov, N.U.Bikboyeva, M.A.Zaynitdinovalar tomonidan “Boshlang‘ich ta’lim konsepsiysi” ishlab chiqildi. Bu konsepsiya milliy kadrlar tayyorlash tizimining poydevori hisoblangan hamda psixologik asoslarini o‘zida birlashtirgan yaxlit qarashlar tizimidan iborat bo‘lib, konsepsiyaning asosini boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashning pedagogik yo‘nalishlari tashkil qiladi.

Demak, yangidan yaratilayotgan, nashr qilinayotgan darsliklarda Ta’lim to‘g‘risidagi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, shuningdek, davlat ta’lim standartlari, “Boshlang‘ich ta’lim konsepsiysi” alohida e’tiborga olinishi, bunda, shubhasiz, yangi usukl mактabi тараfdorlarining pedagogik, ayniqsa, axloqiy tarbiyaga doir asarlari inobatga olinishi diqqatga sazovordir.

Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkin:  
asrimizning boshlaridan 1917 yilga qadar jadid ma’rifatparvar-pedagoglari ko‘plab darsliklar, ayniqsa, axloqiy-ta’limiy asarlar yozganlar va bu asarlardan Turkiston yoshlarini axloqiy tarbiyalashda keng ko‘lamda foydalanilgan;  
Sovet hukumati jadidlarni qattiq tazyiq, tanqid va hattoki qatag‘on qilganlar, maktab darsliklarida ularning pedagogik asarlaridan namunalar berishga yo‘l qo‘yilmagan;  
respublikamizda lotin alifbosi asosidagi darsliklarda Abdulla Avloniy, Munavvarqori, Cho‘lpon, Elbek, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy va Saidrasul Aziziylarning asarlaridan namunalar kiritilgan bo‘lsada, bu juda kam bo‘lib, hozirgi davr talabi va ehtiyojiga to‘la javob bera olmaydi.

# **AMALIY MASHG‘ULOTLAR**

## **1-mavzu: I.Gaspirinskiyning pedagogik ta’limotidan boshlang‘ich sinflarda foydalanish.**

Reja:

Kirish.

1. I.Gaspirinskiyning hayot yo‘li va ma’rifatparvarlik faoliyati.
2. I.Gaspirinskiy va Turkiston jadidlari hamkorligi.
3. Adabiy ertaliklarda I.Gaspirinskiyning pedagogik ta’limotidan foydalanish.Tadbir dasturi va loyihasini tuzish.

Xulosa.

### **Tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: “O‘zbekiston” -2017 yil.14 yanvar.104 bet.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: “O‘zbekiston” 2016
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va loijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: “O‘zbekiston” 2017 486 bet
4. Gaspirinskiy I. Hayot va mamot masalasi. Tanlangan asarlar. – T.: «Ma’naviyat», 2006.
5. Turdiyev Sh. Gaspirinskiy va Turkiston. «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasi, 1991, 15 mart.
6. Qosimov B. Ismoilbek G‘aspirali. /O‘zbegin. To‘plam. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1992, 142-201-betlar.
7. Qosimov B. Milliy uyg‘onish.
8. G‘afurov S. Ismoilbek G‘aspirali. «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasi, 1991, 5 mart.
9. Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Homidov H. Pedagogika tarixi: O‘quv qo‘llanma.- T.: O‘qituvchi, 1997, 143-149-betlar.
10. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1996, 254-259-betlar.

## **2-mavzu: Boshlang‘ich sinf “Tarbiya” darslarida I.Gaspirinskiyning pedagogik merosidan foydalanish.**

Reja:

Kirish.

I.Gaspirinskiyning pedagogik qarashlari.

I.Gaspirinskiy g‘oyalaring pedagogika taraqqiyotidagi o‘rni.

“Tarbiya” darslarida I.Gaspirinskiyning pedagogik merosidan foydalanib dars ishlamasini tayyorlash.

Xulosa.

Tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: “O‘zbekiston” -2017 yil.14 yanvar.104 bet.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birqalikda barpo etamiz. T.: “O‘zbekiston” 2016
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va loijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: “O‘zbekiston” 2017 486 bet
4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q./ Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T.7. – T.: O‘zbekiston, 1999, 136-bet.
5. Karimov I.A. Xotira chirog‘i o‘chmaydi. / Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T.7. – T.: O‘zbekiston, 1999, 407-409-betlar.
6. Gaspirinskiy I. Hayot va mamot masalasi. Tanlangan asarlar. – T.: «Ma’naviyat», 2006.
7. Turdiyev Sh. Gaspirinskiy va Turkiston. «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasi, 1991, 15 mart.
8. Qosimov B. Ismoilbek G‘aspirali. /O‘zbegim. To‘plam. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1992, 142-201-betlar.
9. Qosimov B. Milliy uyg‘onish.
10. G‘afurov S. Ismoilbek G‘aspirali. «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasi, 1991, 5 mart.
11. Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Homidov H. Pedagogika tarixi: O‘quv qo‘llanma.- T.: O‘qituvchi, 1997, 143-149-betlar.
12. Hoshimov K., Nishanova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1996, 254-259-betlar

### **3-mavzu: S.Aziziyning pedagogik merosidan tarbiyaviy ishlarda foydalanish.**

Reja:

Kirish.

Saidrasul Aziziyayot va pedagogik faoliyati.

«Ustodi avval» - o'zbek tilidagi to'ng'ich alifbo.

Sinf tarbiyaviy soatlarida «Ustodi avval»dan foydalanish imkoniyatlari. Dars ishlanmalarin tayyorlash.

«Ustodi avval» - muhim tarbiyaviy manba» mavzusida ertalik dastur va tafsilotini tuzish, tajribada sinab ko'rish.

Xulosa.

#### **Tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: "O'zbekiston" -2017 yil.14 yanvar.104 bet.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. T.: "O'zbekiston" 2016
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va loijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: "O'zbekiston" 2017 486 bet
4. Abdullayev Y. O'rta Osiyoda birinchi o'zbek maktab alifbe kitobi. «Boshlang'ich ta'lif» jurnali, 1992, 1-son, 6-11-betlar.
5. Pedagogika tarixidan xrestomatiya: Pedagogika oliy bilimgohlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. (Tuzuvchi-muallif: Hasanboyeva O.) – T.: O'qituvchi, 1993, 103-106-betlar.
6. Qosimov B., Dolimov U. Ma'rifat darg'alari. – T.: O'qituvchi, 1990.
7. Qosimov B. Milliy uyg'onish.- T.: Ma'naviyat, 2004.
8. Hamroyev Sh. Boshlang'ich sinflarda axloqiy tarbiyaga doir adabiy kechalar o'tkazish. (O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma).- Qarshi, «Nasaf» nashriyoti, 1999.
9. Hamroyev Sh. Maktablarda ertaliklarni tashkil etish va o'tkazish. «Xalq ta'lifi» jurnali, 2000, 3-son, 101-103-betlar.
10. Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Homidov H. Pedagogika tarixi: O'quv qo'llanma.- T.: O'qituvchi, 1997, 140-143-betlar.
11. Hoji Mu'in. O'zbekcha alifbolar tarixi. «Boshlang'ich ta'lif» jurnali, 1992, 5-6-qo'shma son, 37-39-betlar.

#### **4-mavzu: Boshlang‘ich sinflarda M.Behbudiyning pedagogik ta’limotidan foydalanish.**

Reja:

Kirish.

1. M.Behbudiyning hayoti va pedagogik faoliyati.
2. M.Behbudiyning pedagogik asarlar.
3. M.Behbudiyning ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlari.
4. Boshlang‘ich sinflarda M.Behbudiyl asarlaridan foydalanish imkoniyatlari.
5. «Behbudiyl – Turkiston jadidlarining otasi» mavzusida suhbat rejasxemasini tuzish, amaliyotda sinab ko‘rish.

#### **Tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro‘yxati:**

Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: “O‘zbekiston” -2017 yil.14 yanvar.104 bet.

Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: “O‘zbekiston” 2016

Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va loijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: “O‘zbekiston” 2017 486 bet

Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q./ Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T.7. – T.: O‘zbekiston, 1999, 132-137-betlar.

Karimov I.A. Xotira chirog‘i o‘chmaydi. / Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T.7. – T.: O‘zbekiston, 1999, 407-409-betlar.

Zunnunov A., Xayrullayev M., To‘xliyev B., Hotamov N. Pedagogika tarixi. – T.: Sharq, 2000.

Mahmudxo‘ja Behbudiyl. Tanlangan asarlar.- T.: Ma’naviyat, 1998.

Pedagogika tarixidan xrestomatiya: Pedagogika oliv bilimgohlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. (Tuzuvchi-muallif: Hasanboyeva O.) – T.: O‘qituvchi, 1993, 111-118-betlar.

O‘zbek pedagogikasi antologiyasi: Ikki jildlik. J.1. (Tuzuvchi-mualliflar: Hoshimov K., Ochil S. Tahrir hay’ati: Xayrullayev M. va b.) – T.: O‘qituvchi, 1995, 447-455-betlar.

O‘zbek pedagogikasi tarixi: Oliy o‘quv yurtlari uchun qo‘llanma (A.Zunnunovning umumiy tahriri ostida; (Tuzuvchi-muallif: Zunnunov A.)- T.: O‘qituvchi, 1997, 182-194-betlar.

O‘rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. – T.: «Fan», 1996, 241-255-betlar.

Qosimov B., Dolimov U. Ma’rifat darg‘alari. – T.: O‘qituvchi, 1990.

Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Homidov H. Pedagogika tarixi: O‘quv qo‘llanma.- T.: O‘qituvchi, 1997, 161-166-betlar.

Hoshimov K., Nishanova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1996, 259-264 betlar.

## **5-mavzu: Munavvarqori Abdurashidxonovning ta’limiy-axloqiy qarashlaridan boshlang‘ich sinflarda foydalanish.**

Reja:

Kirish.

M.Q.Abdurashidxon o‘g‘lining hayoti va pedagogik faoliyati.

Munavvar Qorining darsliklari.

Boshlang‘ich sinflarda Munavvar Qorining pedagogik merosidan foydalanish imkoniyatlari.

«Munavar Qorining pedagogik merosi» mavzusidagi adabiy ertalik dasturi va tafsilotini tuzish, amaliyatda sinovdan o‘tkazish.

Xulosa.

### **Tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: “O‘zbekiston” -2017 yil.14 yanvar.104 bet.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. T.: “O‘zbekiston” 2016
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va loijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: “O‘zbekiston” 2017 486 bet
4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q./ Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T.7. – T.: O‘zbekiston, 1999, 132-140-betlar.
5. Karimov I.A. Xotira chirog‘i o‘chmaydi. / Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T.7. – T.: O‘zbekiston, 1999, 407-409-betlar.
6. Zunnunov A., Xayrullayev M., To‘xliyev B., Hotamov N. Pedagogika tarixi. – T.: Sharq, 2000, 146-149-betlar.
7. Qosimov B. Milliy uyg‘onish.- T.: Ma’naviyat, 2004.
8. Hamroyev Sh. Boshlang‘ich sinflarda axloqiy tarbiyaga doir adabiy kechalar o‘tkazish. (O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma).- Qarshi, «Nasaf» nashriyoti, 1999.
9. Hamroyev Sh. Boshlang‘ich sinflarda Munavvar Qori Abdurashidxon o‘g‘lining pedagogik merosidan foydalanish. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma.- Qarshi, «Nasaf» nashriyoti, 2007.
10. Hamroyev Sh. Oz-oz o‘rganmak ila. «Boshlang‘ich ta’lim» jurnali, 1998, 6-son, 10-11-betlar.
11. Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Homidov H. Pedagogika tarixi: O‘quv qo‘llanma.- T.: O‘qituvchi, 1997, 149-153-betlar.
12. Hoshimov K., Nishanova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1996, 264-267-betlar.

## **6-mavzu: A.Avloniyning ta’limiy-axloqiy qarashlaridan tarbiyaviy ishlarda foydalanish.**

Reja:

Kirish.

1. A.Avloniyning hayoti va pedagogik faoliyati.
2. A.Avloni darsliklari.
3. A.Avloniyning ta’limiy-axloqiy qarashlari.
4. Amaliyatda A.Avloni asarlaridan foydalanish holati.
5. Boshlang‘ich sinflarda A.Avloni asarlaridan amaliyatda foydalanish imkoniyatlari.
6. «Turkiy guliston yoxud axloq» asaridan foydalanib mashg‘ulot loyihasini (1 soat uchun) tuzish.

Xulosa.

Tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro‘yxati:

Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: “O‘zbekiston” -2017 yil.14 yanvar.104 bet.

Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: “O‘zbekiston” 2016

Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va loijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: “O‘zbekiston” 2017 486 bet

Qarimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat qilsin. /Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T.7.- T.: O‘zbekiston, 93-94-betlar.

Avloniy A. Toshkent tongi. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1979.

Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: O‘qituvchi, 1992.

Avloniy A. Tanlangan asarlar. I jild.- T.: Ma’naviyat, 1998.

Avloniy A. Tanlangan asarlar. II jild.- T.: Ma’naviyat, 1998.

Barkamol avlod orzusi.- T.: Sharq, 1999, 39-40-betlar.

O‘zbek pedagogikasi tarixi: Oliy o‘quv yurtlari uchun qo‘llanma. (A.Zunnunovning umumiyl tahriri ostida; (Tuzuvchi-muallif: Zunnunov A.) – T.: O‘qituvchi, 1997, 200-206-betlar.

Qosimov B., Dolimov U. Ma’rifat darg‘alari. – T.: O‘qituvchi, 1990.

Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Homidov H. Pedagogika tarixi: O‘quv qo‘llanma.- T.: O‘qituvchi, 1997, 178-183-betlar.

Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1996, 264-267-betlar.

## **7-mavzu: A.Fitratning pedagogik merosining tarbiyaviy imkoniyatlari.**

Reja:

Kirish.

1. A.Fitratning hayoti va pedagogik faoliyati.
2. A.Fitrat ta'lim-tarbiya haqida.
3. A.Fitrat asarlaridan amaliyatda foydalanish holati.
4. Boshlang'ich sinflarda A.Fitrat ijodidan foydalanish imkoniyatlari.
5. «A.Fitrat axloq-odob to‘g‘risida» mavzusida adabiy kecha dasturi va tafsilotini tuzish.

Xulosa.

Tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro‘yxati:

Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: “O‘zbekiston” -2017 yil.14 yanvar.104 bet.

Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: “O‘zbekiston” 2016

Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va loijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: “O‘zbekiston” 2017 486 bet

Abdurauf Fitrat. Oila.- T.: Ma’naviyat, 2000.

Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. I jild.- T.: Ma’naviyat, 2000.

Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. II jild.- T.: Ma’naviyat, 2000.

Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. III jild.- T.: Ma’naviyat, 2000.

Abdurauf Fitrat. Chin sevish.- T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1996.

Boltaboyev X. Noma'lum Fitrat. – T.: «Yoshlik» jurnali, 1990, 4-son.

Zunnunov A., Xayrullayev M., To‘xliyev B., Hotamov N. Pedagogika tarixi. – T.: Sharq, 2000, 144-146-betlar.

Yo‘ldoshev N. «Rahbari najot» asarida bola tarbiyasi masalalari. «Xalq maorifi» jurnali, 1993, 3-4-qo‘shma sonlar, 1-3-betlar.

O‘rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. – T.: «Fan», 1996, 255-262-betlar.

Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Homidov H. Pedagogika tarixi: O‘quv qo‘llanma.- T.: O‘qituvchi, 1997, 153-161-betlar.

Hoshimov K., Nishanova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1996, 307-321-betlar.

## **8-mavzu: H.H.Niyoziyning pedagogik merosidan amaliyotda foydalanish.**

Reja:

Kirish.

1. Hamzaning hayoti va pedagogik faoliyati.
2. H.H.Niyoziy darsliklari.
3. H.H.Niyoziy asarlaridan boshlang‘ich sinflarda foydalanish imkoniyatlari va amaliyotdagi holati.
4. «Hamza Hakimzoda Niyoziyning pedagogik merosi» mavzusida insholar ko‘rik-tanlovini tashkil qilish va o‘tkazish, uning tahlili.

Xulosa.

Tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro‘yxati:

Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: “O‘zbekiston” -2017 yil.14 yanvar.104 bet.

Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. T.: “O‘zbekiston” 2016

Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va loijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: “O‘zbekiston” 2017 486 bet

Zunnunov A., Xayrullayev M., To‘xliyev B., Hotamov N. Pedagogika tarixi. – T.: Sharq, 2000, 155-160-betlar.

Mirtursunov Z.F. H.H.Niyoziyning xalq maorifi va tarbiya haqidagi fikrlari.- T. 1961.

Pedagogika tarixidan xrestomatiya: Pedagogika oliv bilimgohlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. (Tuzuvchi-muallif: Hasanboyeva O.) – T.: O‘qituvchi, 1993, 145-151-betlar.

O‘rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. – T.: «Fan», 1996, 262-268-betlar.

O‘zbek pedagogikasi tarixi: Oliy o‘quv yurtlari uchun qo‘llanma. (A.Zunnunovning umumiylahiri ostida; (Tuzuvchi-muallif: Zunnunov A.) – T.: O‘qituvchi, 1997, 194-200-betlar.

Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Homidov H. Pedagogika tarixi: O‘quv qo‘llanma.- T.: O‘qituvchi, 1997, 173-178-betlar.

Hamza. To‘la asarlar to‘plami. 2-tom. – T.: «Fan», 1988.

Hoshimov K., Nishanova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1996, 321-326-betlar.

## **9-mavzu: O‘quvchilarni oilada axloqiy tarbiyalada jadidlarning pedagogik merosidan foydalanish.**

Reja:

Kirish.

- 1.Axloqiy tarbiya haqida Sharq mutafakkirlarining ta’limoti.
- 2.Oilada insonparvarlik tarbiyasini berishdajadidlarning pedagogik merosidan foydalanish imkoniyatlari.
- 3.Jadid ma’rifatparvarlari vatanparvarlik tarbiyasi haqida.
- 4.Axloqiy tarbiyada maktab va oilaning hamkorligi mavzusida davra suhbatini ishlanmasini tayyorlash.

Xulosa.

### **Tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro‘yxati:**

Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: “O‘zbekiston” -2017 yil.14 yanvar.104 bet.

Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. T.: “O‘zbekiston” 2016

Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va loijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: “O‘zbekiston” 2017 486 bet

Karimov I.A. Istiqlol va ma’naviyat. – T., 1995.

Barkamol avlod orzusi. – T.: Sharq, 1998.

Munavvarov A. Oila pedagogikasi.- T.: “O‘qituvchi”, 1994.

Munavvarov A. Pedagogika.- T., 1996.

9 .Choriyev A. Tarbiyaning metodologik asosi. – Qarshi, «Nasaf ziyosi», 2004

## **10-mavzu: O‘qish darslarida A. Avloniy va M. Abdurashidxonovning merosidan foydalanish**

Reja:

Kirish.

1. O‘qish darslarida jadidlar merosidan foydalanish holati.
2. O‘qish darslarida A. Avloniy hamda M. Abdurashidxonovning she’r va hikoyalaridan foydalanish imkoniyatlari.
3. O‘qish darslarida A. Avloniy va M. Abdurashidxonovning pedagogik merosidan foydalanib dars loyihibarini tuzish.
4. Xulosa

Tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro‘yxati:

Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: “O‘zbekiston” -2017 yil.14 yanvar.104 bet.

Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birlashtirishda barpo etamiz. T.: “O‘zbekiston” 2016

Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va loijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: “O‘zbekiston” 2017 486 bet

Avloniy A. Toshkent tongi. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1979.

Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: O‘qituvchi, 1992.

Avloniy A. Tanlangan asarlar. I jild.- T.: Ma’naviyat, 1998.

Avloniy A. Tanlangan asarlar. II jild.- T.: Ma’naviyat, 1998.

Barkamol avlod orzusi.- T.: Sharq, 1999, 39-40-betlar.

O‘zbek pedagogikasi tarixi: Oliy o‘quv yurtlari uchun qo‘llanma. (A.Zunnunovning umumiyligi tahriri ostida; (Tuzuvchi-muallif: Zunnunov A.) – T.: O‘qituvchi, 1997, 200-206-betlar.

Qosimov B., Dolimov U. Ma’rifat darg‘alari. – T.: O‘qituvchi, 1990.

Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Homidov H. Pedagogika tarixi: O‘quv qo‘llanma.- T.: O‘qituvchi, 1997, 178-183-betlar.

Hoshimov K., Nishanova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1996, 264-267-betlar

## **11-mavzu: Sinfdan tashqari o‘qish darslarida S. Aziziy va H. H. Niyoziyning merosidan foydalanish jarayoni.**

Reja:

Kirish.

1. Sinfdan tashqari o‘qish darslarida S. Aziziy va H. H. Niyoziyning merosidan foydalanish holati.
2. Sinfdan tashqari o‘qish darslarida S. Aziziy va H. H. Niyoziyning she’r va hikoyalaridan foydalanish imkoniyatlari.
3. Sinfdan tashqari o‘qish darslarida S. Aziziy va H. H. Niyoziyning pedagogik merosidan foydalanib dars loyihalarini tuzish.
4. Xulosa

Tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro‘yxati:

Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: “O‘zbekiston” -2017 yil.14 yanvar.104 bet.

Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. T.: “O‘zbekiston” 2016

Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va loijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: “O‘zbekiston” 2017 486 bet

Zunnunov A., Xayrullayev M., To‘xliyev B., Hotamov N. Pedagogika tarixi. – T.: Sharq, 2000, 155-160-betlar.

Mirtursunov Z.F. H.H.Niyoziyning xalq maorifi va tarbiya haqidagi fikrlari.- T. 1961.

Pedagogika tarixidan xrestomatiya: Pedagogika oliv bilimgohlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. (Tuzuvchi-muallif: Hasanboyeva O.) – T.: O‘qituvchi, 1993, 145-151-betlar.

O‘rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. – T.: «Fan», 1996, 262-268-betlar.

O‘zbek pedagogikasi tarixi: Oliy o‘quv yurtlari uchun qo‘llanma. (A.Zunnunovning umumiylahri ostida; (Tuzuvchi-muallif: Zunnunov A.) – T.: O‘qituvchi, 1997, 194-200-betlar.

Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Homidov H. Pedagogika tarixi: O‘quv qo‘llanma.- T.: O‘qituvchi, 1997, 173-178-betlar.

Hamza. To‘la asarlar to‘plami. 2-tom. – T.: «Fan», 1988.

Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1996, 321-326-betlar.

## **12-mavzu: Sinfdan tashqari ishlar jarayonida jadidlarning pedagogik merosidan foydalanish jarayoni.**

Reja:

Kirish

1. Sinfdan tashqari tadbirdarda S. Aziziy va H. H. Niyoziyning merosidan foydalanish holati.
2. Sinfdan tashqari ishlar jarayonida jadidlarning she'r va hikoyalaridan foydalanish imkoniyatlari.
3. Sinfdan tashqari ishlar jarayonida jadidlarning pedagogik merosidan foydalanib tadbir loyihalarini tuzish.

1. Jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik merosida milliy g'oyaning vatanparvarlik, insonparvarlik asoslari.
2. O'quvchilarda milliy g'oya haqida tushuncha tarkib toptirish mazmuni va metodlari.
3. Fanlarni o'qitish jarayonida milliy g'oyani tarkib toptirishning shaklari va usullari.
4. Milliy g'oyani o'quvchilar qalbiga singdirishda jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik merosidan foydalanib tadbir dastur jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik merosidan foydalanishi va tafsilotini tayyorlash.

Xulosa.

Tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.- T. "O'zbekiston", 1992.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: "O'zbekiston" -2017 yil.14 yanvar.104 bet.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birligida barpo etamiz. T.: "O'zbekiston" 2016
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va loijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: "O'zbekiston" 2017 486 bet
5. Karimov I.A. "Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori". T.: 1997.
6. Karimov I.A. "Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat qilsin.- T.: "O'zbekiston", 1998.
7. Karimov I.A. O'zbekiston - buyuk kelajak sari. – T.: O'zbekiston, 1992.
8. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. – T., 1995.
9. Barkamol avlod orzusi. – T.: Sharq, 1998.
10. Choriyev A. Tarbiyaning metodologik asosi. – Qarshi, «Nasaf ziyosi», 2004.

# MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

	Mustaqil ta'lism mavzulari	Dars soatlari hajmi
<b>I semestr</b>		
1	O'zbekiston Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning jadid ma'rifatparvarlari haqidagi fikrlari-metodologik asos sifatida.	4
2	Milliy g'oyani o'quvchilar qalbiga singdirishda jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik merosidan foydalanish.	4
3.	Jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik merosida milliy g'oyaning vatanparvarlik, insonparvarlik asoslari.	4
4.	Milliy g'oyani o'quvchilar qalbiga singdirishda jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik merosidan foydalanish.(Tadbir dastur va tafsilotini tayyorlash.)	4
5.	Jadidlarning pedagogik merosi assosida o'quvchilarda milliy g'oya haqida tushuncha tarkib toptirish mazmuni va vositalarii.	4
6.	Jadidlarning pedagogik merosi vositasida fanlarni o'qitish jarayonida milliy g'oyani tarkib toptirishning shaklari va usullari	4
7.	Boshlang'ich sinf darsliklarida jadidlar merosidan foydalanish holati.	4
8.	Abduqodir Shakuriyning peagik qarashlari.	4
9	Saidahmad Siddiqiyning pedagogik merosidan boshlang'ich sinflarda foydalanish imkoniyatlari.	4
10.	Fayzulla Xo'jayevning jadidchilik harakati rivojida tutgan o'rni.	4
11.	Akmal Ikromov va jadidchilik.	4
12.	Boshlang'ich sinflarda S. Ayniyuning pedagogik merosidan foydalanish.	4
13.	Ajziyning pedagogik merosi.	4
14	O'zbek pedagogikasida jadidlar ta'lilotining tutgan o'rni	4
15	Professor B. Qosimovning jadidshunoslik sohasidagi ilmiy-pedagogik merosi.	4
<b>Jami:</b>		<b>60</b>

# GLOSSARIY

<b>№</b>	<b>O'ZBEKCHA</b>	<b>RUSCHA</b>	<b>ИНГЛИЗСНА</b>
1.	<b>Savol</b>	<b>Вопрос</b>	<b>Күэстион</b>
	Yechilishi lozim bo'lgan masala	Задача, требующая практического решений.	Task that requires practical solutions.
2.	<b>Sezgi</b>	<b>Чувство</b>	<b>Sense, feyeling, sensation</b>
	Bu atrof-olamdagи (tevarak-atrofdagi) mod-diy dunyonи, narsa za hodisalarning inson ongida aks etishidir.	Состояние, в котором человек способен сознавать окружающее, владеть своими душевными и физическими способностями.	The state in which man is capable to recognize their environment, their own mental and physical abilities.
3.	<b>Sezish</b>	<b>Осязание</b>	<b>Sense of touch</b>
	Sezish deb atrofdagi narsa-hodisalarning sezgi a'zolarimizga bevosita ta'sir etishi natijasida ularning ayrim belgixususiyatlarining miyamizga ta'sir etishga aytildi	Vospriyatiye oshusheniy, poluchayemix pri prikosnovenii razlichnix tverdix ili jidkix tel k koje i slizistim obolochkam.	The perception of sensations, received the touch of different solid or liquid substances to the skin and mucous membranes.
4.	<b>Tajriba</b>	<b>Опит</b>	<b>Experience</b>
	Voqelikni amaliy jihatdan hissiy-emperik bilish jarayoni. Tajriba keng ma'noda o'quv, malaka va bilimlarning birligidan iborat.	Otrajeniye v chelovecheskom soznanii zakonov obyektivnogo mira i obshestvennoy praktiki, poluchennoye v rezultate aktivnogo prakticheskogo poznaniY.	Reflected in human consciousness of the laws of the objective world and social practice, the resulting active practical knowledge.
5.	<b>Tanqidiy fikrlash</b>	<b>Kriticheskoye mishleniye</b>	<b>Critical thinking</b>
	Bu axborotlarni o'zlashti-	Slojnyi protsess	The complex process

	rishdan boshlanadigan va xulosa chiqarish bilsh tugallanadigan murakkab o'ylash jarayoni.	usvoyeniya informasiyi i zaklyucheniya	of assimilation of information and opinions
6.	<b>Tasavvur</b>	<b>Predstavleniye</b>	<b>Representation</b>
	Bo'lgan va bo'limgan voqealari inson ko'zi ochiq va yopiq holda ham o'z tasavvurida bo'ladigan jarayon hisoblanadi.	Konkretniy obraz predmeta ili yavleniya, kotoriy v danniy moment neposredstvenno ne vosprinimayetsya, a lish vosproizvoditsya v soznanii.	The concrete image of an object or phenomenon, which is currently not directly perceived, but only played in the mind.
7.	<b>Tafakkur</b>	<b>Mishleniye</b>	<b>Thinking</b>
	Insoniyatning necha ming yillik tarixiy rivojla-nishi davrida ijodkorlik jarayoni bilan bog'liq holda hosil qilinib borilgan va erishilgan oliy va aqliy ne'matdir.	Sposobnost cheloveka mislit, rassujdat, delat umozaklyucheniya; visshaya stupen chelovecheskogo poznaniya, protsessa otrajeniya obektivnoy deystvitelnosti.	A person's ability to think, reason, make inferences, the highest stage of human cognition, the process of reflection of objective reality.
8.	<b>Ta'lim</b>	<b>Обучение</b>	<b>Education</b>
	Shaxsning jismoniy va ma'naviy kamol topish jarayoni, uning ongли ravishda ayrim ibratli faoliyatlarga yo'nalishi va tarixan maydonga kelib, ijtimoiy namuna bo'lishga har tomonlama barkamollikka intilish jarayoni tushuniladi.	Процесс получений физической и духовной зрелости, стремление ко всесторонней гармоничности	The process of obtaining the physical and spiritual maturity, commitment to a comprehensive harmoniously
9.	<b>Ta'lim berish</b>	<b>Обучат</b>	<b>Train</b>
	(TB) - ta'lim oluvchining intellek-tual salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan pedagogik faoliyati bo'lib, u insonning aqliy faoliyatini ri-vojlantirish jarayonidir.	Педагогическая деятельность, направленная на развитие интеллектуальной способности	Educational activities aimed at the development of intellectual abilities

10.	<b>Taqqoslash</b>	<b>Сравнение</b>	<b>Comparison</b>
	Bilish obyekti hisoblangan narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlik yoki farqlarni, aniqlashdan iborat aqliy operatsiya	Образное выражение, в котором одно явление, предмет, либо уподобляется другому.	A figure of speech in which one phenomenon, the subject, the person is likened to another.
11.	<b>Test</b>	<b>Тест</b>	<b>Test</b>
	(inglizcha - sinash) biror-bir faoliyatni bajarish uchun ma’lum darajadagi bilimni egallashga qaratilgan topshiriqlar	Задание, по результатам выполнения которого можно судить о способностях, об уровне умственного развития	The job on the results of which can be judged on ability, the level of mental development
12.	<b>Idrok</b>	<b>Разум</b>	<b>Mentality</b>
	Tirik organizmning ma’lumotlar qabul qilib, qayta ishslash jarayoni; organizmga obektiv reallikning aks ettirish va tashqi olamdagi yangidan-yangi vaziyatlarni baholab, shunga yarasha harakat qilish imkonini beradi.	Высшая степень познавательной деятельности человека, способность логически и творчески мыслить, обобщать результаты познаний.	The highest level of human cognitive activity, the ability to think creatively and logically, to generalize the results of knowledge.
13.	<b>Idrok etish</b>	<b>Постижение</b>	<b>Comprehension</b>
	Bu tushunchaning shakllanish jarayoni. YA’ni noma’lum bo‘lgan narsani ma’lum bo‘lgan narsa bilan boglash va shu asosda ta’lim oluvchilarda ma’lum bo‘lgan ma’lumotlarni kengaytirish.	Процесс уяснение, осмысление, осознание.	The process of clarification, understanding, awareness.
14.	<b>Ijodiyot</b>	<b>Творчество</b>	<b>Creative work</b>
	Inson aql-zakovatining barcha ijobiy sifatlarini	Действенность человека, направленная на	Human activities are aimed at creating a

	o‘zida mujassamlashtirgan, yangilik yaratish bilan bog‘liq bo‘lgan alohida faollik va mustaqil faoliyat turi.	создание культурных или материальных сенности при помощи воплощений в цех положительных качеств.	cultural and material values with the embodiment of all good qualities.
15.	<b>Ijodiy yondashuv</b>	<b>Творческий подход</b>	<b>Creativity</b>
	(IYO) — bu pedagogikada zamonaviy yo‘nalish bo‘lib, u ta’lim oluvchilarning muammolarini hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat bo‘lib, mustaqil ravishda qaralayotgan faoliyatning yangi yo‘nalishlarini topishga undash jarayonidir.	Современный подход в педагогике, деятельность направленная на развитие способностей для решения проблем обучающихся	The modern approach to teaching, the activities aimed at developing skills for solving problems of students
16.	<b>Ilmiy tadqiqot</b>	<b>Научное исследование</b>	<b>Research study</b>
	Yangi bilimlar va nazariyalarni aniqlash jarayoni	Процесс определения новых знаний и теорий	The process of identifying new knowledge and theories
1.	<b>Kitob</b>	<b>Книга</b>	<b>A book</b>
	Axborotlarni, g‘oya, obraz va bilimlarni saqlash hamda tarqatish, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy estetik qarashlarni shakllantirish vositasi; bilimlarni targ‘iboti va tarbiya quroli; badiiy va ilmiy asar hamda ijtimoiy adabiyot.	Средство хранения и распространения информации, идеи, образа и знаний; инструмент передачи знаний и воспитания; художественное и научное произведение и социальная литература	Means of storing and disseminating information, ideas, images and knowledge tool of knowledge transfer and training, artistic and scientific work of literature and social
2.	<b>«Klaster» (Tarmoqlar) metodi</b>	<b>Метод «Кластера»</b>	<b>The Method Of «Cluster»</b>
	Tarbiyalanuvchilarini mantiqiy fikrlashga, umumiyl fikr doirasini	Метод обучающий учеников логическому мышлению,	The method of teaching students logical thinking,

	kengaytirishga, atamalar, tushunchalar va voqealarning bir-biri bilan bog‘liqchigini anglab olishga o‘rgatuvchi metod hisoblanadi	расширению области общего мышления, постижению обединений терминов, понятий и событий	expand areas of common thinking, comprehension of association of terms, concepts and events
3.	<b>Komil inson</b>	<b>Идеалний человек</b>	<b>Perfect person</b>
	Inson aqliy takomillashuvi bosqichlaridan biri.	Один из ступеней развитий человеческого разума	One of the stages of development of the human mind
4.	<b>Kuzatish</b>	<b>Наблюдение</b>	<b>Observation</b>
	Bu ilmiy bilimga tegishli ijodiy faoliyat bo‘lib, u ilmiy bilishdagi amaliy metodlardan biridir.	Один из практических методов, творческая деятельность, относящаяся к научным знаниям	One of the practices, creative activities related to scientific knowledge
5.	<b>Ko‘nikma</b>	<b>Навик</b>	<b>Habit</b>
	1) Insonning ilgarigi tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyati.	Способность осуществления конкретной деятельности или действий, основанная на приобретённом опыте	The ability to perform specific activities or actions based on lessons learned
17.	<b>Qobiliyat</b>	<b>Талант</b>	<b>The talent</b>
	Bu insonning biror bir xususiyatining o‘zигина emas, balki shaxs faoliyatining talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko‘rsatkichlarga erishishni ta’minlashga imkoniyat beradigan xususiyatlar sintezidan iboratdir.	Видающиеся природные способности человека, позволяющие достичь высоких достижений в обществе	Outstanding natural human ability, allowing to reach high achievements in the community
18.	<b>Tushuncha</b>	<b>Понятие</b>	<b>Conception</b>
	Bu narsa va hodisalarning umumiy (xususiy) muhim belgi va xususiyatlarini ifodalovchi fikr (ba’zan	Совокупность взглядов на что-либо. Уровень понимания чего-либо.	The set of views on anything. The level of understanding of anything.

	fikrlar) – tafakkur shakli		
19.	<b>Faoliyat</b>	<b>Дейателност</b>	<b>Activity</b>
	1) Biror narsani aniqlash uchun biror narsa qilish xohishi (jarayon) 2) Kishining moddiy va ma’naviy ne’matlar yaratish borasidagi hamda shaxsiy va ijtimoiy sohadagi ma’lum bir maqsad sari qiladigan xattiharakatlar majmuasidir.	1) Занятие какой-либо работой для определения чего-либо 2) Специфическая активность человека по познанию и преобразованию окружающей действительности.	1) The occupation of any work to determine anything 2) The specific activity of human understanding and transforming reality.
20.	<b>Fikr</b>	<b>Мисл</b>	<b>Thought</b>
	Tushuncha, bilim, ong, aql, maslak	Убеждения, взгляды, возврений.	Beliefs, attitudes, beliefs.
21.	<b>Fikrlash</b>	<b>Мислит</b>	<b>Think</b>
	Bu har xil muammo va masalalarni yechishga yo‘naltirilgan faoliyat.	Мислителний процесс, отражающий объективную действительность в понятиях, суждениях, умозаключениях; мышление.	The thought process that reflects the objective reality in concepts, judgment, reasoning, thinking.
22.	<b>Xarakter</b>	<b>Характер</b>	<b>Character</b>
	Tarbiyalanuvchi yoki talaba xulqi yoki axloqida namoyon bo‘ladigan va unda odattusiga kirib qolgan eng muhim ruhiy holatlar	Совокупность психических особенностей, которые определяют личность человека и проявляются в его поведении.	The set of mental characteristics that define the identity of the person and manifest in his behavior.
23.	<b>Qobiliyat</b>	<b>Талант</b>	<b>The talent</b>
	Bu insonning biror bir xususiyatining o‘zigina emas, balki shaxs faoliyatining talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko‘rsatkichlarga	Видающиеся природные способности человека, позволяющие достичь высоких достижений в обществе	Outstanding natural human ability, allowing to reach high achievements in the community

	erishishni ta'minlashga imkoniyat beradigan xususiyatlar sintezidan iboratdir.		
	<b>Tushuncha</b>	<b>Понятие</b>	<b>Conception</b>
	Bu narsa va hodisalarning umumiyligi (xususiy) muhim belgi va xususiyatlarini ifodalovchi fikr (ba'zan fikrlar) – tafakkur shakli	Совокупность взглядов на что-либо. Уровень понимания чего-либо.	The set of views on anything. The level of understanding of anything.
24.	<b>Faoliyat</b>	<b>Действенность</b>	<b>Activity</b>
	3) Biror narsani aniqlash uchun biror narsa qilish xohishi (jarayon) 4) Kishining moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratish borasidagi hamda shaxsiy va ijtimoiy sohadagi ma'lum bir maqsad sari qiladigan xattiharakatlar majmuasidir.	1) Занятие какой-либо работой для определения чего-либо 2) Специфическая активность человека по познанию и преобразованию окружающей действительности.	1) The occupation of any work to determine anything 2) The specific activity of human understanding and transforming reality.
25.	<b>Fikr</b>	<b>Мисл</b>	<b>Thought</b>
	Tushuncha, bilim, ong, aql, maslak	Убеждения, взгляды, возврений.	Beliefs, attitudes, beliefs.
26.	<b>Fikrlash</b>	<b>Мислит</b>	<b>Think</b>
	Bu har xil muammo va masalalarni yechishga yo'naltirilgan faoliyat.	Мислителний процесс, отражающий объективную действительность в понятиях, суждениях, умозаключениях; мишление.	The thought process that reflects the objective reality in concepts, judgment, reasoning, thinking.

# ILOVALAR

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**Ro'yxatga olindi:**

Nº \_\_\_\_\_  
“\_\_” \_\_\_\_ 2022 \_\_ yil

**“TASDIQLAYMAN”**

\_\_\_\_\_  
“\_\_” \_\_\_\_ 2022 \_\_ yil

**JADID PEDAGOGIKASI**

**FAN DASTURI**

**Ta'limgan sohasi:** 100 000 – Ta'limgan

**Bilim sohasi:** 110 000 – Ta'limgan

**Ta'limgan yo'nalishi:** 70110101 – Pedagogika nazariyasi va tarixi

**Shahrisabz-2022**

<b>Fan/modulkodi</b> <b>JP 2304</b>	<b>O‘quv yili</b> <b>2022-2023</b>	<b>Semestr</b> <b>3</b>	<b>YeCTS- Kreditlar</b> <b>4</b>	
<b>Fan/modul turi</b> Tanlov	<b>Ta’lim tili</b> O‘zbek/rus		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 4	
1.	<b>Fan nomi</b>	<b>Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta’lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	Jadid pedagogikasi	60	60	120
<p style="text-align: center;"><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p><b>Fanni o‘qitishdan maqsad</b> – Magistrlarga Turkistonda ma’rifatparvarlik harakati tarixi, Turkistonlik jadidlarning boshlang‘ich sinflar uchun yozgan darsliklari, Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti va pedagogik faoliyati, Munavvar qori Abdurashidxonovning ijtimoiy – pedagogik faoliyati, Saidrasul Aziziyning hayoti va pedagogik faoliyati. Saidrasul Aziziyning hayoti va pedagogik faoliyati, boshlang‘ich sinflarda Isoqxon Ibratning pedagogik merosidan foydalanish, Saidrasul Aziziyning hayoti va pedagogik faoliyati, H.H.Niyoziyning pedagogik merosidan amaliyotda foydalanish, Sirojiddin Sidqiy Xondayliqiyuning hayoti, faoliyati va medagogik merosi, boshlang‘ich sinf darsliklarida jadidlar merosidan foydalanish holati o‘zlashtirgan nazariy va amaliy bilimlarini ta’lim va tarbiya berishda tadbiq etishga tayyorlash, pedagogik amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish.</p> <p><b>Fanni o‘qitishning vazifasi</b> - Magistrlarga Turkistonda ma’rifatparvarlik harakati tarixi, Turkistonlik jadidlarning boshlang‘ich sinflar uchun yozgan darsliklari, Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti va pedagogik faoliyati, Munavvarqori Abdurashidxonovning ijtimoiy – pedagogik faoliyati, Saidrasul Aziziyning hayoti va pedagogik faoliyati. Saidrasul Aziziyning hayoti va pedagogik faoliyati, boshlang‘ich sinflarda Isoqxon Ibratning pedagogik merosidan foydalanish, Saidrasul Aziziyning hayoti va pedagogik faoliyati, H.H.Niyoziyning pedagogik merosidan amaliyotda foydalanish, Sirojiddin Sidqiy Xondayliqiyuning hayoti, faoliyati va pedagogik merosi, boshlang‘ich sinf darsliklarida jadidlar merosidan foydalanish holati “Jadid pedagogikasi” fanidan o‘zlashtirgan nazariy va amaliy bilimlari baquvvat, ruhan tetik, aqliy tomonidan yetuk barkamol avlodni tarbiyalashga yordam berishdan iborat.</p> <p style="text-align: center;"><b>II. Asosiy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p style="text-align: center;"><b>1-mavzu: Turkistonda ma’rifatparvarlik harakati tarixi</b></p> <p>Jadid ma’rifatparvarlarining pedagogik merosini o‘rganish-dolzarb ijtimoiy muammo sifatida.Turkistonda jadid ma’rifatparvarligini vujudga</p>				

kelishi tarixi. Jadidlarning ma'rifatparvarlik sohasida amalga oshirgan ishlari.

## **2-mavzu: Turkistonlik jadidlarning boshlang'ich sinflar uchun yozgan darsliklari**

I.Gasprinskiy jadid darsliklarining asoschisi. Turkiston jadidlarning o'zbek tilida tuzgan darsliklarini mazmun- mohiyati. Jadidlarning tojik va qoraqalpoqlar uchun tuzgan darsliklari.

## **3-mavzu: Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti va pedagogik faoliyati**

Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti va pedagogik faoliyati. Maxmudxo'ja Behbudiyning pedagogik merosidan bashlang'ich sinflarda foydalanish imkoniyatlari.

## **4 mavzu: Munavvarqori Abdurashidxonovning ijtimoiy – pedagogik faoliyati**

Munavvarqori Abdurashidxonovning hayoti va ijtimoiy – pedagogik faoliyati. Munavvarqori Abdurashidxonov pedagogik merosining tarbiyaviy imkoniyatlari. Munavvarqori Abdurashidxonovning "Yer yuzi" darsligining pedagogik ahamiyati. Sinfdan tashqari o'qish darslarida Munavvarqori Abdurashidxonovning asarlaridan foydalanish jarayoni.

## **5-mavzu: Saidrasul Aziziyning hayoti va pedagogik faoliyati.**

Saidrasul Aziziyning hayoti va pedagogik faoliyati. Saidrasul Aziziyning "Ustodi avval" darsligidan boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy tarbiyalashda foydalanish imkoniyatlari. O'qish darslarida Saidrasul Aziziyning "Ustodi avval" darsligidagi badiiy matnlardan foydalanish.

## **6-mavzu: Abdulla Avloniyning hayoti, ijodi va pedagogik faoliyati**

Abdulla Avloniyning hayoti, ijodi va pedagogik faoliyati. Abdulla Avloniy pedagogik merosining tarbiyaviy imkoniyatlari. Abdulla Avloniyning pedagogik asarlari vositasida tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish jarayoni.

## **7-mavzu: Boshlang'ich sinflarda Isoqxon Ibratning pedagogik merosidan foydalanish**

Ishoqxon Ibratning pedagogik merosini o'rganish ijtimoiy zarurat sifati. Isoqxon Ibratning "Lug'oti sittati alsina" ("Olti tilli lug'at") asari-muhim didaktik manbaa. Isoqxon Ibratning ma'rifatparvarlik faoliyati.

## **8-mavzu: Sadriddin Ayniyning adabiy-pedagogik merosi.**

Sadriddin Ayniyning adabiy-pedagogik merosini o'rganilishi. Sadriddin Ayniy hayot yo'li. Sadriddin Ayniyning ma'rifatparvarlik faoliyati va darsliklari.

## **9-mavzu: Sirojiddin Sidqiy Xondayliqiyning hayoti, faoliyati va medagogik merosi**

Sirojiddin Sidqiy Xondayliqiyning hayoti va faoliyati. Sidqiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari. Sirojiddin Sidqiy didaktik merosininig boshlang'ich sinflarda foydalanish imkoniyatlari.

## **10-mavzu- H.H.Niyoziyning pedagogik merosidan amaliyotda foydalanish**

Hamza Hakimzoda Niyoziyning hayoti va faoliyati. Niyoziyning ijtimoiy siyosiy qarashlari. Hamza Hakimzoda Niyoziyning didaktik merosini boshlang'ich sinflarda foydalanish imkoniyatlari.

## **11-mavzu: Boshlang'ich sinf darsliklarida jadidlar merosidan foydalanish holati.**

Boshlang'ich sinf darsliklarida jadidlar merosidan asrimiz boshlaridan 30-yillarning ikkinchi yarmigacha bo'lgan davrda foydalanish holati. Mustaqillik yillarda boshlang'ich sinf darsliklarida jadidlar merosidan foydalanish holati

### **III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.**

Amaliy mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1-mavzu: «A.Fitrat axloq-odob to'g'risida» mavzusida adabiy kecha dasturi va tafsilotini tuzish.

2-mavzu: Hamza Hakimzoda Niyoziyning pedagogik merosi» mavzusida insholar ko'rik-tanlovini tashkil qilish.

3-mavzu: «Turkiy guliston yoxud axloq» asaridan foydalanib mashg'ulot loyihasini tuzish.

4-mavzu: Sinfdan tashqari ishlar jarayonida jadidlarning pedagogik merosidan foydalanish jarayoni.

5-mavzu: «Munavar Qorining pedagogik merosi» mavzusidagi adabiy ertalik o'tkazish.

6-mavzu: «Behbudiy – Turkiston jadidlarining otasi» mavzusida suhbat o'tkazish

7-mavzu: «Ustodi avval» - muhim tarbiyaviy manba» mavzusida ertalik dastur va tafsilotini tuzish, tajribada sinab ko'rish.

8-mavzu: O'quvchilarni oilada axloqiy tarbiyalashda jadidlarning pedagogik merosidan foydalanish.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari va boshqa texnologiyalar bilan jihozlangan auditoriyada har bir akadem guruhda alohida o'tkaziladi. Mashg'ulotlarni olib borish usullari turli-tuman ko'rinishda bo'lsada, faol va interfaol metodlar ko'proq qo'llanilishi maqsadga muvofiq. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi.

## **IV. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar**

Magistr mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishslash;
- masofaviy ta'lif.

	<p>Magistrlarga mustaqil ta’limning mavzulari beriladi, bu mavzular bo‘yicha egallanishi kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar muddati va topshirish shakli aytildi. Ko‘rsatilgan muddatda nazariy material konspekti, referati ko‘riladi, test yoki savol-javob o‘tkaziladi. Amaliy xarakterdag‘i topshiriqlar yechimi ko‘rsatiladi va o‘xhash misollar yordamida tekshiriladi.</p> <p><b>Tavsiya etiladigan mustaqil ta’limning mavzulari:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning jadid ma’rifatparvarlari haqidagi fikrlari-metodologik asos sifatida.</li> <li>2. Milliy g‘oyani o‘quvchilar qalbiga singdirishda jadid ma’rifatparvarlarining pedagogik merosidan foydalanish.</li> <li>3. Jadid ma’rifatparvarlarining pedagogik merosida milliy g‘oyaning vatanparvarlik, insonparvarlik asoslari.</li> <li>4. Milliy g‘oyani o‘quvchilar qalbiga singdirishda jadid ma’rifatparvarlarining pedagogik merosidan foydalanish. (Tadbir dastur va tafsilotini tayyorlash.)</li> <li>5. Jadidlarning pedagogik merosi asosida o‘quvchilarda milliy g‘oya haqida tushuncha tarkib toptirish mazmuni va vositalarii.</li> <li>6. Jadidlarning pedagogik merosi vositasida fanlarni o‘qitish jarayonida milliy g‘oyani tarkib toptirishning shaklari va usullari</li> <li>7. Boshlang‘ich sinf darsliklarida jadidlar merosidan foydalanish holati.</li> <li>8. Abduqodir Shakuriyning peagik qarashlari.</li> <li>9. Saidahmad Siddiqiyning pedagogik merosidan boshlang‘ich sinflarda foydalanish imkoniyatlari.</li> <li>10.Fayzulla Xo‘jayevning jadidchilik harakati rivojida tutgan o‘rni.</li> <li>11.Akmal Ikromov va jadidchilik.</li> <li>12.Boshlang‘ich sinflarda S.Ayniyuning pedagogik merosidan foydalanish.</li> <li>13.Ayniyuning pedagogik merosi.</li> <li>14.O‘zbek pedagogikasida jadidlar ta’limotining tutgan o‘rni</li> <li>15.Professor B.Qosimovning jadidshunoslik sohasidagi ilmiy-pedagogik merosi.</li> </ol> <p>Mustaqil ta’lim mavzulari talabalar tomonidan o‘zalshtiriladi. Mavzular юzasidan talabalar mustaqil ish, taqdimotlar tayёrlashi va himoya qilishi tavsiya etiladi.</p>
	<p><b>V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetenциялар)</b></p> <p>“Jadid pedagogikasi” o‘quv fanini o‘zlashtirish jaraёнida amalga oshiriladigan masalalar doirasida magistir:</p> <p>-“Jadid pedagogikasi” fanidan Turkistonda ma’rifatparvarlik harakati tarixi, Turkistonlik jadidlarning boshlang‘ich sinflar uchun yozgan darsliklari, Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti va pedagogik faoliyati, Munavvarqori Abdurashidxonovning ijtimoiy – pedagogik faoliyati, Saidrasul Aziziyning hayoti va pedagogik faoliyati. Saidrasul Aziziyning hayoti va pedagogik faoliyati, boshlang‘ich sinflarda Isoqxon Ibratning</p>

	<p>pedagogik merosidan foydalanish, Saidrasul Aziziyning hayoti va pedagogik faoliyati, Sirojiddin Sidqiy Xondayliqiyning hayoti, faoliyati va medagogik merosi, boshlang'ich sinf darsliklarida jadidlar merosidan foydalanish holati haqida tassavurga va bilimga ega bo'lishi;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- dars, sinfdan tashqari o'qish, sinf va sinfdan tashqari ishlar jarayonida o'tkaziladigan tadbirlarning dastur va tafsilotlarini tuzish va amalda qo'llay olish bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lishi;</li> <li>- jadid ma'rifatparvalalarining darsliklaridagi adabiy-badiiy asarlardan, pedagogik merosidan hozirgi zamon mакtablarida foydalanish imkoniyatlari keng bo'lgan imkoniyatlar, jadid ma'rifatparvarlarinig hayoti, faoliyati, ijtimoiy faoliyati va boy pedagogik merosi bo'yicha nazariy fikrlarni bayon qilishi, ayni masalalarda o'zining nuqtai – nazarini asoslab berish bo'yicha malakasiga ega bo'lishi kerak.</li> </ul>
4.	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ma'ruza;</li> <li>- keys-stadi;</li> <li>- induvidial loyihalar;</li> <li>- taqdimotlar qilish;</li> <li>- guruhlarda ishlash;</li> <li>- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish.</li> </ul>
5.	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talabalar:</b>  Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilaётган jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirishi zarur.</p>
6.	<p><b>VIII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari</b></p> <p><b>Asosiy adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Qosimov B. Milliy uyg'onish. T.: «Ma'naviyat», 2002, - 400 b.</li> <li>2. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U. va boshqalar. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. T.: «Ma'naviyat», 2004, - 464 b.</li> <li>3. Hamroyev Sh.E.Boshlang'ich sinflarda jadidlar merosidan foydalanish. Monografiya. Qarshi:"Fan va ta'lim", 2021, -216 b.</li> <li>4. Hamroyev Sh.E., Karimov B. P., Muhammadiyev Sh. M. "Jadidlarning darsliklaridagi badiiy matnlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy tarbiyalash" Monografiya. Qarshi:"Fan va ta'lim", 2021, -186 b.</li> </ol> <p><b>Qo'shimcha adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>5. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining</li> </ol>

	<p>kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar / Sh.M. Mirziyoyev. –Toshkent : O‘zbekiston, 2017. – 104 b..</p> <p>6. Mirziyoyev Sh.M.. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruza. 2016 yil 7 dekabr /SH.M.Mirziyoyev. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b .</p> <p>7. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilar vakillari bilan o‘tkazilgan saylovoaldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari o‘rin olgan. /SH.M.Mirziyoyev. – Toshkent: : “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.</p> <p>8. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. She’rlar, ibratlar// To‘plovchi, nashrga tayyorlovchi va so‘z boshi muallifi: Qosimov B.; Izohlar va lug‘atni tuzuvchi: To‘laboyev O. 1-jild. – Toshkent: Ma’naviyat, 1998, – 272 b.</p> <p>9. 5.Isoqxon To‘ra Ibrat. Tanlangan asarlar. T.: «Ma’naviyat», 2005,-200 b.</p> <p>10.6.Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. T.: ”Ma’naviyat”, 1997,- 232 b.</p> <p><b>Axborot manbalari:</b></p> <p>11.<a href="http://www.tdpu.uz">www.tdpu.uz</a>      12.<a href="http://www.pedagog.uz">www.pedagog.uz</a>      13.<a href="http://www.physiology.ru/handbooks.html">www.physiology.ru/handbooks.html</a>      14.<a href="http://www.curator.ru/e-books/b22.html">www.curator.ru/e-books/b22.html</a></p>
7.	Fan dasturi Shahrisabz davlat pedagogika instituti Kengashining 2022_ yil «__» ____ dagi ____ -sonli baënnomasi bilan ma’qullangan.
8.	<p><b>Fan/modul uchun ma’sul:</b></p> <p>Z.T.Raximov - Shahrisabz davlat pedagogika instituti professori, pedagogika fanlari doktori</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p>Sh.U.Nurillayeva – Qarshi davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori (turdosh OTM )</p> <p>Sh.Hamrayev – Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi</p>

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**Ro'yxatga olindi:**  
**Nº** \_\_\_\_\_  
2022 yil“ ” \_\_\_\_\_

**“Tasdiqlayman”  
O'quv ishlari bo'yicha  
prorektor**

“ ” \_\_\_\_\_ **2022 yil**

**JADID PEDAGOGIKASI**

**FAN ISHCHI DASTURI  
(SILLABUS)**

<b>Ta'lif sohasi:</b>	100 000-Ta'lif
<b>Bilim sohasi:</b>	110 000-Ta'lif
<b>Magistratura mutaxassisligi</b>	70110101–Pedagogika nazariyasi va tarixi

Ishchi dastur “Jadid Pedagogikadi” fanining fan dasturi asosida tuzildi.

**Tuzuvchi:** p.f.d., prof. **Z. Raximov**

Fanning ishchi o'quv dasturi “Maktabgacha va boshlang'ich ta'lif metodikasi” kafedrasi yig'ilishida (bayon №\_\_\_\_\_, «\_\_\_\_» \_\_\_\_ 2022 y.) va institut Uslubiy Kengashida (bayon №\_\_\_\_\_, «\_\_\_\_» \_\_\_\_ 2022 y.) muhokama etilgan va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan.

O'quv- uslubiy bo'lim boshlig'i:

\_\_\_\_\_

G'aniyev M.

Kafedra mudiri:

\_\_\_\_\_

SH.Hamroyev

## FAN ISHCHI DASTURI (SILLABUS)

### Magistratura bo'limi 70110101–Pedagogika nazariyasi va tarixi

Umumiy ma'lumotlar		
<b>Fan nomi:</b> Jadid pedagogikasi		
<b>Fan kodi:</b> JP 2304	<b>Kredit miqdori:</b> 4	<b>Semestr:</b> 1
<b>Kafedra nomi:</b> Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi		
<b>Fan o'qituvchisi:</b> p.f.d., prof. Raximov Zokir Toshtemirovich		
<b>Email:</b> <a href="mailto:raximovzokir@mail.ru">raximovzokir@mail.ru</a>		
<b>Fan turi:</b> Majburiy		
<b>Ta'lim shakli:</b>	Kunduzgi	
<b>Baholash shakli:</b>	Imtihon	
<b>Fan tili:</b>	O'zbek	

### Fanning qisqacha mazmuni

**Fanni o'qitishdan maqsad** – Magistrlarga Turkistonda ma'rifatparvarlik harakati tarixi, Turkistonlik jadidlarning boshlang'ich sinflar uchun yozgan darsliklari, Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti va pedagogik faoliyati, Munavvar qori Abdurashidxonovning ijtimoiy – pedagogik faoliyati, Saidrasul Aziziyning hayoti va pedagogik faoliyati. Saidrasul Aziziyning hayoti va pedagogik faoliyati, boshlang'ich sinflarda Isoqxon Ibratning pedagogik merosidan foydalanish, Saidrasul Aziziyning hayoti va pedagogik faoliyati, H.H.Niyoziyning pedagogik merosidan amaliyotda foydalanish, Sirojiddin Sidqiy Xondayliqiyning hayoti, faoliyati va medagogik merosi, boshlang'ich sinf darsliklarida jadidlar merosidan foydalanish holati o'zlashtirgan nazariy va amaliy bilimlarini ta'lim va tarbiya berishda tadbiq etishga tayyorlash, pedagogik amaliy ko'nikmalarni shakllantirish.

**Fanni o'qitishning vazifasi** - Magistrlarga Turkistonda ma'rifatparvarlik harakati tarixi, Turkistonlik jadidlarning boshlang'ich sinflar uchun yozgan darsliklari, Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti va pedagogik faoliyati, Munavvarqori Abdurashidxonovning ijtimoiy – pedagogik faoliyati, Saidrasul Aziziyning hayoti va pedagogik faoliyati. Saidrasul Aziziyning hayoti va pedagogik faoliyati, boshlang'ich sinflarda Isoqxon Ibratning pedagogik merosidan foydalanish, Saidrasul Aziziyning hayoti va pedagogik faoliyati, H.H.Niyoziyning pedagogik merosidan amaliyotda foydalanish, Sirojiddin Sidqiy Xondayliqiyning hayoti, faoliyati va pedagogik merosi, boshlang'ich sinf darsliklarida jadidlar merosidan foydalanish holati "Jadid pedagogikasi" fanidan o'zlashtirgan nazariy va amaliy bilimlari baquvvat, ruhan tetik, aqliy tomondan yetuk barkamol avlodni tarbiyalashga yordam berishdan iborat.

## Ta’lim natijalari:

Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Talaba bilish kerak:

- Jadid pedagogikasi fani Jadid ma’rifatparvarlarining ta’limiy-tarbiyaviy merosini bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatda qo’llashning normativ-huquqiy asosi, o‘qituvchilik kasbining o‘ziga xosligi va uning insonparvarlik xususiyati, o‘quv me’yoriy hujjatlar, pedagogik faoliyatni tashkil etishda innovatsion hamda interfaol metodlardan foydalana olish, ta’lim jarayonini rejalashtirish, tashkil etish metodikasi haqida tasavvurga ega bo‘lishi; (bilim);

- Jadid pedagogikasi kursini o‘zlashtirgan talaba o‘quvchilarning diqqatini jalg qilish va dars samaradorligini oshirish metodlari va vositalari, mustaqil ta’lim, Jadid ma’rifatparvarlarining ta’limiy-tarbiyaviy asarlarini o‘qitishning multimedia va interfaol ta’lim texnologiyalarni bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko‘nikma).

- Jadid ma’rifatparvarlarining Tarbiya fanidagi didaktik ta’minotini ishlab chiqish, ishlanmalarni tayyorlash, mutaxassislik fanlarining o‘quv-uslubiy majmualarini ishlab chiqish, o‘quv ishlarining tashkil etilishini rejalashtirish, sinfdan tashqari ish shakllariga rahbarlik qilish, o‘qitish jarayonida axborot texnologiyalari va interfaol texnologiyalarni qo’llash olish kabi ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak (malaka).

## Fan mazmuni

### Mashg‘ulotlar shakli: ma’ruza (M)

<b>Tartib raqami</b>	<b>3-semestr</b>	<b>Soat miqdori</b>
M1	Turkistonda ma’rifatparvarlik harakati tarixi	4
M2	Turkistonlik jadidlarning boshlang‘ich sinflar uchun yozgan darsliklari	4
M3	Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti va pedagogik faoliyati	4
M4	Munavvarqori Abdurashidxonovning ijtimoiy – pedagogik faoliyati	4
M5	Saidrasul Aziziyning hayoti va pedagogik faoliyati.	4
M6	Abdulla Avloniyning hayoti, ijodi va pedagogik faoliyati	4
<b>Oraliq nazorat</b>		
M7	Boshlang‘ich sinflarda Ishoqxon Ibratning pedagogik merosidan foydalanish	4
M8	Sadriddin Ayniyning adabiy-pedagogik merosi	4
M9	Sirojiddin Sidqiy Xondayliqiyuning hayoti, faoliyati va medagogik merosi	4
M10	H.H.Niyoziyning pedagogik merosidan amaliyotda foydalanish	4
M11	Boshlang‘ich sinf darsliklarida jadidlar merosidan foydalanish holati.	4
<b>Jami:</b>		<b>44</b>

<b>Mashg‘ulotlar shakli: amaliy mashg‘ulot (A)</b>		
<b>Tartib raqami</b>	<b>3-semestr</b>	<b>Soat miqdori</b>
<b>A1</b>	«A.Fitrat axloq-odob to‘g‘risida» mavzusida adabiy kecha dasturi va tafsilotini tuzish.	2
<b>A2</b>	Hamza Hakimzoda Niyoziyning pedagogik merosi» mavzusida insholar ko‘rik-tanlovini tashkil qilish.	2
<b>A3</b>	«Turkiy guliston yoxud axloq» asaridan foydalanib mashg‘ulot loyihasini tuzish.	2
<b>A4</b>	Sinfdan tashqari ishlar jarayonida jadidlarning pedagogik merosidan foydalanish jarayoni.	2
<b>A5</b>	«Munavar Qorining pedagogik merosi» mavzusidagi adabiy ertalik o‘tkazish.	2
<b>A6</b>	«Behbudiy – Turkiston jadidlarining otasi» mavzusida suhbat o‘tkazish	2
<b>A7</b>	«Ustodi avval» - muhim tarbiyaviy manba» mavzusida ertalik dastur va tafsilotini tuzish, tajribada sinab ko‘rish.	2
<b>A8</b>	O‘quvchilarni oilada axloqiy tarbiyalashda jadidlarning pedagogik merosidan foydalanish.	2
	<b>Jami:</b>	<b>16</b>

## **MUSTAQIL TA’LIM**

Auditoriyadan tashqari vaqtida bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- esse – dolzarb mavzu bo‘yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;
- dokladlar tayyorlash;
- kurs ishi yozish;
- konspekt yozish;
- glossariy tuzish;
- individual va guruhiy o‘quv loyihasi;
- keys-topshiriqlarini bajarish;
- mavzuli portfoliolar tuzish;
- axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;
- manbalar bilan ishlash;
- infografika tuzish;
- chizma-tasviriy modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va h.k.) yaratish;

- multimediali taqdimotlar yaratish;
- darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash;
- darsdan tashqari mashg‘ulotlar ishlanmalarini tayyorlash;
- ta’lim yo‘nalishi(mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin.

<b>Mashg‘ulotlar shakli: mustaqil ta’lim (MT)</b>		
<b>Tartib raqami</b>	<b>1-semestr</b>	<b>Soat miqdori</b>
<b>MT1</b>	O‘zbekiston Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning jadid ma’rifatparvarlari haqidagi fikrlari-metodologik asos sifatida.	4
<b>MT2</b>	Milliy g‘oyani o‘quvchilar qalbiga singdirishda jadid ma’rifatparvarlarining pedagogik merosidan foydalanish.	4
<b>MT3</b>	Jadid ma’rifatparvarlarining pedagogik merosida milliy g‘oyaning vatanparvarlik, insonparvarlik asoslari.	4
<b>MT4</b>	Milliy g‘oyani o‘quvchilar qalbiga singdirishda jadid ma’rifatparvarlarining pedagogik merosidan foydalanish.(Tadbir dastur va tafsilotini tayyorlash.)	4
<b>MT5</b>	Jadidlarning pedagogik merosi asosida o‘quvchilarda milliy g‘oya haqida tushuncha tarkib toptirish mazmuni va vositalarii.	4
<b>MT6</b>	Jadidlarning pedagogik merosi vositasida fanlarni o‘qitish jarayonida milliy g‘oyani tarkib toptirishning shaklari va usullari	4
<b>MT7</b>	Boshlang‘ich sinf darsliklarida jadidlar merosidan foydalanish holati.	4
<b>MT8</b>	Abduqodir Shakuriyning pedagogik qarashlari.	4
<b>MT9</b>	Saidahmad Siddiqiyning pedagogik merosidan boshlang‘ich sinflarda foydalanish imkoniyatlari.	4
<b>MT10</b>	Fayzulla Xo‘jayevning jadidchilik harakati rivojida tutgan o‘rni.	4
<b>MT11</b>	Akmal Ikromov va jadidchilik.	4
<b>MT12</b>	Boshlang‘ich sinflarda S. Ayniyuning pedagogik merosidan foydalanish.	4
<b>MT13</b>	Ayniyuning pedagogik merosi.	4
<b>MT14</b>	O‘zbek pedagogikasida jadidlar ta’limotining tutgan o‘rni	4
<b>MT15</b>	Professor B. Qosimovning jadidshunoslik sohasidagi ilmiy-pedagogik merosi.	4
	<b>Jami:</b>	<b>60</b>

## O‘qitish va o‘rganish usullari

Modul ma’ruzalar va amaliy auditoriya mashg‘ulotlari hamda talabalarning mustaqil ta’lim faoliyati orqali tashkil etiladi. Ma’ruzalarda fanning mavzularini tahlil qilish uchun zarur bo‘lgan nazariy ma’lumotlar beriladi. Amaliy mashg‘ulotlarda fanning muammolari taqdim etiladi va talabalarga ularni hal qilish uchun zarur innovatsion texnologiya va metodlarni qo‘llash bo‘yicha mashq qilish imkoniyati beriladi. Mustaqil ta’lim faoliyatida talabalar mavzularni chuqur o‘rganib, adabiyotlar va ilmiy jurnallar hamda manbalardan foydalangan holda mavzularni tahlil qilishi lozim.

Mashg‘ulot turi	Ajratilgan soat
Ma’ruza	44
Amaliy mashg‘ulot	16
Mustaqil ta’lim	60
Talabalarning jami o‘quv va o‘qitish soatlari	120

### Talabalar bilimini baholash mezonlari va kreditlarni olish uchun talablar

Fanga oid nazariy materiallar ma’ruza mashg‘ulotlarini ma’ruzalarda ishtirok etish va kredit-modul platformasi orqali ma’ruzalarni mustahkamlash hamda belgilangan test savollariga javob berish orqali amalga oshiriladi.

Amaliy mashg‘ulotlari bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar hosil qilish va o‘zlashtirish mashg‘ulotlarga to‘liq ishtirok etish va modul platformasi orqali topshiriqlarni bajarish natijasida nazorat qilinadi.

Mustaqil ta’lim mavzulari modul platformasi orqali berilgan mavzular bo‘yicha topshiriqlarni bajarish (test, referat va boshqa usullarda) bajariladi.

Fan bo‘yicha talabalar test usulida oraliq nazorat va og‘zaki (yoki test) usulida yakuniy nazorat topshiradilar.

Talabalar bilimi O‘zbekiston Respublikasi OO‘MTVning 2018 yil 9 avgustdaggi 9-2018-sod buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi Nizom” asosida baholanadi.

### Talabalarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:

Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda - 5 (a’lo) baho;

Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda - 4 (yaxshi) baho;

Talaba olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda - 3 (qoniqarli) baho;

Talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda - 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

Baholash, oraliq va yakuniy nazorat topshiriqlari (vazifalari) kurs professor-o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi, oldindan moderatsiyadan o'tkaziladi va kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

Nazorat turi	Ajratilgan ball
Joriy nazorat	20
Oraliq nazorat	30
Yakuniy nazorat	50
Jami:	100

Nazorat turlarini o'tkazish bo'yicha tuzilgan topshiriqlarning mazmuni talabaning o'zlashtirishini xolis, shaffof va aniq baholashga imkon berishi kerak.

Fan (kurs) xususiyatlaridan kelib chiqib baholash va nazorat qilish mezonlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

Asosiy adabiyotlar	
1.	Қосимов Б. Миллий уйғониш. Т.: «Маънавият», 2002, -400 б.
2.	Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У. ва бошқалар. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Т.: «Маънавият», 2004, -464 б.
3.	Ҳамроев Ш.Э.Бошланғич синфларда жадидлар меросидан фойдаланиш. Монография. Қарши:"Фан ва таълим", 2021, -216 б.
4.	Ҳамроев Ш.Э., Каримов Б. П., Мухаммадиев Ш. М. "Жадидларнинг дарсликларидағи бадиий матнлар асосида бошланғич синф ўқувчиларини ахлоқий тарбиялаш" Монография. Қарши:"Фан ва таълим", 2021, -186 б
Tavsiya qilinadigan qo'shimcha adabiyotlar	
5.	"Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. O'RQ-637, 23.09.2020 y.
6.	Mirziyoev Shavkat Miromonovich. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljalangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruba, 2017 yil 14 yanvar / Sh.M. Mirziyoev. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b
7.	Mirziyoev Shavkat Miromonovich. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston

	Respublikasi Konstituqiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M.Mirziyoev. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b
8.	Mirziyoev Shavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o‘tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari o‘rin olgan. /Sh.M.Mirziyoev. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b
9.	Mirziyoev Shavkat Miromonovich. Yangi O‘zbekiston strategiyasi.- Toshkent, 2021. -458 b.19. Niyozov G‘., Axmedova M. E. Pedagogika tarixidan seminar mashg‘ulotlari. – T.: Noshir, 2011

### **Axborot manbalari**

15. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
16. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
17. [www.physiology.ru/handbooks.html](http://www.physiology.ru/handbooks.html)
18. [www.curator.ru/e-books/b22.html](http://www.curator.ru/e-books/b22.html)

# BAHOLASH MEZONLARI

## Kreditlarni olish uchun talablar.

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.

### Fan bo‘yicha talabalar bilimini baholash va nazorat qilish me’zonlari

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalim maxsus vazirining 2018 yil 9-avgustdagagi 19-2018 sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2018 yil 26 sentabrda 3069 - son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi” nizomga muvofiq ishlab chiqildi.

<b>Baholash usullari</b>	<b>Ekspress testlar, yozmaishlar, og‘zakiso‘rov, prezentatsiyalar va boshqalar</b>	
<b>Baholash mezonlari</b>	<p>“5” baho (a’lo) uchun talabaning bilim darajasi quydagilarga javob berishi lozim: Kuzatilayotgan jarayonlarning astronomik mohiyatini to‘la anglasa, bu jarayon xodisalarga tegishli qonuniyatlarni o‘zida aks etgan ifodalar, astronomik kattaliklar orasidagi bog‘lanishlarni tegishli hisob-kitoblarini chiqara olsa va ularni amaliyotga qo‘llay olsa.</p> <p>“4” baho (yaxshi) uchun talabaning bilim darajasi quydagilarga javob berishi lozim: Hodisa va jarayonlar haqida to‘la tasavvurga ega bo‘lsa, ularning kechish jarayonini ifodalovchi astronomik kattaliklarning o‘zaro bog‘lanishlarini aks etuvchi matematik ifodasini bilsa.</p> <p>“3” baho (qoniqarli) uchun talabaning bilim darajasi quydagilarga javob berishi lozim: Kechayotgan hodisa va jarayonlar haqida tasavvurlarida va bilimlarida chalkashliklar bo‘lsa.</p> <p>“2” baho (qoniqarsiz) uchun talabaning bilim darajasi quydagilarga javob berishi lozim: Tushunchalarga berilgan ta’riflarda jiddiy kamchiliklar mavjud, bu tushunchalarga misollar keltirmagan yoki misollar noto‘g‘ri tanlangan (tushuncha haqida tasavvurga ega emas). Masala yechishga harakat qilingan. Qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘yilgan. Aniq tasavvurga ega bo‘lmasa.</p>	
Baholash turlari	Baholash	O‘tkazish vaqtி
<b>Joriy nazorat:</b>		
-talabani oraliq nazorat turi bo‘yicha baholashda, uning o‘quv mashg‘ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi	O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2018 yil	Semestr davomida

<p><b>Oraliq nazorat:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-ma'ruza o'qituvchisi tomonidan qabul qilinadi;</li> <li>-oraliq nazorat yozma ish shaklida olinadi;</li> <li>-oraliq nazorat mavzulari kafedraning etakchi professor-o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi va kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi;</li> <li>-yozma shaklda olingan oraliq nazorat javobi 3 kun ichida jurnal va electron tizimda aks ettilishi hamda talabalarga etkazilishishart.</li> <li>-talabaga oraliq nazorat turidan “2” (qoniqarsiz) baho olsa, unga 2 (ikki) martagacha qayta topshirishga imkoniyat beriladi.</li> <li>- oraliq nazorat turini topshiraolmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo'yicha “2” baho bilan baholangan talaba yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi.</li> <li>- oraliq nazoratni o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartibi buzilgan hollarda, oraliq nazorat natijalari bekor qilinadi hamda oraliq nazorat qayta o'tkaziladi.</li> </ul>	<p>26 sentabrdagi 3069 - son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan “Oliy ta'lif muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi” nizomga muvofiq</p>	<p>Semestr davomida fan mavzulari 55%-60% bajarilgand an so'ng</p>
<p><b>Yakuniy nazorat</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- yakuniy nazorat turi otkaziladigan kuniga qadar talabalar joriy va oraliq ballari yig'indisidan habardor bo'lishishart.</li> <li>- tuzilgan va tasdiqlangan komissiya a'zolari tomonidan qabul qilinadi.</li> <li>- mazkur fan bo'yichayakuniy nazorat semestrning oxirgi haftasi mobaynida o'quv-uslubiy boshqarma tomonidan tuzilgan qat'iy jadval asosida belgilangan auditoriyada “yozma ish” shaklida o'tkaziladi.</li> <li>-yozma shaklda olingan yakuniy nazorat javobi 3 kun ichida jurnal, electron tizim va qaydnomalarda aks ettilishi hamda talabalarga etkazilishishart.</li> </ul>		<p>semestr davomida ajratilgan soatlar to'liq bajarilgand an so'ng</p>

# QO‘SHIMCHA MATERIALLAR

## Ta’lim usullari

**Ta’lim berish usuli** – belgilangan ta’lim berish maqsadiga erishish bo‘yicha ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar o‘zaro faoliyatini tartibli tashkil etish yo‘lidir.

Usul (metod) – yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, “Metodos” – biror narsaga yo‘l ma’nosini anglatadi. Ta’lim berish usuli, ta’limiy maqsadni amalga oshirish bo‘yicha ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi bilan hamkorlik faoliyatining murakkab jarayonining asosi hisoblanadi. Usullar: ushbu ta’lim berish davridan chiqqanda ta’lim oluvchi bilishi, uddalashi va qadrlashi lozim bo‘lgan ko‘zlanayotgan erishishni ta’minkaydi.

Usullarni tanlashni asosiy qoidasi – turlicha emas ta’lim berish maqsadiga mos kelish.

Usullarga qo‘yiladigan asosiy talab – natija beradigan, faqat bittasini qo‘llash.

Usulning asosiy natijaviyligining mezoni – belgilangan vazifani hal etish uchun uni qo‘llashning mosligi va tejamkorligi.

Ta’lim texnologiyasini loyihalashda usulni ongli tanlash, ularni har birining imkoniyatlarini ko‘ra bilishi kerak.

Yaxshi yoki yomon usullar mavjud emas. Usulning natijaviyligini bajarilgan yoki bajarilmagan vazifa bo‘yicha xulosa chiqarish mumkin.

Qanday qilib, keng tarqalgan usullar, jumladan aqliy hujum yoki guruhli munozarani natijaviyligini o‘quv mashg‘ulotida yechiladigan topshiriqlar bilan bog‘liqsiz, yoki aniq amaliy vaziyatni tahlil qilish va yechish (keys-stadi) usulini natijaviyligini, ushbu usul qo‘llanayotgan o‘quv mashg‘ulotining maqsad va vazifalaridan uzilishda oldindan baholash mumkin.

Tajribalarning ko‘rsatishicha, usulning asosiy natijaviylik mezonlari quyidagilar:

- belgilangan vazifalarni hal etish uchun uni qo‘llashning mosligi;
- uni qo‘llashda soddalik va osonlik;
- nafaqat eng yaxshi natijalarni ta’minlashi, balki ularga erishishning yuqori ishonchlilagini ta’minkaydi.

## Muammoli vazifalar usuli

Muammoli vazifalar usuli – talabalarga muammoli vaziyatlarni va ularning bilish faoliyatini tashkil etishga asoslangan usuldir. U aniq vaziyatlarni tahlil qilish, baholash va keyinchalik qaror qabul qilishdan iborat.

Bu usulning asosiy vazifalari:

- o‘rgatuvchi: bilimlarni aktuallashtirishga asoslangan;
- rivojlantiruvchi: tahliliy tafakkurni, alohida faktlar orqasidagi hodisa va qonuniylikni ko‘ra bilishni shakllantirish;
- tarbiyalovchi: kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish.

## **Individual (amaliy) usul**

Individual usul laboratoriya usulidan shunisi bilan farq qiladiki, unda ko'pincha, talabalar faoliyatida olingan bilimlarni amaliy vazifani yechishga qaratadilar. Nazariyotni amalda tatbiq qila bilish bиринчи о'ringa chiqadi. Ushbu usul bilimni, mahoratni chuqurlashtirish vazifasini bajaradi, shuningdek, о'рганиш faoliyatini kuchaytirishni ta'minlaydi. Amaliy usul talabalarni vazifalarni vijdonan bajarishga, mehnat jarayonini puxta tashkil etishga boshqa usullardan ko'ra ko'proq ko'maklashadi.

## **Munozara (muhokama) usuli**

Munozara-faol ta'lim usuli bo'lib, muhokama, ma'lum muammo bo'yicha fikr almashuv ko'rinishida o'tadi.

Munozara barcha vazifalarni bajaradi. Mazkur usuldan quyidagi maqsadlar uchun foydalanamiz:

- yangi bilimlarni shakllantirish;
- talabalarda u yoki bu savollarni chuqur o'ylab ko'rish, tub ma'nosini tushunib yetishga motivatsiyani ta'minlash;
- talabalarga dalil va dalilga asoslangan xulosa orasidagi farqni tushunib yetishni o'rgatish;
- kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish;
- erkin munozaralarga kirishib ketishni ta'minlash;
- nutq madaniyatini rivojlantirish;
- mantiqan fikrlashga o'rgatish va h.k.

Ko'p hollarda amaliy mashg'ulotlari orasida o'qituvchi monologlari bilan bo'linadigan talabalar monologlari shaklida o'tadi, qolgan talabalar esa shu paytda zerikib o'tiradilar. Shuning uchun darsda «munozara usuli»ni qo'llash barcha talabalarning faolligini oshirib, zerikishlariga yo'l qo'ymaydi.

## **«Munozara»ni o'tkazish**

1. O'qituvchi munozara mavzusini tanlaydi va talabalarni taklif qiladi.
2. O'qituvchi talabalarga «Aqliy hujum» masalasini beradi va uni o'tkazish tartibini belgilaydi, talabalar guruhlarga bo'linadi.
3. «Aqliy hujum» vaqtida bildirilgan g'oya va fikrlarni yozib borish uchun kotib tayinlanadi. Bu bosqichda guruh a'zolarining har biri o'z fikrini bildirishlariga sharoit yaratiladi.
4. Talaba (yetakchi) ikkinchi bosqichga o'tishdan avval qisqa tanaffus e'lon qiladi. Ikkinci bosqichda bildirilgan fikr va g'oyalarni umumlashtirib, ularni tahlil qilishga o'tiladi.

5. Tahlil orqali qo‘yilgan vazifani eng maqbul yechimini topishga harkat qilinadi.

Talabalar fikrlari qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, unga munosabat bildirishga shoshilmaslik munozara yuritishning qat’iy qoidasi bo‘lib hisoblanadi. O‘qituvchi fikrlarining bildirilishiga ham yo‘l qo‘ymasligi lozim.

Odobli xulq bilan fikrlarning asosliligini, aytilgan yoki qo‘llab-quvvatlangan fikrning to‘g‘riligini oydinlashtirib, ularda g‘oyaning mantiqiy oqibati to‘g‘risida fikrlashga qiziqish uyg‘otish zarur.

### **Aqliy hujum usuli**

Aqliy hujum – g‘oyalarni generatsiya qilish usuli. Qatnashchilar birlashgan holda qiyin muammoni yechishga harakat qiladilar: uni yechish uchun shaxsiy g‘oyalarni ilgari suradilar (generatsiya qiladi). U ishtirokchilarni o‘z tasavvurlari va ijodlaridan foydalanishga rag‘batlantiradi.

«Aqliy hujum»ning vazifasi kichik guruqlar yordamida yangi-yangi g‘oyalarni yaratishdan iborat. Bu usul muammoni hal qilayotgan talabalarining ko‘proq aql, bovar qilmaydigan va hatto fantastik g‘oyalarni yaratishga undaydi. G‘oyalar qancha ko‘p bo‘lsa, shunchalik yaxshi hisoblanadi. Ularning hech bo‘limganda bittasi ayni maqsadga muvofiq bo‘lishi mumkin.

«Aqliy hujum» ning qoidalari:

Birinchi qoida. Fikr va g‘oyalarni hech qanday cheklanmagan holda iloji boricha baralla aytilishi lozim.

Ikkinci qoida. Bildirilgan fikr va g‘oyalarni takliflar berish to‘xtatilmaguncha muhokama qilinmaydi, baholanmaydi.

Uchinchi qoida. Bildirilgan har qanday g‘oya va fikrlar hisobga olinadi.

To‘rtinchi qoida. Qancha ko‘p g‘oya va fikrlar bildirilsa shuncha yaxshi.

Beshinchi qoida. Bildirilgan g‘oya va fikrlarni to‘ldirish va kengaytirish mumkin.

Oltinchi qoida. Barcha aytilgan takliflar yozib boriladi.

Yettinchi qoida. Takliflarni bildirish uchun vaqt aniq belgilanadi.

Bu usul barcha funksiyalarni bajaradi, lekin uning asosiy vazifasi muammoni mustaqil tushunish va yechishga ta‘lim oluvchilarning motivatsiyasini uyg‘otishdan iboratdir.

### **Muzyorar usuli**

Ko‘pchilik odamlar notanish vaziyatda (kursning boshlanishida) bo‘lganlarida o‘zlarini jur’atsiz sezishadilar. Ko‘pincha bir-birlarini bilishmaydi. Agar hech bo‘limganda bir kishi bilan tanish bo‘lsalar, ular birga bo‘lishadilar. Shuning uchun o‘qituvchi (yoki boshlovchi) talabalarga o‘zlariga ishonch hissiyotini beradigan do‘stona muhitni va ular o‘zlari o‘rganishlari kerak bo‘lgan narsaga diqqatlarini qarata oladigan vaziyatni yaratishi kerak. Bunda «Muzyorar usuli»dan foydalanish mumkin.

Bu usul ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar o’rtasidagi «Muzni» eritish «parda» ni yo‘qotishga qaratilgan usul.

Muzyorarga quyidagi misollarni keltirish mumkin:

### 1. Taqdim etish.

Talaba yoki ishtirokchilardan ular o‘zlarini tanishtirishlari va o‘zlari to‘g‘risida muayyan axborot berishlari so‘raladi. Ular taqdim etgan axborot saylanmasining xususiyatiga bog‘liq. Bu quyidagilar bo‘lishi mumkin.:

ismi sharifi;

yashash joyi;

qiziqishi;

fanlarga munosabati.

Bu axborot jadval shaklida katta qog‘oz varag‘iga yozib jamlansa yaxshi bo‘ladi. Bu usul kam vaqtini (har bir talabaga 1-2 minut), biroq undan 30 kishidan ko‘p guruhlarda foydalanib bo‘lmaydi. Bizda ular haqida axborot kam bo‘lgan, ulardagi odamlar bir-birlarini yaxshi bilmaydigan guruhlar uchun yaxshi, biroq u har doim ham guruh a’zolarining yaxshi tanishlariga kafolat bermaydi.

### 2. Intervyu.

Bir-birlarini yaxshi tanimaydigan juftliklar tuzilib, ularga tanishib olishlari uchun 2-3 minut vaqt beriladi. So‘ng juftlikning har bir a’zosi butun guruhga o‘z sherigi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni biror qiziqarli faktini qo‘shtigan holda taqdim etadi.

Bunda guruhdagi har bir kishi bitta odam bilan tanishishi kafolatlanadi. Bu usul ishtirokchilarga dadillik hissini beradi. Biroq bu usulni 25 kishidan ortiq guruhda qo’llash mumkin emas.

### 3. Jadvallar.

Har bir ishtirokchiga flomaster va katta qog‘oz varag‘i beriladi. Qog‘oz to‘rt qismiga bo‘linib, har biriga quyidagi axborotni yozish topshiriladi;

qog‘ozni yuqoridagi chap burchagida: o‘zini bir so‘z bilan tasvirlasin!

qog‘ozni yuqoridagi o‘ng burchagida: nima bilan faxrlanishini yozsin!

qog‘ozni pastdagagi chap burchagida: o‘zi haqida qandaydir bir sirni oshkor qilsin (bu jiddiy bo‘lishi majburiy emas, biroq shunday axborot bo‘lsinki, u haqda ishtirokchilardan hech kimga ma’lum bo‘lmasin)!

pastdagagi o‘ng burchakda: o‘z xobbisini chizib bersin (jadvalning katakchalarini guruh xususiyatiga qarab o‘zgartirish mumkin).

Hamma ishtirokchilar ishni tugatganlardan keyin ular jadvalni oldilarida ushlab zalning o‘rtasiga chiqishadi. U yoq – bu yoqqa o‘tib ishtirokchilar o‘z ismlarini jadvallarga yozib, ularni devorga ilib qo‘yishadilar.

## Klaster usuli

Klasterlarga ajratish talabalarga biror-bir mavzu to‘g‘risida erkin va ochiq tarzda fikr yuritishga yordam beradigan pedagogik strategiyadir. Bu usul ko‘p variantli fikrlashni o‘rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqealalar o‘rtasida aloqa o‘rnatish malakalarini rivojlantiradi. «Klaster» so‘zi bog‘lam ma’nosini anglatadi. Klasterlarga ajratishni da’vat, anglash va mulohaza qilish bosqichlariga fikrlashni


rag‘batlantirish uchun qo‘llash mumkin. U asosan, yangi fikrlarni uyg‘otish, mavjud bilimlarga yetib borish strategiyasi bo‘lib, muayyan mavzu bo‘yicha yangicha fikr yuritishga chorlaydi. Biror mavzu bo‘yicha klasterlar tuzishdan bu mavzuni mukammal o‘rganmasdan oldin foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Klaster usulini tuzish ketma-ketligi

1. Qog‘ozning o‘rtasiga yoki sinf doskasiga yoxud yozish uchun foydalanish mumkin bo‘lgan sathga «kalit» so‘z yoki gap yoziladi.
2. Shu mavzuga tegishli deb hisoblangan va xayolga kelgan so‘z va gaplar yoziladi.
3. Fikrlar paydo bo‘lganda va ularni yozganda fikrlar o‘rtasida mumkin bo‘lgan bog‘lanishlarni belgilash.
4. Fikrlar tugamaguncha yoki vaqt tamom bo‘lguncha xayolga kelgan barcha fikrlar yozilaveradi.
5. Keltirilgan so‘z va fikrlar mazmuni va yaqinligiga qarab toifalarga ajratib chiqiladi.

«Qarorlar shajarasi» («qarorlar qabul qilish») usuli

«Qarorlar shajarasi» usuli muayyan fan asoslari borasidagi bir qadar murakkab mavzularni o‘zlashtirish, ma’lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidan eng maqbul hamda to‘g‘risini topishga yo‘naltirilgan texnik yondoshuvdir. Ushbu usul, shuningdek, avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qaror (xulosa)lar mohiyatini yana bir bora tahlil etish va tushunishga xizmat qiladi. Guruh yoki sinflari ishtirokida qo‘llaniladigan «Qarorlar shajarasi» bir necha o‘n nafar talabalarning bilimlari darajasini aniqlash, ularning fikrlarini jamlash va baholash imkonini beradi. Ta’lim jarayonida mazkur usulning qo‘llanilishi muayyan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilish (xulosaga kelish)da talabalar tomonidan bildirilayotgan har bir variant, ularning maqbul hamda maqbulsiz jihatlarini mufassal tahlil etish imkoniyatini yaratadi. Mashg‘ulot jarayonida talabalar quyidagi chizma asosida tuzilgan jadvalni to‘ldiradilar (yoki ushbu tartibdagi faoliyatni olib borishda doskadan foydalanadilar):



«Qarorlar shajarasi» usuli quyidagi shartlar asosida qo‘llaniladi:

O‘qituvchi mashg‘ulot boshlanishidan oldin munozara, tahlil uchun mavzuga oid biror muammoni belgilaydi. Guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosa (qaror)larni yozish uchun plakatlarni tayyorlaydi.

O‘qituvchi talabalarni 4 yoki 6 nafar kishilardan iborat guruhlarga ajratadi. Muammoning hal etilishi, u borada eng maqbul qarorning qabul qilinishi uchun muayyan vaqt belgilanadi.

Qarorni qabul qilish jarayonida guruhlarning har bir a’zosi tomonidan bildirilayotgan variantlarning maqbullik hamda maqbulliksiz darajalari batafsil muhokama qilinadi. Har bir variantning afzallik va afzalliksiz jihatlari yozib boriladi. Bildirilgan variantlar asosida muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiluvchi usul xususida guruh a’zolari bir to‘xtamga kelib oladilar.

Munozara uchun ajratilgan vaqt nihoyasiga yetgach, har bir guruh a’zolari o‘z guruhi qarori borasida axborot beradilar, Zarur hollarda o‘qituvchi rahbarligida barcha talabalar bildirilgan xulosa (qaror)larni bir-biri bilan qiyoslaydilar. Muammo yuzasidan bildirilgan qarorlar borasida savollar tug‘ilsa, ularga javoblar qaytarilib boriladi, noaniqliklarga aniqlik kiritiladi. Agarda barcha guruhlar tomonidan muammo yuzasidan bir xil qarorga kelingan bo‘lsa, o‘qituvchi buning sababini izohlaydi.

«Qarorlar shajarasi» usuli quyidagi loyihaga asoslanadi:

«Qarorlar shajarasi» usuli					
Umumiy					
1 – qaror varianti		2 – qaror		3 – qaror	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi
Qaror:					

## O‘quv keyslari

O‘quv muammoli vaziyat (o‘quv keysi) tashkil etishning maqsadi guruh xonasida aniq muammoli vaziyatni mavjud imkoniyatlar va tavakallikni hisobga olgan holda muqobil yechimlarini muhokama qilish orqali qarorlar qabul qilish muhitini yaratishdan iboratdir.

Keys usulini samarali qo‘llash o‘quv guruhiga muammoli vaziyatni muhokama qilish imkoniyatini berish orqali talabalarning anglashini faollashtiradi, o‘z bilimi va g‘oyasini mujassamlashtirish, muhokama jarayoni va mazmunini kuzatish uchun sharoit yaratadi.

Ma'lumki, o'qitishning dastlabki bosqichlarida talabalar juda ham faol bo'lmasdan o'z fikrlarini ochiq bayon etishga qodir bo'lmaydi. Bunday to'siq talaba uchun qarashlari va fikrlarini guruh yoki o'qituvchi tomonidan tanqidga uchrashishi mumkinligidan xavfsiragan holda ma'lum qiyinchiliklar tug'diradi.

Ko'pincha shunday hollar bo'ladiki, o'qituvchi vaqtning tig'izligi tufayli talabalar bilan suhbat-muloqot yoki to'liq savol-javob o'tkaza olmaydi. Ana shunday hollarda zamonaviy pedagogik texnologiya usullaridan biri bo'lgan keys usulidan foydalanish mumkin.

yechilishi zarur bo'lgan muammoni qamrab olgan haqiqiy vaziyat ifodasi;

tinglovchilar tomonidan muhokama qilinishi mumkin bo'lgan va odatda, qaror qabul qiluvchi menejer nuqtai nazaridan bayon etilgan vaziyat;

auditoriyada mavjud imkoniyatlar va tavakkalni hisobga olgan vaziyat bo'yicha qaror qabul qilish muhitini tashkil qilish;

kelgusida aniq tadqiqotlar o'tkazish uchun manba.

Keyslardan foydalanish usullari:

1. Yakka holda namoyish qilish.
2. Jamoa tomonidan namoyish etish.
3. Guruhlarda muhokama qilish va so'ngra guruhda munozara o'tkazish.
4. Ishbilarmonlik o'yini.

Keys muhokamasi tartibi:

Keys muhokama qilishni quyidagi ketma-ketlikda o'tkazish lozim:

1. Keys mazmuni bilan shaxsan tanishish.
2. Kichik guruhlarda muhokama qilish («Sindikat» usuli).
3. Guruhda umumiy muhokama o'tkazish.

Keys muhokamasida e'tiborni quyidagilarga qaratish tavsiya etiladi:

qaralayotgan keysning asosiy maqsadini aniqlash;

keysdagи vaziyatni haqiqiy holatlар bilan taqqoslash imkoniyatini ko'rib chiqish; mumkin bo'lgan «tuzoqlar»ni aniqlash ya'ni ikkinchi darajali masalalarni muhokama qilish, noto'g'ri qarorlar qabul qilish va h.k;

o'quvchi-talabalar uchun tushunarsiz ma'lumotlarni aniqlash;

keysda bayon etilgan muammoni yechishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotni aniqlash;

keysdagи muammoni yechish uchun oraliq qadamlarni ilg'ab olish;

muammoning hal etish muqobil yo'llarini belgilash;

munozarani tugatish tartibini belgilash;

yakuniy izohlash va munozara natijasini xulosalash.

Yuqorida keltirilgan usullar bilan bir qatorda faol o'qitish metodlari sarasiga kiruvchi «Ishbilarmonlik», yoki «Boshqaruv» deb yuritiluvchi o'yinlar bilim va ko'nikmalar hosil qilishda o'z samarasini ko'rsatadi.

«Ishbilarmonlik o‘yinlari – faol o‘qitish metodlaridan biri bo‘lib u real «o‘rganilayotgan obyektni to‘g‘ri anglash maqsadida tahlil oluvchining u yoki bu vaziyatini o‘yin holida talqin qilishga qaratilgan usuldir».

«Kompyuterli «ishbilarmonlik» o‘yinlari ham o‘z mohiyati bo‘yicha muayyan faoliyat motivi, unda aqliy operatsiyalarning ishtiroki va hissiy ko‘rinishi jihatidan muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga mo‘ljallanadi. «Kompyuterli ishbilarmonlik» o‘yinlari quyidagi maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi:

o‘quv maqsadlariga, ya’ni o‘quv jarayonida mutaxassislarni tayyorlash yoki qayta tayyorlash va bilimlar tizimini o‘zlashtirishga;

ilmiy-izlanuv, boshqaruv tajribasini tahlil qilishga;

ijodiy faoliyat natijasida vujudga keladigan muammolarni va ishlab chiqarishni rivojlantirishga mo‘ljallangan real axborot materialiga tayanishga va h.k..».

Bizning fikrimizcha, yuqorida keltirilgan innovatsion yangicha usullar orqali talabalarda tushunchalarni shakllantirish quyidagi holatlarda ijobjiy kechadi:

birinchidan: muammoli vaziyatlarni mashg‘ulot boshlanishida talabalarga taklif etish yoki predmet mavzusini ifoda eta oladigan maxsus muammoli topshiriqlar berish;

ikkinchidan: muammoli vaziyatlar orqali talabaning qiyinchiliklarni yengish, innovatsion usul va harakatlarni izlab topishni talab qilish;

uchinchidan: talabalarning motivatsion doirasiga ta’sir o‘tkazish, ya’ni ichki harakatlanuvchi kuchini yuzaga keltirish, fanga bo‘lgan qiziqishini orttirish;

to‘rtinchidan: talabalarning kreativ (noyob, standartli bo‘lmagan) qobiliyatlarini rivojlantirish;

beshinchidan: talabalarni mustaqil fikrlab, to‘g‘ri xulosa chiqarishga tayyorlash.

Bu metodlar talabalarda jahon andozasiga mos bilimlarni egallahshlariga imkon beradi va albatta, ta’lim samaradorligiga erishga olib keladi.

### **Rolli hamda ishbop o‘yinlar**

Zamonaviy ta’limni tashkil etishda rolli hamda ishbop o‘yinlardan samarali foydalanishga alohida e’tibor berilmoqda. Talabalarda muayyan faoliyat yuzasidan egallangan nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikma va malakalarga aylantirish, ularda ta’limiy faollikni yuzaga keltirish, ularni ijtimoiy munosabatlar jarayoniga keng jalb etishda rolli hamda ishbop o‘yinlar o‘ziga xos o‘rin tutadi. Bugungi kunda ta’lim jarayonida qo‘llash nihoyatda qulay bo‘lgan bir qator o‘yinli texnologiyalar yaratilgandir.

O‘yinli texnologiyalar ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minalash, talabalarda muayyan faollikni yuzaga keltirish, shuningdek, bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilishga xizmat qiluvchi vaqt oralig‘ini qisqartirish, ta’limni jadallashtirishga yordam beradi.

O‘yinli texnologiyalardan foydalanishda bir qator psixologik xususiyatlar ham namoyon bo‘ladiki, buning oqibatida har bir talaba o‘zining shaxsiy imkoniyatlarini namoyish eta oladi, ijtimoiy hayotda o‘zi egallagan o‘rinni barqarorlashtiradi, o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini hosil qiladi.

## **FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

### **I. MUSTAQIL O'QISH VA FOYDALANISH UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari

1. “Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora- tadbirlari to‘g’risida”. - Ma’rifat, 2011-yil, 21-may, № 41.

2. “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi”. - Xalq so'zi, 2011 yil, 22 yanvar.

“Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiysi” - O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2011-yil 18 fevral №8

4. “Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatni barpo etish - ustuvor maqsadimizdir”. - Xalq so'zi, 2010 yil, 27 yanvar.

5. “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikastiya texnologiyalarini joriy etish to‘g’risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. // Xalq so'zi. 6 iyun, 2002 y.

### **O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti asarlari**

1. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2011.

2. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – Toshkent: “O'zbekiston”, 1998. – 78 bet.

3. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili. – Toshkent: “O'zbekiston”, 1995. – 24 bet.

4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch.-T.: “Ma'naviyat”, 2008.-176

### **O'zbekiston Respublikasi vazirliklarining me'yoriy - huquqiy hujjatlari**

1. I.A.Karimov. “Asosiy vazifamiz-vatanimiz taraqqiyoti - xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” nomli ma’ruzasi.

2. A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ”Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatni barpo etish - ustivor maqsadimizdir” ma’ruzasi.

3.“Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommu-nikastiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g’risida” O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. // Xalq so'zi, 8 iyun, 2002 y.

## **Darsliklar**

1. Azizzxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent, TDPU, 2003.
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar - Qarshi.: Nasaf, 2000.
3. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalaming tadbiqiy asoslari. - T.: 2005.
4. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar - T.: Moliya, 2003.
5. Ishmuhammmedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lif samaradorligini oshirish yo'llari. - T.: TDPU, 2005.
6. Kolechenko A. K. Entsiklopediya pedagogicheskix texnologiy - SPb.: KARO, 2005.
7. Pedagogika. /prof. M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida.- T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2010,- 400 b.
8. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika T.: O'qituvchi. 2010 y.254-263b
9. Xasanboyeva O. va boshq. Pedagogika tarixi.-T.: "G'.G'ulom, 2004.
10. Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – T.: 2005.
11. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. – T.: Istiglol, 2004.
12. К.Хошимов, С.Нишонова. Педагогика тарихи. II- қисм. Дарслик.. Алишер Навои номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. Т., 2005.
13. Ҳасанбоева О., Ҳасанбоев Ж., Ҳомидов Ҳ. Педагогика тарихи-. Т.: "Ўқитувчи", 1997
14. Педагогика назарияси ва тарихи. 1қисм. Педагогика назарияси. Олий ўкув юртлари учун дарслик./ М.Х.Тоҳтаходжаеванинг умумий таҳрири остида. "Иқтисод-молия", 2007.-380 б.

## **O'quv qo'llanmalar**

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq.- T.: O'qituvchi, 1992, 160 b.
2. Farberman B. Ilg'or pedagogik texnologiyalar - T.: 1999.
3. Selevko G. Pedagogicheskie texnologii na osnove didakticheskogo i metodicheskogo usovershenstvovaniya UVP - M.: 2005.
4. Selevko G. Pedagogicheskie texnologii avtorskix shkol - M.: 2005.
5. Pedagogicheskie texnologii G' Pod. red. Kukushina V. S. - M.: 2006.
6. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat - T.: Fan, 2006.
7. Ishmuhammedov R. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. - T., 2008.
8. Ishmuhammedov R. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. - T., 2010.
9. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. - T.: "Istiqlol", 2003.
10. Pirmuhamedova M. Pedagogik mahorat asoslari.- T.: 2001.
11. Yo'ldoshev J.G'.Usmonov S.A Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. - T., 2008.
12. Sullanova G.A. Pedagogik mahorat. O'quv-metodik qo'llanma. TDPU.T., 2005.
13. Nurullayeva Sh. "Pedagogik mahoat" kursidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasi. Qarshi: Nasaf.- 2011.

### **Ilmiy monografiyalar, maqolalar:**

1. Azizzxo'jayeva N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi.- TDPU, 2000.-52 b.
2. Kaldibekova A.S., Xodjaev B.X. O'quvchilarning bilish faolligini oshirish yo'llari - T.: TDPU, 2006.
3. Ishmuhammedov R.J. Bolalarni tarbiyalash va sog'lomlashtirish ishlarida pedagogik texnologiyalar (o'zbek va rus tillarida). — T.: UDAP,2004.
4. Ishmuhammedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T.: TDPU, 2005.

### **Doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari**

1. Yoqubova M.I. Jamiyat taraqqiyotida axborotlashuv va axborot texnologiyalarining ahamiyati. - Diss-ya. T., 2006.
2. Jumaniyozova M.T. Malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari. - Diss-ya. T., 2007.
3. Zakirov 1.1. Ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishning nazariy-amaliy asoslari. - Diss-ya., T., 2005.
4. Xushvaqtov N.X. Talabalarni milliy-ma'naviy qadriyatlarni o'rganishga tayyorlashning pedagogik va kompyuterli asoslari. Diss.-ya. T., 2006.
5. Mahmudov M.q. Ta'limni didaktik loyihalashning nazariy asoslari. - Doktorlik dis-yasi., T., 2004.
6. Nurullayeva Sh. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda mustaqil ishlarning o'rni.- Nomzodlik dis-yasi., T., 2010.

### **Ilmiy-amaliy anjumanlar ma'ruzalari to'plami:**

1. "Ta'linda axborot texnologiyalari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. - T. 2000.
2. "Pedagogika: muammolar, bahslar, yechimlar" mavzusidagi Respublika ilmiy- amaliy konferensiyasi. -T. 2003.
3. "2004-2009 yiliarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi" asosida malaka oshirish tizimi sifati va samaradorligini interfaol usullardan foydalanishning ilmiy pedagogik asoslari" mavzusidagi Respublika ilmiy- amaliy konferensiyasi. - T. 2007.
4. "2004-2009 yiliarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi" asosida malaka oshirish tizimi sifati va samaradorligini oshirishning dolzarb muammolari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. - T. 2008.
5. "Malaka oshirishning zamonaviy shakilarini qo'llash va ijodiy muhit yaratish orqali kurs samaradorligini oshirishning ilmiy-metodik asoslari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. - T. 2009.
6. "Maktabgacha ta'linda yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini tatbiq etishning dolzarb masalalari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. - T. 2010.
7. "Xalq ta'limi xodimlarini malakasini oshirishda samarali tizimni yaratishning ilmiy-metodik asoslari" Respublika ilmiy-amaliy konferensiya

materiallari to'plami. T. 2015

8. "Ta'limdagi islohotlar strategiyasida sog'lom bola masalasi" Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Qarshi-2014.

9. Сборник докладов. Международной конференции II весенние научные чтения. Донецк. Украина- 2014

10."Boshlang'ich ta'lim mazmunini optimallashtirishning ilmiy-amaliy muammolari". Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Qarshi-2014.

11. Postmodern jamiyat va inson muammosi. Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. Qarshi.2015.

### **Gazeta va jurnallar**

1. "Ta'lim texnologiyasi" jurnali
2. "Uzluksiz ta'lim"jurnali
3. "Tarbiya" jurnali
4. "Ma'rifat" gazetasi
5. "Pedagogik ta'Iim"jurnali.
6. "Maktabgacha ta'lim" jurnali.
7. "Boshlang'ich ta'lim" jurnali.
- 8 "Ma'rifat gulshani" gazetasi.
- 9."Ta'lim taraqqiyoti" jurnali
- 10."Xalq ta'limi" jurnali
- 11."Maktab va hayot" jurnali
- 12."Navqiron" gazetasi
- 13 "Bilim dunyosi" gazetasi
- 14 "Qashqadaryo ziyokori" gazetasi
- 15 "Daryo" gazetasi
- 16 "Xalq so'zi" gazetasi

### **Elektron ta'lim resurslari (internet saytlari)**

1. www. tdpu. uz
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyo.net. uz
4. www. edu. uz
5. tdpu-INTRANET. Ped
6. www.kasu.uz
7. http://www.uralrti.ru.
8. www. Ziyonet.uz
9. www. Eduportal.uz
10. www.markaz. Uz
11. Alta Vista <http://www.altavista.com/> 1995 yil ishga tushirilgan.
12. Fast Search <http://www.altheweb.com/>
13. Go To <http://goto.com>
14. Googlt <http://www.google.com/>

15. HotBot <http://hotbot.Lycos.com/>
16. Yahoo! HTTP: [//www.Yahoo.com/.](http://www.Yahoo.com/)
17. <http://www.uzedu.uz> – Xalq ta’limi vazirligining rasmiy sayti.
18. <http://www.edunet.uz/metodict/>
19. [http://www.wikuru.wikysia.com/ru/Uzbeksiy\\_yazylk.html](http://www.wikuru.wikysia.com/ru/Uzbeksiy_yazylk.html)
20. <http://pedagog.zn.uz/>
21. [www.ziyonat.uz](http://www.ziyonat.uz)
22. [eduportal.uz](http://eduportal.uz)
23. [uzlit.edunet.uz](http://uzlit.edunet.uz)
24. [postal.uz](http://postal.uz)
25. <http://ps.1sentember.ru/> – ro‘znama «Pervoe sentyabrya».
26. <http://www.ug.ru/> – «Uchitel’skaya gazeta».
27. <http://www.philologos.narod.uz>
28. <http://www.gramma.ru>
29. <http://www.gramota.ru>
30. <http://www.megabook.ru/> – megaentsiklopediya «Kirill i Mefodiy».
31. <http://www.likt590.ru/project/museum/> – qahramonlarning virtual muzei.
32. <http://www.kidsbook.narod.uz> – bolalar adabiyoti.
33. <http://www.foxdesiney.ru/legend/> – rasmlı entsiklopediya.
34. <http://www.biblioteker.ru/mif/> – Mifologik lug‘at .
35. <http://www.slovar.lib.ru/>

### **Didaktik vositalar**

1. Jihozlar va uskunalar, moslamalar: elektron doska-Hitachi, LCD-monitor, elektron ko’rsatkich (ukazka).
2. video-audio uskunalar: video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar, kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter, Dell tipidagi proektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko’z (glazok).

## **II. Umummiy o`rta ta`lim muassasalari boshlang`ich sinf darsliklari (1-4-sinflar)** **BIRINCHI SINF**

1. M. G’ulomov. Yozuv daftari. Toshkent, Ma’naviyat. 2016.
2. M.Ahmedov N.Abdirahmonova. Matematika daftari. Toshkent Ma’naviyat.2016.
3. R.Safarova M.Inoyatovaa M.Shokirova L.Shermatova. Alifbe kitobi. Toshkent Ma’naviyat. 2016
4. T.G’afforova , E.Shodmonov, G.Eshturdiyeva. O’qish kitobi. Toshkent ,Sharq 2016.
5. T.G’afforova , E.Shodmonov, X. G’ulomova. Ona tili. Toshkent ,Sharq. 2016.

6. M.Ahmedov, N.Abdurahmonova, M.Jumayev. Matematika. Toshkent, Turon-Iqbol. 2016.
7. O.Hasanboyeva, M.Inoyatova. Odobnama. Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”Davlat ilmiy nashriyoti. 2016.
8. N.Mamadinova, M.Ahmedova. Atrofimizdagi olam. Toshkent, O'zbekiston. 2016.
9. I.Mannopova, R.Mavlonova, N.Ibragimova. Mehnat ta'limi. Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”Davlat ilmiy nashriyoti. 2016.
10. Rahim Hasanov Tasviriy san'at. Toshkent, G'afur G'ulom. 2016.
11. H.Nurmatov, N.Norxo'jayev. Musiqa. Toshkent, G'afur G'ulom.
12. K.Mahkamjonov, F.Xo'jayev. Jismoniy tarbiY. Toshkent, O'zbekiston. 2016.
13. M.Irisqulov, S.Xan, L.Kamalova, K.Inogamova, N.Hakimxodjayev, O.Kartavsova, D.Yusupova, M.Qayumova. Kid's English. Toshkent, O'zbekiston. 2016.

### **IKKINCHI SINF**

1. 18. T.G'afforova , Sh.Nurullayeva, Z.Mirzahakimova. O'qish kitobi. Toshkent ,Sharq. 2016.
2. K.Qosimova, S.Fuzailov, A.Ne'matova. Ona tili. Toshkent, Cho'lpon. 2016.
- 3.. N.Abdurahmonova, L.O'rino boyeva. Matematika. Toshkent ,Yangiyo'l poligraf servis. 2016.
- 4.. O.Hasanboyeva, M.Inoyatova, A.Ne'matova. Odobnama. Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”Davlat ilmiy nashriyoti. 2016.
- 5.. P.G'ulomov, Sh.Mirzaxmatova. Atrofimizdagi olam. Toshkent, Cho'lpon. 2016.
6. M.Isoqova, R.Hasanov, B.Haydarov, A.Sulaymonov, S. Jumaniyozova, A.Roziqov. Tasviriy san'at. Toshkent, Cho'lpon.
- 7.. H.Nurmatov, N.Norxo'jayev. Musiqa. Toshkent, G'afur G'ulom. 2016.
8. K.Mahkamjonov, F.Xo'jayev. Jismoniy tarbiY. Toshkent, O'zbekiston. 2016.
- 9.. S. S.Xan,L.H..jo'rayev, K.A..Inogamova, O.N. Maxsudova. Kid's English. Toshkent, O'zbekiston. 2016.
10. X.R.Sanaqulov, D.P.Xodiyeva, A.R.Sanakulova. Mehnat. Toshkent ,Sharq. 2016.
11. Z.X.Abduraimova. Rus tili. Toshkent, O'zbekiston.

### **UCHINCHI SINF**

1. M.Umarova, X.Hamroqulova, R.Tojiboyeva. O'qish kitobi. Toshkent ,O'qituvchi.
2. S.Fuzailov, M.Xudoyberganova, Sh.Yo'ldosheva. S.Fuzailov, M.Xudoyberganova, Sh.Yo'ldosheva. Ona tili. Toshkent ,O'qituvchi.

3. S.Burxonov, O'.Xudoyorov, Q.Norqulova. Matematika. Toshkent ,Sharq 2016.
4. M.Xoliqova, Sh.Ergasheva. Odobnoma. Toshkent ,Yangiyo'l poligraf servis. 2016.
5. Akbar Bahromov, Sh.Sharipov, M/Nabiyeva. Tabiatshunoslik. Toshkent, Cho'lpon. 2016.
6. M.Isaqova, R .Hasanov,B.Haydarov, A.Sulaymonova, S.Jumaniyozova, B.Azimov. Tasviriy san'at. Toshkent ,Yangiyo'l poligraf servis. 2016.
7. H.Nurmatov, N.Norxo'jayev. Musiqa. Toshkent, G'afur G'ulom. 2016.
8. K.Mahkamjonov, F.Xo'jayev. Jismoniy tarbiY. Toshkent, O'qituvchi. 2016.
9. N.I.Sergeeva, O.A. Korchuganova. Rus tili. Toshkent ,Yangiyo'l poligraf servis. 2016.
10. X.R.Sanaqulov, D.P.Xodiyeva, A.R.Sanakulova. Mehnat. Toshkent ,Sharq. 2016.
11. S. S.Xan,L.H..Jo'rayev, K.A.Inogamova. Kid's English(Pupils book). Toshkent, O'zbekiston. 2016.
12. S. S.Xan,L.H..Jo'rayev, K.A.Inogamova. Kid's English(Work book). Toshkent, O'zbekiston. 2015.

### **TO'RTINCHI SINF**

1. S.Matchonov, A.Shojalilov, X.G'ulomova, Sh.Sariyev, Z.Dolimov. O'qish kitobi. Toshkent ,Yangiyo'l poligraf servis. 2015.
2. R.Ikromova , X. G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, D.Shodmonqulova. Ona tili. Toshkent ,O'qituvchi. 2015.
3. N.U.Bikbayeva , E.Yangaboyeva, K.M.Girfanova. Matematika. Toshkent ,O'qituvchi. 2015.
4. M.Xoliqova, Sh.Ergasheva. Odobnoma. Toshkent ,Yangiyo'l poligraf servis. 2015.
5. Akbar Bahromov. Tabiatshunoslik. Toshkent, Sharq. 2015.
6. I.A.Mannopova, R.A.Mavlonova, N.R.Ibragimova. Mehnat ta'llimi. Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"Davlat ilmiy nashriyoti. 2015.
7. Asqarali Sulaymonov, Islomjon Rahmonov, Zilol Sulaymonova. Tasviriy san'at. Toshkent, Sharq. 2015.
8. Oqilxon Ibrohimov. Musiqa. Toshkent, G'afur G'ulom. 2015.
9. K.Mahkamjonov, F.Xo'jayev. Jismoniy tarbiY. Toshkent ,O'qituvchi. 2015.
10. M.M.Karimova, G.M.Mamatiseyeva. Rus tili. Toshkent, O'zbekiston, 2015.